


FAN VA
TEKNOLOGIYALAR

ISBN 978-9943-990-56-2



9 789943 990562

X.K. TURSUNOV,
M.U. UMAROV,
SH.D. OCHILOV

QISHLOQ AHOLI
PUNKTLARINI REJALASHTIRISH

911.34(045)

**X.K. TURSUNOV, M.U. UMAROV,
SH.D. OCHILOV**

QISHLOQ AHOLI PUNKTLARINI REJALASHTIRISH

TOSHKENT



911.37(075)

T-91


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

X.K.TURSUNOV, M.U.UMAROV, SH.D.OCHILOV

**QISHLOQ AHOLI PUNKTLARINI
REJALASHTIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi tomonidan talaba va magistrantlar uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2015



UO'K: 911.37 (075)
KBK 60.7
T-91

T-91 **X.K.Tursanov** M.U.Umarov, Sh.D.Ochilov. Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish. –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 328 bet.

ISBN 978-9943-990-56-2

O'quv qo'llanma agrosanoat integratsiyasi rivojlangan sharoitda qishloq aholi punktlarini rejalashtirish muammosiga bag'ishlangan. Materialni yoritish metodikasi mufassal harakarga ega: ushbu muammoning yechimlari aholini joylashtirish tuzimlari, qishloq aholi punktlarining rejayviy tuzilmalari, qishloq aholi punktlarining tuzilmaviy elementlari darajasidagi o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Qishloq aholi punktlarini, hududning me'moriy-rejayviy tashkillashtirish (HMRT), qishloq fuqarolar yig'ini tuzilmalari faoliyati doirasida loyihalashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Undan tashqari, qishloq fuqarolar yig'ini hududini me'moriy-rejayviy tashkillashtirish bo'yicha materiallarga ham alohida to'xtalib o'tilgan.

O'quv qo'llanma arxitektura ixtisosi bo'yicha tahsil olayotgan talaba va magistrantlar uchun mo'ljallangan. Axborot materiali sifatida qishloq joylar qiyofasini o'zgartirish masalalari bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Учебное пособие посвящено проблеме архитектурно-планировочной организации сельских населенных пунктов Узбекистана в условиях развития агропромышленной интеграции. Методика раскрытия материала имеет сквозной характер: раскрыты особенности решения этой проблемы на уровнях систем расселения, планировочных структур сельских населенных пунктов; структурных элементов сельских населенных пунктов. Особый упор сделан на проектирование сельских населенных пунктов в рамках Архитектурно-планировочной организации территории (АПОТ) функционирования в структурах сельских сходов граждан.

Особый упор сделан на раскрытие материала по Архитектурно-планировочной организации территории схода сельских граждан.

Text book is covers the problem of architectural-planning organization of rural communities of Uzbekistan in condition of developing of agro-industrial integration. Methodology of material disclosure has an end-to-end nature: disclosed features of solution of this problem on the level of the system settlement, planning structures of the rural communities; structural elements of rural communities. Special emphasis on projecting rural communities in accordance to the Architectural-planning of organization of the territory (APOT) functioning in structural rural people gathering.

Special emphasis on disclosing the material according to Architectural-planning organization of territory of the rural people gathering.

Toshkent arxitektura qurilish instituti va Samarqand Davlat arxitektura qurilish institutining qo'shma ishlar rejasiga muvofiq nashr etilmoqda.

UO'K: 911.37 (075)
KBK 60.7

Taqrizchilar:

Q.H.Muhamedjanov – arxitektura fanlari nomzodi, professor;
M.K.Mirzayev – arxitektura fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-990-56-2

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

KIRISH

Aholining, ayniqsa, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholining sharoitlarini yaxshilanishi respublikamizning agrar sektorida jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir etilishini nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mazkur muammoga doimo jiddiy e'tibor qaratib kelgan va shuning uchun ham 2009 yilning «Qishloq rivojlanishi va farovonligi yili» deb e'lon qilinishi bejiz emas¹. Alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan amallarning mazmun-mohiyati va eng muhim yo'nalishlari qabul qilingan Davlat dasturida aniq va ravshan belgilab bergan. Dasturdagi «alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan navbatdagi eng muhim vazifa – qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir»².

Bu dasturni amalga oshirish uchun bugungi kunda iqtisodiyotning agrar sektori rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator kamchiliklarni, xususan, qishloq hududlarida aholi joylashtirilishining shakllanib ulgurgan strukturasidagi mavjud kamchiliklarga (aholining siyrak joylashishi, yoyilganlik, aholi punktlarining bir-birlaridan va qishloqlararo industrial va madaniy markazlardan uzoqda joylashganligi) barham berish lozim. Mehnat resurslaridan oqilona bo'lmagan tarzda foydalanish qishloq hududlaridagi ishlab chiqarishning texnikaviy, texnologik va tashkiliy darajasini o'shish bo'yicha samaradorlik pasayishiga sabab bo'lmoqda; qishloq hududlaridagi kichik aholi punktlarining son jihatdan ko'pligi xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishini cheklab qo'ymoqda; aholi punktlarining yakkalanib qolganligi va markaziy shaharlardan uzoqda joylashganligi xo'jaliklararo

¹ «Qishloq hayoti» gazetasi, 2008, 6dekabr. (147-148). - 1-bet.

² I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent: «O'zbekiston», 2009. - 41-bet.

hamda tarmoqlararo kooperatsiya jarayonlarining sust borishiga, qishloq aholisining shahar madaniyati va shahar turmush tarziga moslashish imkoniyatlari pasayishining asosiy sababchisi sifatida e'tirof etilayotgani sir emas.

Yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etilishi mehnat resurslaridan foydalanish doirasining kengaytirilishini, xizmat ko'rsatish sohasining shahar madaniyatiga xos bo'lgan ilg'or standartlarga asoslangan shaklda taqdim etilishini, yuqori darajadagi umumiy va professional ta'lim olish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar yaratilishini, bo'sh vaqtdan oqilona tarzda foydalanishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham, funksional ravishda yo'naltirilgan aholi punktlarining Respublikaning qishloq hududlarida maqsadli ravishda rivojlantirilishi ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishi va aholi joylashtirilishini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar sirasiga kiradi. I.A.Karimov ham ana shu jihatlariga urg'u bergan holda, xususan, quyidagi: «Qishloqni yangilash va qayta qurish chora-tadbirlari tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani jadal rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega. Bu hozirgi agrar siyosatning g'oyat muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Kommunal va muhandislik tizimlarining keng tarmog'ini yaratsak, qishloqda yashovchilarning ijtimoiy hayotini tubdan yaxshilasakkina butun qishloq xo'jaligini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, unga industrial tus berish mumkin.» - degan fikrni aytib o'tadi. Shu bilan birga qishloqning eng dolzarb muammolaridan biri, ya'ni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi ortiqcha mehnat resurslarining industrial sohalarga, servis va maishiy xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilinish masalasi hal qilinadi»¹.

Ana shu masalalarning hal qilinishida shaharsozlik faoliyatiga katta ahamiyat beriladi, sababi hayot faoliyati va fazoviy shakllarning uyg'unligi, ularning o'zaro muvofiq va monand bo'lishi aynan shaharsozlik vositalari yordamida amalga oshiriladi. Shaharsozlikning ana shunday ijtimoiy-iqtisodiy bog'liqligi va amaliyligi qishloq aholisini joylashtirishda inson uchun zarur bo'lgan yashash sharoitlarining yirik hududiy tuzilmalar miqyosida yo'lga qo'yilishida, tartibga solinishida ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Aholi punktlari tarmoqlarining joylashtirish tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan

¹I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlar chuqurlashtirilishi yo'lida. T. -«O'zbekiston». 1995. - 68-69-betlar.

rivojlantirilishi respublikada aholini joylashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning zamonaviy konsepsiyalari uchun asos bo'lib xizmat qilishi zarur. Tizimli ravishda tashkil etilgan ushbu jarayon aholi joylashtirilishida shahar va qishloq o'rtasida mavjud bo'lgan tafovutni bartaraf qilinishining yangi yo'llarini belgilash uchun imkoniyat yaratib beradi.

Aholini joylashtirish bir martalik tadbir emas, aksincha, uzluksiz davom etuvchi va o'z mohiyatiga ko'ra ancha murakkab bo'lgan majmuaviy jarayondir. Ishlab chiqarish va aholining yashash sharoitlarini jadal sur'atlarda rivojlanishi o'zgarishlar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarning uzluksiz bo'lishini talab etadi. Aynan shu jadallik, aksariyat hollarda, aholini joylashtirish strukturasiga nisbatan qo'yiladigan talablar tez-tez o'zgarib turishiga hamda ushbu strukturaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning erishilgan darajasiga muvofiq holga keltirishga undaydi. Bu jarayonning murakkab kechishi xususida shuni aytish mumkinki, aholini joylashtirish bo'yicha rekonstruksiyaning ushbu bosqichida qishloq hududlaridagi aholi punktlarining deyarli barchasi qamrab olinadi, bu esa, o'z navbatida ularda amalga oshiriladigan qayta qurish ishlari keng miqyosda o'tkazilishini anglatadi.

Gumanizm ideallariga asoslangan yangi munosabatlar shakllanishining eng muhim yo'nalishlarini belgilamay, shahar va qishloq o'rtasida haligacha mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy tafovutlarni bartaraf etmay turib qishloqni va, umuman, qishloq aholisining turmush tarzini o'zgartirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham shaharsozlikning, ya'ni qurilish va foydalanish nuqtai nazarida qulay va tejamkor qishloq turar-joy uylarini barpo etilishi juda katta ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish hajmlarini sanoat va qishloq xo'jaligiga asoslangan holda oshirilishi aholi punktlarini o'zgartirishdagi ijtimoiy va shaharsozlik jihatlariga chambarchas bog'liqdir. Ushbu muammoni hal etish uchun davlat tomonidan juda katta mablag'lar ajratilmoqda. Ulardan foydalanishning samaradorligi loyihaviy yechimlarning qanchalik oqilona bo'lishi va aniq shart-sharoitlarga qanchalik mos kelishi bilan shartlanib beriladi.

O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan tabiiy, ijtimoiy-demografik va boshqa shart-sharoitlar qishloq qiyofasini o'zgartirish uchun yetarlicha dastlabki shartlarni yaratish imkonini beradi.

O'zbekistondagi qishloq aholi punktlarini rejalashtirish va qurish bo'yicha umumiy masalalar O'zbekiston Respublikasi hamda xorijiy ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlari tomonidan chop etilgan ishlarda keng yoritilgan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda qishloq aholi punktlarini ommaviy loyihalashtirish va qurish, shuningdek o'quv me'moriy loyihalash amaliyotida bunday keng ko'lamli ishlarning o'ziga xos jihatlari yetarlicha hisobga olinmagan. Boshqa mintaqalar uchun oqilona va eng maqbul bo'lsada, O'zbekiston sharoitiga umuman mos kelmaydigan rejalashtirish prinsiplaridan foydalanishga bir qator misollarni keltirish mumkin. Bu holat mamlakatimizdagi qishloq joylarni loyihalashtirish va qurishdagi hududiy o'ziga xosliklarni umumlashtirishga va, natijada, yashash uchun noqulay va me'moriy jihatdan mavhum bo'lgan aholi punktlari qurilishiga olib kelmoqda.

O'zbekistonda qishloq posyolkalarining me'moriy-rejali tuzilmalarini shakllantirish bo'yicha salmoqli va qimmatli tajriba jamlangan. O'tgan o'n yilliklar davomida respublikamizning bir qator yetakchi loyiha tashkilotlari (Uzshaharsozlik LITI, TashZNIIEP, Uzgi proselstroy, Uzagromejxozproyekt, ToshPI, O'zbekiston Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi va uning qurilish va arxitektura bo'yicha viloyat bo'limlari; O'zbekiston fanlar akademiyasi falsafa va huquq institutining sotsiologiya sektori, O'zbekiston FA qishloq xo'jaligi iqtisodi instituti, O'zbekiston FA Arxeologiya instituti, ToshDU, SamDU, TQXIMI va boshqa) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar aholi joylashtirilishini shakllantirish va qishloq aholi punktlarini rejali tashkillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin bu tadqiqotlar O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Agrar universiteti, TAQI, «O'zagrosanoatloyiha» MCHJ, «O'zshaharsozlikLITI» OAJ, SamTAQI kabi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va oliy o'quv muassasalari tomonidan yanada rivojlantirildi.

O'zbekiston Respublikasida bosh loyihaning «donalab» ishlab chiqishdan qishloq fuqarolar yig'ini hududini me'moriy-rejali tashkillashtirish loyihasini (HMRT) kompleksli ishlab chiqishga qaratilgan uzviy ketma-ketlikdagi ishlar olib borilmoqda. Unda qishloq fuqarolar yig'ini hududidagi barcha qishloq aholi punktlarining sxematik bosh rejalari ishlab chiqilib, yer resurslari, uy-joy fondi,

ijtimoiy va muhandislik infratuzilmalardan oqilona foydalanish masalalari hal qilinmoqda.

Lekin, ta'kidlash zarurki, arxitektura va qurilish yo'nalishi bo'yicha ta'lim sohasida yuqorida qayd etilgan jarayonlar yetarlicha yoritilmagan. Bugungi kunda O'zbekistondagi ixtisoslashtirilgan oliy o'quv muassasalarida Hududning me'moriy-rejali tashkillashtirish (HMRT) va qishloq aholi punktlarini me'moriy-rejali tashkillashtirishga bag'ishlangan umumiy va ixtisoslashtirilgan axborot hamda o'quv materiallari yetishmaydi. Zarur materiallar ko'p sonli kitoblar, maqolalar, axborot varaqlari va satrlarida tarqoq holda berilgan, bunday holat axborot yig'ish va uni o'rganishda ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Undan tashqari, bu kabi axborot oqimida talabalar bosh g'oyani ilg'ab olishlari, o'qilgan materiallarni umumlashtirishlari (aksariyat hollarda hajm katta bo'lgani sababli), turli tashkilotlarning axborot tusiga ega hamda ilimiy materiallarini o'zaro bog'lashlarida jiddiy muammolarga duch kelmoqdalar.

Mazkur o'quv qo'llanmasida mavjud materiallarni umumlashtirishga, qishloq posyolkalarini O'zbekiston qishloq fuqarolar yig'ini tuzilmasidagi me'moriy-rejali tashkil etilishining asosiy prinsiplarini aniqlashga harakat qilingan. Bunda TAQI va SamDAQI kabi o'quv muassasalaridagi kurs va diplom loyihalari doirasida talabalar tomonidan bajarilgan ilmiy-eksperimental ishlanmalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Qo'llanmadagi materiallar arxitektura ixtisosi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Axborot materiali sifatida faoliyati qishloqni o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

I bob. QISHLOQ AHOLI PUNKTLARI RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-IQTISODIY DASTLABKI SHARTLARI

1.1 Shakllangan aholi joylashuvining umumiy tavsifi

Turli tipdagi aholi punktlarining, jumladan qishloq aholi punktlarining shakllanishi keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy omillarga asoslangan holda, aholi joylashuvi tizimi rivojlanishining tarixiy jarayonlari doirasida amalga oshadi. Aholining joylashuvi umumiy ko'rinishda quyidagicha ta'riflanadi – aholining geografik makonning muayyan punktlarida hududiy joylashish jarayoni va ushbu jarayon natijasi – aholi soni, bajaradigan vazifalari, rejali tashkil etilishi va qurilishi bilan farqlanuvchi aholi punktlar tarmog'i.

O'zbekistondagi zamonaviy joylashuv tizimi uzoq davr mobaynida davom etgan rivojlanish jarayonida, aholi punktlari soni o'zgarishi, aholining ular orasida qayta taqsimlanishi, ularning o'zaro funksional differensiatsiyasi va integratsiyasi natijasida shakllangan. Respublikadagi aholini joylashtirish tuzilmasini dinamikasi aholi punktlari yanada chuqurroq xo'jalik ixtisoslashuvi bilan tavsiflanuvchi funksional differensiatsiya yo'nalishida kechdi. Shu sababdan, aholining bugungi kundagi joylashuvi ma'muriy-boshqaruv funksiyalarini bajarishiga qarab oddiy va tashkil etuvchi markazlar sifatida shakllangan shaharlar, shahar tipidagi posyolkalar va qishloq aholi punktlari ko'rinishida beriladi. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi o'zidagi aholi punktlari (ham shahar, ham qishloq aholi punktlari) joylashuvining shakllanishi va o'rining o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Quyida aholi joylashuvining o'ziga xos xususiyatlarini umumiy holda ko'rib chiqamiz.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi aholisining soni taxminan 30 million kishini tashkil qiladi. Ta'kidlash lozimki, Respublika ichidagi, tumanlardagi joylashuv va urbanizatsiya darajasi hamda aholi zichligini hududiy taqsimlanishida katta farqlanishlar mavjud: aholining zichligi Navoiy viloyatida 5 kishi/kv.km, Andijon viloyatida 380 kishi/kv.km ni tashkil qiladi. Shu bilan birga aytish lozimki, Respublikaning eng yaxshi o'zlashtirilgan va aholi eng ko'p istiqomat

qiladigan hududlari O'zbekistonning butun maydonining 7-10% ni tashkil qiladi. Bu esa, o'z navbatida, shahar va qishloq aholi punktlaridagi aholi joylashuvida o'z aksini topdi (1.1.1-rasm). O'zbekistondagi shaharlar tarmog'i 234 ta aholi punktlari va 113 ta shahra posyolkalaridan iborat. Qishloq aholi punktlarining soni esa 11,7 mingtani tashkil etadi. Shahar va qishloq aholisining nisbati esa 36,7 va 63,3 foizni tashkil qilib, bu yerda qishloq aholisining soni yuqoriroq ko'rsatkichga egadir.

Respublika hududida joylashuvning bir tekisda bo'lmagani sababli aholi joylashgan hududlardagi shahar va qishloq aholisining taqsimlanishi ham bir xil emas. O'zbekiston hududidagi landshaft-iqlimiy sharoitlar aholi joylashuvidagi xilma-xillikni va uning chiziqli-tugunli tuzilmasi shakllanishini shartlab berdi. Respublikadagi arid iqlim sharoitida aholining joylashuv areallari suv zaxiralari yetarlicha bo'lgan tekisliklar va o'rta tog'li hududlardagi daryo vodiylari, shuningdek tog' oldi hududlarga bog'langandir (1.1.2-rasm).

Joylashuvning eng yirik hududi Farg'ona vodiysi va uning yon atrofida shakllangan bo'lib, u yerda 7 mln.dan ortiq kishi istiqomat qiladi. Aholi punktlarining ushbu mintaqa markazidagi Yozyovon kotlovinasiga nisbatan halqasimon tarzda joylashganligi aholi joylashuvining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu hududdagi shaharlar tarmog'i ancha rivojlangan: 28 ta shahar va 26 shahar turidagi posyolkalar mavjud. Lekin, aholining aksariyat qismi qishloqda yashovchilardan iborat – ular ushbu mintaqa aholisining 69% ini tashkil qiladilar.

Janubiy-g'arbda Sirdaryoga quyiladigan Chirchiq va Ohangaron daryolarining vodiylarida Toshkent mintaqasi joylashgan bo'lib, bu yerdagi aholi soni 4,6 mln. kishini tashkil qiladi. Respublika poytaxti Toshkent shahrining O'zbekiston hududida eksentrik tarzda, ya'ni Qozog'izston bilan chegara yonida joylashgani ushbu mintaqaning o'ziga xos jihatidir. Relyef sharoitlari bo'yicha bu mintaq uchta zonadan iborat: yirik – Chirchiq daryosining vodiysi, o'rta – Ohangaron daryosi vodiysi va kichik, nisbatan avtonom bo'lgan Bekobod zonasi. Bu O'zbekistondagi urbanizatsiya darajasi eng yuqori bo'lgan mintaq hisoblanib, shahar aholisining ulushi 68% ni tashkil qiladi.



1.1.1-rasm. O'zbekiston Respublikasidagi qishloq aholi punktlarining gradatsiyasi



■ Buxoro, Navoiy, Namangan, Toshkent, Farg'ona viloyatlarida - 4-4,9

■ Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida - 5-5,8

■ Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida - 5,9-6,5

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha qishloq aholi punktlarining umumiy soni 11794 ni, o'la tarkibini o'rtacha soni 5 tani tashkil etadi.

1.1.2-rasm. O'zbekiston Respublikasidagi qishloq aholi punktlarining demografik tuzilmalari

Toshkent mintaqasidan janubiy-g'arbiy tomonda, Sirdaryoning chap qirg'og'i bo'yidagi vodiya va janubiy Mirzacho'l kanalining suvi bilan sug'oriladigan cho'l zonalarida katta bo'lmagan Guliston va

Jizzax joylashuv zonalarini shakllangan. Bu yerda qishloq aholisining ulushi (taxminan 70%) salmoqliroqdir.

Zarafshon daryosi havzasi bo'ylab joylashuvning Zarafshon zonasi shakllangan bo'lib, uning asosini urbanizatsiyalashgan hududlar zanjiri: yirik – Samarqand, keyin Navoiy va Buxoro zonalarini tashkil qiladi. Samarqand zonasida rejalashtirish nuqtayi nazaridan nisbatan mustaqil hisoblanuvchi Kattaqo'rg'on, Buxoro zonasida esa – Qorako'l joylashuv guruhlari ajralib turadi. Bu mintaqada ham qishloq aholisining ulushi katta – Samarqand viloyatida 74%, Buxoro viloyatida 70% va Navoiy viloyatida 60%.

Respublika janubidagi Surxondaryo vodiysida joylashuvning ikki guruhidan iborat zona mavjud bo'lib, ularning birida markaz sifatida Termiz, ikkinchisida esa – Denov ko'riladi. Ushbu zonaning o'ziga xos xususiyati, bu Termiz shahrining Afg'oniston bilan chegarada joylashganidir. Aynan shu jihat joylashuv markazi bo'lgan Termizning shaharsozlik nuqtai nazarida rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, bu mintaqadagi aholining aksariyat qismi (80%) qishloqda istiqomat qiladi.

Aholi joylashuvining Qashqadaryo zonasi Zarafshon va Surxondaryo zonalarini bog'lab turuvchi bo'g'in hisoblanib, uning tarkibida ikkita – Qarshi va Shahrisabz guruhlari joylashgan. Birinchi guruhning markazi yirik shahar Qarshi bo'lsa, ikkinchisining markazi – nisbatan katta bo'lmagan Shahrisabz shahridir. Joylashuv tuzilmasidagi aholining katta qismi (75%) qishloqda istiqomat qiladi.

Respublikaning shimoli-g'arbida, Amudaryoning quyi oqimida aholi joylashuvining ikkita: Xorazm va Quyi Amudaryo zonasi shakllangan. Xorazm zonasi Amudaryo bilan ikkita qismga bo'linadi: chap qirg'oqdagi qism, markazi Urganch shahri bo'lgan asosiy guruh va markazi Beruniy shahri bo'lgan o'ng qirg'oqdagi qism. Bu yerdagi aholining katta qismini qishloqda yashovchilar tashkil qiladi – 77%. Quyi Amudaryo zonasidagi shahar va qishloq aholisining ulushlari bir-birlariga deyarli teng.

Aholining alohida mintaqalar va zonalarda joylashuvi bo'yicha keltirilgan tahlildan ko'rinib turibdiki, qishloqda yashovchilarning ulushi shaharliklarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi (Toshkent mintaqasi va Quyi Amudaryo zonasi bundan mustasno). Bu holat respublikada qishloq aholisining shakllangan joylashuvdagi o'ziga xos jihatlarni yanada chuqurroq o'rganishga yo'naltiradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekistondagi qaysi sharoitlar (omillar) aholi joylashuvidagi farqlanishni va uning chiziqli-tugunli tuzilmasini shartlab bergan?
2. Farg'ona vodiysidagi aholi joylashuvining qanday o'ziga xos jihatlari bor?
3. Toshkent mintaqasidagi joylashuvning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
4. Guliston va Jizzax zonalarida aholi joylashuvining o'ziga xos jihatlari qanday?
5. Aholi joylashuvining Zarafshon zonasida qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?
6. Termiz-Denov mintaqasida aholi joylashishining o'ziga xos jihatlari.
7. Aholi joylashuvining Xorazm va Quyi Amudaryo zonalarida qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?

1.2. Qishloq hududlaridagi aholi joylashuvi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston hududida aholi joylashuvi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda respublikadagi qishloq joylarni spetsifik jihatlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishi va aholi soni bilan shartlangandir.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik hududlaridagi yerdan foydalanish tuzilmasida salmoqli o'zgarishlar ro'y berdi. Bu yerda davlat sektori deyarli bekor qilindi va yerdan foydalanuvchilarni kichiklashtirilish jarayoni kechmoqda. Ham dehqonchilik, ham chorvachilik sohalarida fermer xo'jaliklarining soni kun sayin oshib bormoqda.

«Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Yurtimizda fermer xo'jaliklarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalashtirish bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to'la javob beradigan ishonchli tizim va

mexanizmlar shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda»¹.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni kichikilashtirish va markazlashmagan tizimga o'tkazish jarayoni davom etib, ko'p yo'nalishtirishli iqtisodiyot shakllanmoqda.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, respublikaning qishloq joylarida aholini joylashtirishni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, alohida va mustaqil ilmiy mavzu darajasiga ko'tarilgan.² O'zbekistonda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi ustuvor ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, bu masalaga shunchalik katta e'tibor qaratilishini ochiq-oydin e'tirof etmasdan iloji yo'q.

Bugungi kunda mamlakatning 3/5 qismi qishloqlarda istiqomat qiladi va bu ko'rsatkich oxirgi yillarda deyarli o'zgarmay kelmoqda. Shu bilan birga, aholi soni oshishi bo'yicha yetarlicha barqaror bo'lgan ko'rsatkichlarni va aholining aksariyat qismi hududiy jihatdan o'troq ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, qishloq aholisi dinamikasining alohida tipini va O'zbekiston qishloq xo'jaligi hududlaridagi demografik vaziyatning o'ziga yarasha jihatlarini belgilash mumkin (1.2.1-rasm).


So'nggi yillarda tug'ilishlar darajasining biroz pasayishiga qaramasdan (tug'ilishlarning eng yuqori ko'rsatkichi 1991 yilda qayd etilgan), baribir, qishloq aholisining soni ko'payishda davom etmoqda. O'rtacha yillik o'sish 1,7% ni tashkil qilib, bugungi kunda qishloq aholisining umumiy soni 16087,2 ming kishini yoki 25427,9 ming kishidan iborat mamlakat aholisining 63,3% ni tashkil qilmoqda. Samarali iqtisodiy siyosat markazining baholashicha mamlakatimizdagi qishloq aholisi 2010 yilga kelib 17864,9 ming kishiga, 2025 yilda – 20875,0 ming kishiga yetadi. Hisoblangan muddatdan keyin, masalan, 2050 yilda esa 25320,0 mingtani tashkil qiladi. Lekin, respublika aholisining umumiy soniga nisbatan ulushi asta-sekin pasayadi va 57,8% ni tashkil etadi.


Shu bilan birga, qishloq aholi punktlarini shahar tipidagi aholi punktlari tarkibiga kiritilishi hisobiga ularning ulushi kamayib

¹I.A.Karimov.Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va chorolari. Toshkent: «O'zbekiston»,2009. – 18-bet

²Mantiqqa zid bo'lsa ham tan olish kerak - O'zbekistonda qishloq joylardagi aholi joylashuvi urbanistika muammolariga qaraganda kam o'rganilgan.

borayayotganini ham kuzatish mumkin. Masalan, 1959 yilda O'zbekistondagi qishloq aholi punktlarining umumiy soni 17,3 mingtaga teng bo'lgan bo'lsa, 1991 yilda bu ko'rsatkich 12,9 minggacha kamaygan, bugungi kunda esa – 11,7 mingtani tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksiga muvofiq qabul qilingan klassifikatsiyaga ko'ra, respublikadagi 11699 ta qishloq aholi punktlarining yarmidan ko'prog'i, ya'ni 53,3% aholi soni 1000 tagacha bo'lgan kichik qishloq aholi punktlaridan iborat. Ularning tarkibida aholisi 500 tagacha bo'lgan kichik aholi punktlari 3258 tani, ya'ni 52,3% ni, aholisining soni 500 dan 1000 gacha bo'lgan aholi punktlari 2969 tani, ya'ni 47,7% ni tashkil etadi. Aholisi 1 mingdan 3000 gacha bo'lgan qishloq aholi punktlari soni 4281 taga teng bo'lib, ular qishloq aholi punktlari umumiy sonining 36,6% ni tashkil etadi. Aholisi 3000-5000 kishini tashkil etadigan katta posyolkalar soni 890 taga (7,6%) teng. Aholisi 5000 kishidan ko'p bo'lgan yirik qishloq aholi punktlarining soni 301 tani, ya'ni 2,5 foizni tashkil qiladi (1-jadval).





**1.2.1-rasm. Aholining shahar va qishloqdagi joylashuvi
O'zbekiston Respublikasidagi qishloq aholi punktlarining
guruhlanishi**

1-jadval

Qishloq aholi punktlarining guruhlarini		Qishloq aholi punktlarining soni		Qishloq aholi punktlari guruhlaridagi aholining soni	
toifalari bo'yicha	aholi soni bo'yicha (ming kishi)	dona	%	ming kishi	%
yirik	5 dan	301	2,5	1045,7	6,5
katta	ko'proq	890	7,6	1333,3	8,3
o'rta	3 dan 5	4281	36,6	6420,7	39,9
kichik	gacha	6227	53,3	7287,5	45,3
	1 dan 3 gacha				
	1 gacha				
Jami:		11699	100,0	16097,2	100,0

O'zbekistondagi bitta qishloq aholi punktiga o'rtacha hisobda 675 tadan kishi to'g'ri keladi. Lekin, aholisining soni 500 tagacha bo'lgan toifaga kiruvchi qishloq aholi punktlari ko'pchilikni tashkil etadi – ularda qishloq aholisining 1/3 qismidan ko'prog'i istiqomat qiladi. Bu shundan dalolat beradiki, bitta qishloq aholi punktiga to'g'ri keladigan aholi sonining yuqorida qayd etilgan o'rtacha ko'rsatkichi toifasi yuqoriroq bo'lgan aholi punktlarida yashovchilar hisobiga shakllanadi.

Respublikaning alohida viloyatlari bo'yicha qishloq aholi punktlarining o'rtacha gavjumligida sezilarli farqlanishlarni kuzatish mumkin. Misol uchun, agar Farg'ona viloyatida bu ko'rsatkich 944 kishini, Surxondaryo viloyatida – 984 kishini, Andijon viloyatida – 1065 kishini, Namangan viloyatida – 1207 kishini tashkil qiladigan bo'lsa, Buxoro viloyatida va Qoraqalpog'iston Respublikasida mos ravishda 285 va 367 kishiga teng. Bunday holat xo'jalik yuritish obyektlari va aholi joylashuvida hududlar bo'yicha sezilarli farqlanishlar mavjudligidan dalolat beradi.


Ta'kidlash lozimki, O'zbekistondagi yirik (aholisi 5000 dan ortiq bo'lgan) qishloq aholi punktlarining soni MDH ning Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda ko'proq bo'lib, ularning soni 300 dan oshib ketgan (2-jadval). Bunday aholi punktlarida yashovchilarning soni shahar tuzilishi bo'yicha O'zbekiston uchun belgilangan me'yordan ortiqdir. Shaharlar tarmog'ini to'ldirishda muhim o'ringa ega bo'lgan bunday qishloq aholi punktlari shaharlardagi yirik sanoat obyektlarining filiallari, shuningdek agrosanoat komplekslari va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini joylashtirish uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy va shaharsozlik asoslarini yaratib beradilar.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, qishloq aholi punktlarining umumiy tarkibida kichik, aksariyat hollarda o'zidan o'zi va bosh rejasiz paydo bo'lgan aholi punktlari eng yomon ahvoldalar. Ular aholiga xizmat ko'rsatish uchun zarur ijtimoiy-maishiy sharoitlarga ega emaslar. Bunday qishloq aholi punktlarida muhandislik ta'minoti eng past darajada, obodonlashtirish deyarli amalga oshirilmaydi, aholiga kundalik xizmat ko'rsatish muassasalari: maktabgacha maktab ta'limi obyektlari, tibbiy muassasalar, savdo shaxobchalari, kommunal-maishiy vazifalar uchun mo'ljallangan obyektlar qurilmaydi. Bu esa ularni qayta o'zgartirish bo'yicha radikal choralar ko'rilishini tadab etadi.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlaridagi qishloq aholi punktlarining aholi soni bo'yicha miqdoriy tarkibi

2-jadval

t/r	Viloyatlar	Qishloq aholi punktlarining soni	Shu jumladan aholisining soni quyidagicha bo'lgan				
			100 dan 500 kishigacha	500 dan 1000 kishigacha	1000 dan 3000 kishigacha	3000 mingdan 5000 kishigacha	5000 ming kishidan ortiq
1	Andijon	581	48	77	291	106	59
2	Buxoro	1422	572	434	380	30	6
3	Jizzax	568	217	148	143	39	21
4	Qashqadaryo	1159	225	341	473	86	34
5	Navoiy	497	180	162	116	25	14
6	Namangan	507	35	58	244	107	63
7	Samarqand	1938	632	607	597	88	14
8	Surxondaryo	855	111	195	445	88	16
9	Sirdaryo	274	55	71	106	35	7
10	Toshkent	992	241	263	389	83	16
11	Farg'ona	1155	155	286	581	107	26
12	Xorazm	556	73	107	275	80	21
13	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1195	714	220	241	16	4
	O'zbekiston Respublikasi	11699	3258	2969	4281	890	301




Qishloq aholi punktlarining joylashish va hududiy mujassamligining o'ziga xos jihatlari, ularda istiqomat qiluvchi aholining zichligi qishloq hududlardagi aholi joylashuvi bo'yicha alohida turlar ajratilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi: voha va tog' oldi vodiylardagi zich joylashuv (tog'-vodiy joylashuvi); yaylov chorvachiligi hamda dehqonchilik rivojlangan hududlardagi joylashuv; asosan yaylov chorvachiligi rivojlangan hududlardagi joylashuv va tog'li hududlardagi joylashuv.

Umuman olganda, qishloq aholisining ushbu joylashuv turlari bugungi kunda ham saqlanib qolgan, lekin ularning har birida sezilarli sifatiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, vohalarda shahar va qishloq aholi punktlarining o'zaro bog'liqlikdagi rivojlanishi va joylashuvning integrallashgan tizimlarining shakllanish jarayoni tezroq kechmoqda, cho'lli hududlarda esa yondosh yerlarni o'zlashtirish asnosida joylashuvning mahalliy o'choqlari yaratilishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Sug'orish va yerga ko'p ishlov berish bilan bog'liq dehqonchilik yuritiladigan vohalardagi aholi joylashuvi keng tarqalgan hisoblanadi. Bunda aholi zichligining yuqori darajasini, azaldan suv resurslariga boy hududlarda joylashib kelgan shahar va yirik qishloq aholi punktlarining mavjudligini kuzatish mumkin. Bunday hududlardagi aholi punktlari, odatda, daryolar chiqishi konusida, daryolarning tog'lardan tekislikka chiquvchi joylarida, irrigatsiya kanallarining bo'ylarida joylashadi (1.2.2-rasm).

Sug'oriladigan yerlardagi dehqonchilik hududlarida joylashuvning o'ziga xos turi shakllangan. Bu yerlarda tumanlar bo'yicha ishlab chiqilgan rejalashtirish sxemalari asosida «tep-tekis joylarda» iyerarxiya darajasi turlicha bo'lgan posyolkalar qurilgan bo'lib, u joylardagi aholi va aholi punktlarining zichligi, eski o'zlashtirilgan hududlardan farqli o'laroq, aytarli yuqori emas. Shu bilan bir qatorda, tog' oldi hududlarida uzumchilik, bog'dorchilik va lalmikor dehqonchilik uchun o'zlashtirish ishlari ham olib borildi. Shuning

¹Vohadagi joylashuv uch turga bo'linadi: intensiv sug'oriladigan yerlardagi dehqonchilik hududlaridagi yirik miqyosli joylashuv; intensiv sug'oriladigan va lalmikor yerlardagi dehqonchilik hududlardagi joylashuv; sug'oriladigan yerlardagi dehqonchilik bilan cho'l-yaylov chorvachiligi yuritiladigan hududlardagi joylashuv. G.R.Asanov. Namangan viloyatidagi qishloq aholisining joylashuvi. – Toshkent, 1975. – 101-bet.



1.2.2-rasm. Joylashuvning aholi zich bo'lgan areallari

uchun ham bu hududlarda aholi zichligi va, muvofiq tarzda, qishloq aholi punktlaridagi aholi gavjumligi ma'lum darajada ortib bordi. Xo'jaliklari asosan chorva mollarini yaylovda boqishga ixtisoslashgan tog'li va cho'l hududlarida boshqacha vaziyat kuzatiladi. Cho'l hududlarida doimiy aholi punktlari uchun joyning tanlanishi ko'p jihatdan yer osti suvlaridan foydalanish imkoniyatlariga, tog'li hududlarda esa – qurilish uchun qulay maydonlar va shaxsiy tomorqada xo'jalik yuritish uchun yer uchastkalariga bog'liq. Tog'li hududlardagi qishloq aholi punktlari, aksariyat hollarda, tog'lar orasidagi tor daralarda yoki katta bo'lmagan daryolar bo'yida, «jiyak» shaklida joylashadilar. O'zbekiston maydonining katta qismini qamrab oluvchi cho'l-yaylov hududlaridagi aholi joylashuvi aholi punktlarining siyrakligi va aholi zichligining kamligi bilan ajralib turadi. Bir-biridan ancha uzoq masofada joylashgan aholi punktlari chorvachilik komplekslari va tog' sanoati korxonalarining markazlari sifatida xizmat qiladi.

Aholi zichligining ortishi O'zbekistondagi qishloq aholisi o'sishi-ning bevosita natijasidir. Bu holat, ayniqsa, dehqonchilik sug'oriladigan yerlarda yuritiladigan hududlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Toshkent viloyatidagi qishloq aholisining zichligi 1 kv.km. ga 80 kishini tashkil qilsa, Toshkent (qishloq) tumanida – 484 kishiga teng.

Aholi punktlari, aksariyat hollarda, daryolar vodiylarining eng yaxshi o'zlashtirilgan qismlarida, odatda, tog'lardan tekislikka chiqish joylarida paydo bo'lganlar. Bunday yerlarda aholi punktlarini joylashtirish uchun juda qulay bo'lgan «chiqish konuslari» bo'lib, ular «oqim» effektini yaratib, yelpig'ich ko'rinishidagi joylashuvni hosil qilganlar

Farg'ona vodiysidagi ba'zi tumanlarida ham aholi zichligi ancha yuqori. Umuman olganda, respublikaning turli mintaqalaridagi aholi zichligi turlicha: Farg'ona vodiysi, Toshkent va Xorazm vohalarida har 1000 kv.km. uchun 60 va undan ortiq aholi punktlari to'g'ri keladi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida bu ko'rsatkich ancha past (1.1-rasmga qarang).

Bunda aholi zichligi va aholi punktlari tarmog'i zichligi o'rtasida aniq bog'liklar kuzatiladi. Bu bog'liqliklarning xususiyati aholi joylashuvining hududiy tashkil etilishi va xo'jaliklar konsentratsiyasidagi o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Misol uchun, aholi zichligining va aholi punktlar tarmog'i zichligining yuqori

darajalari (masalan, Farg'ona vodiysi viloyatlarida) maydonlar to'liq o'zlashtirilganini anglatadi – bunday holat intensiv ravishda sug'oriladigan yerlarda yuritiladigan dehqonchilik keng tarqalgan vohalarga xos. Qishloq aholi punktlarini aholi zichligining past darajasi bilan shartlangan siyrak joylashuvi (tog'li va cho'l zonalarida) aholi va ishlab chiqarishning markazlashgan (o'choqli) joylashtirilishi bilan izohlanadi. Kam uchraydigan, lekin ancha yirik qishloq aholi punktlarining mavjudligini esa, kam sonli qulay joylashuv areallaridagi aholi va ishlab chiqarish obyektlari konsentratsiyasi bilan tushuntirish mumkin.

Aholi va qishloq aholi punktlari joylashuidagi zichlikning tahlil natijalari qishloq hududlaridagi aholining joylashuvi uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Bunda aholi punktlari orasidagi o'rtacha masofa bilan bu aholi punktlarida yashovchi aholi zichligi alohida ahamiyatga ega. Masalan, Andijon viloyatida qishloq aholi punktlari orasidagi o'rtacha masofa 2,1 km ni, Farg'ona viloyatida – 2,4 km ni, Xorazm viloyatida – 3,1 km ni, Toshkent va Namangan viloyatlarida – 3,7 km ni tashkil qiladi. Sanab o'tilgan viloyatlardagi qishloq aholi punktlarining o'rtacha kattaligi mos ravishda 2505, 1690, 1797, 1530 va 2486 ga teng. Bu viloyatlar qishloq aholisi joylashuvining yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Bu holat, o'z navbatida, shaharlarning rivojlangan tarmog'i mavjud bo'lganida, integrallashgan qishloq-shahar joylashuvi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, agroiklim va boshqa sharoitlarga, shuningdek turli tumanlarning ixtisoslashishiga bog'liq ravishda O'zbekistonning qishloq joylaridagi aholi joylashuvining har-xil turlari shakllandi. Biroq, qishloq aholisi sonining o'sishi va uning migratsiyaga moyilligining past darajasi, garchi qishloq joylardagi xo'jalikning ko'p mehnat talab qiluvchi tarmoqlarini rivojlantirish uchun ayrim dastlabki shartlarni yaratib bersada, baribir, qishloqdagi urbanizatsion jarayonlar kuchayishiga va joylashuvning hududiy tuzilmalari takomillashtirilishiga yetarlicha ta'sir ko'rsatmaydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, respublikaning qishloq xo'jalik hududlaridagi aholi joylashuvi shakllanishidagi o'ziga xos jihatlar aholi punktlarining kelgusida turli tip hamda iyerarxiya darajasiga ega joylashuv tizimlarini shakllanishiga qaratilgan rivojlanishida mavjud bo'lgan real tendensiyalarni inobatga olish zarur ekanligini

ko'rsatadi. Ushbu jarayon negizida qishloqdagi ishlab chiqarish kuchlarining hududiy jihatdan oqilona tashkil etilishi, shahar va qishloq aholi punktlarini o'zaro bog'liq ravishda rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib beruvchi ijtimoiy va transport infratuzilmalarini rivojlantirishga asoslangan aholi punktlarining integratsion potensialini oshirish kabi vazifalar yotishi lozim. Bu, o'z navbatida, mintaqaviy joylashtirish asoslarini va uning shaharsozlik potensialini kuchaytirish, shuningdek O'zbekistonning qishloq hududlaridagi joylashuv areallarida turmush kechirish makonlarini istiqbolli tashkil etilishi uchun asoslarni shakllantirib beruvchi eng muhim elementlarni aniqlash imkoniyatini yaratib beradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng uning qishloq xo'jalik hududlaridagi yerdan foydalanish tuzilmasida qanday muhim o'zgarishlar ro'y berdi?
2. O'zbekistonning qishloq hududlaridagi turli joylashuv tizimlari qaysi sharoitlarga bog'liq ravishda shakllangan?
3. Qishloq aholisi dinamikasining qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud va O'zbekistonning qishloq xo'jalik hududlaridagi demografik vaziyat uchun qaysi jihatlar xos?
4. O'zbekistondagi qishloq aholi punktlari sonining so'nggi yillarda barqaror kamayib borishi qaysi sabablarga ko'ra sodir bo'lmoqda?
5. O'zbekistondagi qishloq hududlarda joylashuvning har xil turlarga ajratilishi negizida qaysi sabablar yotadi?
6. Vohaga xos joylashuvning qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?
7. Markazlashgan (o'choqli) joylashuvning qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?
8. Aholi zichligi va aholi punktlari tarmog'ining zichligi o'rtasidagi bog'liqlik qaysi jihatlarini aks ettiradi?
9. O'zbekistondagi integrallashgan qishloq-shahar joylashuvini shakllantirish uchun asosni qaysi omillar yaratadi?

1.3. Aholining zamonaviy joylashtirilishi tuzilmasidagi qishloq aholi punktlari

Yuqorida qayd etilganidek, O'zbekistondagi zamonaviy joylashtirish tuzilmasi elementlari ichida eng ko'p sonli guruhni qishloq aholi punktlari tashkil etib, bugungi kunda ularning umumiy soni deyarli 11,7 mingtaga yetgan. Ishlab chiqarish obyektlari va aholining aksariyat qismi yirik shaharlarda jamlangan bo'lsada, respublika tabiiy resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni mustahkamlash va qishloq hududlarda sanoat obyektlarini joylashtirish, dam olish va turizmning umumrespublika tizimini shakllantirish, transport va aholi punktlari o'rtasidagi kommunikatsiyalarni rivojlantirish, shahar va qishloq aholisining turmush sharoitlari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish kabi iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilinishi qishloq aholi punktlarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Qishloq aholi punktlarining Respublikada mavjud bo'lgan umumiy joylashuv tuzilmasida faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlarni tavsiflashdan avval shahardan tashqaridagi hududlar, ya'ni qishloq joylar, qishloq aholisi va qishloq aholi punktlari funksiyalarining spetsifikasi bilan bog'liq ayrim tushunchalar bo'yicha aniqlashtirishlarni berish lozim.

Demak, «qishloq joylar» atamasi shaharning rasmiy chegaralari tashqarisida joylashgan va u yerda nafaqat yoyilgan holdagi ommaviy ishlab chiqarish funksiyalari, balki jamiyat a'zolarining ruhiy va jismoniy kuchlarini keng miqyosda tiklash vaziflari ham amalga oshiriladigan hududlarga nisbatan ishlatiladi.

«Qishloq aholisi» atamasi deganida bu sharoitlarda nafaqat o'ziga xos ishlab chiqarish funksiyalari bilan band bo'lgan jamiyatning bir qismi, balki sog'lomlashtirish maqsadlarida va emotsial hamda stressli yuklamalardan xoli bo'lish uchun vaqtlarining ko'p qismini qishloq joylarda o'tkazadigan kishilar ham tushuniladi.

«Qishloq aholi punkti» atamasi, birinchi navbatda, aholi punktini hududiy tuzilmadagi joylashishini tavsiflab beradi va joylashuvning periferiyasiga taalluqli ekanini anglatadi, bu holat istiqomat qiluvchi aholi tarkibi, ularning gavjumligi, aholi punktlari o'rtasidagi aloqalarning intensivligi va mazmunida aks ettiriladi.

«Qishloq» tushunchasi umumiy ta'riflanishga mansub bo'lib, qishloq joylarda yashovchi aholining hududiy tarqoqlashgan va turli shakldagi faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan funksiyalarga ega aholi punktini anglatadi.

«Qishloq aholi punkti» tushunchasining batafsil yoritilishi qishloq aholi punktlarining mavjud turlarini quyidagi tipologik alomatlar asosida guruhlarga ajratishni talab qiladi: mehnat va iste'mol sohalaridagi ustuvor funksiyalar; joylashuv tizimlaridagi o'rni va roli.

Birinchi alomat bo'yicha barcha qishloq aholi punktlari qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritishga ixtisoslashgan, qishloqda joylashgan bo'lsada, qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritishga ixtisoslashmagan va agroindustrial aholi punktlariga ajratiladilar. «Qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritishga ixtisoslashgan» va «qishloqda joylashgan bo'lsada, qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritishga ixtisoslashmagan» aholi punktlari – qishloq aholi punktlarining ishlab chiqarishning qaysi turiga ixtisoslashtirilganini aniqlashtirib beradigan tushunchalardir. Birinchi holatda, bu aholisi asosan qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi punktlari bo'lsa, ikkinchi turdagi qishloq aholi punktlaridagi aholi qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilmaydigan va hududiy jihatdan tarqoq bo'lgan boshqa funksiyalarni (madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish sohasi, rekratsion resurslarga xizmat ko'rsatish, transport xizmatlarini ko'rsatish va h.k.) amalga oshirish bilan shug'ullanadi. «Agroindustrial posyolkasi» degan tushuncha avvalgi turdagi aholi punktlarining asosiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, posyolokaning o'zi qishloq joyda sanoatni, birinchi navbatda, qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarni rivojlantirish asosida shakllantiriladi.

Qishloq aholi punktlarining sanab o'tilgan turlari ikkinchi alomat bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol sohalarida har xil ma'muriy-boshqaruv funksiyalarini bajarishi mumkin. Misol uchun, agroindustrial aholi punktlari, aksariyat hollarda, bir vaqtning o'zida tuman markazi, qishloq yig'ini markazi va qishloq xo'jalik korxonasining markazi funksiyalarini bajaradi. Qishloq xo'jaligini yuritishga ixtisoslashgan aholi punktlari – qishloq xo'jalik korxonalarining markazlari – quyi ma'muriy tumanlar markazi bo'lishlari ham mumkin. Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashmagan aholi punktlari ham, aksariyat hollarda, o'z funksiyalarini tuman markazi funksiyalari bilan birga bajaradilar.

Qishloq aholi punktlari ma'muriy tuman doirasida ichki xo'jalik, birlashma va tuman miqyosidagi tizimlarga birlashtiriladilar.

Ichki xo'jalik tizimini alohida qishloq xo'jalik korxonasi qoshida shakllangan va ijtimoiy-iqtisodiy va shaharsozlik rivojlanishning umumiy jihatlari bilan bog'langan aholi punktlari tashkil etadilar. Ushbu tizimdagi aloqalar eng barqaror, doimiy, qo'p qirrali va intensiv hisoblanadilar.

Birlashma tizimi – bir nechta qishloq xo'jalik korxonalari qoshidagi va qishloq xo'jaligi xomashyosini xo'jaliklararo qayta ishlash, shuningdek joylashuvning muvofiq darajasida aholi punktlari o'rtasida madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish asosida birlashtiriluvchi aholi punktlarining tarmog'idan iborat. Bunda tizim tashkil qiluvchi funksiyalarni ishlab chiqarish bazasi va xizmat ko'rsatish funksiyalari eng rivojlangan markaziy posyolkalardan birini bajaradi.

Quyida ma'muriy tumanlardagi joylashtirish tizimi yanada murakkabroq hududiy majmua bo'lib, undagi funksiyalar, sharoitlar va rivojlanish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Quyida aholi punktlarining hududiy tashkil qilinishidagi joylashuvning lokal ichki xo'jalik doirasidan to umumrespublika miqyosidagi tizimgacha murakkablashib borayotganini aks ettiruvchi sxema keltirilgan (1.3.1-rasm).

Qishloq aholi punktlari rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari nimalardan iborat? Respublikada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida qishloq o'z zimmasiga qaysi funksiyalarni olishi mumkin? Ushbu savollarga javobni qishloq hududlardagi joylashuv tizimi rivojlanishidagi spetsifik jihatlarni hamda yirik shaharlardagi joylashuvga qaraganda afzalliklarini qisqacha tavsiflagan holda javob berishga harakat qilamiz.

Agar, shahar shakllangan kundan boshlab turmush va faoliyatning noyob, tobora murakkablashib borayotgan shakllarini yaratish va jamlash funksiyalarini o'z zimmasiga olgan bo'lsa, qishloq ana shu, shahar sharoitida shakllangan turmush tarzini kengayishi va tarqalishini ta'minlaydi. Shahar uchun an'anaviy hisoblangan funksiyalarni qishloqda qayta taqsimlanishi, birinchi navbatda, istalgan shahar muhitining resurslari cheklangan bo'lib, ijtimoiy faoliyatning faqatgina ma'lum (ham miqdor, ham sifat nuqtai nazarida) turlarining jamlanmasini talafot va yo'qotishlarsiz amalga oshirishni ta'minlay olishi bilan shartlanadi. Shu sababli, zarur resurs-

Joylashuvning iyerarxiya tuzilmasi va joylashuv tizimlarining turli darajalari orasidagi bog'lanishlar modeli	Joylashuvning hududiy darajalari	Joylashuvning muvofiq turlari
	VII	Joylashuvning respublika va viloyatlararo tizimlari
	VI	
	V	Joylashuvning viloyat va tumanlararo tizimlari
	IV	
	III	Joylashuvning tumanlar bo'yicha tizimlari
	II	
	I	

1.3.1-rasm. Joylashuvning hududiy-iyerarxiya darajalari

larni jalb qilgan holda turmush tarzining yangi yo'nalishlari va namunalarni ishlab chiqish, ularni hayotga tatbiq qilish shahar muhitida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. U yoki bu

ko'rinishdagi resurslar hajmi va miqdori yetishmasligi, garchi, o'z ta'sirini o'tkazsada, baribir, har bir funksiyada avvalgi bosqichlarda shakllanib ulgurgan resurslardan foydalanish yo'nalishidan farqlanuvchi, o'ziga xos yangi yo'nalishlarni belgilab berilishi asosiy va hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shahar muhitida faoliyatning noyob va ommaviy turlari o'rtasida o'ziga xos «resursli» ziddiyatlar yuzaga kelishi kuzatiladi.

Bu ziddiyatlarni shaharga xos bo'lgan ba'zi ommaviy funksiyalarni qishloq joylarga topshirish hisobiga bartaraf qilsa bo'ladi. Qishloq joylarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, qishloq xo'jalik korxonalariga texnik xizmat ko'rsatish, qurilish va shu kabilar bilan bog'liq korxonalarni ko'chirish mumkin. Qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan sanoat korxonalari, masalan, yengil, oziq-ovqat va shu kabi sanoat tarmoqlarining shahardagi korxonalarini filiallari va sexlari qishloqda joylashtirilishi ham ehtimoldan xoli emas. Posyolka tashkil qiluvchi funksiyalar qatoriga qishloq aholisiga madaniy-maishiy va kommunal xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha faoliyatni ham kiritish lozim.

Joylashuvning hududiy darajalari:

I – ichki xo'jalik; II - xo'jaliklararo; III - tuman; IV – tumanlararo; V - viloyat (Qoraqalpog'iston Respublikasi); VI – viloyatlararo; VII - umumrespublika

Joylashuv tizimlarining markazlari:

1 – umumxo'jalik; 1A – xo'jalik ichidagi ixtisoslashgan; 2 – xo'jaliklararo;

3 – tuman miqyosidagi ixtisoslashtirilgan; 4 – tumanlararo; 5 – viloyat miqyosidagi kompleks markazlar; 5A – viloyat miqyosidagi ixtisoslashtirilgan markazlar;

6 – viloyatlararo; 7 – respublika miqyosidagi kompleks markazlar; 7A – respublika miqyosidagi ixtisoslashtirilgan markazlar.

A – majburiy tusga ega bog'lanishlar; B – joylashuvni hududiy tashkil qilinishining alohida variantlarida mumkin bo'lgan bog'lanishlari.

Qishloq aholi punktlarining posyolka tashkil qiluvchi bazasini rivojlanish istiqbollari faqatgina noyoblik darajasi turlicha bo'lgan ishlab chiqarish funksiyalarning hududiy differensiatsiyasini chuqurlashib borishi bilan belgilanmaydi. Har bir individning ishlab chiqarishdan tashqaridagi turmush tarzi va hayotini kelgusida makon

bo'yicha sikllarga ajratilishi bilan bog'liq o'zgarishlar ham muhim ahamiyatga ega bo'ladilar.

Shahar, ayniqsa, yirik shahar muhiti insonning nafaqat emotsional dunyosiga, balki uning salomatligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shahar atrof-muhitga ta'sir ko'rsata turib, atrof-muhit tomonidan ko'rsatilayotgan salbiy qayta ta'sirlardan aziyat chekadi. Misol tariqasida shaharsozlik sohasida yuzaga keluvchi ziddiyat va nizolarni keltirish mumkin: yashil o'simliklarning to'satdan nobud bo'lishi, suv resurslarining yetishmasligi, muhandislik-geologik sharoitlarning yomonlashuvi va h.k. Yirik shaharda istiqomat qiluvchilar asab, yurak-tomir, nafas olish yo'llari kabi kasalliklarga qishloq joylardagi aholiga qaraganda 1,5-2,0 baravar ko'proq duchor bo'ladilar. Tabiat va iqtisodiyotning ko'rayotgan talafotlari (buzilgan tabiiy muhitning javob reaksiyalari, tabiatni muhofaza qilishga sarflanayotgan xarajatlar va h.k.) ancha salmoqli miqyosga ega. Aynan shu nuqtai nazardan aholining qishloq joylarda joylashtirilishidagi afzalliklar muqarrar va yaqqol namoyon bo'ladi.

Sanoat, rekreatsiya va ijtimoiy-demografik faoliyatlarning ayrim turlarini topshirish hisobiga qishloq hududlari funksiyalarining kengayishi tabiiy muhitga ko'rsatiladigan salbiy ta'simi oshirishi aniq. Lekin, bu shart-sharoitlarda tabiiy muhitni muhofaza qilish va boyitish bilan bog'liq faoliyatning muayyan turlari qishloq aholisi bajaradigan funksiyalar tarkibini to'ldirib, boshqa tomondan, qishloq aholi punktlarining shahar tashkil qiluvchi bazasi rivojlanishidagi muhim element xizmatini o'tab beradi.

Umuman olganda, qishloq aholi punktlarining katta bo'lmagan o'lchamlari va rejaviy tashkil etilishi ularning shaharlardan afzal jihatlarini belgilab berishini ta'kidlash zarur. Bu yerda quyidagi muhim afzalliklarni sanab o'tish mumkin, demak: inshootlar va ular tomonidan yaratilayotgan hajmlarning insonga mutanosib ekanligi, harakatlanishning asosan piyoda bajarilishi, tabiiy muhitga bevosita yaqinlik va uning elementlarini qishloq posyolkasi tuzilmasi tarkibiga kiritilishi, qishloq aholi punktining tabiiy landshaft bilan mujassamlkdagi umumiy qiyofasining o'ziga xosligi – bularning barchasi aholini shaharlarga xos joylashuvdagi yuqorida sanab o'tilgan muammolarni ma'lum darajada bartaraf qilish va kamaytirish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda va qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash zaruriyatini hisobga olib turib, qishloq aholi punktlarini nafaqat respublika joylashuv tuzilmasidagi eng ommaviy vakillari, balki yirik shaharlar aholisi va qishloq aholisi o'rtasidagi bog'lovchi elementlar sifatida qabul qilib, ularni imkon qadar jadalroq rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. biroq, aholi punktlarining ushbu toifasi uchun ijtimoiy-iqtisodiy potensialni shunchaki oshirishga asoslangan yo'nalish muammolarni to'liq hal qilinishini ta'minlab bermaydi. Obyektiv voqelik joylashuvning ikki – shahar va qishloqqa xos bo'lgan shakllari o'rtasida uzviy bog'lanish va ularning rivojlanishida ma'lum izchillik mavjud ekanidan dalolat beradi. Buning natijasida shahar va qishloq aholi punktlarining funksiyalari o'zaro boyitiladi va to'ldiriladi hamda joylashuvning tizimli ko'rinishlari shakllanadi. Shuning uchun, qishloq aholi punktlari rivojlanishidagi asosiy yo'nalishi, bu o'zaro bog'liq aholi punktlari guruhlarining funksional-tuzilmaviy elementlari orqali shakllanishidan iborat deb qaralmoqda. Bunda qishloq aholi punktlari asosiy, ya'ni agrar-sanoat ishlab chiqarish, hordiq chiqarish, turizm, davolash kabi funksiyalari hisobiga o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini kuchaytirish hamda guruhli joylashuv markazlari bo'lgan shaharlarning yetakchi funksiyalarini to'ldirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qaysi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilinishi qishloq aholi punktlari rivojlanishi bilan bog'liq?
2. «Qishloq joylar» atamasi deganda nimani tushunamiz?
3. «Qishloq aholisi» degan atama nimani anglatadi?
4. «Qishloq aholi punkti» degan atama nimani tavsiflab beradi?
5. «Qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritishga ixtisoslashgan» va «qishloqda joylashgan bo'lsada, qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritishga ixtisoslashmagan» aholi punktlari, «Agroindustrial posyolkalar» tipologik alomatlar bo'yicha qanday ta'riflanadilar: mehnat va iste'mol sohalaridagi ustuvor funksiyalari yoki joylashuv tizimlaridagi tutgan o'rni va roli bo'yichami?
6. Joylashuvning ichki xo'jalik tizimi deganda nimani tushunamiz?

7. Joylashuvning birlashma tizimi degan tushuncha nimani anglatadi?

8. Tuman miqyosidagi joylashuv tizimini ta'riflab bering.

9. Shahar va qishloq o'rtasidagi ziddiyatlarni qaysi asosiy choralarni ko'rish hisobiga bartaraf qilish mumkin?

10. Qishloq aholi punktlarini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalish nimalardan iborat?

1.4. Agrar-sanoat integratsiyasi qishloq joylar urbanizatsiyasi va ulardagi ishlab chiqarish baza mustahkamlanishining omili

Umuman qishloq hududlarni va, xususan, qishloqdagi joylashuv tizimini zamonaviy bosqichda rivojlantirishning eng muhim dastlabki shartlari va omili sifatida agrar-sanoat integratsiyasi xizmat qilishi lozim. Ma'lumki, sanoatning dehqonchilikdan ajratib olinishi muayyan tarixiy davrda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda ulkan ijobiy rolni o'ynagan mehnat taqsimlanishi natijasida ro'y bergan. Aynan mehnatning taqsimlanishi odamlar jamiyati uchun yakka tartibdagi hunarmandchilikka asoslangan ishlab chiqarishdan hozirgi sanoat miqyosidagi ishlab chiqarishga sakrab o'tish imkoniyatini yaratib bergan. Shu bilan birga bizga ma'lumki, mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi qishloq va shaharda istiqomat qiluvchilar mehnatidagi farq va o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgani sababli qishloq aholisi va shahar aholisi turmush sharoitlaridagi farqlanishni yanada chuqurlashtirgan. Bu esa, o'z navbatida, ba'zilarining ma'naviy rivojlanishi va boshqalarning jismoniy rivojlanishi asoslarini baravarlashtirishga olib kelgan.

Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni o'tkazishning hozirgi bosqichida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bilan bir qatorda qishloq xo'jaligini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunday holatni qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq sanoat tarmoqlarining O'zbekistonning bugungi kundagi iqtisodiyotidagi ahamiyati va tutgan o'rnini bilan izohlash mumkin. Iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi va qishloqdagi boshqaruvni tashkil etish tizimining chuqur tahlili asosida ularni tubdan qayta ko'rib chiqish zarurati aniqlandi, natijada agrar-sanoat integratsiya jarayonini kuchaytirish lozimligi belgilab olindi.

Bu esa, o'z navbatida, qishloq joylarning faol urbanizatsiyasiga turtki bo'lib xizmat qilishi ham ayon bo'ldi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov aynan shu holatga urg'u bergan holda, o'z ishlarida quyidagi fikrni ta'kidlagan: «Qishloqdagi boshqaruv tuzilmasini o'zgartirish jarayonida birlamchi qishloq xo'jalik bo'g'ini qanday bo'lishi aniq-ravshan namoyon bo'ldi. Bu — fermer xo'jaliklarini birlashtirib, ularga xizmat ko'rsatuvchi, ularning faoliyatini muvofiq-lashtirib, moddiy-texnik ta'minot, texnik va agrokimyo xizmat ko'rsatish masalalarida ko'maklashuvchi kooperatsiyadir. Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tashkil qilinishining asosi bo'lib xizmat qilishi prinsipial ahamiyatga ega, ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun esa keng tarmoqlangan, kuchli infratuzilma — agrofirmalar, mashina-traktor parklari, ta'mirlash ustaxonalari, tayyorlov punktlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalar va shu kabilar bo'lishi shart». Bunda respublikadagi agrar siyosatning «O'zining yechimi topilishi bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilinishini talab etuvchi strategik yo'nalishi deganda, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari — sanoat va xizmat ko'rsatish sohasiga hozir qishloq xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi qo'llarni jalb qilish ko'zda tutiladi. Shuning uchun qishloq joylarda zamoviy texnologiyalarga asoslangan mobil kichik korxonalarni ochish hisobiga yangi ishchi o'rinlarini tashkil etish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu kabi korxonalar nafaqat qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlashga, balki kasanachilikka asoslangan, ko'p mehnat talab qiluvchi ishlab chiqarishga va xalq hunarmandchiligiga ixtisoslashgan bo'lishi mumkin».

Biroq, tashkiliy jihatdan o'zgarishlar o'tkazilganiga, iqtisodiy imtiyozlar va rag'batlar taqdim etilishiga qaramasdan «xo'jaliklar ichidagi ishlab chiqarish munosabatlari sust o'zgarimoqda, qishloq xo'jaligini samarali faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashish uchun jalb qilingan yondosh tarmoqlar bilan o'zaro aloqalar mexanizmi yaxshi ishlab chiqilmagan» — deb ta'kidlaydi Islom Abdug'anievich. Shuning uchun ham «islohotlarning mazkur bosqichida umuman qishloq xo'jaligi va agrosanoat kompleksida amalga oshiriladigan chuqur o'zgarishlar tuzilmaviy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu o'zgarishlar oziq-ovqat muammosini hal qilishga, qishloq xo'jalik xomashyosini yanada chuqurroq qayta ishlashga va qishloqda ixcham kichik korxonalar tashkil qilinishiga, qishloqdagi

ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, qishloq aholisining turmush darajasini oshirishga qaratilishi lozim». Buning uchun «qayta ishlash tarmoqlarini texnik qayta jihozlash, ularni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, sifatli va raqobatbardosh iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishning to'liq texnologik sikllarini yaratish lozim. Alohida e'tibor eng muhim qishloq xo'jalik ekinlari – paxta, ipak, kanop, meva-sabzavot va uzumchilik mahsulotlarini chuqur qayta ishlanishiga, yengil sanoatning qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'langan ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirishga qaratilishi zarur.»

Agrar-sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish vazifasining dolzarbligi 2009 yil qabul qilingan «Qishloq rivojlanishi va farovonligi yili» Davlat dasturida ham ta'kidlab o'tilgan, xususan, «dasturning asosiy vazifasi – qishloqda sanoat ishlab chiqarishi va qurilishni jadal rivojlantirish, meva-sabzavot va chorva mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan jihozlangan ixcham korxonalarni tashkil etish chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iborat»¹ degan fikrga alohida urg'u berilgan.

Qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarishining uzviy mujassamligi qishloq aholisi faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan hududiy tashkil etilishida ham chuqur sifatiy o'zgarishlarni anglatadi. Avvambor, quyi ma'muriy tumanning joylashuv tarmog'i rivojlanishida tizim tashkil etuvchi tendensiyalar kuchayadi. Agar, ishlab chiqarishni an'anaviy tashkil etilishida qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash sanoati, odatda, shaharlarda jamlanib, xomashyo zonalaridan ajratilgan holda joylashtirilgan bo'lsa, agrar-sanoat integratsiyasi qo'llanilganilgan taqdirda tegishli sanoat potensialining asosiy qismi qishloq joylarga, quyi ma'muriy tuman hududiga ko'chiriladi. Bu mavjud mahalliy ishlab chiqarish markazlarini faollashtiradi va yangilari tashkil etilishini rag'batlantiradi. Bunday aholi punktlari o'ziga xos tizimni yaratib, uning doirasida asta-sekin yangi tipdagi aholi punktlariga aylanib boradilar.

¹¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirilishi yo'lida. T. – «O'zbekiston», 1995. – 218-b.

¹² Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirilishi yo'lida. T. – «O'zbekiston», 1995. – 219-b.

¹³ I.A. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent: «O'zbekiston», 2009. – 38-bet.

Ta'kidlash lozimki, eng salmoqli ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishga hududiy agrar-sanoat komplekslarining markazlari – ko'p funksiyali yirik agroindustrial aholi punktlari ega bo'ladilar. Ular, odatda, o'zlarining tizim tashkil etuvchi ahamiyatlarini kuchaytirilishiga ko'maklashib, kelgusidagi ijtimoiy-demografik rivojlanish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy impulsni ta'minlab va istiqbolda ularning har birini quyi ma'muriy tuman «poytaxti»ga aylanishini shartlab bergan holda tuman markazlari funksiyalarini ham bajarishlari mumkin. Natijada, bu kabi poytaxt va u bilan o'zaro aloqa qiluvchi sobiq avtonom qishloq aholi punktlaridan iborat yaxlit joylashuv tizimi shakllanib boradi. Bunga ko'p jihatdan quyi ma'muriy tumanning tizim tashkil qiluvchi joylashuvlararo aloqalari tuzilmasi va hududiy tashkil etilishidagi o'zgarishlar ko'maklashadi. Bu kabi o'zgarishlar natijasida an'anaviy ishlab chiqarishda tarqoq, ekstensiv va nobarqaror bo'lgan quyi ma'muriy tumanlar agrar-sanoat integratsiyasi sharoitlarida ichki markazlarga yo'naltirilgan, lokal, maksimal intensiv va barqaror birliklarga aylanadilar.

Bu sharoitlarda ishga layoqatli qishloq aholisining bandlik turi bo'yicha taqsimlanishi ham sifat nuqtayi nazarida yaxshi tomonga o'zgaradi. Aholining bir qismi sanoat korxonalarida band bo'lsa, ikkinchi qismi – qishloq xo'jaligi va aholi punktlari o'rtasidagi madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishda mehnat qiladi. Ishga layoqatli aholining bir qismi yilning turli davrlarida ham qishloq xo'jaligida, ham sanoatda ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, ishga layoqatli qishloq aholisining «ortiqcha» qismini bandligi bilan bog'liq muammolarni sezilarli darajada hal qilishga yordam beradi.

Dehqonchilikning sanoat bilan birlashtirilishi, qishloq xo'jalik va sanoatdagi mehnat orasidagi farqlanishlarni asta-sekin bartaraf etilishi agrosanoat integratsiyasining asosiy ilmiy prinsipi hisoblanadi. Qishloqning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini bugungi kundagi asosiy yo'nalishlari, bu xo'jaliklararo kooperatsiya va agrosanoat integratsiyasidir.

M.P.Vasilenko bergan ta'rifga ko'ra, «Agrosanoat integratsiyasi», bu: »yagona xo'jalik organizmida industrial metodlar va vositalar yordamida olib borilayotgan ixtisoslashtirilgan qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarishlarini rivojlantirishning rejali tartibga solinishi, shuningdek ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish va shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi maqsadida

qishloq xo'jalik va sanoatda ishlaydigan odamlar faoliyatini birlashtirish jarayonidir.»

Agrosanoat kompleksi, V.R.Belenkiy ta'rifiga ko'ra, «bu o'zaro birlashgan, lekin tashkiliy va iqtisodiy jihatlardan mustaqil bo'lgan qishloq xo'jalik va sanoat korxonalari.» Aynan shunday tashkiliy birlashmada shahar va qishloq o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy farqlanishlarni bartaraf qilish, bir vaqtning o'zida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish va agrar ishlab chiqarishda ishlovchi mehnatkashlar uchun xuddi shahardagidek va, hattoki, undan ham yaxshiroq turmush va mehnat sharoitlarni yaratish barobarida qishloqni qayta qurish uchun qulay sharoitlar mavjud bo'ladi.

Agar yuqorida keltirilgan ta'rifga asoslanadigan bo'lsak, agrar-sanoat integratsiyasi shakllarining xarakteristikalari, birinchi navbatda, qishloq xo'jalik va sanoatning uzviy birlashishi darajasini aks ettirishlari lozim. Bu talabga quyidagi atamalar to'plami javob beradi: «Agrar-sanoat ishlab chiqarish», «Agrar-sanoat kompleksi», «Agrar-sanoat kombinati», «Agrar-sanoat birlashmasi».

«Agrar-sanoat ishlab chiqarish» atamasi qishloq xo'jalik va sanoat integratsiyasining barcha shakllarini qamrab oladi va ushbu holatda faqat qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarishi mujassamligi amalga oshirilganini anglatadi.

«Agrar-sanoat kompleksi» va «Agrar-sanoat kombinati» atamalari avvalgi tushunchani aniqlashtirib, birinchi holatda qishloq xo'jalik va sanoatning uzviy mujassamligi kooperatsiya aloqalariga, ikkinchi holatda esa – kombinatsiyalanishga asoslanganini anglatadi.¹

«Agrar-sanoat kompleksi» – bu o'zaro birlashgan, lekin tashkiliy va iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan qishloq xo'jalik va sanoat korxonalari hisoblansa, «Agrar-sanoat kombinati» – yagona ishlab

¹⁴ Kooperatsiya – ma'muriy-xo'jalik jihatdan mustaqil bo'lgan korxonalar resurslarining hajmi bo'yicha yirik ishlarni, muayyan turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishning murakkab texnologiyalarini amalga oshirishni, xizmat ko'rsatish bo'yicha yirik ishlab chiqarishlarni tuzishni birgalikda bajarish uchun qisman yoki to'liq birlashtirilishi; kooperatsiya – alohida korxonalar o'rtasida doimiy va jadal ishlab chiqarish aloqalarni tashkil etishni anglatadi.

Kombinatsiyalanish – bitta korxonada xomashyoni ishlashning izchil bosqichlari (masalan, rudadan cho'yan eritib olish va cho'yandan po'lat tayyorlash, va keyinchalik po'latdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish) yoki asosiy ishlab chiqarish uchun yordamchi hisoblangan turlaridan (masalan, chiqindi yoki qo'shimcha mahsulotlarni ishlash; upakovka predmetlarini ishlab chiqarish va h.k.) iborat sanoatning bir nechta tarmog'ini birlashtirish.

chiqarish korxonasi bo'lib, uni boshqarish, rejalashtirish va moliyalashtirish umumiy rahbariyat tomonidan amalga oshiriladi.

«Agrar-sanoat birlashmasi» atamasi quyi ma'muriy tuman, tumanlar guruhi yoki viloyatda faoliyat yuritayotgan va tashkiliy jihatdan mustaqil bo'lgan agrar-sanoat kombinatlari guruhi birlashganida ishlatiladi.

Mamlakatning turli tumanlarida va jamiyat rivojlanishining turli bosqichlaridagi agrar-sanoat integratsiyasining jadalligini tavsiflash uchun qishloq xo'jalik va sanoatning uzviy mujassamligini to'rtta asosiy bosqichini ko'rsatish lozim.

Birinchi bosqich – qishloq xo'jaligidagi texnik, iqtisodiy va tashkiliy darajalarda siljishlar – uning jadal ixtisoslashuvi, mexanizmlar bilan jihozlanish darajasi ortgani, ishlab chiqarish konsentratsiyasi ortgani bilan ta'riflanadi. Tarqoq va yoyilgan tarzda joylashtirilgan ixtisoslashgan xo'jaliklar o'miga ishlab chiqarish yo'nalishi bir tusga ega bo'lgan uzluksiz qishloq xo'jalik zonolari shakllanadi. Qishloq xo'jalik xomashyosini birlamchi ishlaydigan va qayta ishlaydigan xo'jalik ichidagi korxonalar keng rivojlanadilar. Xo'jaliklararo ahamiyatga ega sanoat korxonalari alohida komplekslarga guruhlanadi, ularning xom ashyo zonolari bilan aloqalari kengayadi va kuchayadi. Bu bosqichdagi integratsiyaning asosiy shakli, bu – kooperatsiya, tuman miqyosidagi va tarkibida xo'jalik ichi tipidagi agrar-sanoat kombinatlari bo'lgan agrar-sanoat komplekslarining rivojlanishi.

Ikkinchi bosqich uchun – nafaqat qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy imkoniyatlarning oshirilishini, balki ular orasidagi aloqalarning murakkablashuvini ham e'tirof etish zarur. Kooperatsiya o'miga kombinatsiyalanish jarayoni keladi, agrar-sanoat kombinatlari alohida qishloq xo'jalik korxonalari doirasidan chiqib, borgan sari kattaroq hududlarni, quyi tuman ma'muriyatigacha bo'lgan miqyoslarni qamrab ola boshlaydi. Ushbu bosqich uchun, bir tomondan, agrar-sanoat kombinatlarning tor sohali tuzilmasi xos bo'lsa, ikkinchi tomondan esa – sanoat bilan faqat qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash bo'yicha integratsiyasi asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich – integratsiyalashgan ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy jihatdan yanada yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Agrar sektorda sanoat miqyosidagi yirik komplekslar ustuvor mavqega ega

bo'ladilar, kombinatsiyalashtirish jarayoni qishloq xo'jalik va qayta ishlash sanoatining bitta emas, balki bir nechta tarmog'i bo'yicha amalga oshiriladi. Tuman va tumanlararo ahamiyatga ega agrar-sanoat kombinatlari va birlashmalar keng tarqaladilar. Lekin, bu bosqichga ham faqat qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlash liniyalarining integratsiyasi xos bo'lib, sanoat ishlab chiqarishining boshqa tarmoqlarining ishtiroki ko'p bo'lmaydi.

To'rtinchi bosqich qishloq xo'jalik va sanoat ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tubdan farqlanuvchi vazifalari va prinsiplari bilan ajralib turadi. Agar avvalgi bosqichlarda asosiy e'tibor ishlab chiqarish integratsiyasiga qaratilgan bo'lsa (bu ma'noda qishloq xo'jaligi bilan kooperatsiya asosida birlashadigan va kombinatsiyalashadigan sanoat tarmoqlari sonining cheklanganligi o'zini oqlashini tushunsa bo'ladi), to'rtinchi bosqichda alohida individlarni faoliyat turlari almashib turishini va odamlarni har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlovchi qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalariga xos faoliyatlarning integratsiyasi ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Tuman va tumanlararo ahamiyatga ega agrar-sanoat kombinatlari faoliyat yuritishi ushbu bosqich uchun xosdir. Bu kabi kombinatlar tarkibida texnologik jihatdan qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan sanoat korxonalari ham faoliyat ko'rsatadilar.

Agrar-sanoat integratsiyaning sanab o'tilgan bosqichlari muayyan xronologik ketma-ketlikka ega bo'lsalarda, ularning bir vaqtning o'zida birgalikda, lekin boshqa-boshqa hududlarda kechishini ham inkor qilib bo'lmaydi. Hozirgi kunga kelib birinchi bosqich eng ko'p tarqalgan hisoblanadi. Intensiv dehqonchilikning qulay tabiiy-iqlimiy sharoitlarga ega deyarli barcha mintaqalarda quyi ma'muriy tumanlarning hududiy agrar-sanoat komplekslari tarmog'i shakllangan bo'lib, ayrim hududlarda xo'jalik ichi va xo'jaliklararo tipidagi agrar-sanoat kombinatlari ham tashkil etilgan.

Qishloqni qayta tuzish bo'yicha mutaxassislar (V.V.Musatov) fikricha, «sanoatga asoslangan agrar ishlab chiqarish + joylashtirish» tizimidagi asosiy muammo, bu mexanizatsiyalashgan agrar ishlab chiqarishning yangicha xarakteri va o'zidan o'zi shakllangan, avvaldan tarqoq xususiyatga ega bo'lib kelgan qishloq joylardagi joylashuv shakli o'rtasidagi obyektiv ziddiyatlarni hal qilishdan iboratdir. Agrosanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi hamda shahar va qishloq o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy farqlanishlarni

bartaraf qilinishiga aynan shu omil to'sqinlik qiladi. Bu muammoni hal qilish uchun qishloq xo'jaligi yangi sanoatga asoslangan holda va yirik hududiy qishloq xo'jalik korxonalarini tashkil etish orqali qayta tuziladi. Bunga erishish uchun tuman markazlari, posyolkalar va qishloqlarni o'zgartirish, qishloq joylashuvining yangi shakllarini yaratish zarur. Tabiiy muhitga, transport aloqalari va bog'lanishlarga asoslangan yagona rejaviy tuzilmaga birlashtirilgan yangi qishloq aholi punktlaridagi mehnat va dam olish obyektlari yagona ishlab chiqarish-istiqomat qilish tuzilmalarini shakllantiradilar. Shunday qilib, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishni qayta tashkil qilish va qishloq joylar urbanizatsiyasi quyidagi o'ta muhim jarayonlarning o'zaro ta'sirida aks ettirilishi lozim. Ularning biri qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishda band bo'lgan aholi turmushining barcha jabhalarini qamrab olgan holda, qishloq muhitining moddiy shakllarini rivojlantirishdan, asosiy sifatiy ko'rsatkichlarini shahar standartlari darajasiga yetkazishdan iborat bo'ladi. Shahardan tashqaridagi hududlar urbanizatsiyasining boshqa jihati – ular tarkibiga shaharga xos bo'lgan elementlarni uzviy ravishda kiritish. Bu yerda sanoat ishlab chiqarishini, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni (qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash, qishloq xo'jalik korxonalariga texnik xizmat ko'rsatish, qurilish bazasini kuchaytirish va h.k.) rivojlantirish nazarda tutiladi. Aynan shunday sanoat negizida aholi punktlari o'rtasidagi yangi ishlab chiqarish markazlari – kichik shaharlar va shahar tipidagi posyolkalar – qishloq joylardagi shahar madaniyati va shaharga xos turmush tarzi o'choqlari faollashadi va shakllanadi. Bunga infratuzilma, shuningdek chekka qishloqlar va shaharlar orasidagi aloqani ta'minlovchi ommaviy axborot vositalari rivojlanishini ham kiritish mumkin. Ta'kidlash lozimki, shahardan tashqaridagi hududlar urbanizatsiyasining aynan shu jihati bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. I.A.Karimovning ta'biri bo'yicha O'zbekistondagi agrosanoat ishlab chiqarishida birlamchi qishloq xo'jalik bo'g'ini nimadan iborat bo'lishi lozim?

2. «Agrosanoat integratsiyasi» degan atama nimani anglatadi?

3. «Agrosanoat kompleksi» degan atama nimani anglatadi?
4. «Agrosanoat ishlab chiqarish» degan atama nimani anglatadi?
5. «Agrosanoat kombinati» degan atama nimani anglatadi?
6. «Agrosanoat birlashmasi» degan atama nimani anglatadi?
7. Agrarsanoat ishlab chiqarish rivojlanishiga va shahar va qishloq o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlanishlarni bataraf etish jarayoniga qaysi asosiy omil bugungi kunda to'sqinlik qilmoqda?

1.5. Shahar va qishloq aholi punktlarining o'zaro bog'liq ravishda rivojlanishi

Qishloq aholisini joylashtirish va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish sohasidagi jamiyatning ijtimoiy vazifalarini hal qilishdagi samaradorlikni oshirish zarurati urbanizatsiya jarayonini aniq maqsadli boshqarilishini va joylashtirish tizimini oqilona tashkil etilishini talab etadi. Katta va yirik shaharlar o'sishini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan umumiy yo'nalishda qishloq joylardagi joylashuv qayta tashkil qilinishini shakllanayotgan aholi punktlari tizimi doirasida shahardagi aholi joylashuvi bilan yaqindan bog'liqligiga katta ahamiyat berilmoqda. Biroq, ushbu muammolar yechimini hal qilish bo'yicha bajarilgan keng qamrovli tadqiqotlar shuni ko'rsatayaptiki, shakllanib bo'lgan va, aksariyat hollarda, avtonom rivojlanish yo'liga yo'naltirilgan joylashuv tizimlarining samaradorligi anchayin past va ulardagi tarkibiy guruhlar faoliyatida o'sish kuzatilmayapti. Shahar-sozlik muammolari, odatda, har bir shahar yoki posyolka uchun alohida, boshqa aholi punktlari bilan aloqa va bog'lanishlarni hisobga olmasdan turib hal qilinmoqda. Natijada, aholi punktlarining shakllangan tarmog'i va aholi punktlarining kattaligi hamda funksional ixtisoslashuviga ko'ra o'zaro bog'liq tarzda rivojlanish tendensiyalari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda.

Yaqin kunlargaacha urbanistika bo'yicha aksariyat tadqiqotlar, garchi urbanizatsiya jarayoni davomida shaharlarning aloqalari kengayib, chegaralari yoyilib ketsada, asosan shaharlarga bag'ishlanar edi. Rivojlanayotgan shaharlar o'z ta'sir zonalarini faol kengaytirgan holda qishloq joylardagi turmushga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham ularning istiqbolli rivojlanishi masalalari yon-atrofdagi qishloq aholi punktlarini hisobga olib turib hal qilinishi lozim.

Rivojlangan ilm va ta'lim hamda ijtimoiy infratuzilmalarga ega bo'lmagan qishloq aholi punktlari joylashuv tizimi va ishlab chiqarishning aksariyat qismi talablariga to'liq javob bera olmaydilar va rivojlanish sur'atlari oshishiga to'sqinlik qiladilar. Avtonom joylashuvning samarasizligi ushbu tizim ijtimoiy talablarga zid ekanligi orqali namoyon bo'ladi. Sababi, aholi bilimliligi va madaniyati darajasining o'sishi uning mobilligini oshiradi, yashash muhiti yaxshilanishiga, qishloq aholi punktlaridagi infratuzilma rivojlanishi darajasiga nisbatan oshib borayotgan talablarni rag'batlantiradi. Shu sababdan ham, aholining mehnat qilishi, ta'lim olishi, maishiy turmushi va hordiq chiqarishi mumkin bo'lgan joylarning turlicha bo'lishi qishloq joylardagi joylashuv tizimini istiqbolli tashkil etilishining eng muhim ijtimoiy mezon sifatida qabul qilinadi.

Joylashuv tizimi rivojlanishidagi obyektiv va tarixiy jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy qonunlarga asoslanganligi aholi punktlari avtonomligi bartaraf etilishi va integratsion aloqalarni rivojlanishiga tayanadi. Aytish lozimki, bu jarayonda integratsiyaning tabiiy yadrolari bo'lib o'zining ta'sir va tortish zonalariga ega bo'lgan shaharlar xizmat qiladi. O'z rivojlanishida tartibga solinish darajasi past bo'lgan aholi punktlarini o'zgartirish va ularni samarali faoliyat ko'rsatishiga erishish uchun kattaligi va funksional vazifalari turlicha bo'lgan avtonom qishloq aholi punktlarini o'zaro bog'langan shahar va qishloq aholi punktlari guruhlariga aniq maqsadli ravishda birlashtirish eng dolzarb va muhim masala hisoblanadi. Bunda shaharlar va qishloq aholi punktlari o'rtasidagi turli aloqalarni rag'batlantirish joylashuvning istiqbolli tizimlarining o'ziga xos jihatlari bo'lib xizmat qiladi. Bu kabi tashkillashtirishni faqat shahar va qishloq aholi punktlarining aholi punktlari integratsiyasi va shahar hamda qishloq aholisi uchun sifat nuqtai nazarida bir-biriga tenglashtirilgan turmush sharoitlarini yaratishga asoslangan o'zaro bog'langan guruhlarini shakllantirish vositasida amalga oshirish mumkin.

Ma'lumki, guruhli joylashuv tizimlari nazariyasi aholi kundalik aloqalari va aholi punktlari orasidagi hududlardan birgalikda foydalanish chegaralari doirasida kattaligi va funksional vazifalari turlicha bo'lgan aholi punktlarining o'zaro integratsiyasiga asoslangan. O'z rivojlanishida ma'lum yo'nalishga ega bo'lib, tartibga solinayotgan guruhli joylashuv tizimlari o'z tarkibiga yangi shahar va

qishloq aholi punktlarini qo'shib olishlari mumkin. Demak, ularning joylashuv tizimidagi rivojlanishi, faqatgina aholi sonining o'sishi hisobiga emas, balki, yuqorida qayd etilganidek, asosan, shakllanayotgan joylashuv tizimlarining tuzilmaviy-funksional elementlari sifatida shakllanishi orqali amalga oshadi. Ushbu tizimlarning tuzilmaviy elementi hisoblangan qishloq aholi punktlari o'zlarining yetakchi funksiyalari hisobiga iqtisodiy rivojlanishning mustahkam asoslariga ega bo'lishlari mumkin. Bunda, shaharlar, ayniqsa yirik shaharlar ta'siri zonasida, ular bilan tizimli aloqalar rahbatlantirilishi natijasida, mavjud qishloq joylashuvining xususiyatlari sezilarli darajada o'zgaradi, sababi, qishloq aholi punktlarida yashovchi aholi mehnat qilish va malaka oshirish uchun yanada ko'proq imkoniyatlarga, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha yanada qulayroq sharoitlarga, moddiy va ma'rifiy madaniyat o'choqlaridan bahramand bo'lish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, qishloq aholisi shu mintaqada yashovchi shahar aholisi kabi ijtimoiy-madaniy imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Natijada, qishloq aholisining ijtimoiy faolligi va harakatchanligi intensiv munosabatlar va aloqalar jarayoniga jalb qilish yo'li orqali ortadi, bu esa, o'z navbatida, joylashuvning shaharga va qishloqqa xos shakllari o'rtasidagi farqlanishlar asta-sekin yo'qolib borishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, aholi punktlari o'rtasidagi mehnat qilish joylariga nisbatan harakatlanishlarning ahamiyati yanada oshadi, o'z mohiyatiga ko'ra aholi joylashuvi muammosi aynan shu jihatga, ya'ni aholining mehnat qilish joylariga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Bu holat aholining mayatniksimon migratsiyasi deb ta'riflanadi.

Mayatniksimon migratsiya – aholining aholi punktlari o'rtasidagi doimiy va tizimli ravishda amalga oshiradigan mehnat safarlari.

Qishloq aholisining shaharga jadal mayatniksimon mehnat safarlari shahar atrofiga qatnaydigan yo'lovchi transport tarmog'i rivojlangan hududlarda kuzatiladi, sababi, ba'zi holatlarda shahar yaqinidagi qishloq joylarga qatnaydigan transportdan foydalanishga sarflanadigan vaqt shahar ichida transportdan foydalanishga ketgan vaqtdan kamroq bo'ladi. Aholining mayatniksimon harakatlanishi ishlab chiqarish-iqtisodiy, tashkiliy-xo'jalik va ma'muriy aloqalar bilan bir qatorda joylashuvdagi muayyan yagonalikni yuzaga keltiradi. Bu, ayniqsa, katta va yirik shaharlar atrofidagi zonalarda kuzatiladi –

bu kabi aloqalar barqarorlashgan va kundalik xususiyatga ega. Demak, taxmin qilish mumkinki, kelajakda katta va yirik shaharlarning ta'sir zonasida joylashgan qishloq aholi punktlaridagi rivojlanish jadalroq kechadi va asta-sekin aholi yashaydigan joylarning hududiy lokal tizimlari shakllanib boradi (1.4.1-rasm).

Shakllanayotgan joylashuv tizimlari doirasida qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishni sanoat asosida tuzish bo'yicha katta imkoniyatlar paydo bo'ladi, natijada, faqat qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ishlab chiqarishga asoslangan qishloq aholi punktlarining soni asta-sekin qisqarib, qishloq aholisi mehnat sharoitlari shahardagi sharoitlarga yaqinlashib boradi. Bu tizimlarning shakllanishi bilan birga shaharlar va qishloq aholi punktlari o'rtasida o'zaro bog'liqliklarning yangi turi paydo bo'la boshlaydi. Transport infrazuzilmasining rivojlanishi, shaharlarga yondosh bo'lgan qishloq xo'jalik hududlarda istiqomat qiluvchi aholiga shahardagi ta'lim va madaniyat maskanlaridan yaqindan foydalanish imkoniyatini ta'minlagan holda, shahar va qishloq muhitlaridagi madaniy-ijodiy sharoitlarni barobarlashtirishga xizmat qiladi. Bunday holat rivojlangan sari mayatniksimon migratsiya shaharga xos turmush tarzini qishloqda faol tatbiq etuvchi muhim omilga aylanib borayotganidan va uning kelgusidagi rivojlanishi urbanizatsiya jarayonining ajralmas qismiga aylanib borishidan dalolat beradi. Mayatniksimon migratsiya joylashuv muammosi nuqtai nazarida shaharlik bo'lmagan aholining ommaviy joylashgan hududlari chegaralarini aniqlash orqali shaharlarning ta'sir zonalarini aniqroq belgilash uchun imkon yaratadi. Bu, o'z navbatida, ushbu hududlarda eng qulay turmush sharoitlarini yaratish uchun amalga oshiriladigan tadbirlarni oqilona rejalashtirilishi va taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qishloq aholisining mahalliy miqyosdagi harakatchanligidagi ijobiy sifatlarni qayd etgan holda, uzoq masofalarga qilgan safarlari aksariyat hollarda vaqtning asoslanmagan sarflanishiga va «yo'l charchog'i»ni keltirib chiqarishini, natijada migrantlardagi mehnatga bo'lgan layoqatni pasaytirishini ham nazarda tutish lozim. Shu sababdan, aholi punktlari tizimiga kiruvchi aholining shahar-markazga yetib olish uchun sarflaydigan vaqtning yo'l qo'yilgan maksimal sarflanishini shahardan tashqarida yashovchi aholi joylashuvidagi olislikni baholash mezonlaridan biri sifatida qabul qilish mumkin. Bu mezon turlicha bo'lib, shahar-markazining kattaligi va funksional

vazifalariga bog'liq. Bu vaqt chegarasidan tashqarida yashaydigan qishloq aholisi uchun yashash joyida yoki o'zaro bog'langan joylashuv tizimidagi quyi bo'g'inini hosil qiluvchi eng yaqin mehnat markazlarida ishlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qishloq aholisini ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazardan jalb qiluvchi tayanch punktlari sifatida respublikadagi tuman markazlarini e'tirof etish mumkin. Qishloq joylar bilan o'zaro bog'lanishlar qatorida tuman tashkil etuvchi mahalliy aloqalar tizimiga kiruvchi mayatniksimon migratsiyani ham qayd etish lozim. Tuman markazlariga nisbatan yopiq mehnat balansi xos bo'lib, ular mahalliy aloqalar asosida rivojlanib, yondosh joylashgan qishloq aholi punktlaridagi aholini jalb qiladilar. Ular o'zaro bog'liq aholi punktlari tizimining quyi tabaqasini – ma'muriy tumanlar doirasida yuzaga keladigan joylashuvning mahalliy tizimlarini shakllantiradilar.

Respublikaning eng aholisi ko'p voaha hududlaridagi shaharlar zichligi va ular ichidagi eng yiriklaridagi maydonning kengaytirilishi sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashuviga ham ta'sir qiladi va, aksariyat hollarda, bunday korxonalar shahar tashqarisida, uning yon-atrofida joylashtiriladi. Ilmiy adabiyotda bu kabi holatlar «suburbanizatsiya» deb nomlanadi. Qishloq xo'jaligida band bo'lmagan aholisining soni nisbatan ko'p bo'lgan suburbanizatsiyalashgan hududlar maydonining kengaytirilishi yirik va katta shaharlar atrofida urbanizatsiyalashgan zonalarini vujudga keltirib, qishloq xo'jalik va sanoat o'rtasidagi ishlab chiqarish, qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi mehnat va madaniy-maishiy aloqalarni rivojlantirish uchun mustahkam baza yaratib beradi.

Qishloq joylardagi joylashuvning respublikada shakllangan tizimini o'rganish va uning rivojlanish tendensiyalarining tahlili qishloq aholi punktlarining sifat nuqtayi nazaridan o'sishi boshqa omillar bilan birga shahar aholi punktlari tarmog'i tuzilmasining rivojlanish darajasiga ham bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Ana shu rivojlanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, shakllanayotgan joylashuv tizimlarining rivojlanishi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababdan qishloq joylardagi joylashuvni o'zgartirish sharoitlariga yondoshuv tabaqalashgan, ya'ni har bir mintaqadagi shart-sharoitlarni, ko'rilayotgan hududdagi miqyosi hamda rivojlanganlik darajasi turlicha, tuman va shahar markazlari mavjudligini hisobga olgan holda bo'lishi zarur. Aytib o'tilgan omillarga bog'liq ravishda miqdoriy va

sifatiy o'zgarishlar, qishloq aholi punktlarini kattaligi va bajaradigan funksiyalari bo'yicha tabaqalanishi amalga oshiriladi, rejalashtirilishi va me'moriy qiyofasi takomillashadi.

Shunday qilib, shahar va qishloq aholisi joylashtirilishining o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turuvchi ikkita tizim osti tuzilmalaridan tashkil topgan tizimlarining mavjudligi quyidagilarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi:

ishlab chiqarish kuchlarini ham shaharlar ichida, ham qishloq hududlarida optimal ravishda joylashtirish va kompleks rivojlantirish;

o'z tarkibida shahar va qishloq aholi punktlari mavjud bo'lgan joylashtirilishning yagona ratsional strukturasini tashkil qilish;

o'zaro bog'liq aholi punktlaridagi ijtimoiy-madaniy infratuzil-maning maqsadga muvofiq ravishda joylashtirilishini ta'minlash;

qishloq hududlaridagi aholi punktlari o'rtasida yetakchilarini aniqlash va muayyan mintaqaning ishlab chiqarish salohiyati hamda mavjud joylashtirish tizimining rivojlantirilganlik darajasidan kelib chiqqan holda ularning asosiy turlarining rivojlantirish bo'yicha yo'nalishlarini belgilash;

aholi punktlaridagi shakllanayotgan tizimlarning funksional-rejaviy tashkil etilishini va ularning asosiy elementlari hisoblanuvchi qishloq punktlarini takomillashtirish.

Yuqorida bayon etilgan holatlar respublikaning qishloq joylaridagi aholi punktlarini shaharsozlik nuqtayi nazarida rivojlantirish jarayonida yetarlicha keng doiradagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish bo'yicha yechimlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qishloq joylardagi aholini joylashtirishdagi eng muhim ijtimoiy mezon deb qaysi holatlar hisoblanadi?

2. Joylashuv rivojlanishining obyektiv-tarixiy jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy izchillik nimadan iborat?

3. O'zaro bog'langan shahar va qishloq aholi punktlari guruhlari shakllanishining mohiyati nimalardan iborat?

4. Joylashuv tizimidagi shahar va qishloq aholi punktlari, aholi soni ko'payishidan tashqari, yana nimalar, qaysi omillar hisobiga rivojlanishi mumkin?

5. Shakllanayotgan joylashuv tizimlari uchun tuzilmaviy-funksional elementlar sifatida e'tirof etilayotgan shahar va qishloq aholi punktlarining vujudga kelishidan qanday natijalarni kuzatish mumkin?

6. «Mayatniksimon migratsiya» atamasi nimani anglatadi?

7. Rivojlanayotgan transport infratuzilmasi shahar yaqinida joylashgan qishloq joylarda yashovchi aholini nimalar bilan ta'minlaydi?

8. Shahardan tashqaridagi aholi punktlari tizimiga kiruvchi aholining shaharga qatnashida joylashuv uzoqligini baholashda qaysi mezon qabul qilingan?

9. Shahar va qishloq aholisi joylashtirilishining o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turuvchi ikkita tizim osti tuzilmalari tashkil topishi jarayonida muayyan shart-sharoitlar yuzaga keladi. Ushbu shart-sharoitlar nimalarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratib beradi?

Namangan viloyatidagi qishloq aholi punktlaridagi mayatniksimon mehnat migrantlariga transport xizmatlarini ko'rsatish

-  Imoratlar qurilgan shahar hududlari
-  Imoratlar qurilgan qishloq hududlari
-  Idoralarga qarashli transport bilan xizmat ko'rsatish
-  Jamoat transporti bilan xizmat ko'rsatish



Tekshirilgan sanoat korxonalarining Namangan shabari tuzilmasidagi joylashuvi



**Sanoat zonalarini
Tekshirilgan korxonalar:**

1. Ipak gazlamalar kombinati
2. Mebel ishlab chiqarish fabrikasi
3. Go'sht kombinati
4. Pivo-alkogolsiz ichimliklar kombinati
5. Mashinasozlik zavodi
6. Yengil avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish stantsiyasi
7. Kimyo zavodi



1.4.1-rasm. Hududiy jihatdan ifodalangan joylashuv tizimlari

Qishloq joylardagi joylashuvning respublikada shakllangan tizimini o'rganish va uning rivojlanish tendensiyalarining tahlili qishloq aholi punktlarining sifat nuqtayi nazaridan o'sishi boshqa omillar bilan birga shahar aholi punktlari tarmog'i tuzilmasining rivojlanish darajasiga ham bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Ana shu rivojlanish darajasi qancha yuqori bo'lsa, shakllanayotgan joylashuv tizimlarining rivojlanishi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababdan qishloq joylardagi joylashuvni o'zgartirish sharoitlariga yondoshuv tabaqalashgan, ya'ni har bir mintaqadagi shart-sharoitlarni, ko'rilayotgan hududdagi miqyosi hamda rivojlanganlik darajasi turlicha tuman va shahar markazlari mavjudligini hisobga olgan holda bo'lishi zarur. Aytib o'tilgan omillarga bog'liq ravishda miqdoriy va sifatli o'zgarishlar, qishloq aholi punktlarini kattaligi va bajaradigan funksiyalari bo'yicha tabaqalanishi amalga oshiriladi, rejalashtirilishi va me'moriy qiyofasi takomillashadi.

Shunday qilib, shahar va qishloq aholisi joylashtirilishining o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turuvchi ikkita tizim osti tuzilmalaridan

tashkil topgan tizimlarining mavjudligi quyidagilarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi:

- ishlab chiqarish kuchlarini ham shaharlar ichida, ham qishloq hududlarda optimal ravishda joylashtirish va kompleks rivojlantirish;

- o'z tarkibida shahar va qishloq aholi punktlari mavjud bo'lgan joylashtirilishning yagona ratsional strukturasini tashkil qilish;

- o'zaro bog'liq aholi punktlaridagi ijtimoiy-madaniy infratuzilmaning maqsadga muvofiq ravishda joylashtirilishini ta'minlash;

- qishloq hududlaridagi aholi punktlari o'rtasida yetakchilarini aniqlash va muayyan mintaqaning ishlab chiqarish salohiyati hamda mavjud joylashtirish tizimining rivojlantirilganlik darajasidan kelib chiqqan holda ularning asosiy turlarining rivojlantirish bo'yicha yo'nalishlarni belgilash;

- aholi punktlaridagi shakllanayotgan tizimlarning funksional-rejaviy tashkil etilishini va ularning asosiy elementlari hisoblanuvchi qishloq punktlarini takomillashtirish.

Yuqorida bayon etilgan holatlar respublikaning qishloq joylaridagi aholi punktlarini shaharsozlik nuqtayi nazarida rivojlantirish jarayonida yetarlicha keng doiradagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish bo'yicha yechimlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qishloq joylardagi aholini joylashtirishdagi eng muhim ijtimoiy mezon deb qaysi holatlar hisoblanadi?

2. Joylashuv rivojlanishining obyektiv-tarixiy jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy izchillik nimadan iborat?

3. O'zaro bog'langan shahar va qishloq aholi punktlari guruhlari shakllanishining mohiyati nimalardan iborat?

4. Joylashuv tizimidagi shahar va qishloq aholi punktlari, aholi soni ko'payishidan tashqari, yana nimalar, qaysi omillar hisobiga rivojlanishi mumkin?

5. Shakllanayotgan joylashuv tizimlari uchun tuzilmaviy-funksional elementlar sifatida e'tirof etilayotgan shahar va qishloq aholi punktlarining vujudga kelishidan qanday natijalarni kuzatish mumkin?

6. «Mayatniksimon migratsiya» atamasi nimani anglatadi?

7. Rivojlanayotgan transport infratuzilmasi shahar yaqinida joylashgan qishloq joylarda yashovchi aholini nimalar bilan ta'minlaydi?

8. Shahardan tashqaridagi aholi punktlari tizimiga kiruvchi aholining shaharga qatnashida joylashuv uzoqligini baholashda qaysi mezon qabul qilingan?

9. Shahar va qishloq aholisi joylashtirilishining o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turuvchi ikkita tizim osti tuzilmalari tashkil topishi jarayonida muayyan shart-sharoitlar yuzaga keladi. Ushbu shart-sharoitlar nimalarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratib beradi?

1.6. Qishloq turmush tarzining o'zgarishi

O'zbekiston aholisining taxminan yarmisi qishloqda yashaydi va mamlakat ravnaqi va farovonligi aynan qishloq kelajagiga bog'liq. Davlatimiz rahbari ham qishloqda yangitdan shakllanayotgan mulkiy munosabatlarga, o'rta sinf vakillari – mulkdorlar, tadbirkorlar, ishbilamonlarga bejizga alohida urg'u bermagan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish tuzilmasi bo'yicha yalpi ko'rsatkichlarda dehqon xo'jaliklarining ulushi 63,7% ni (2010 yil yanvar-dekabr oylarida – 62,9% ni), fermer xo'jaliklarining ulushi – 34,1% ni (2010 yil yanvar-dekabr oylarida – 35,0% ni), qishloq xo'jalik korxonalarining ulushi – 2,2% (2010 yil yanvar-dekabr oylarida - 2,1% ni) tashkil qilgan.

Statistika bo'yicha 2008 yilning 1 oktabr holati bo'yicha O'zbekistonda 218 mingta fermer xo'jaligi ishlagan. Ular tarkibida 1,7 mln.dan ortiq kishi ish bilan band bo'lgan, har bir xo'jalikka o'rtacha hisobda 27 gektardan yer maydoni to'g'ri kelgan. Dehqon xo'jaliklarining umumiy soni taxminan 4,6 mln.ga teng bo'lgan.

So'nggi yillarda fermer va dehqon xo'jaliklari O'zbekiston agrar sektorining asosiy ishlab chiqarish kuchiga aylandilar. Statistikaga ko'ra, O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarining 65 foizi dehqon xo'jaliklariga to'g'ri kelgan. Fermerlarning ulushi 33,1% ni tashkil qilgan, qolgan qismi esa shirkatlar tomonidan yetishtirilgan.

Avvalgi yillarda bo'lgani kabi qishloqda sanoat ishlab chiqarish va qurilishni rivojlantirish, ixcham qayta ishlash korxonalarini

yaratish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini takomillashtirish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinadi.

Qishloqni qayta qurish qishloq aholisi turmush tarzini, ya'ni aholining tashqi muhit bilan belgilanadigan faoliyat turlari va qishloq aholisining o'ziga xos xususiyatlarini birlashtiruvchi tizimni o'zgartirmasdan turib amalga oshmaydi. Amaliyot va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qishloq turmush tarzi quyidagi asosiy faoliyat turlaridan iborat: ijtimoiy ishlab chiqarishdagi mehnat, shaxsiy tomorqadagi mehnat, maishiy faoliyat, ta'lim va malaka oshirish bilan bog'liq faoliyat, madaniyat va hordiq chiqarish sohasidagi mashg'ulotlar, jamoatchilik ishi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishdagi mehnat. Mehnat sohasida qondiriladigan ehtiyojlar, odatda, mehnatdan qoniqish darajasi va korxonani, ish o'rini, kasbni o'zgartirish imkoniyati (yoki uning yo'qligi) bilan belgilanadi. Mehnatdan qoniqmaslik, birinchi navbatda, mehnat sharoitlari bilan va, ikkinchi navbatda, mehnatning mazmuni bilan bog'liq. O'zbekistondagi qishloq mehnatkashlarining mehnat sharoitlari bugungi kunda yengil emas — odamlar ko'p vaqtlarini ochiq havoda, noqulay muhitda o'tkazishga majburlar: qishloq xo'jalik mashinalarining konstruksiyasi doim ham respublikadagi iqlimiy sharoitlarni hisobga olmaydi va ishlash uchun yetarlicha qulay emas; xo'jaliklarning hammasida ham texnikani ta'mirlash uchun tegishli sharoitlar yaratilmagan; ishlab chiqarish uchastkalari (dala shiyponlari, ta'mirlash ustaxonalari, chorvachilik fermalari va b.) yetarlicha jihozlanmagan va ularda mehnat qilish uchun tegishli sharoitlar yaratilmagan. Sanab o'tilgan kamchiliklarning barchasi ishchilarning samarali mehnat qilishi va dam olishini tashkil qilishga to'stinlik qiladi.

Respublikadagi qishloq mehnati mazmunining o'ziga xos xususiyati - jismoniy mehnatning aqliy mehnatdan ustunligi. Sotsiologlar tomonidan Farg'ona, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida o'tkazgan tadqiqotlariga ko'ra, qishloq aholisining deyarli 90% jismoniy qo'l mehnati bilan band ekan. Yana bir alohida jihat — ishchilar orasida noprofessional mehnat bilan shug'ullanadiganlar sonining ko'pligi. Bir tomondan, professional mehnatni talab etmaydigan ish o'rinlari ko'p bo'lsa, ikkinchi tomondan — maxsus ma'lumotga ega bo'lgan ishchilar kam. Aytish lozimki, bu ko'proq ayollarga taalluqli.

Ishchilarning taxminan 25% maxsus kurslar yoki kasb-hunar ta'lim muassasalarida tahsil olgan. Ishchilarning shu darajadagi ma'lumotga ega bo'lishi malakali mehnat bilan, xususan, mexanizator bo'lib ishlash uchun yetarli hisoblanadi. Undan tashqari, qishloqlarda aksariyat hollarda bir smenali ish kuni joriy etilgan bo'lib, deyarli butun kun davomida mehnat qilinadi; ish turlarining deyarli barchasi mavsumiy – bu qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'ziga xosligi bilan bog'liq (yoz va kuz fasllarida ish haddan tashqari ko'p, qishda esa – bo'sh vaqt bemaolol); dam olish kunlari va mehnat ta'tillaridan, odatda, foydalanilmaydi (sabablari - ishchi kunlari bo'yicha belgilangan minimumni majburiy tarzda bajarish va shaxsiy tomorqa xo'jalikni qarovsiz qoldirmaslik). Lekin, umuman olganda, qishloq mehnatkashlarining o'z faoliyatlari va mehnatlariga bo'lgan munosabatlari ijobiy hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida industrialashtirish jarayonini yanada jadalashtirish – ijtimoiy ishlab chiqarishdagi mehnatni takomillashtirish bo'yicha asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Bunda nafaqat ishlab chiqarish, balki qishloqdagi ijtimoiy muammolar ham hal qilinadi. Ishlab chiqarish uchastkalari, qishloq xo'jalik komplekslari rekonstruksiyasi, obodonlashtirilishi, mehnat rejimining tartibga solinishi, ishning mavsumiy bo'lishini bartaraf etilishi, mehnatning avtomatlashtirilishi va mexanizatsiyalashtirilishi, malakali ishda band bo'lgan ishchilar ulushini ko'paytirish, qishloq xo'jalik texnikasiga sifatli xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi, rivojlanishi hayotga tatbiq etilishi zarur.

Shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi mehnat. Zamonaviy sharoitlarda shaxsiy tomorqa xo'jaligi obyektiv zarurat bo'lib, u qishloq joylardagi oilalarning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish manbalaridan biri hisoblanadi. Shaxsiy tomorqaga ega bo'lgan har bir uy xo'jaligi yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish orqali oila budjetiga qo'shimcha mablag'lar kiritadi yoki bu kabi mahsulotlarni savdo tarmog'idan sotib olmaslik hisobiga pullarni iqtisod qiladi. O'z shaxsiy xo'jaligini yuritish – qishloq turmush tarzining afzalliklaridan biri bo'lib, katta, hattoki ko'p bolali oilalarga, ijtimoiy mehnat orqali topayotgan daromadlari nisbatan kam bo'lsada, shaxsiy tomorqa yordamida topayotgan mablag'lari evaziga yetarlicha to'q va farovon hayot kechirish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekistonda sabzavot, kartoshka, chorva mahsulotlarini ishlab chiqarishda shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining ahamiyati katta. MDH mamlakatlariidan farqli o'laroq chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda respublikadagi tomorqa xo'jaliklarining salmog'i yuqoriroq. Aynan chorvachilikka mehnat sarflarining asosiy ulushi (74% gacha) to'g'ri keladi. Shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi mehnat o'ziga xos jihatlariga ega, avvalambor bu mehnat ko'p tarmoqli bo'lib, turli mehnat qurollari va moslamalarga, tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni taqozo qiladi. Shu bilan birga, bu mehnat deyarli mexanizatsiyalashmagan – asosiy ish qo'l mehnati bilan bajariladi. Shuning uchun ham bunday mehnat uchun ko'proq kuch va vaqt sarflanadi. Bu vaziyat yaylov va o'tloqlar, yem-xashak, suv yetishmasligi tufayli yanada murakkablashib, shaxsiy tomorqa xo'jaligini yuritishda qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, qishloq aholisi o'zining tomorqasida qondiradigan zaruriy ehtiyojlar xilma-xilligi va xo'jalikning moddiy bazasi, uni tashkil qilish va yuritishga sarflanadigan mehnat, energiya va mablag'lar o'rtasida sezilarli ziddiyatlar mavjud. Bu ziddiyatlarni shaxsiy tomorqa xo'jaliklarga dehqon, fermer va jamoa xo'jaliklari tomonidan ko'rsatiladigan yordam (bu xo'jaliklarning shaxsiy tomorqa xo'jaliklar bilan kooperatsiyasi, sug'orish uchun suv, kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlash, xarajatlari kelgusi hosil hisobiga qoplanadigan konsentrat yemlar, yem-xashak yetkazib berish bo'yicha aniq tizim joriy etilishi) hisobiga bartaraf qilish mumkin.

Oilaviy pudrat asosida ishlayotgan xususiy fermalar, uchastkalar, sexlar, tomorqa uchastkalariga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan tashkilotlar rivojlanadi.

Bu tadbirlarning uzviy ketma-ketlikda amalga oshirilishi natijasida shaxsiy tomorqadagi mehnat mazmunan o'zgaradi: moddiy ehtiyojlar asta-sekin psixologik ehtiyojlar bilan almashinib boradi, iqtisodiy zarurat o'zini zavqli mehnat bosadi. Bularning hammasi bo'sh vaqt budjetini ko'paytirish, ijtimoiy mehnatga qo'shimcha rezervlar jalb qilinishi imkoniyatini beradi, shaxsning barkamol rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi. Bu jarayon posyolkalar rejali tuzilmalaridagi o'zgarishlar bilan kechadi, xususan, tomorqa uchastkalar maydoni qisqaradi, ularning ishlab chiqarish tuzilmasi

o'zgaradi, yordamchi xo'jaliklar – xususiy fermalar, sexlar, oilaviy yoki ijara pudratiga asoslangan uchastkalar tashkil qilinadi.

Maishiy faoliyat. Maishiy faoliyatning o'ziga xos jihatlari ijtimoiy maqsadlarga ko'ra turlicha mashg'ulotlardan (uy-joy, ovqatlanish, sog'liq-salomatlik, tegishli sanitariya holatni ushlab turish, uy jihozlarini (mebel, kiyim-bosh, poyafzal va b.) tutish, madaniy-maishiy muassasalar xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq yumushlar) iborat.

Uy-joy masalasi maishiy sohadagi eng muhim ehtiyojlardan biri hisoblanadi. Odatda, alohida xususiy uy-joyga ega bo'lish ko'pchilik tomonidan asosiy muammo sifatida tan olinadi. Sababi, aynan shunday uyda inson o'z oilasi mustaqilligini ta'minlagan mulkdor deb his qiladi. Undan tashqari, o'ziga tegishli uy va tomorqa uchastkasida xo'jalik yuritish qulay, uyni o'zgartirish va qayta qurish egasining xohishiga ko'ra amalga oshiriladi. Qishloqdagi uy-joylarning aksariyat qismi kommunal qulayliklarga ega emasligini, ularda gaz va ichimlik suv ta'minoti, markaziy isitish tizimi, kanalizatsiya va issiq suvning yo'qligini inkor qilib bo'lmaydi. Qishloq aholisi maishiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida shaharliklarga qaraganda ko'proq vaqt va mehnat sarflaydilar. Bunday holatni uy mehnatining asosiy turlari yetarlicha mexanizatsiyalashtirilmagani bilan ham izohlash bo'ladi. Garchi, ba'zi maishiy texnika bilan ta'minlanganlik darajasi ortib borayotgan bo'lsada, baribir, suv keltirish, o'tin tayyorlash, chorva mollariga yem tayyorlash kabi mehnatning og'ir turlari, asosan, qo'lda va ko'p vaqt sarflangan holda bajariladi. Bugungi kunda qishloq aholisiga suv ta'minoti, kanalizatsiya, chorva mollari uchun yem-xashak, uyni isitish uchun o'tin va boshqa yoqilg'i turlarini tayyorlash, sabzavot, ho'l meva hosilini yig'ish, uni qayta ishlash kabi ishlar uchun maxsus texnika vositalari nihoyatda zarur.

Maishiy faoliyatdagi muammolarning boshqa turlari uy jihozlarini tutish va o'ziga qarash (kir yuvish, kiyim-boshni tozalash, maishiy texnikani ta'mirlash, tana gigiyenasi va tashqi qiyofa estetikasi) kabi ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq. Yuqorida sanab o'tilgan ishlarning asosiy qismi qishloq oilasining ichida bajariladi. Aksariyat hollarda qishloq uchun an'anaviy hisoblangan turmush tarzi va oilaviy tuzilma shakllari maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari tomonidan berilayotgan takliflardan ustunroq hisoblanadi. Shu sababdan, maishiy

xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlar aytarli yuqori darajada emas. Sotsiologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatayaptiki, qishloq aholisining ijtimoiy mehnatdagi ishtiroki bo'yicha past ko'rsatkichlar uy xo'jaligidagi bandlik bilan izohlanar ekan (Andijon viloyatining qishloq joylarida va Paxtaobod shahrida istiqomat qiluvchi aholining (jami 96,5 ming kishi) 47,7% asosan uy xo'jaligida mehnat qiladi). So'rovda qatnashganlarning 74% (erkaklarning 70% va ayollarning 75%) agar tegishli sharoitlar yaratilsa, ijtimoiy mehnat sohasida ishlash istagini bildirganlar).

Qishloqqa xos turmush tarzining an'anaviy tizimini o'zgartirish qishloq uchun shakllangan va bugungi kunda mavjud bo'lgan maishiy ehtiyojlardan sifatliroq maishiy xizmatlarni taqdim etishni rivojlantirish yo'li bilan amalga oshirish mumkin. Buning uchun maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari sonini keskin oshirish va ularni imkon qadar tezroq ishga tushirish talab qilinadi. Uy-joy qurilishi bilan birga xizmat ko'rsatishning mintaqaviy tizimini yaratish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda mahalliy muhandislik tarmoqlarini (isitish tizimi, suv ta'minoti va kanalizatsiya), gazlashtirish, telefonlashtirish tizimlarini yaratish katta ahamiyatga ega.

Ta'lim sohasidagi faoliyat. Maktab ta'limi va mehnat bilan band bo'lgan qishloq aholisini o'qitishning muhimligi, birinchidan, ishlovchilar orasida bilim va malakasi ayrim ish turlari uchun yetarli bo'lmagan toifa mavjudligi, ikkinchidan, maxsus bilimlarni talab qiluvchi mehnat turlarini bajaradigan ishchilarning yo'qligi bilan izohlanadi. Bu ikki masalani qisman hal qilish uchun ishchilarni o'qitish, ularning bilimlarini oshirish, ya'ni o'qish va tahsil olishni qishloq aholisining turmush tarziga kiritish zarur. Yuqorida qayd etilganidek, qishloq aholisi o'rtasida ma'lumotga bo'lgan talab darajasi yuqori emas, sababi, qishloq mehnatiga avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish vositalarining tatbiq etilishi yetarli darajada emas, natijada, asosan qo'l mehnati orqali bajariladigan ishlar ulushi katta. Bu muammoning yana bir e'tiborli jihati, bu o'quv muassasalari (OO'YU, kasb-hunar kollejlari va sh.k.) va qishloq mehnatkashlari yashaydigan va ishlaydigan joylari o'rtasidagi transport aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilmaganidir. Ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoj sustligini qishloq turmushidagi ko'pgina qiyinchiliklar (uy-joy muammolari, og'ir mehnat, shaxsiy tomorqada ishlash tufayli bo'sh vaqtning

kamligi va h.k.) ta'lim olish masalalarini ikkinchi darajaga surib qo'rganligi bilan tushuntirish mumkin. Ana shu omillar qishloqdagi noxush an'ana, ya'ni bir vaqtning o'zida ham ishlash, ham o'qishga bo'lgan intilish yo'qligini kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Ta'lim sohasidagi faoliyatning takomillashtirilishi, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishda industrializatsiya jarayonlari jadallashtirilishiga bog'liq. Qishloqda yangi texnikaning paydo bo'lishi, qo'l mehnati ulushining qisqartirilishi maxsus bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Yangi texnika va avtomatlashgan tizimlarni boshqarish bilan bog'liq yangi kasblar paydo bo'ladi. Umumiy va o'rta ma'lumotning o'zi kamlik qilishi mumkin, natijada, qishloq aholisida yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Qishloq joylarda litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining bo'limlari va filiallari tarmoqlarini kengaytirish va rivojlantirish, qishloq va shahar orasidagi transport kommunikatsiyalarini takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Qo'l mehnatini mexaniziyalash-tirish hisobiga qishloq aholisining bo'sh vaqti ko'payadi va malaka oshirish, yangi bilimlarni egallash uchun sharoitlar yaxshilanadi.

Hordiq. Hordiq chiqarish sohasida ehtiyojlarning, asosan, uch turi qondiriladi: psixologik va fiziologik barqarorlikni tiklash, o'zini o'zi ifodalash, ma'naviy ozuqa olish. Bugungi kunda qishloqqa nisbatan ishlatiladigan «bo'sh vaqt» iborasi o'ziga xos, g'ayrioddiy mazmunga ega. Bu yerda hordiq chiqarish funksiyasini bajaruvchi mehnat turlari (uy yumushlari, uy-joy ta'miri va b.) va dam olishning qishloq uchun an'anaviy hisoblangan turlarining ahamiyati nazarda tutiladi.

Madaniy-ma'rifiy tusga ega vaqt o'tkazishdagi rang-baranglik doirasining torligi, qishloq aholisi, shaharliklardan farqli o'laroq, muzey, ko'rgazmalarga deyarli tashrif buyurmasligi, dam olish bilan bog'liq mashg'ulotlarning, aksariyat hollarda, saviyasi past bo'lishi qishloqdagi hordiq chiqarishning o'ziga xos jihatlaridir.

Qishloq aholisi bo'sh vaqtini, odatda, uy yumushlari bilan shug'ullanishga, teleko'rsatuvlarni tomosha qilishga sarflaydi. Hordiq chiqarishning faol turlariga, masalan, sport bilan shug'ullanish, kutubxona, klublarga borish, madaniy tadbirlarda ishtirok etishga vaqt juda kam ajratiladi. Dala ishlari mavsumida bo'sh vaqt deyarli bo'lmaydi – ish rejimi, aksariyat hollarda, kunduzi va bir smenali qilib belgilangan, og'ir qo'l mehnati tufayli kechga borib charchoq

alomatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Qishda, dala ishlari tugaganidan so'ng, bo'sh vaqt ko'proq bo'lsa-da, qishloqdagi madaniy-ma'rifiy obyektlar soni cheklanganligi sababli dam olish tadbirlarini to'laqonli o'tkazish imkoniyatini bermaydi. Undan tashqari, shaxsiy tomorqadagi mehnat uchun sarflanadigan mehnat va vaqt, maktabgacha ta'lim muassasalar ishining yetarli darajada emasligi hisobga olinadigan bo'lsa, nima sababdan qishloq aholisida bo'sh vaqtni madaniy hordiq chiqarishga bo'lgan talab sust ekanligini tushunish mumkin.

Qishloqdagi maishiy-madaniy xizmat ko'rsatish tizimi, ijtimoiy muassasalar qurilishining jadal rivojlantirilishi, aholi savodxonligi va madaniyatining oshirilishi madaniy muloqotga, ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishga bo'lgan talab va ehtiyojlar shakllanishiga ko'mak beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari, sport inshootlarining qurilishi, qishloq aholi punktlariga muhandislik kommunikatsiyalarini o'tkazish qishloq aholisi turmush tarzi yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistondagi qishloq aholisining an'anaviy turmush tarzi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Agrosanoat integratsiyasining izchil rivojlanishi, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari paydo bo'lishi an'anaviy qishloq hayotidagi o'zgarishlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zgarishlarning yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlari asta-sekin yangi ijtimoiy qadriyatlar, yangicha fikrlashga olib keladi. Bu holat esa, o'z navbatida, shahar va qishloq o'rtasidagi mavjud tafovutlar izchillik bilan yo'qolishiga sabab bo'ladi. Qishloq hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri hisobga olinishi esa - qishloq qiyofasini tubdan o'zgartirish masalasini hal qilishga yordam beradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Olimlarning fikricha O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi asosiy muammo nimadan iborat?

2. O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi asosiy muammoni hal qilinishiga sotsiologlarning tavsiyasiga ko'ra qaysi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin?

3. Qishloq turmush tarzi tarkibiga faoliyatning qaysi turlari kiradi?

4. Ijtimoiy ishlab chiqarishdagi mehnatning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Ularning rivojlanishi qay tarzda kechadi?

5. Shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi mehnatning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Ularning rivojlanishi qay tarzda kechadi?

6. Bugungi kundagi maishiy faoliyatning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud? Ularning rivojlanishi qay tarzda kechadi?

7. Ta'lim va malakani oshirish bilan bog'liq faoliyatning bugungi kundagi o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Ularning rivojlanishi qay tarzda kechadi?

8. Maishiy faoliyatning bugungi kundagi o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Ularning rivojlanishi qay tarzda kechadi?

9. Madaniyat va dam olish sohasidagi mehnatning bugungi kunda qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud? Ularning rivojlanishi qay tarzda kechadi?


II bob. JOYLASHTIRISHNING HUDUDIIY-IYERARXIYA TUZILMASINING SHAKLLANISHI

2.1. Aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyasi


Bugungi kunda shaharsozlik va loyihalash sohasida yangicha, yanada kattaroq miqyoslarda fikrlashga o'tish aholi punktlarining joylashuv tizimlaridagi samarali rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq masalalar majmuasini hal qilishning eng muhim sharti bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va shaharsozlik sohasida loyihalashtirish obyektlari sifatida alohida qishloq aholi punktlari bilan bir qatorda *joylashuvning guruhli shakllari* ham qabul qilinmoqda (2.1.-rasm). Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, aholi punktlarining me'moriy-rejali tashkil etish bo'yicha ko'pgina asosiy masalalar faqat alohida aholi punkti uchun emas, balki butun tizim miqyosida ko'rilishi mumkin. Bunda alohida aholi punktining rejali tuzilmasi hudud bo'yicha kattaroq miqyosga ega bo'lgan ancha murakkab tizim tarkibidagi kichik tizimga aylanib borayotgani kuzatilmoqda. Yuqorida qayd etilgan prinsiplar asosida aholi punktlarining guruhli tizimlari (APGT) shakllanadi.

Aholi punktlarining guruhli tizimlari (APGT) – aholining aholi punktlari o'rtasida qatnashiga sarflanadigan vaqt chegarasida joylashgan aholi punktlarining rejali-tartibga solinadigan tizimi. Bu tizim ijtimoiy-iqtisodiy va rejaviy funksional o'zaro munosabatlar integratsiyasi asosida turmush sharoitlarini optimallashtirish maqsadida yaratiladi.

Aholi punktlarining joylashuv tizimlarini shakllantirish yo'nali-shidagi rivojlanish jarayoni bir nechta bosqichga bo'linadi. Bu bosqichlarni ajratish kelgusidagi holat xarakterini prognozlash imkoniyatini beradi. Bu shaharlar, posyolkalar va qishloqlarning o'zaro bog'langan tarmog'ining grafik modelida yaqqol ko'rsatilgan bo'lib, oddiy aholi punktlari tarmog'i shartli ravishda bir turdagi maydon, shaharlar – ma'muriy markazlar joylashuv tizimining yadrolari, ma'muriy-hududiy bo'linish chegaralari esa – joylashuvning tuzilmaviy shakli sifatida ko'riladi (2.1.2.-rasm).



2.1.1-rasm. O'zbekiston Respublikasining turli joylashuv zonalaridagi aholi punktlari tarmog'lari hududiy tuzilmalarining rivojlanganlik darajasi



2.1.2-rasm. Aholi punktlari integratsiyasining grafik modeli

Aholi punktlarining o'zaro bog'liq tarzda rivojlanishining kuchayishi jarayonida to'rtta bosqichni ajratish mumkin, ularning har biri

aholi punktlari orasidagi o'zaro bog'liqlikning yanada yuqoriroq va yangi shakllari bilan farqlanadi. Respublikamizning aksariyat viloyatlaridagi joylashuv tizimi aholi punktlaridagi funksional tabaqalanishning kuchayishi va ilm-fan, dam olish va turizm, agrar sanoat ishlab chiqarish markazlari kabi bir qator ixtisoslashgan funksiyalarni bajaruvchi shahar va posyolkalar ajralib chiqishi bilan tavsiflanadi.

Aholi punktlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi shuni ko'rsatayotgani, viloyat va tumanlar miqyosidagi joylashuv tuzilmasi rivojlanishining keyingi bosqichi joylashuvning tabaqalashgan shakli deb e'tirof etiluvchi holatga o'tishdan iborat bo'ladi. Prognozlash-tirilayotgan bu bosqich tizimdagi barcha aholi punktlarining quyida keltirilgan o'zaro funksional bog'lanishlari: ijtimoiy-madaniy, rekreatsion va boshqa ixtisoslashgan umumtuzim miqyosidagi obyektlarning rivojlanishi (ular faqat tizim bo'g'inlari sifatida mavjud bo'lib faoliyat yuritishi mumkin); aholining viloyat tizimidagi barcha asosiy ixtisoslashgan markazlarga mayatniksimon migratsiyasi; shahar va qishloq aholi punktlari o'rtasidagi farqlanishlarning deyarli bo'lmashligi; tizimning aholi yashaydigan hududlarida yagona muhandislik-texnik infratuzilma shakllanishi bilan ajralib turadi. Shahar-markazlarning intensiv ta'sir zonasidagi qishloq aholi punktlari hamda viloyat va tumanlarning chekka qishloqlari rivojlanishi bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalari muayyan tizim doirasida shahar-markaziga nisbatan joylashuv hududlari bir turda bo'lmay, bu tizim chegarasida joylashgan aholi punktlarining tabaqalanish jarayoni kuchayganini ko'rsatayapti – buni «markazning ta'sir effekti» deb ta'riflash mumkin. Odatda, chekka hududlardan shakllanayotgan tizim markaziga yaqinlashgan sari aglomeratsiya va muhit urbanizatsiyasi jarayonlari faolligi oshib boradi. Bunda tizimning tuzilmaviy rejali yadrosidagi jarayonlar «quvvati» va hududiy birlashishlarning sifati chekka hududlarda joylashgan aholi punktlari lokal guruhlaridagiga qaraganda ancha yuqori ekanligini qayd etish lozim. Bunday holatni aholi soni o'sishi va iqtisodiy rivojlanishning jadal sur'atlari, aholi o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar, shahar-markaz va uning atrofidagi aholi punktlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi aynan shahar-markaz yaqinida joylashgan aholi punktlarida kuzatilishi bilan izohlash mumkin. Viloyatlardagi joylashuv tizimlari doirasida esa bu kabi aglomeratsion jarayonlar viloyat markazidan uzoqda joylashgan

tuman markazlari (yoki nisbatan katta shaharlar) atrofida sodir bo'ladi. Joylashuvning shakllanayotgan tizimlari ichida hududiy birlashish jarayonlari natijasida joylashuv mintaqalari hosil bo'lib, ular asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va tuzilmaviy-rejali ko'rsatkichlar, qishloq aholi punktlarining markaziy shaharga nisbatan joylashish xususiyatlari bo'yicha sezilarli farqlanadi. (2.1.3-rasm):

Joylashuvning I mintaqasidagi qishloq aholi punktlari, ular, asosan, bosh transport kommunikatsiyalar bo'ylab shakllanuvchi rivojlanishning asosiy o'qlarida joylashadi. Bu o'qlar monomarkazli tizimlarda joylashuvning o'ziga xos nurlarini tashkil etadilar. Shaharsozlikka oid barcha ko'rsatkichlar (binolarning zichligi, funksiyalarning xususiyatlari, kundalik aloqalarning yo'nalishi va intensivligi, texnik infratuzilmaning umumiyligi, rivojlanish sur'atlari va b.) qaysi aholi punktlari yirik shahar-markazning tarkibiga kirishini belgilab beradi. Ularning rejaviy tuzilmasini rivojlanishi aglomeratsiya uchun umumiy rejaviy tuzilma shakllanishi masalalarining hal qilinishiga bog'liq;

joylashuvning I mintaqasidagi joylashuv turlari tashqarisidagi qishloq aholi punktlari rivojlanishi nisbatan sustroq bo'lib, ularning hududiy o'sish istiqbollari aglomeratsiya uchun umumiy rejaviy tuzilma shakllanishi masalalarining hal qilinishiga bog'liq;


joylashuvning II mintaqasi rivojlanish o'qidagi qishloq aholi punktlari. Bunday aholi punktlarining rejaviy tuzilmasi aglomeratsiyani kichik markazlari ta'siri ostida shakllanadi. U yirik tasmasimon tuzilmaning bir qismi sifatida rivojlanishini nazarda tutish kerak.

joylashuvning III mintaqasi rivojlanish o'qidagi qishloq aholi punktlari. Bunday aholi punktlari rejaviy tuzilmasi joylashuvlarni lokal guruhi ichidagi turli aloqalar ortishi sharoitida rivojlanadi. Yuqorida bayon etilganlar yakuni sifatida ta'kidlash lozimki, shakllanayotgan joylashuv tizimlaridagi aholi punktlari tuzilmaviy integratsiyasi jarayonlarini anglash shaharsozlardan ularning rivojlanishi va rejali tashkil etilishiga yangicha yondoshishni talab qiladi. Bunday yondoshuvning mazmun-mohiyati quyidagi asosiy metodik holatlar mujassamligini hayotga tatbiq etishdan iborat:

aholi punktni alohida obyekt sifatida loyihalashtirishdan voz kechish;



AHOLI PUNKTLARINING JOYLASHUV TIZIMIDAGI O'ZARO BOG'LANISHLARINING PRINSIPIAL SKEMASI



2.1.3-rasni. Aholi punktlarining joylashuv tizimidagi holati

loyihalashtirilayotgan obyekt rivojlanishi miqyosini boshqa holatlar bilan birlashtirgan va rejali tuzilmasini shakllanishini uning shakllanayotgan joylashuv tizimidagi holati va funksiyalarini hisobga olgan holda aniqlash;

loyiha ishlari turlarini va loyiha hujjatlari mazmun-mohiyatini joylashuv tizimlariga muvofiqlashtirish. Aholining barcha qatlamlari uchun, ular qaerda yashashidan qat'iy nazar, mehnat, turmush va ijtimoiy-madaniy sharoitlarni imkon qadar bir xil darajada bo'lishi ta'minlash joylashuv tizimlaridagi qishloq aholi punktlarini funksional va rejali tashkil qilishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Joylashuv tizimlarini tashkil etish qishloq aholi punktlari aholisi uchun ham ishlab chiqarish, ham madaniy-maishiy va ijtimoiy sohalarida imkoniyatlar doirasini kengaytirish bilan birga joylashuvning shahar va qishloqqa xos tizimlari o'rtasidagi farqlanishlarni sezilarli darajada tenglashtirsa-da, ularni batamom bartaraf qila olmaydi. Shahar-markazi bilan transport aloqalari, shakllari va imkoniyatlari turlicha bo'lgani sababli joylashuv tizimining turli mintaqalaridagi qishloq aholi punktlari ham bir-birlaridan sezilarli darajada farqlanadi. Demak, hattoki kelgusida ham, joylashuv tizimining rivojlangan sharoitlarida ham turli aholi punktlarida yashovchilar bir qator muhim ko'rsatkichlar bo'yicha turlicha turmush sharoitlariga ega bo'ladilar. Lekin, ta'kidlash zarurki, agar qishloq aholi punktlaridagi qishloq aholisi ijtimoiy-iqtisodiy markazlardan uzoqda yashagani uchun muayyan turmush sharoitlari bo'yicha orqaroqda bo'lsalar, shahar aholisi tabiiy muhitdan uzoqda istiqomat qilganlari uchun yashash qulayliklari bo'yicha yomonroq sharoitda bo'ladilar. Yashash sharoitlaridagi shu kabi obyekтив tengsizlik kichikroq miqyosdagi hududiy tuzilmalar doirasida ham kuzatiladi. Amalda, bunday holat shuni anglatadiki, bir afzallikka (markazda istiqomat qilish) erishishdagi qiyinchiliklar boshqa afzallik – tabiiy muhitga yaqin bo'lish bilan kompensatsiyalanadi. Bu holatni tasodifiy deb hisoblash mumkin emas, uni kompensatsiyalash asosida yengib o'tish barcha joyda umumiy xususiyatga ega.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, barcha aholi yashaydigan joylarda, ularning asosiy markazlar va tuzilmaviy-rejali tugunlarga nisbatan joylashuvini inobatga olib turib, bunday farqlanishlarni kompensatsiyalashga asoslangan hisobga olish prinsipiga o'tish zarurligini tan olish lozim. Qishloq joylarga sanoat, xizmat ko'rsatish obyektlari va muhandislik-transport infratuzilmalarini kiritish asosida qishloq aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy potensialini kuchaytirish ehtiyoji tug'iladi. Natijada, agrar-sanoat integratsiyasi rivojlanib, qishloq hududlardagi joylashuv tizimlarida urbanizatsiya darajasi oshadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Aholi punktlarining guruhli tizimlari (APGT) qaysi prinsiplarga asosan shakllanadi?

2. Qishloq aholi punktlarining joylashuv tizimlari yo'nalishidagi rivojlanishi qaysi bosqichlarga bo'linadi (2.1.3-rasm bo'yicha)?

3. Shahar-markazlarning intensiv ta'siri zonasida, viloyatlar va tuman chekkalaridagi qishloq aholi punktlari rivojlanishida qanday o'ziga xos xususiyatlar bor?

4. Qishloq aholi punktlarining funksional va rejali tashkil etilishidagi asosiy vazifalardan biri (yashash joyidan qat'iy nazar barcha aholi uchun mehnat, turmush va ijtimoiy-madaniy sharoitlarining imkon qadar bir xil qilish vazifasi) qay tarzda hal qilinadi?

2.2. Turli iyerarxiya darajasidagi tizim tashkil qiluvchi markazlarning rivojlanishi

Agrar-sanoat integratsiyasi sharoitlarida qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish bazalarini tashkil qilish va shu jarayon bilan bog'liq chuqur ijtimoiy o'zgarishlar, bir tomondan, va nafaqat istiqbolli, balki zamonaviy sharoitlarga ham zid keluvchi shakllanib ulgurgan qishloqqa xos joylashuv tuzilmasi - ikkinchi tomondan, shundoq ham o'ta murakkab bo'lib turgan mavjud qishloq joylashuvi muammolarini yanada keskinlashtirmoqda.

Bu muammoning mohiyati shundan iboratki, qishloq aholi punktlarining shakllangan tarmoqlaridagi ko'pgina jihatlar qishloq joylarning kompleks tarzda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini jadallashtirish hamda shahar va qishloq aholisi uchun mehnat, turmush va dam olish sharoitlari o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishga qaratilgan talablarga mos kelmaydi. Shakllangan joylashuv muammolarining mazmuni mayda posyolkalarning mavjudligi, markaz tashkil qiluvchi markazlar va transport kommunikatsiyalarning yetishmasligi va yaxshi rivojlanmaganligi kabi uchta asosiy holat mujassamligida ochilishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud 11,7 ming qishloq aholi punktlarining kattagina qismini (3,2 ming yoki 28%) aholisining soni 100 dan 500 gacha bo'lgan qishloqlari tashkil qiladi. Yuqorida aytilganidek, bunday aholi punktlari respublika tumanlari bo'yicha

o'ta notekis taqsimlangan. Bu kabi qishloqlarning eng katta nisbiy ulushi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand va Buxoro viloyatlarida kuzatiladi. Va, aksincha, eng yirik qishloq aholi punktlari Namangan, Andijon, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlaridan jamlangan.

Ishlab chiqarishning va, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishning rivojlanishi, shuningdek qishloq turmushidagi ijtimoiy omillarning yaxshilanishi respublikadagi qishloq joylashuvi areallarini yetarli darajada saqlab qolish imkoniyatini beradi. Agrarsanoat integratsiyasi sharoitlarida esa bu holat ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatlarida ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Agrosanoat komplekslari keng rivojlanishida mavjud aholi punktlaridagi aholi konsentratsiyasi miqyoslari umuman oshib boradi. Bu esa, o'z navbatida, kichik qishloq aholi punktlari sonining ma'lum darajada qisqarishiga olib keladi.

Qishloq joylashuvi konsentratsiyasi masalasining dolzarbligi va murakkabligi kichik qishloq aholi punktlari sonining qisqarish sur'atlari juda past bo'lib, muammoning umumiy miqyosiga umuman mos kelmaydi. Biz tomondan o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi 15 yil ichida qishloq aholi punktlari sonining qisqarishi bir yilda 0,6% ni tashkil qilgan. Ta'kildash lozimki, bu ko'rsatkich oxirgi yillarda yanada pasaygan. Lekin, muammo faqat kichik qishloqlar soni qisqarishini past sur'atlariga taqalmaydi, qishloq aholisining shaharlarga ko'chib o'tishi o'ta tartibsiz va nobarqaror ekanligi ham salbiy ta'sirga ega. Agar bir necha yil avval shaharga asosan kichik qishloq aholisi ko'chib ketayotgan bo'lsa, hozir katta qishloq aholi punktlaridan, ba'zida, istiqbolli sanalgan aholi punktlaridan ham odamlar ko'chib ketayapti. Yirik qishloq aholi punktlaridan aholining chiqib ketish sur'atlari kichik qishloqlardagiga qaraganda jadalroq kechmoqda, sababi, kichik qishloqlarda qolgan aholining aksariyat qismi yoshi katta fuqarolardan iboratdir.

Kichik qishloq aholi punktlari sonini qisqartirish bo'yicha tadbirlar muhimligini baholab turib, yuzaga kelgan vaziyatni o'ta jiddiy muammo sifatida qabul qilish shart emas. Birinchidan, kichik qishloq aholi punktlari soni ko'paygandek tuyulsada, bu ko'rsatkich aytarli katta emasligini va bu kabi qishloqlar, asosan, mavsumiy ekanligini nazarda tutish zarur. Ikkinchidan, kichik va mayda («istiqbolsiz») qishloqlar sonining qisqarishi muammo bo'lib turgan

bo'lsada, ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan qurilish obyektlari, odatda, qishloq xo'jalik korxonalarining markaziy posyolkalarida jamlanishi lozim. Bunday sharoitlarda qishloq aholi punktlari sonini barqarorlashtirish masalasini rivojlanishning zarur bosqichi deb qabul qilish mumkin. Ana shu bosqichda respublikadagi joylashuv tarmog'ini kelgusida yanada faolroq tartibga solish uchun zamin yaratiladi. Uchinchidan, qishloq joylardagi kichik joylashuv tizimlarining mavjudligini ba'zi hollarda (ayniqsa, urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda) ijobiy holat deb baholash mumkin. Sababi, aynan shunday kichik aholi punktlarida shahardan tashqarida dam olish, dala hovlilarini qurish va rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyojlar qisman bo'lsada, lekin qondiriladi. Qishloq xo'jaligi va sanoatning uzviy bog'liq tarzda mavjud bo'lishi sharoitlarida qishloq aholi punktlarini shahar va qishloq joylashuvining yagona tizimdagi integratsiyasi ancha jiddiyoq masala hisoblanadi. Bu masala ikki tarkibiy qismga bo'linadi: markaz tashkil qiluvchi markazlari tarmoqlarining rivojlantirish va zichlash hamda ushbu markazlarni chekka qishloqlar bilan bog'lanishini ta'minlovchi transport kommunikatsiyalari tizimini rivojlantirish (2.2.1-rasm).

Markaz tashkil qiluvchi vazifalarni bajarayotgan shahar aholi punktlarining shakllangan tarmoqlarini tahlil qilish davomida bugungi holat miqdoriy jihatdan nisbatan yaxshi ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Turli iyerarxiya darajasidagi markazlarning viloyatlar bo'yicha (differensiallashgan) tahlilida umuman boshqacha manzara namoyon bo'ladi. Bunday yondoshuvda joylashuv bir tekisda emasligi va markaz tashkil etuvchi markazlar tarmoqlar soni kamligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

«O'zbekiston Respublikasi hududida aholi joylashuvining bosh sxemasi»da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra joylashuvning guruhli shakllaridagi eng yuqori darajaga ega markazlari – yirik shaharlar (aholisi 500 mingdan ortiq bo'lgan) bilan qondirilganligi bo'yicha holat nisbatan yaxshi ekan. Agar yirik shaharlarning viloyatlar kesimida bir tekisda taqsimlanmaganligi hisobga olinsa, yuqori darajadagi markazlar bilan ta'minlash masalasi yanada murakkablashadi (Toshkent, Samarqand va Farg'ona vodiysidagi viloyatlar bundan istisno). Angren-Olmaliq va Bekobod o'rta darajadagi tizimlari joylashgan Toshkent viloyati, shuningdek guruhli joylashuvning o'rtacha darajasiga ega Shahrizabz guruhiga ega Qashqadaryo

viloyatini hisobga olmasa, qolgan viloyatlarda o'rta darajadagi markazlar (aholi soni 100 mingdan 500 minggaacha bo'lgan shaharlar) bilan holat ham xuddi shunday.

Joylashuvning Guliston guruhiga ega Sirdaryo viloyatidan tashqari qolgan boshqa viloyatlarda guruhli joylashuvning o'rtacha tizimlari faqat o'z viloyat markazlariga egalar.

Aholisining soni 100 ming kishigacha bo'lgan quyi darajali guruhli joylashuv tuzilmalarida holat nisbatan yaxshi hisoblanadi (3-jadval). Respublikaning aksariyat viloyatlarida shakllangan bu ko'rsatkichni nisbatan yaxshi deb qabul qilsa bo'ladi. Lekin, bu vaziyatni bir xil baholash ham noto'g'ri bo'ladi, sababi, bu kabi markazlar tarkibidagi aksariyat aholi punktlari tizim tashkil etuvchi maqomiga ega emaslar. Agar ularni istisno qiladigan bo'lsak, u holda respublikaning ko'pgina viloyatlari va tumanlarida tizim tashkil etuvchi mahalliy markazlar yetishmasligi ayon bo'ladi, vaholanki, aynan shunday markazlar qishloq hududlardagi joylashuv tizimlarini takomillashtirishda juda muhim ahamiyatga egalar.

Bugunning o'zidayoq ana shu holat quyi ma'muriy tumanlardagi ishlab chiqarish bazasini samarali rivojlantirishga va ulardagi ijtimoiy-madaniy potensialni hududlar bo'yicha tashkil etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuning uchun ham, bu ma'muriy tumanlarning posyolkalararo markazlari tarkibi va joylashuvini asoslash hamda tizim tashkil etuvchi funksiyalarni ular o'rtasida taqsimlash qishloq hududlardagi joylashuv tizimini rekonstruksiya qilishning bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Bu mahalliy tizim tashkil etuvchi markazlar sonini mexanik tarzda ko'paytirishni anglatmaydi. Bunda, birinchi navbatda, mavjud yirik qishloqlar va kichik shaharlarni rivojlantirish, ularni amaldagi tizim tashkil qiluvchi markazlarga o'zgartirish masalasini hal qilish zarur. Mahalliy tizim tashkil etuvchi markazlar zichligi yetarlicha yuqori bo'lgan holatlarda, asosiy vazifa ular orasidan eng istiqbolli deb topilganlarini rivojlantirishni asoslashdan iborat bo'ladi.

Qishloq hududlarini tizim tashkil qiluvchi markazlar bilan ta'minlashga bevosita aloqasi bo'lgan yana bir holat ham muhim hisoblanadi. Agrar-sanoat integratsiyasi jarayonlarini jadallashtirish va qishloq aholisiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish zarurati quyi darajadagi markazlar – qishloq xo'jalik korxonalari guruhi qoshidagi qishloq aholi punktlari darajasida

tegishli funksional aloqalar uchun shartli markazlar vazifasini bajaruvchi posyolkalarning istiqbolda rivojlantirish va ular tarmog'ini kengaytirish masalasi hal qilinishini talab qiladi.

Turli miqyosga ega tizim tashkil etuvchi markazlar haqida so'z yuritilganida, guruhli joylashuvning yirik va o'rta tizimlari markazlarini rivojlantirish muammosi, garchi, qishloq hududlardagi joylashuv tizimlarini tashkil qilish bilan bog'liq masalalarga bevosita va yaqindan bog'liq bo'lsada, ular doirasidan chiqib ketishini ta'kidlash zarur. Guruhli joylashuvning kichik tizimlari markazlari va nisbatan katta bo'lmagan qishloq aholi punktlarining markazlari masalasi quyi ma'muriy tumanlardagi joylashuv tarmoqlarini rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, qishloq hududlardagi joylashuv tizimlarini rivojlantirish muammosining bir qismi sifatida qabul qilinadi.

Turli miqyosdagi tizim tashkil qiluvchi markazlarni kengaytirish va yetarli darajada zich bo'lgan tarmoqlarini tashkil etish bilan bir qatorda qattiq qoplamali yo'llar sonini ko'paytirish ham qishloq aholi punktlarining yagona tizimga integratsiyalanishi uchun muhim omillardan hisoblanadi. Transportning alohida tumanlar va aholi punktlarini rivojlanishidagi roli hammaga ma'lum. Shuning uchun, transport va qishloq joylar urbanizatsiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahliliga alohida to'xtalmasdan ta'kidlash mumkinki, transport tizimidagi taraqqiyot qishloq joylardagi urbanizatsiya jarayonining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadi. Yo'llar tarmog'i zichligi qanchalik yuqori va harakatlanish vositalari qanchalik takomillashgan bo'lsa, qishloq joylarning moddiy-texnika bazasi va ishlab chiqarish darajasi shunchalik rivojlangan bo'ladi.

Agrar-sanoat integratsiyasi – transport kommunikatsiyalari rivojlanishini rag'batlantiruvchi va jadallashtiruvchi omillardan biri. Buning dastlabki shartlari – dehqonchilik va sanoatning uzviy mujassamligi sharoitlarida hududning alohida elementlaridagi funksional yagonalik (ham texnologik, ham ijtimoiy-iqtisodiy) darajasining ortishi, yuk va yo'lovchi tashish miqyoslarini ortayotgani, muhandislik kommunikatsiyalarni rivojlantirish uchun moddiy resurslarning o'sishi hisoblanadi.


Qishloq aholi punktlarini joylashuvning yagona tizimiga kiritilishi nafaqat miqdoriy, balki sifatiy jihatlariga ham ega. Agar miqdoriy jihat joylashuvning mahalliy tizimlari uchun optimal parametrlarni (istiqbolli qishloq aholi punktlarining soni, markazlar va

kommunikatsiyalar joylashuvining zichligi) o'ratishdan iborat bo'lsa, sifatii jihat – aloqalarni o'zgartirish, ularni takomillashtirishdan iborat bo'ladi. Bugungi kunda qishloq aholi punktlarini yaxshi transport tarmoqlari va ishonchli harakatlanish vositalari yordamida shaharlar bilan bog'lash kamlik qiladi. Shaharning qishloq aholisiga ta'siri faolroq bo'lishi talab etilmoqda. Bu tadbirlarning barchasi aholini joylashtirishga bevosita aloqasi bor, ularni amalga oshirilishi agrosanoat komplekslaridagi qishloq aholi punktlari tarmog'ini tashkil etishga sezilarli o'zgartishlar kiritishi mumkin.

Demak, agrar-sanoat integratsiyasi sharoitlarida qishloq joylardagi aholi punktlarini joylashtirish muammosi hal qilishning asosiy yo'nalishlarini quyidagi uchta vazifadan iborat butunlikda ko'rilishi zarur: kichik va mayda qishloqlardan iborat joylashuv tizimlari sonini qisqartirish, mahalliy tizim tashkil qiluvchi markazlarni rivojlantirish, transport kommunikatsiyalari tarmog'ini kengaytirish va zichlashtirish. Turli hududlarda o'ziga xos mujassamlilikda, turli miqyos va mutanosiblikda mavjud bu vazifalar respublikaning mintaqalarida qishloq aholisining joylashuvi bilan bog'liq muammolar dolzarbligining turli darajasini belgilab beradilar. Kichik qishloqlar soni ko'p va bu kabi aholi punktlar soni qisqarish sur'atlari past bo'lgan hamda tizim tashkil qiluvchi markazlar tarmog'i siyrak va transport kommunikatsiyalar zichligi yuqori bo'lmagan mintaqalarda bu muammo o'ta dolzarb hisoblanadi. Bunday vaziyat respublikaning kam o'zlashtirilgan hududlarida – Qoraqalpog'iston Respublikasining sharqiy qismi, Buxoro va Navoiy viloyatlarining shimoliy hududlari, Qashqadaryo viloyatining markaziy qismlarida kuzatiladi. Shu bilan birga, shunday mintaqalar borki, u yerda qishloq aholisini joylashtirish muammosi ancha yengil ko'rinishga ega. Bu kabi hududlar sirasiga Farg'ona vodiysidagi viloyatlarni kiritish mumkin – u yerda yirik qishloq aholi punktlarining tarmog'i shakllangan bo'lib, mahalliy markazlar tizimi ancha rivojlangan va transport kommunikatsiyalari bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori hisoblanadi. Uchta vazifadan iborat butunlikdagi muammolarni hal qila turib, quyi ma'muriy tizimlar (joylashuvning mahalliy tizimlari) chegarasida istiqomat qilishning eng qulay sharoitlariga erishish masalalarini ham hal qilish mumkin.

Bizning baholashimizga ko'ra, aynan shunday joylashuv tizimlarida qishloq aholisi tarkibining 75% gacha bo'lgan ulushi

yashaydi¹, bu holat esa, o'z navbatida, ushbu muammoni yanada chuqurroq tahlil qilishni talab etadi.



2.2.1-rasm. Aholi punktlari tarmog'ini tuzilmaviy holatlari

¹ 2003 yilda «O'zqishloqloyiha» instituti xodimlari tomonidan bevosita M.Umarov rahbarligi va bevosita ishtirokida o'tkazilgan qishloq aholi punktlarini ro'yxatdan o'tkazish natijalaridan olingan ma'lumot.

O'zbekiston Respublikasida joylashuvning guruhli shakllari

Yirik shaharlar	Shaharlar-markazlar aholisining soni, ming kishi		O'rtacha kattalikdagi shaharlar	Shaharlar-markazlar aholisining soni, ming kishi		Kichik shaharlar	Shaharlar-markazlar aholisining soni, ming kishi	
	2003y.	2025y.		2003y.	2025y.		2003y.	2025y.
Toshkent	2132,3	2700	Nukus	217,9	360	Beruniy-To'rtko'l	53,6 50,1	80 72
Samarqand	360,8	550	Urganch	137,6	190	Qo'n-g'iro't	35,9	85
Namangan	399,4	550	Buxoro	238,3	370	Chimboy	45,7	70
Andijon	345,7	550	Qarshi	207,0	290	Xiva	49,7	70
Farg'ona-Marg'ilon	184,0 + 160,9	225 + 190	Shahrisabz	89,2	125	G'ijduvon	38,6	60
			Termiz	118,3	168	Zarafshon	53,8	75
			Jizzax	135,5	190	Katta-qo'rg'on	65,3	85
			Navoiy	141,9	200	Guliston	55,6	72
			Qo'qon	200,6	230	Yangiyer - Xovos	27,8 27,7	74
			Angren-Olmaliq	128,2	145	Parkent	45,5	62
			Bekobod	84,4	105	Chust-Pop	63,2 22,5	80 40

Eslatma:

Tizimdagi shahar-markazning gavjumligi kattaligi bo'yicha joylashuvning guruhli shakllariga ajratish mezonini hisoblanadi: yirik markazlar uchun – 500 ming kishi va undan ko'p; o'rtacha kattalikdagi shahar-markazlar uchun – 100-500 ming kishi; kichik shahar-markazlar uchun – 50-100 ming kishi. Bunda shahar-markazlarga transportda qatnash: yirik tizimlar uchun – 120 daqiqagacha, o'rtacha tizimlar uchun – 90 daqiqagacha; kichik tizimlar uchun – 60 daqiqagacha

Takrorlash uchun savollar:

1. Qishloq hududlardagi aholi joylashuvi tizimidagi mavjud muammoni qaysi omillar keskinlashtirmoqda

2. Qishloq hududlardagi aholi joylashuvi tizimidagi muammoning mohiyati nimadan iborat?

3. Qishloq hududlardagi aholi joylashuvining shakllangan tizimidagi muammo mazmuni qaysi asosiy holatlar mujassamligida ochib berilishi mumkin?

4. Qishloq aholi punktlarini shahar va qishloq joylashuvining yagona tizimiga integratsiya qilish vazifasi qaysi ikkita tarkibiy qismdan iborat?

5. Qishloq hududlarda aholi joylashuvi tizimi rekonstruksiya-sining hozirgi bosqichidagi asosiy vazifasi nimadan iborat?

6. Quyi darajali markazlar – kichik va mayda qishloq aholi punktlari joylashgan tizim markazlariga qanday rol ajratiladi?

7. Turli darajadagi tizim tashkil qiluvchi markazlar tarmog'ini rivojlantirish va zichlash bilan bir qatorda yana qaysi omil qishloq aholi punktlarini yagona tizimga integratsiya qilishda o'ta muhim hisoblanadi?

8. Qishloq joylardagi aholi punktlarini joylashtirish muammosini hal qilishning asosiy yo'nalishlarini qaysi uchta vazifadan iborat butunlikda ko'rish zarur?

2.3. Joylashtirishning mahalliy tizimlarini tuzilmaviy-rejali tashkil etish

Joylashtirishning mahalliy tizimlarini qishloq aholi punktlari va faoliyatning hududiy turlarini rivojlantirish bilan bog'liq shakllantirish shahar va qishloq aholi punktlarining o'zaro bog'liqlikda rivojlantirish masalasini hal qilishga, shuningdek bu kabi rivojlanishning aniq shaharsozlik shakllari yaratilishiga yordam beradi. Lekin, aholi punktlarini loyihalashtirishning hozirgi amaliyotida alohida shakllangan aholi punktlarini rejalashtirish va ularda turli soha obyektlarini qurish asosiy shaharsozlik masalasi bo'lib kelmoqda. Bu kabi yondoshuv shahar va qishloq aholi punktlarining o'zaro bog'liq ravishda rivojlanish tendensiyasiga ziddir. Shu sababdan, aholi punktlarini

rivojlantirish bo'yicha shaharsozlik masalalari yechimiga kompleks yondoshuv zarurati borgan sari dolzarb ko'rinishga ega bo'lmoqda.

Ma'muriy tumanlarda qishloq aholi punktlari rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlarni va muvofiq xo'jalik infratuzilmalarining hududiy tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilinishi joylashtirishning mahalliy tizimlaridagi funksional va rejali tuzilmalari shakllanishidagi quyidagi muhim jihatlarni ochib bermoqda:

- joylashtirishning mahalliy tizimlarini shakllantirish jarayonida aholi punktlari-markazlarning tuzilma tashkil qiluvchi roli va ahamiyati kuchayib borayapti, bu holat ma'muriy tuman aholisining aksariyat qismi mahalliy markazga jamlanishida ifodalanadi;

- xo'jalik o'zgarishidagi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir qilish zonasidagi joylashuvning xususiyatlarni belgilab beruvchi omil sifatida mahalliy markaz ahamiyatining ortishi;

- shakllanayotgan tizim doirasida joylashuvning hududiy va funksional jihatdan birlashishi, bunga yuqorida sanab o'tilgan jarayonlar sabab bo'lmoqda;

- mahalliy tizimlarning funksional va tuzilmaviy-funksional yaxlitligining kuchayishi, bunga ular doirasidagi transport tarmoqlarining takomillashuvi, aholining mehnat va madaniy-maishiy mayatniksimon migratsiyasi, aholiga qishloqlararo ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining shakllanishi va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatishning ko'chma shakllari rivojlanishi kabi omillar yordam beradi;

- agrar-sanoat integratsiyasi jarayonlarining asosan joylashuvning mahalliy tizimlari doirasida rivojlanishi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishga agrar-sanoat birlashmalarni tatbiq qilish va shu yo'l bilan ma'muriy tuman yoki tumanlar guruhi ishlab chiqarish tizimini hududiy ishlab chiqarish birligiga aylantirish uchun dastlabki shartlarni yaratilishi mahalliy markaz va istiqbolli qishloq aholi punktlarining funksional tuzilmasini murakkablashtirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga aholi punkti –

mahalliy markazning intensiv ta'siri ostidagi zonada agrosanoat ishlab chiqarish infratuzilmasi jamlanishi uchun sharoitlar tashkil qilinadi. Bir vaqtning o'zida markazdan uzoqda joylashgan mahalliy joylashuv tizimlarida mehnatkashlar mavsumiy yoki vaqtincha ishlaydigan ishlab chiqarish bazalari rivojlanishi uchun dastlabki shartlar ham yaratiladi.

Sanab o'tilgan tendensiylarning barchasi istiqbolli joylashuv xarakteriga, joylashuvning mahalliy tizimlari va, mos ravishda, markazlar vazifasini bajaruvchi yoki, aksariyat hollarda, joylashuvning mahalliy tizimlarida oddiy bo'g'in sifatida qaratiladigan aholi punktlarining rejali tashkil etilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu tendensiylar barcha shaharsozlik tadbirlar va, birinchi navbatda, butun tizimdagi joylashuv rivojlanishi manfaatlarini hisobga olgan holda markazlarning rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning ijtimoiy, iqtisodiy va me'moriy-rejali nuqtayi nazardagi samaradorligini baholash zarur ekanligini ko'rsatadi. Bu tendensiylar joylashuvning shakllanayotgan mahalliy tizimlarini yagona shaharsozlik butunligini va kelgusida ular asosida sifat nuqtayi nazarida yangi, shaharsozlik nuqtayi nazarida yagona tuzilmalar – joylashuvning lokal hududiy birliklari paydo bo'lishini shartlab beradilar (2.3.1-rasm).


Bu kabi joylashuv birliklarini ishlab chiqarish aloqalarini hisobga olgan holda yaratilishi shakllangan qishloq joylashuvini o'zgartirishda prinsipial ahamiyatga ega, sababi, joylashuvning lokal hududiy birliklaridagi aholi punktlari butun mujassamligining («loter») rivojlanishini boshqarish bo'yicha tadbirlarning (iqtisodiy, ijtimoiy, shaharsozlik va b.) yagona kompleksi ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Tuman doirasida xo'jalik yoki ijtimoiy umumiylik asosida shakllanayotgan har bir hududiy joylashuvning lokal birligi yuqorida sanab o'tilgan tendensiylar ta'siri ostida kelgusida mahalliy markaz tomonidan boshqariladigan va kommunikatsiyalarning umumiy tizimi bilan bog'langan turar-joy, mehnat va dam olish zonalaridan tarkib topgan komplekslarni tashkil qiladilar. Lokal hududiy birlik aholisi uchun istiqbolda kundalik xususiyatga ega bo'lishi kutilayotgan mehnat va madaniy-maishiy aloqalar tufayli bunday birliklar, o'z mohiyatiga ko'ra, joylashuvning an'anaviy shakli, ya'ni muvofiq o'lchamga ega shahar (rejali tuzilmasi tarqoqlashgan) sifatida ko'rilishi mumkin bo'ladi.

Shunday shakllanayotgan joylashuv birliklarida joylashuv va hududdan foydalanishda har xillikning oshib borayotgan xususiyati namoyon bo'lmoqda. Qishloqlararo mehnat va madaniy-maishiy aloqalarning bugungi kundagi rivojlanishida yon-atrofdagi yashovchi aholining mahalliy markazlarda ishlaydilarining ulushi ancha salmoqli bo'lib, ba'zida mahalliy markazda ishlovchilarning 20-25% ni tashkil

qilmoqda. Bunday vaziyat ko'proq qishloq aholi punktlarining ko'pchiligi markaziy aholi punktiga yondosh bo'lganida kuzatiladi. Bunday holatda mahalliy markaz (tuman markazi) o'ziga yondosh qishloq aholi punktlari, shuningdek o'z hududi chegaralari yaqinida joylashgan ayrim qishloq xo'jalik obyektlari bilan joylashuv yadrosini shakllantiradi, bu yadro lokal hududiy joylashuv birligining rejali tuzilmasida yetakchi o'rinni egallaydi.

Shahardan tashqarida yashaydigan, lekin markazda ishlaydigan mehnatkashlar joylashuvining chiziqli radiusi bir qator omillarga, birinchi navbatda, transport qatnoviga bog'liq ravishda sezilarli darajada farqlanadi. Shaharlikmas mehnatkashlarning katta qismi (30% va undan ko'p) mahalliy markazga avtobus qatnovi bilan bog'langan bo'lib, odatda, shahardan 15 km dan uzoq bo'lmagan aholi punktlarida yashaydilar. Bunday mehnatkashlarning aksariyati uchun joylashuv zonasi markaziy aholi punktidan 10-12 km uzoqlikdagi radiusni tashkil qiladi. Bir soatli yo'l radiusida joylashgan qishloq aholi punktlarida yashovchi aholi (shuningdek, 10-15 km uzoqlikda, ya'ni 1,5 soatli radiusda yashaydiganlar ham) tumanning boshqa aholi punktlariga qaraganda tuman markazi bilan ko'proq va yaqinroq, taxminan haftasiga bir marta aloqada bo'lib, tuman markazidagi asosiy madaniy-maishiy muassasalardan foydalanadilar. Mehnat va madaniy-maishiy aloqalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu zonada joylashgan qishloq aholi punktlari shahar bilan boshqa aholi punktlariga qaraganda ko'proq aloqada bo'lar ekanlar. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ko'pchilik tuman markazlari 10-15 km radiusda o'ziga xos «intensiv ta'sir zonasi»ni tashkil etadilar.

- qishloq xo'jalik uchun talab qilingan ishchi kuchini to'liq aniqlash uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridagi mehnat sarflari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish zarur; a) ishga layoqatli ishchilarning o'tgan yildagi soni; b) 12 dan 16 yoshgacha o'spirinlarning soni, ularni ishga layoqatli ishchilar toifasiga o'tkazish bilan; d) Ishga layoqatli aholi sonining rejalashtirilayotgan muddat davomida o'sishi (O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari). Barcha hisob-kitoblar asosida yig'ma jadval - mehnat resurslari balansi - tuziladi. Mehnat balansi bo'yicha hisob-kitoblarning yakuniy qismida mavsum bo'yicha dehqonchilikda band bo'lmagan va kuz-qish oylarida ishga joylashtirilishi talab qilinadigan ishchilar soni ko'rsatilishi lozim.

3.4. Uy-joy qurilishini rivojlantirish

Qishloqda xo'jalik yuritishning yangi iqtisodiy usullariga o'tish, birinchi navbatda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning yangi, istiqbolli normalarini rivojlanishi bilan bog'liq bir qator masalalar yechilishini talab qiladi. Bugungi kunda ijaraga asoslangan pudrat, ayniqsa, jamoaviy, oilaviy, yakka tartibdagi ko'rinishlari, fermer (dehqon) xo'jaligi kabi shakllari dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida qurilishning har xil turlarini: qo'rg'onlar, kam qavatli, zich joylashtirilgan, tekis hududlarda va murakkab relyefli uchastkalarda quriladigan uy-joy tuzilmalarini qo'llash lozim, bunda uy-joy qurilishi qulay uy-joy muhitini shakllantirishning ko'p turdagi talablariga (shaharsozlik, demografik, tabiiy-iqlimiy, estetik) javob berishi kerak. Qishloqdagi manzilgohlarda uy-joy qurilishining elementlari tarkibi, o'lchamlari va me'moriy-rejali tashkil etilishi oilalarning funksional-maishiy jara-yonlari, jamoaning qo'shnichilik munosabatlari (mahalla) va ijtimoiy uyushmalarning boshqa turlari bilan belgilanadi.

Ta'kidlash lozimki, xo'jalik yuritishning yangi shakllari o'zaro qo'shilib, turli birlashmalarni hosil qilmoqda. Dehqon xo'jaliklari faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish maqsadida kooperativ, shirkat, uyushmalarga birlashish va ular tarkibidan chiqish huquqiga egalar.

Yerga bo'lgan mulkchilikning bu kabi shakli dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligiga oid turli ixtisoslashuvlarning yanada jadal rivojlanishiga, va umuman, respublikani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi hal qilinishiga ko'maklashadi. Aholiga xizmat ko'rsatish (maishiy texnika, uskuna va asboblarni ta'miri) va hunarmandchilik (gilamdo'zlik, zardo'zlik, sopol idishlar ishlab chiqarish va h.k.) kabi sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar va kichik korxonalar qishloq aholisiga servis xizmatlarini ko'rsatish muam-mosini hal qilishga katta hissa qo'shadilar.

Xo'jalik yuritishning yangi shakllari rivojlanayotgan sharoitlarda qo'rg'oncha turidagi bir xonadonli turar-joylar qurilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday turar-joy binolarining foydali maydonlari katta va qulaylik darajasi yuqori bo'lib, uy xo'jaligi hovlisida turli yordamchi imorat va qurilmalar to'plami (xo'jalik va maishiy ehtiyojlarga bog'liq tarzda tuzilishi va shakli o'zgaradigan) bo'lishini ham ko'zda tutish

lozim. Qishloq joylarda quriladigan zamonaviy turar-joylarning bir qator variantlari mavjud:

- aholi istiqomat qiluvchi hududdan tashqarida, piyoda qatnash chegarasida joylashgan fermaga xizmat ko'rsatuvchi oila uchun mo'ljallangan turar-joy binosi. Bunday turar-joyning hovlisida uy xo'jaligi uchun zarur bo'lgan turli yordamchi qurilmalar to'plami ko'zda tutiladi;

- hovlisida agroservis yoki bosh xizmat turlarini ko'rsatish uchun qurilmalar va uskunalar bo'lgan yakka tartibda qurilgan turar-joy binosi;

- turar-joy xonalari va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish obyektlari ixcham shaklda joylashtirilgan alohida qo'rg'oncha, bunda oila istiqomat qiladigan xonalar va xo'jalik yuritish uchun mo'ljallangan yordamchi imorat va qurilmalar joylashuvi buyurtmachining talab va ehtiyojlariga asosan rejalashtiriladi.

Undan tashqari, aholi istiqomat qiluvchi hududdan uzoqda joylashgan qishloq xo'jalik obyektlari qoshida muvaqqat turar-joy komplekslari qurilishini ham ko'zda tutish lozim. Bunday turar-joylarda ishlab chiqarish obyektida mehnat qiluvchi mehnatkashlar (oilalar, brigada) yashashi uchun tegishli qulaylik darajasidagi sharoitlar yaratilishi lozim.

Yangi qurilish bilan birga mavjud uy-joy fondini, va birinchi navbatda, qo'rg'oncha ko'rinishidagi turar-joylarni modernizatsiya qilishga ham e'tibor qaratilishi lozim. mavjud qishloq turar-joy binolarini takomillashtirish jarayonida har bir aniq holat uchun amalga oshirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda modernizatsiyaning har xil turlarini (hajmli-rejali, xo'jalik-maishiy, sanitariya-gigiyenik) bajarish tavsiya etiladi. Buning uchun qishloq aholi punktlaridagi mavjud uy-joy fondini kompleks baholash ishlarini amalga oshirish lozim. Baholash jarayonida quyidagilar aniqlanishi zarur:

- turar-joy va hovlidagi yordamchi qurilmalar amortizatsiyasining foizi;

- turar-joy xonalari va hovlidagi yordamchi qurilmalarning umumiy maydoni;

- turar-joy binosining me'moriy-rejali jihatlarini;

- turar-joy binosining sanitariya-gigiyenik xususiyatlari;

- muhandislik uskunalarining darajasi;

- turar-joyni barpo etishda qo'llanilgan qurilish materiallarining texnik xarakteristikasi.

Qishloq xo'jalik korxonalari hududini me'moriy-rejali tashkil etish loyihasida quyidagilar belgilanishi lozim:

- yangi uy-joy qurilishining hajmlari va joylashishi, qurilishning birinchi navbati va uy-joy qurilishini kelgusida rivojlantirish uchun zaxira maydonlari ham belgilanadi;

- sanitariya-himoya zonasi yoki suv bosib qolishi mumkin bo'lgan zonalaridagi uy-joylar qurilishi chegaralari, bu kabi qurilmalarni yangi joylarga ko'chirish yoki nomaqbul sanitariya-gigiyenik vaziyatlarni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'tkazish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish;

- modernizatsiya qilinadigan turar-joy binolarining soni, turi va joylashtirilishi, birinchi navbatda bajariladigan ishlar;

- shaxsiy tomorqalar uchun ajratiladigan yer uchastkalarining o'lchamlari va joylashtirilishi;

- yangi qurilish uchun turar-joy binolarining tavsiya etiladigan tiplari.

Ijaraga yer olgan yoki oilaviy ferma tashkil qilmoqchi aholini joylashtirish maqsadida kichik qishloqlar hududidagi yer maydonlaridan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Mutaxassislar tomonidan respublikaning turli iqlim zonalarini (Qarshi, Xiva, Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Qoraqalpog'iston) va tog'li hududlari uchun turar-joy binolari rejalashining bir nechta variantlari taklif qilingan.

Bu ma'lumotlar quyiroqda, V bobning «Turar joy hududining me'moriy-rejali tashkil etilishi» deb nomlangan 5.2. bo'limida keltiriladi.

3.5. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va korxonalar tarmog'ini tashkil etish

Agrar sektor iqtisodiyotining mustahkamlanishi, jumladan xo'jalik yuritishning jamoaviy va oilaviy pudrat, shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari ko'rinishidagi turlarini rivojlanishi barcha qishloq aholi punktlariga: joylashuvning tayanch markazlaridan kichik qishloqlargacha madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil etishni taqozo qiladi.

Yoshlarning qishloq joylarda qolishi, malakali kadrlarni qishloq xo'jalik korxonalariga jalb qilinishi muayyan qishloq aholi punktidagi turmush sharoitlarining darajasiga bog'liq. Qishloq aholi punktlarida maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, davolash-profilaktika, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish va savdo muassasalarining mavjudligi katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va korxonalari tarmog'ini tashkil etilishini ijtimoiy xizmat ko'rsatishning qaror topgan tizimlariga muvofiq tarzda, yashash joyida ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan ta'minlanganlik darajasini hisobga olib loyihalashtirish zarur.

Qishloqdagi jamoat binolarini loyihalash va qurishni takomillash-tirish jarayonidagi asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimini xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish prinsipi asosida tashkil qilish, bunda ilmiy-texnik taraqqiyotning zamonaviy vositalaridan, jumladan ko'chma qurilmalar va dispatcherlik xizmatidan foydalanish ko'zda tutilishi lozim.

2. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimiga kiruvchi muassasa va korxonalar tarmog'i tuzilmasini ularning funksional vazifalariga bog'liq ravishda tashkil etish. Xizmat ko'rsatish tizimini shakllanirishda jamoat binolari, mavsumiy tusga ega inshootlar va ko'chma qurilmalar mujassamligidan foydalanish zarur. Tarmoqlar tuzilmasini belgilashda mintaqaviy o'ziga xoslikni hisobga olish, turli darajadagi muassasalar o'rtasidagi tuzilmaviy aloqalarni kuchaytirish zarur. Xizmat ko'rsatish tizimining muhim bo'g'ini sifatida kichik qishloqlarning markazlari ko'rilishi lozim.

3. Ishlab chiqarish markazlari va kichik aholi punktlariga xizmat ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilishi lozim, buning uchun aholiga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yangi binolar qurish yoki mavjudlarini modernizatsiya qilish lozim. kichik qishloqlarda jamoat markazining birlashtirilgan binolaridan, shuningdek, mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, tarkibida kichik sig'imli muassasalari bo'lgan turar-joy binolaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. 3.5.1-rasmda «Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari xizmat ko'rsatishining sxemasi» keltirilgan.

4. Jamoat binolarining quyidagi turlari keng tarqalishi lozim:

- kichik sig'imli va oilaviy maktabgacha muassasalar;

- joylashuvning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilgan maktablar, jumladan kichik sig'imli ta'lim muassasalari;

- boshlang'ich va o'rta maktablar bilan birlashtirilgan bog'chay-sililar;

- boshlang'ich maktab va bolalar bog'chasi bo'lgan o'qituvchi uyi;

- aholining barcha tabaqalari uchun mo'ljallangan ma'rifat, madaniyat va sport markazlari (odatda, o'rta maktablar qoshida tashkil qilinadi);

- madaniyat uylari va hordiq chiqarishga mo'ljallangan klublar (mehmonxonalar, sport va sog'lomlashtirish yo'nalishida faoliyat ko'rsatadigan klublar);

- ko'p funksiyali birlashtirilgan binolar: klub-idora, klub-oshxona, kafe, maktab-klub, sport guruhi bilan va h.k.

- ko'chma savdo va buyurtmalarni uyga yetkazib berishga, yordamchi xo'jaliklar mahsulotlarini qabul qilish va mavsumiy savdo hamda umumiy ovqatlanish shaxobchalarini tashkil qilishga ixtisoslashgan rivojlangan «Guzar» tarkibidagi savdo markazlari;

- jamoat markazlari komplekslari, shu jumladan kichik qishloqlar uchun mikromarkazlar;

- ijtimoiy himoyalangan aholi – faxriylar, qariyalar, nogironlar va yetimlar uchun binolar.

5. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va korxonalari tarmog'ining tashkil etilishi quyidagilar bo'yicha takliflarni o'z ichiga olishi lozim:

- qishloq fuqarolari yig'inining butun hududida maktabgacha va maktab ta'limi muassasalari tarmog'ining tashkil qilinishi;


- qishloq fuqarolari yig'ini aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining tashkil etilishi;

- qishloq fuqarolari yig'ini aholisiga madaniy-ma'rifiy va savdo-maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ining tashkil etilishi;

- qishloq fuqarolari yig'ini aholisiga rekreatsion xizmat ko'rsatilishi;

- qishloq fuqarolari yig'inining hududida ma'muriy va jamoat tashkilotlarining joylashtirilishi.

6. Qishloq fuqarolar yig'ini tarkibiga kiruvchi aholi punktlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini shakllantirish prinsipi:



- 1 - qishloqlararo xizmat ko'rsatish funksiyalarini bajaruvchi statsionar bino
- 2 - ko'chma xizmat ko'rsatish bo'yicha buyurtma qabul qiladigan statsionar bino
- 3 - qishloqlararo funksiyalarni bajarishga mo'ljallangan xonalar
- 4 - ko'chma xizmat ko'rsatish bo'yicha buyurtmalarni qabul xonalari
- 5 - yarim statsionar inshootlar (kiosklar, shiyponlar)
- 6 - ko'chma vositalar turargohi
- 7 - aloqa kommunikatsiyalari
- 8 - ko'chma xizmat ko'rsatish trassalari
- 9 - xizmat ko'rsatish va texnik vositalar uchun buyurtmalar harakatlantirish trassasi
- 10 - turar-joy binolari, qara xo'jaliklar

3.5.1-rasm. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari xizmat ko'rsatishining sxemasi

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmoqlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: umumiy tipdagi bolalar bog'cha-yasllari, sog'lomlash-tirish va ixtisoslashgan, muassasalar.

Aholisining soni 300 kishigacha bo'lgan aholi punktlarida kam sig'imli xususiy bolalar bog'cha-yasllarini joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Sog'lomlashtirish va ixtisoslashgan bog'cha-yasllar katta qishloq aholi punktlarida joylashtirish lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalari bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning sig'imi, yer uchastkalarining o'lchamlari har bir aholi punktida loyiha topshirig'iga muvofiq qabul qilinadi.

Umumta'lim o'quv muassasalari tarmog'i maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kabi maktab yoshidagi bolalarning ta'limning u yoki boshqa bosqichi bilan qamrab olinganligiga oid ko'rsatkichlar asosida hisoblab chiqilishi lozim. Maktablarning sig'imi mazkur qishloq aholi punkti va uning atrofidagi qishloqlardagi maktab yoshidagi bolalar soniga qarab belgilanadi.

Mavjud maktab fondini sifat nuqtayi nazarida baholab, maktabni tugatgan o'quvchilar yangi dastur bo'yicha maktab ta'limi tizimini yaratish uchun foydalanish imkoniyatlarini aniqlash lozim.

Bugungi kunda shakllanayotgan ishlab chiqarishga oid munosabatlar va joylashuv xususiyatlari qishloq aholi punktlaridagi bolalarga ta'lim berishning quyidagi shakllari tatbiq etilishini talab qilmoqda:

a) aholisi 100-200 kishidan iborat bo'lgan barcha qo'rg'onchalar-da o'quvchilar soni 15 gacha, aholisi 300-500 kishidan iborat bo'lgan-larida esa o'quvchilar soni 36 gacha boshlang'ich maktablar ko'zda tutilishi lozim;

b) aholisi 600 dan 2000 kishigacha bo'lgan qishloq aholi punktlarida xo'jalik faoliyatini qo'shimcha tayyorgarliksiz olib borish uchun zarur bo'lgan kasbga o'qitadigan ixtisoslashgan o'rta maktablar mavjud bo'lishi lozim;

d) aholi soni 2500 va undan ko'p bo'lgan qishloq aholi punktlari-da qobiliyatli bolalar uchun kollej va litseylar tashkil qilinishi lozim.

Ta'lim sohasidagi yangi dasturga o'tish barobarida umumta'lim maktablaridagi o'rinar soni (o'quvchilar soni va xonalar maydoni bo'yicha) qisqaradi.

Maktablarning sig'imi bo'yicha tahlil natijalari:

Respublika bo'yicha maktab yoshidagi (7-16 yosh) bolalarning aholining umumiy soniga nisbatan ulushi 28,3% ni, shu jumladan: 7-9 yoshdagilar – 8,9% ni tashkil qiladi. Ularning 7,4% boshlang'ich ta'limga ega bo'ladi, rivojlanishi sust bolalar (1,5%) ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida tahsil oladi.

10-16 yoshdagi bolalar ulushi 19,4% ni tashkil qiladi, ularning 7,0% quyidagi iqtisodiy sohalar bo'yicha ta'lim oladi:

a) biznes faoliyati

b) menejer

d) tadbirkorlik

e) huquqshunoslik

f) buxgalteriya hisobi va h.k.

- diniy yo'nalish bo'yicha tahsil oladiganlar 1,4% ni tashkil qiladi

- "Universitetlar" (maxsus ixtisoslar) - 3,0%

- xo'jaliklardagi ishlab chiqarishda mehnat qiluvchi mutaxassislar bilan ta'minlash - 8%

a) iqtisodchi

b) mexanizator

d) agronom

e) bog'bonchilik

f) irrigator

g) chorvachilik

17-jadval


Aholi-ning yoshi	Demog-rafik tuzilma bo'yicha foizdagi nisbat	Boshlang'ich maktab	Rivojlanish darajasi sust bolalar	V-IX sinflar				
				Bozor munosabatlari bo'yicha ixtisoslashuv	Diniy yo'nalishdagi ixtisoslashuv	Universitet yo'nalishidagi ixtisoslashuv	Xo'jalik yo'nalishidagi ixtisoslashuv	Umumta'lim matalari uchun o'rinlar
7-9 yosh	8,9	7,4	1,5					7,4
10-16 yosh	19,4			7,0	1,4	3,0	8,0	8,0
	28,3	7,4	1,5	7,0	1,4	3,0	8,0	15,4

- h) zootexnik
- i) quruvchi
- j) hamshira
- k) tikuvchilik (kiyim-kechak va poyafzal)
- l) hunarmandchilik va boshq.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, umumta'lim maktablaridagi o'rinlar soni 12,9% yoki 45,5% ga qisqaradi.

Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi muassasalaridagi aholi punktlari bo'yicha o'rinlar, ularning joylashtirilishi, xizmat ko'rsatish radiuslari, yer uchastkalarining maydonlari QMQ 2.07.04-98 «Qishloq xo'jalik korxonalari hududlarini me'moriy-rejaviy tashkillashtirish» va QMQ 2.07.01-94 «Qishloq aholi punktlarini rejalashtirish va qurish» normativ hujjatlariga muvofiq qabul qilinishi lozim.

Quyida o'quvchilar harakatlanishi va qishloq aholi punktlari bo'yicha maktablar joylashtirilishining taxminiy sxemasi keltirilgan (3.5.2-rasm)



3.5.2-rasm. O'quvchilar harakatlanishi va qishloq aholi punktlari bo'yicha maktablar joylashtirilishining taxminiy sxemasi

Qishloqdagi tibbiyot muassasalarining tarmog'i quyidagilardan iborat: feldsher-akusherlik punktlari, ambulatoriyalar, qishloq vrachlik punktlari, poliklinika yoki ambulatoriyalari bo'lgan kasalxonalar. Ular tuman, viloyat, respublika sog'liqni saqlash muassasalarining umumiy tarmog'i bilan uzviy bog'langanlar.

Qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish tarmog'ini tashkil qilishning asosiy vazifasi – qishloq aholi punktlaridagi barcha aholiga tibbiy yordam ko'rsatish.

Shakllanayotgan ishlab chiqarish munosabatlari va joylashuv hususiyati tibbiy xizmat ko'rsatish tarmog'ida quyidagi tibbiyot muassasalari tashkil etilishini taqozo qiladi:

Aholisining soni 100-200 kishi bo'lgan barcha qo'rg'onchalarda shifokorlar (terapevt, akusher, pediatr, tish texnigi) istiqomat qiladigan «turar-joy-tibbiy punkt». Shu binoning o'zida umumiy analizlar laboratoriyasi, 1-2 o'rinli statsionar va dorixona ko'zda tutilishi lozim.

Aholisining soni 600 dan 2000 kishigacha bo'lgan posyolkalarda keng qamrovli tibbiy xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan qishloq vrachlik punktlari tashkil qilinishi zarur. Bu muassasa qoshida dorixona, bir nechta o'rinli statsionar va maslahatxona bo'lishi kerak.

Aholining umumiy soni 3000 kishidan ortiq bo'lgan qishloq aholi punktlarida tarkibida poliklinika, tug'ruqxona, laboratoriya va dorixona bo'lgan uchastka kasalxonalari tashkil qilinishi lozim.

Bolalar salomatligini mustahkamlash uchun qulay iqlim va tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan joylarda sog'lomlashtirish maskanlari, kattalar uchun esa – dam olish uylari, profilaktoriylar qurish zarur.

Asosiy posyolkalarda dalada mehnat qilayotgan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish (ham profilaktik, ham tez tibbiy yordam) uchun ko'chma tibbiy punktlari ko'zda tutilishi lozim.


Har bir chorvachilik xo'jaligida veterinariya xizmati punktlari (laboratoriya va dorixonasi bilan) tashkil qilinishi kerak.

Qishloq aholi punktida istiqomat qiluvchi barcha aholi tibbiy yordam ko'rsatilishi bilan ta'minlanishi zarur, infeksiyon, onkologik va shu kabi og'ir kasalliklar bilan og'rigan kishilar tuman yoki viloyat markazidagi ixtisoslashgan kasalxonalarda davolanadilar.

Qishloqda tibbiy yordam ko'rsatishning ana shunday tizimini yaratilishi natijasida aholi punktidagi har bir shifokor o'z mijozlarini tug'ilganidan boshlab kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Undan tashqari, tibbiyot muassasalarini bunday tarmog'ining tashkil qilinishi ishga layoqatli aholi uchun qo'shimcha ish o'rinlari yaratib beradi.

Quyida qishloq aholi punktida tibbiy xizmat ko'rsatishning taxminiy sxemasi keltirilgan (3.5.3-rasm).



3.5.3-rasm. Qishloq aholi punktida tibbiy xizmat ko'rsatish sxemasi

Rekreatsiya funksiyalari rivojlangan qishloq fuqarolari yig'ini hududida madaniy-maishiy xizmatlarni ko'rsatishni tashkil qilishda aholining ehtiyojlarini va o'ziga xos milliy xususiyatlar va qaror topgan an'analarni inobatga olish lozim. Qishloq aholisi hordiq chiqarishini tashkil qilish uchun rekratsion xizmat ko'rsatishning uch bosqichli tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

1. Kundalik xizmat ko'rsatish obyektlari: bolalar uchun o'yin maydonchalari, katta yoshdagi aholi dam olishi uchun maydonchalar, mahalla markazlari uchastkalari, posyolka parklari, xiyobonlari, shuningdek, daryolar, tabiiy va sun'iy suv havzalari yonidagi plajlar. Bunday obyektlar aholi piyoda (30 daqiqagacha) yetib olishi mumkin bo'lgan radiusda joylash-tiriladi. Rekreatsion uchastkalarining o'lchamlari SHNQ 2.07.01-03 «Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududining rivojlanishi va qurilishini rejalashtirish» normativ hujjatining 15-jadvaliga asosan belgilanadi.

2. Hafta oxirida davriy ravishdagi qisqa muddat (1-2 kunlik) dam olish. Bunday dam olish turini tashkil qilish uchun tabiiy yoki sun'iy barpo etiladigan va tabiiy komponentlarga (suv, yashil o'simliklar, relyef, yuksak estetik xususiyatlarga) boy bo'lgan, aholi punktidan transportda 1-1,5 soat ichida yetib olish mumkin bo'lgan maxsus hududlar ajratilishi lozim.

3. Katta yoshdagi aholining har yilgi mehnat ta'tili va maktab yoshidagi bolalarning yozgi ta'tillari vaqtidagi epizodik, uzoq muddatli dam olishi uchun mo'ljallangan dam olish maskanlari – sanatoriyalar, dam olish uylari, pansionatlar, turistik bazalar, motellar, bolalarning sog'lomlashtirish muassasalari, bolalar muassasalarining yozgi bog' hovlilari.

Qishloq fuqarolari yig'ini hududida xarakteristikasi tumanlarni rejalashtirish loyihasida ko'rsatiladigan tuman, viloyat yoki respublika ahamiyatiga ega qimmatli rekreatsion resurslar mavjud bo'lsa, ulardan mazkur qishloq fuqarolari yig'ini hududida yashaydigan aholining dam olishi uchun foydalanish imkoniyatini belgilash zarur.

Sport binolari va inshootlari tarmog'i jismoniy tarbiya talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan hajmda, qishloq fuqarolari yig'inining butun aholisiga quyidagicha prinsipga ko'ra xizmat ko'rsatilishini hisobga olib turib loyihalashtirilishi lozim:

Har kuni sport bilan shug'ullanish uchun – maktab o'quvchilari va katta yoshdagi aholi sport o'yinlari va mashg'ulotlari bilan

shug'ullanishi uchun mo'ljallangan maydonchalar, ular 5-10 daqiqa ichida piyoda yetib olish radiusida (turar joy guruhlarida, maktab qoshida, mahalla markazi yonidagi rekratsion majmuada) joylashtirishi kerak.

Katta yoshdagi aholi va bolalarning mustaqil va murabbiy rahbarligida umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhlarida (salomatlik guruhlarida) va sport seksiyalarida muntazam ravishda shug'ullanish uchun.

Tizimli tarzda mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan sport markazi - 30 daqiqa ichida piyoda yetib borish radiusida joylashtirilishi lozim.

Sport inshootlarini loyihalashtirishda ulardan ko'p maqsadlarda foydalanish prinsipiga asoslanish zarur.

Ma'muriy binolar, moliya, aloqa muassasalari, jamoatchilik tashkilotlari, jamoat tartibi bo'linmalari, qishloq kengashlari (diniy muassasalar bundan mustasno) qishloq aholi punktlarining ijtimoiy markazi hududida joylashtirilishi va ma'muriy-ijtimoiy xizmatlar to'liq hajmda ko'rsatilishini ta'minlashi kerak.

Binolar imkon boricha birlashtirilishi kerak.

Joylashtirishning hajmi va manzili har bir muayyan holat uchun loyihalashtirish topshirig'iga binoan belgilanadi.

Binolar va muassasalarning tavsiya qilinadigan ro'yxati, ularning sig'imi va qishloq fuqarolari yig'inining aholi punktlari bo'yicha joylashtirilishi SHNQ 2.07.04-12 normativ hujjatning 10-15 jadvallarida keltirilgan.

Quyida madaniy-maishiy muassasalarning talab etilgan sig'imi-ning hisob-kitobi keltirilgan.

**Madaniy-maishiy muassasalarning talab etilgan
sig'imining hisob-kitobi**

18-jadval

Xizmat ko'rsatish muassasasi yoki korxonasi-ning nomlanishi	O'l. bir- ligi	1000 kishi uchun hisob- langan norma		Yer uchastka- sining o'lcham- lari	Xiz- mat ko'r- satish radi- usi, m	Eslatma
		1- navbat uchun	Hisob- langan muddat uchun			
1	2	3	4	5	6	7
<u>1. Bolalar bog'cha-yasllari</u>						- bolalarning qamrab olinishi 100% bo'lgan aholi punktlarida
A) Kunduzgi	o'-rin-lar	Maktab gacha yosh-dagi bolalar-ning 65% li	Maktab gacha yosh-dagi bolalar-ning 75% li	25 o'ringacha 50m2/ o'rin 90 o'rin 40m2/ o'rin 90 dan 500	500-700	1-navbat va hisoblangan muddat uchun bir xil qabul qilish lozim - boshlang'ich maktab bilan birlashtirilgan bog'cha-yasllar uchun muvofiq sig'imli
B) Sutkalik	o'-rin-lar	Bolalarning qamrab olinishi 85% bo'lgan yozgi kengaytirishli punkt		o'ringacha 35m2/ o'rin	--	alohida muassasalarning yer uchastkalari qo'shilishi kerak, bunda qo'shilgan maydonni 10% dan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytirishga yo'l qo'yiladi. - Yasli-bog'chalar yer uchastkalari maydonlarini quyidagi holat-

					larda kamaytirishga yo'l qo'yiladi: 25% ga – rekonstruksiya qilinganida. 15% ga – ular nishabliligi 20% dan ortiq, shuningdek uchastka elementlari binolarning tom-terrasalarida joylashtirilganida - katta va yirik qishloqlarda xizmat ko'rsatish radiusining yuqori chegarasini chiziqli va bo'lingan reja bilan qabul qilish lozim.
<u>2.</u> <u>Umumta'lim maktablari</u>					- sig'imi 40 tagcha o'quvchi uchun maktablar yer uchastkasi loyihalash topshirig'i bilan belgilanadi - sinflari to'ldirishi kam bo'lgan maktablar, shuningdek rekonstruksiya sharoitlarida yer uchastkalarini 20% gacha kamaytirishga yo'l qo'yiladi. - o'quv-tajriba
A) Boshlang'ich maktab (I-IV sinflar)	o'quvchilar	O'qitish bir smenali bo'lganida 6-9 yoshli bolalarning 100% li qamrovi	60m²/o'rin 40 dan 100ta gacha o'quvchi 50m²/o'rin 100 dan 300 tagacha o'quvchi	500-750m	
B) Asosiy maktab (I-IX sinflar)	o'quvchilar	O'qitish bir smenali bo'lganida 7-14 yoshli	60m²/o'rin 50 dan 300 tagacha o'quvchi	750-2000m	

D) Kollej, litsey, gimnaziya (I-XII sinflari)	---	bolalarning 100% li qamrovi O'qitish bir smenali bo'lganida 15-16 yoshli bolalarning 50% li qamrovi	50m ² /o'rin Sv.300 dan 400 tagacha o'quvchi 50m ² /o'rin 200 dan 400tagacha o'quvchi 36m ² /o'rin 400 dan 600tagacha o'quvchi 29m ² /o'rin 400 dan 600tagacha o'quvchi 25m ² /o'rin 700 dan 1100tagacha o'quvchi Yotoqxona korpusi joylashtirilgan holatlarda maktab yer uchastkasini 0,2 gektarga ko'paytirish zarur		ishlari uchun uchastkalarni istiqomat hududidan tashqarida sanitariya-himoya zonalarida va qishloqqa yondosh q-x korxonasi hududlarida joylashtirish kerak. - maktabdan tashqari muassasalarni maktab va klublar bilan birlashtirishga yo'l qo'yiladi
E) Maktab o'quvchilari uchun internat	o'rin	Transport yoki piyoda qatnashning 30 daqiqali chegarasidan tashqarida yashovchi o'quvchilarning 100% li qamrovi			
F) O'quv ustaxonalari, sexlar va maktabdan tashqari bolalar	---	Mahalliy sharoitlar, loyiha topshirig'i bo'yicha. Tegishli asoslanishlar			

muassasalari (yosh texniklar stansiyalari, sport, musiqa, badiiy maktablar)		mavjud bo'lganida maxsus topshiriq bo'yicha quyidagilar loyihalanishi mumkin: ot-sporti maktablari, velo-, moto-, avtodromlar, karting maydonlari, traktor poligonlari, suv stansiyalari, yaxtklublar, chang'i bazalari (tog'li hududlarda)			
F) Dam olish va mehnat lagerlari	---	Loyihalash topshirig'i bo'yicha			
<u>3.Sog'liqni saqlash muassasalari</u>					
A) Kasalxona (uchastka yoki posyolka)	o'rin	12-13,5 qo'shimcha: tuman kasalxonasida 1 ta o'rin, viloyat kasalxonasida 1-1,5 ta o'rin	1 ga 50 o'rin 2 ga 100 o'rin	Transportda qatnash vaqti 30 daqiqadan 1 soatgacha	- qishloq kasalxonasi o'z aholisining soni 4 ming kishidan ko'p bo'lgan har bir qishloq aholi punktida, umumiy soni 4 ming kishidan ko'p bo'lgan aholi punktlari guruhlarining markazlarida ko'zda tutilgan bo'lishi lozim

B) Poliklinika	Ob-yekt	Qishloq aholi punkti va ularning guruhidagi aholi soni 10 ming kishidan ortiq bo'lsa - 1 ta	Qurilish maydoni (kirish yo'llari bilan) 0,05 gektargacha	Transportda - piyoda qatnash vaqti 40 daqiqa	- xo'jalikda poliklinika, ambulatoriyalar bilan birlashtirilgan kamida bitta dorixona bo'lishi kerak. Har bir feldsher-akusherlik punktida dorixona kioski ko'zda tutilishi lozim.
D) Qishloq vrachlik ambulatoriyasi, statsionari, laboratoriya va dorixonasi bilan	--	Qishloq aholi punkti va ularning guruhidagi aholi soni 2 mingdan 10 ming kishigacha - 1 ta	--	Transportda - piyoda qatnash vaqti 30 daqiqa	- bolalar sut oshxonalari, odatda, tibbiyot muassasalari bilan birlashtiriladi; bunda yer uchastkasining umumiy maydonini 40-50% ga kamaytirish lozim. Aholisi 500 kishidan kam bo'lgan
E) Feldsher-akusherlik punkti, 1-2 o'rinli statsionari bilan	--	Posyolok va ularning guruhidagi aholi soni 500 dan 1000 tagacha bo'lsa - 1 ta	--	Transportda - piyoda qatnash vaqti 30 daqiqa	posyolka va ularning guruhlari uchun maxsus transportda eng yaqin sut oshxonasidan bolalar ovqatini yetkazib berish ko'zda tutilishi lozim. Muvofiq tarzda yasli yoki oziq-ovqat do'konlarida bolalar ovqatini saqlash va tarqatish xonalari tashkil
F) Tibbiy punkt	--	Posyolok yoki guruh aholisi 500 tagacha bo'lsa - 1 ta	--	--	

F) Dorixona yoki kiosk	--:--	Jamoa xo'jaligi uchun kamida 1 ta	--:--	--:--	qilinishi kerak.
J) Bolalar sut oshxonasi yoki tarqatish punkti	sutk adag i porsi ya- lar	Loyihalash top- shirig'i bo'yi- cha, 1000 kishi uchun 2000 (yoki 0 dan 1 yoshgacha bola uchun 4 ta por- siya). Aholisi 500 tagacha bo'lgan posyolok yoki guruh uchun - 1 ta	300 porsiyagac ha - 0,05 ga; 300- 400porsiya - 0,12ga;- 400- 600porsiya - 0,15ga	500- 800m	
4 Qarivalar uvi va nogironlar uchun internat	o'rin	Loyihalash topshirig'iga ko'ra bitta aholi punkti uchun 1 ta, 1000 kishi uchun 2-4 ta o'rin: Parvarishga muhtoj qariya- lar va nogiron- larning soniga qarab joylarda aniqlashtiriladi	Loyiha topshirig'i bo'yicha belgilanadi bir o'rin uchun - 100-150 m ²	--:--	Markaziy aholi punktlarida, tinch turar-joy ko'chalarida tibbiyot muassasalari yonida joylashtiriladi
5. Jismoniy tarbiya va sport inshootlari	Ga	0,5 - 0,9 Hisob bo'yicha har bir aholi punktida	--:--		- ochiq sport inshootlarini imkon qadar aholi punkti chegarasi yonida joylash- tirish lozim.
Tekis may- dondagi insho- otlar,sport	Ob- yekt	Aholisining soni 500 kishidan ortiq bo'lgan har bir qishloq aholi punktida Maktablar qoshida	30 da- qiqa ichida piyo-		- kompleks sport zali - posyolka va maktab uchun

zallari, sport komplekslari		qishloq aholi punktlarining guruhi yoki qishloq fuqarolari yig'ini hududi uchun 1 soat transportda yetib olish mumkin bo'lgan joyda: 500-1000 kishi yashaydigan aholi punkti uchun- 18x9m (162 m ²) o'lchamli zal; 500-1000 kishi yashaydigan aholi punkti uchun- 25x13 m (325m ²) o'lchamli zal; 3 mingdan 10 mingtagacha aholi yashaydigan posyolok va ularning guruhi uchun yagona zalning sig'imini posyolka aholisi va maktab o'quvchilari uchun talab qilingan sig'imler yig'indisi ko'rinishida aniqlash lozim.			da yetib olish mumkin bo'lgan joyda	umumiy, odatda maktab binosi tarkibida yoki jamoat markazi yonida joylashtiriladi. - aholi soni 500 kishidan kam bo'lgan posyolkalarda mahalliy sharoitlarga ko'ra 18x19 m o'lchamli kichik sport (gimnastika) zali ko'zda tutilishi mumkin va u jamoat markazi binosida joylashtiriladi - basseyin, odatda, maktab kompleksi tarkibida joylashtiriladi -
A) Posyolka aholisi uchun	m2 1000 kishi m2 1 ta o'quvchi ob-yekt	40 0,5	90 0,8	Imorat maydoni, kirish yo'llari bilan	30 da- qiqa ichida pi-yoda yetib olish mumkin bo'lgan joyda	Aholisining soni 5 mingdan 10 mingtagacha bo'lgan posyolka va ularning guruhlar uchun kattaroq - 500 m ² o'lchamli basseyin yoki 2 ta basseyin qurishga yo'l qo'yiladi
B) Maktab o'quvchilari uchun		1 ta - markaziy posyolka uchun, 1 soatli transport qatnovi chegarasidagi				

Basseylnlar (ochiq yoki yopiq)		posyolkalar guruhi (aholi soni 3 ming va undan ko'p)					
		Vannasi 25x8,5 m (suv yuzasi 212 m2)bo'lgan basseyin	Imorat maydoni, kirish yo'llari bilan		30 da- qiqa ichida pi- yoda yetib olish mum- kin bo'l- gan joyda		
6. <u>Madaniyat va san'at muassasalari</u>							- loyihalash topshirig'iga ko'ra klublarda attraksionlar zallari, o'yin avtomatlari, billiard, tennis, raqs zallari va diskotekalar bo'lishi mumkin.
A)Qishloq klublari, aholi soni:	o'rin					Piyo- da qat- nash vaqti	
0,5 mingta- gacha	--:--	----	100			30	
1,0 mingta- gacha	--:--	----	200			daqi- qa	- Oilaviy klubda videotekani loyihalashtirish maqsadga muvofiq
1,5 mingta- gacha	--:--	----	300			Piyo- da qat- nash vaqti	
2,0 mingta- gacha	--:--	----	400	0,5 - 1 ga		1 soat- gacha	
2,5 mingta- gacha	--:--	----	450				
3,0 mingta- gacha		----	600				
5,0 mingta- gacha		----	1000				
10,0 mingta- gacha							

B) Yozgi kinoteatr	o'rin	---	25	Park tarkibida	Piyo-da qat-nash vaqti 30 daqi-qa	
D) Kutub-xona	ming jild	3,5	4,5	Maktab tarkibida, jamoat markazi klublari klublari	---	
E) Oilaviy klub	o'rin	20-50	---	Imorat maydoni, kirish yo'llari bilan taxminan 0,05ga	---	
F) Yozgi raqs maydoni, estrada	---	Loyha-lash topshiri-g'iga ko'ra	---	Park tarkibida	---	
<u>7. Savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari:</u>						- savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'ini loyihalashda muayyan qishloq aholi punktining xususiyatlari, uning joylashuv tizimidagi o'rni hisobga olinishi zarur. Tegishli ravishda
A) Oziq-ovqat mahsulotlar	Savdo may-	90	95	Imorat maydoni, kirish	300m	

do'konlari	doni			yo'llari bilan		keltirilgan norma- tivlarni kamay- tirish yoki ko'pay- tirishga yo'l qo'- yiladi.
B) Maishiy mollar do'koni	---	130	175	Taxminan 0,03 ga – 100m ² gacha 0,05ga – 100 dan 200m ² gacha	300- 750m	- choyxona va novvoyxonalar turar-joy massivlarida joylashtirilishi mumkin: oilaviy pudrat asosida tashkil qilinganida ular turar-joy binosi bilan birlashtiriladilar
D) Umumiy ovqatlanish korxonalari: qishloq aholi punktida, ishlab chiqarish zonasida, dala shiyponida Choyxona	Mest --- o'rin m/sut ka	30 22 10 0,5 Loyiha topshi- rig'i bo'yi- cha				- Maishiy xizmat- lar uyi, buyurt- malarni markaz- lashgan tarzda bajarish korxonasi va kimyoviy toza- lash korxonasi, odatda, tuman markazida joy- lashtiriladilar.
Novvoyxona E)	Ish	1,3	1,5	Jamoat yoki savdo markazi tarkibida		Markaziy qo'rg'onchalarda, korxonaning butun aholisiga xizmat ko'rsatish shartida, joylashtirilishiga yo'l qo'yiladi.
Kompleks qabul qilish punktleri	o'rin- lari					- savdo, umumiy ovqatlanish korxonalari savdo markaziga birlashtirilganida
D) Maishiy xizmatlar uyi	---	2,5	3,3	Odatda, tuman markazida		
F) Buyurt- malarni markazlash- gan tarzda bajarish korxonasi	---	1,7 Aholi soniga ko'ra	2,2	Katta va yirik aholi punktleri uchun jamoat yoki savdo markazi tarkibida,		

B) Yozgi kinoteatr	o'rin	---	25	Park tarkibida	Piyoda qatnash vaqti 30 daqiqa	
D) Kutubxona	ming jild	3,5	4,5	Maktab tarkibida, jamoat markazi klublari klublari	---	
E) Oilaviy klub	o'rin	20-50	---	Imorat maydoni, kirish yo'llari bilan taxminan 0,05ga	---	
F) Yozgi raqs maydoni, estrada	---	Loyhalar topshiri-g'iga ko'ra	---	Park tarkibida	---	
<u>7. Savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari:</u>						- savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'ini loyihalashda muayyan qishloq aholi punktlarining xususiyatlari, uning joylashuv tizimidagi o'rni hisobga olinishi zarur. Tegishli ravishda
A) Oziq-ovqat mahsulotlar	Savdo may-	90	95	Imorat maydoni, kirish	300m	

do'konlari	doni			yo'llari bilan		keltirilgan norma-
B) Maishiy mollar do'koni	--	130	175	Taxminan 0,03 ga – 100m ² gacha	300-750m	tirish yoki ko'paytirishga yo'l qo'yiladi.
D) Umumiy ovqatlanish korxonalari: qishloq aholi punktida, ishlab chiqarish zonasida, dala shiyponida Choyxona	Mest -- o'rin m/sut ka	30 22 10 0,5				- choyxona va novvoyxonalar turar-joy massivlarida joylashtirilishi mumkin: oilaviy pudrat asosida tashkil qilinganida ular turar-joy binosi bilan birlashtiriladilar
Novvoyxona		Loyiha topshirig'i bo'yicha				- Maishiy xizmatlar uyi, buyurtmalarni markazlashgan tarzda bajarish korxonasi va kimyoviy tozalash korxonasi, odatda, tuman markazida joylashtiriladilar.
E) Kompleks qabul qilish punktlari	Ish o'rinlari	1,3	1,5	Jamoat yoki savdo markazi tarkibida		Markaziy qo'rg'onchalarda, korxonaning butun aholisiga xizmat ko'rsatish shartida, joylashtirilishiga yo'l qo'yiladi.
D) Maishiy xizmatlar uyi	--	2,5	3,3	Odatda, tuman markazida		- savdo, umumiy ovqatlanish korxonalari savdo markaziga birlashtirilganida
F) Buyurtmalarni markazlashgan tarzda bajarish korxonasi	--	1,7	2,2	Katta va yirik aholi punktlari uchun jamoat yoki savdo markazi tarkibida,		

G) Hammom, kir yuvish korxonasi H) Kimyoviy tozalash korxonasi				mustaqil joylashtirilganida bitta obyekt uchun 0,2 ga 0,2 ga na obyekt. Odatda, tumandagi kimyoviy tozalash fabrikasida (buyurtmani yetkazib berish bilan)	uchastka maydoni aholi soniga qarab ajratiladi: Aholi soni 3 ming kishigacha bo'lganida – bitta obyekt uchun 0,2 ga; Aholi soni 3 mingdan 5 ming kishigacha bo'lganida – 0,4 ga; Aholi soni 5 mingdan 10 ming kishigacha bo'lganida – 0,6 ga; Aholi soni 10 ming kishidan ko'p bo'lganida – 1,2 ga. Rekonstruksiya va tog'li hududlar sharoitida alohida savdo va maishiy korxonalari yer uchastkalari 15% gacha kamaytirilishi mumkin. Ko'rsatilgan sig'im normalarini 30% gacha, kichik qishloq punktlarida esa – 50% gacha kamaytirish yoki ko'paytirishga yo'l qo'yiladi.
--	--	--	--	---	--

8. Ma'muriy boshqaruv, moliya, aloqa tashkilotlari va muassasalari.					
A) Ma'muriy binolar	obyekt	Qishoq aholi punkti uchun bitta	Barcha muassasalarni bitta yoki	--	
Aloqa bo'linmasi	--	1,5 ming kishiga bitta muassasa	ikkita binoda joylash-tirish	--	
B) Avtomatik telefon stansiyasi	Telefon-lar soni	10 ta oilaga 1 ta 1 oilaga 1 ta	maqsadga muvofiq: uchastka maydoni 0,04-0,06	--	
D) Omonat kassasi	Ob-yekt	38 ming kishiga bitta.	ga	--	
E) Uchastka militsioneri xonasi (tayanch punkti)	--	Bitta posyolka uchun 1 ta		--	
9. Kom-munal xo'jalik muassasalari					
A) Uy-joy-ekspluatatsiya xizmati	ob-yekt	Bitta qishloq aholi punkti uchun 1 ta (katta bo'lma-gan ustaxonasi	--	--	Ma'muriy bino tarkibida joylashtirish lozim

B) Mehmonxona	o'rin	va ombori bilan) 3-5 6	Bitta obyekt uchun 0,02 dan 0,15 gektargacha, sig'imi 4 dan 25 o'ringacha 1 ta obyekt uchun 0,3 – 0,6 ga	---	Mahalliy sharoitlarga ko'ra normativ kamaytirilishi mumkin. Mehmonxonalarni markaziy aholi punktlarida joylashtirish kerak.
D) O't o'chirish deposi	Obyekt	5 ming kishi uchun 1 ta mashina, lekin bitta obyekt uchun kamida 2 ta mashina. Qolgan aholi punktlarida o't o'chirish postlari va suv havzalari ko'zda tutiladi			O't o'chirish depolari aholi-sining umumiy soni 5 ming va undan ko'p kishidan iborat aholi punktlari markazida, sanitariya-himoya zonasida yoki mashina-traktor parki hududida joylashtirish lozim: qishloq aholi punkti-ning istiqomat va sanoat zonalariga xizmat ko'rsatishi kerak. O't o'chirish deposi umumiy tarmoq yo'llariga chiqish uchun qulay yo'llarga ega bo'lib, chorva haydaladigan yo'llar bilan kesishmasligi zarur.

G) Jamoat hojatxonalari	o'rinlar soni	100 tashrif buyuruvchiga 1 ta o'rin, lekin ikkitadan kam emas	--	--	Jamoat yoki savdo markazida yozgi kinoteatr, raqs maydonchasi, sanoat zonasidagi avtobus bekati yonida, maktab va bolalar muassasalari uchastkalarida joylashtirilishi lozim.
F) Qabriston	Obyekt	Bitta aholi punkti yoki ularning guruhi uchun bitta	1000 kishiga 0,01 ga	--	Turar-joy va jamoat binolaridan kamida 300 metr uzoqlikda, kirish yo'lini qattiq qoplamali qilib joylashtirilishi lozim.
ESLATMA: Sahro va yarim sahro zonalarda, shuningdek 12% dan ortiq nishablikka ega tog'li sharoitlarda kundalik foydalanish muassasalarigacha piyoda yetib olish radiuslarni kamaytirish zarur, lekin har bir muassasaga nisbatan yuqori va pastga kamaytirish 30% dan ortiq bo'lmashligi lozim.					

3.6. Xo'jalik ichidagi transport aloqalari

Xo'jalik ichidagi yo'llar tizimi QMQ 2.05.02-95 «Xo'jalik ichidagi avtomobil yo'llari» me'yoriy hujjatga muvofiq loyihalashtiriladi.

Xo'jalik ichidagi yo'llar tizimi qishloq aholi punktlari, ekin maydonlari va ishlab chiqarish obyektlari, dala shiyponlari va qishloq xo'jalik mahsulotlari saqlanadigan, qayta ishlanadigan korxonalar, ijtimoiy-maishiy obyektlari va xo'jalikdagi boshqa uchastkalari o'rtasida eng qulay va eng qisqa aloqalarni tashkil qilish uchun mo'ljallangan. Xo'jalik ichidagi yo'llar tizimi muayyan qishloq aholi punktini tuman markazlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qabul

	3	Respublika va viloyat ahamiyatiga ega yo'llar	1000 dan 3000 gacha	2 -- 3,75	7,0	12
	4	Mahalliy ahamiyatga ega boshqa yo'llar	100 dan 1000 gacha	2 -- 3,0	6,0	10
	5	---	100 gacha	1 --	4,5	8
Xo'jalik ichidagi yo'llar-ning toifalari	1-s	Tashqi xo'jalik yo'llari. Qishloqlararo, tuman markazlari, umum-davlat ahamiyatiga ega yo'llar tarmog'i, stansiyalar, aerodromlar bilan bog'lanadigan yo'llar	100 dan ko'p	2 -- 3	4,5	8
	2-s	Xo'jalik ichidagi yo'llar. Xo'jaliklar markazlari va bo'linmalar, brigadalar, fermalar, dala shiyponlari bilan bog'lanadigan yo'llar	100 gacha	1 --	3,5	6,5
	3-s	Alohida qishloq xo'jalik yerlari bilan bog'lanadigan dala yo'llari	100 gacha	1 --	.	

Eslatma: Chiziqcha harakatlanish tasmasining kengligi me'yorlanmasligini anglatadi

**Avtomobil yo'llarini loyihalashtirish uchun asosiy texnik
normativlar**

20-jadval

		tuman	xo'jalik ichidagi
	avt/sut	100 gacha	
Hisoblangan tezlik	km/s	80-40	40
Tuproqli ko'tarma kengligi	m	10-6,5	8-6
Yo'lining qatnov qismi kengligi	m	6-4,5	4,5-3,5
Eng katta bo'ylama nishablik	%	60-110	100-120
Plandagi egriliklarning tavsiya etiladigan radiuslari			
asosiy		1000	300
eng kichik		60-30	30-20
Yo'l to'shamasi		Mahalliy materiallardan	Mahalliy materiallardan
Qoplamalar turi	—	Takomillashtirilgan, yengillashtirilgan va oraliq turlar	Oraliq va quyi turlar
Inshootlar turi		Kapital va muvaqqat G-7, G-6	Muvaqqat va kapital ke- chuvlar, lotoklar G-6, G-4,5
Ko'priklar uchun hisoblangan yuklamalar		N-10 va NG-60 N-8 va NG-30	N-10 va NG- 60 N-8 va NG-30

Izohlar: 5. Qishloq yo'llarining qatnov qismi, odatda, yo'lining o'qiga nisbatan simmetrik joylashadi. Harakat tarkibida gusenitsali mashinalar bo'lgan taqdirda, shuningdek, qoramollarni olib o'tish zarurati bo'lsa, qatnov qismi yo'lining o'qiga nisbatan nosimmetrik joylashtiriladi, bunda yo'lining bir yoqasining eni 1-2 metrga teng qilib olinadi, ikkinchi

yoqasi esa 3,5-4,5 metrli kenglikka ega bo'ladi va gusenitsali mashinalar harakatlanishi va qoramollarni olib o'tish uchun xizmat qiladi.

6. Takomillashtirilgan va yengillashtirilgan qoplamalar

a) organik bog'lovchi moddalar bilan shimdirish (shimdirish usulida ishlov berilgan va istalgan toshli yoki bog'lovchi materiallar bilan qoplangan guruhli qoplamalarga yotqizilgan shag'al qatlami);

b) shag'al yoki chaqiq toshli qora qoplamalar;

v) tuproq-asfalt qoplamalar;

g) klinker to'shama yo'llar;

d) yo'l qoplamalariga yuza bo'ylab ishlov berish;

Yo'lning qatnov qismi kengligi 0,5 metrga kamroq bo'lishi lozim.

O'tish yo'llari elementlarining o'lchamlari quyidagicha qabul qilinadi (m):

1. Binolar, inshootlar, xo'jalik qurilmalariga kirishni ta'minlaydigan yo'lning qatnov qismi kengligi _____ 3,0

2. Piyoda harakatlanishda foydalaniladigan kirish yo'llarining kengligi _____ 3,5

3. Kam qavatli turar-joy binolari va qo'rg'oncha turidagi qurilishli hududlardagi trotuarlar kengligi _____ 1,0

4. Boshi berk ko'chalar oxirida orqaga qaytish maydonchalarining o'lchamlari:

uzunligi _____ 12

kengligi _____ 12

burilish radiusi _____ 10

5. Yo'lning qatnov qismi rejasidagi o'qi bo'yicha

o'tish yo'llari burilishining radiusi _____ 20

trotuardagi bort chizig'i bo'yicha burilish radiusi _____ 3

yo'l chetining kengligi _____ 1

6. Kyuvetlarning o'lchamlari (suv chiqarishning kyuvetli tizimi qo'llanilganida)

tubi bo'yicha eni _____ 0,4

chuqurligi _____ 0,3

Asosiy xo'jalik o'tish yo'llarining umumiy kengligi o'rtacha hisobda 6 metrdan 15 metrgacha, yordamchi o'tish yo'llarini 3-3,5 metr bo'lishi mumkin

Qishloq aholi punktlaridagi ko'chalar va yo'llarning hisoblangan parametrlari

21-jadval

Qishloq ko'chalari va yo'llarining toifalari	Asosiy vazifasi	Harakatning hisoblangan tezligi, km/s	Harakatlanish yo'lining kengligi, m	Harakatlanish yo'llarining soni	Trotuarining piyodalar yuradigan qismi kengligi, m
1	2	3	4	5	6
Qishloq fuqarolari yig'ini hududidagi yo'l	Qishloq aholi punkti umumiy tarmoqning tashqi yo'llari bilan bog'lash	60	3,5	2	—
Qishloq fuqarolari yig'mining bosh ko'chasi	Turar-joy hududlarini jamoat markazi bilan bog'lash	40	3,5	2-3	1,5-2,25
Turar-joy binolari qurilgan hududdagi ko'cha	Turar-joy hududlari ichidagi va asosiy ko'cha bilan intensiv harakatli yo'nalishlar bo'yicha bog'lanish	40	3,0	2,0	1,5-1,5
Ikkinchi darajali	Turar-joylardagi markaziy ko'chalarni bog'lash	30	2,75	2	1,0
tor ko'cha (o'tish yo'li)	Mavze ichkarisidagi turar-joy binolarini ko'cha bilan bog'lash	20	2,75-3,0	1	0-1,0
Xo'jalik yo'li, qoramol olib o'tiladigan yo'l	Shaxsiy qoramollarining olib o'tilishi va yuk transportining tomorqa uchastkalariga borishi	30	3,0	1	—

3.6.	Intraeconomic transportation connections.....	127
3.7.	Engineering preparation and landscape organization of the territory.....	135

Chapter IV. FUNCTIONAL-PLANNING ORGANIZATION OF RURAL POPULATION INSTRUCTURAL GATHERING OF RURAL PEOPLE.

4.1.	Influence of leading factors on functional-planning organization of rural communities.....	152
4.1.1	Natural-climatic conditions.....	152
4.1.2.	Development of rural community relationships.....	159
4.1.3.	Engineering-technical provision.....	175
4.1.4.	Influence of the production factor.....	178
4.2.	Evolution of the planning structures of the rural communities.....	183

Chapter V. ARCHITECTURAL-PLANNING ORGANIZATION OF FUNCTIONAL-STRUCTURED ELEMENTS OF THE RURAL COMMUNITIES

5.1.	Features of territory zoning and planning-orga- nization of functional zones. Composition of rural communities.....	209
5.2.	Architectural-planning organization of the residential territory.....	232
5.3.	Formation of the public center and organization system institution services.....	249
5.4.	Production objects in the structure of the rural communities.....	268
5.5.	Landscaping and improvement of the territory.....	290
	Conclusion.....	298
	Glossariy.....	302
	Literature.....	314

X.K.TURSUNOV, M.U.UMAROV, SH.D.OCHILOV

QISHLOQ AHOLI PUNKTLARINI REJALASHTIRISH

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015

Muharrir:	F.Ismoilova
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AINe149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 09.11.2015.
Bichimi 60x84 1/16 «Timez Uz» garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 20,0.
Nashriyot bosma tabog'i 20,5. Tiraji 200. Buyurtma №165.

Oraliq ko'chalar:

a) guruhli yo'llarga bitumli qorishma bilan ishlov berish;

b) tuproqni shag'al yoki chaqiq tosh qo'shib turib bitum bilan ishlov berish;

v) tuproqli yo'llarga mineral bog'lovchi materiallar – sement va ohak bilan ishlov berish;

g) shag'al yoki chaqiq toshli qoplamalar;

d) tosh yotqizilgan yo'llar:

profillangan;

optimallashtirilgan bunt aralashmasi bilan profillangan

Ko'chalar uzunligi va maydonlarining 1 xonadon va 1 kishi uchun tavsiya etilgan solishtirma ko'rsatkichlari

22-jadval

Uy qoshidagi uchastka o'lchami, m2	Ko'chalarning solishtirma uzunligi		Ko'chalarning solishtirma maydonlari	
	m/xonadon	m/kishi	M2/ xonadon	M2/kishi
1	2	3	4	5
1500	19,5	3,0	275	42
1200	18	2,7	263	40
1000	17,5	2,6	256	39
800	17	2,5	248	38
600	16	2,4	222	37
400	15	2,3	231	35

Eslatma:

Ushbu ko'rsatkichlar aholisining soni 1000-1500 kishiga teng, to'rt-burchak shaklidagi sxemada tashkil qilingan va chorva mollarini haydab o'tish yo'llari bo'lmagan qishloq aholi punktlari uchun keltirilgan. Aholisining soni 500 va undan kam bo'lgan posyolkalar uchun keltirilgan ko'rsatkichlar 10% ga, aholi soni 3000 va undan ko'p bo'lgan posyolkalar uchun 10% ga kamaytirish zarur:

Chorva mollarini haydab o'tish va xo'jalik yo'llarini tashkil qilishda ko'rsatkichlar 50% gacha ko'paytirilishi lozim.

Yacheykasimon, xaotik va bo'lingan tuzilmaga ega, ko'chalari egri chiziqli ko'rinishda bo'lgan posyolkalar uchun ko'rsatkichlarni qo'shimcha 10% ga ko'paytirishga yo'l qo'yiladi.

3.7 Hududning muhandislik tayyorgarligi va landshaft arxitekturasini tashkil etish

Qishloq fuqarolari yig'ini hududini muhandislik tayyorgarligi va landshaft arxitekturasini ekologik, estetik va iqtisodiy talablarga javob beradigan yaxlit yashash muhitini yaratishga qaratilgan hududni qurish, ko'kalamlashtirish, irrigatsiya va muhandislik tayyorgarligi bo'yicha o'zaro bog'liq chora-tadbirlar kompleksini o'z ichiga oladi. Qishloq fuqarolari yig'ini yoki qishloq xo'jalik korxonasi hududining muhandislik tayyorgarligiga doir tadbirlarni ishlab chiqishda ko'rilayotgan hudud doirasida va uning tashqarisidagi xalq xo'jaligiga oid barcha tarmoqlarning talablarini hisobga olish kerak bo'ladi. Tadbirlar tarkibi iqlimga oid tavsifnoma, fizik-geologik va gidrogeologik izlanishlar, radio-ekologik tekshiruvni hisobga olgan holda belgilanadi.

Ko'rilayotgan hududdagi ekologik barqarorlikni saqlash landshaftni tashkil etishga qo'yilgan asosiy talab hisoblanadi. Ayniqsa, zararli ta'sir darajasi yuqori bo'lgan korxonalarni joylashtirishda ana shu talablarning hisobga olinishi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasidagi tabiiy sharoitlarga muvofiq hududning muhandislik tayyorgarligi bo'yicha tadbirlarni quyidagi turlarga bo'lish zarur:

1. Butun hududga taalluqli umumiy choralar: vegetatsiya davrida yog'inlarning kam bo'lgani uchun ko'kalamzorlarni sun'iy sug'orish; tabiiy yoki sun'iy gidrografik tarmoqni me'yorga solish, yer maydonlarida rekultivatsiya ishlarini bajarish; antiseysmik tadbirlar; vertikal rejalashtirish.

2. Alohida aholi punktlari hududlariga tegishli maxsus choralar: sizot suvlarining sathi yuqori bo'lgan hududlarda ularning sathini pasaytirish; yer ko'chishi, siljishi va turli maqsadli suv oqimlarining qirg'oqlarini yemirilishdan himoya qilish; sel oqimlari va toshqin suvlari bosib ketishidan himoya qilish; yer cho'kishiga qarshi tadbirlar.

3. Sug'orish. Sug'orish tizimi tabiiy namlashtirish yetarli bo'lmagan sharoitda sug'oriladigan massivning ildiz rivojlanuvchi tuproq qatlamida optimal suv-tuz rejimini saqlanishini, qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olinishini ta'minlaydigan inshootlar, binolar va qurilmalarning o'zaro bog'liq kompleksini o'z ichiga olishi lozim.

Sug'orish tarmog'ining optimal konstruksiyasini tanlash tarmoq variantlarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini solishtirish asosida amalga oshirilishi lozim.

Ortiqcha suvlar (yer usti yoki sizot suvlar) mavjud bo'lganida sug'orish kanallaridan tashqari suvni yig'ib oladigan va chiqarib tashlaydigan hamda kollektor-drenaj tarmoqlarini ham loyihalashtirish zarur.

Sug'orish tizimining tarkibiga quyidagilar kiradi: turli kanallar (doimiy va muvaqqat), suv yig'ish-chiqarib tashlash va drenaj tarmoqlari, gidrotexnik inshootlar, eroziyaga qarshi inshootlar, daraxtzorlar, to'g'onlar.

Sug'orishga doir suv sarfini sug'orish tartibi, hudud balansi, hududning ayrim qismlarini ko'kalamzorlashtirish foiziga muvofiq sug'orish normalari asosida aniqlash lozim. Sug'orish normalari yashil maydonlarning dendrologik tarkibi hamda gidromodul hududlashtirish asosida qabul qilinadi. Qattiq qoplamalarni yuvish va namlashdagi suv sarfi sutkasiga 1 m^2 qoplamaga 3 l/suv hisobidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Kollektor-drenaj tarmog'i ortiqcha suvlar (yer usti yoki sizot suvlar) mavjud bo'lganida sug'orish kanallaridan tashqari suvni yig'ib oladigan va chiqarib tashlaydigan kollektor-drenaj tarmoqlarini ham loyihalashtirish zarur.

Drenaj tizimini tashkil qilish zarurati sug'orish va quritish talab qilinadigan yerlarning maydonlaridagi tuproqlarning meliorativ xaritalari va agroiktsisodiy ishlanmalar ma'lumotlari asosida belgilanadi.

Drenaj – sho'rlangan tuproqli hududlarda barqaror joylashuvni ta'minlashga yoki yerlarni qayta sho'rlanishini oldini olishga qaratilgan meliorativ chora-tadbirlar kompleksining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Quritish tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi: suv qabul qilgichning sozlanadigan qismi, suv o'tkazish, suv to'sish va sozlash tarmoqlari, nasos stansiyalari, to'g'onlar.

Drenlarning minimal nishabliklarini 23-jadvalga muvofiq qabul qilish tavsiya etiladi.

Drenlarning nishabliklari

23-jadval

Dren turlari	Minimal nishabligi
1. Doimiy, ochiq drenlar	0,005
2. Naysimon drenlar, diametri:	
50-100 mm	0,002
120-200 mm	0,0015
200 mm dan katta	0,001
3. Yer osti drenlari	0,002

Yopiq kollektorlar (drenlar) va daraxtzorlar o'rtasidagi masofa SNiP 2.06.03-85, 3.76-rasmga muvofiq qabul qilinadi	
O'simlik	Minimal masofa, m
Bargli daraxtlar	20
Ignabargli daraxtlar	30
Mevali daraxtlar	7
Olxa, tol, na'matak, smorodina	15
Bosh turdagi butalar	10

Drenaj tizimlarni hisobash va loyihalashtirish maxsus izlanishlar asosida amalga oshirilishi lozim.

Yerlarni rekultivatsiya qilish

Yerlarni rekultivatsiya qilish – sanoat ishlab chiqarishi ta'siri sababli buzilgan yerlarning hosildorligini tiklash va ularni turli foydalanishlar uchun qaytarish maqsadida amalga oshiriladigan turli tadbirlar (melioratsiya, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligiga oid va boshqa turdagi ishlar) kompleksi.

Yerlarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish xalq xo'jaligidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Minglab gektar yerlar kar-yerlar va tog' jinslarining ag'darmalari tagida qolib ketadi, tuproqning hosildor qatlami buziladi. Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va boshqa turlarda foydalaniladigan yerlar havo, suv va tuproqni ifloslantiruvchi o'choqlarga aylanib qoladi.

Yer – tabiat mahsuli bo'lib, uni inson ishlab chiqarmaydi. Yerning ham qurilish, ham qishloq xo'jaligidagi foydaliligi yerga tushayotgan yuklama (kg/m^2), sizot suvlar sathi (m), hududlarga tuproq to'ldirish (ming m^3), hosildorlik (s/ga), sanoat va madaniy markazlardan uzoqligi (km) kabi natural ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Qishloq xo'jalikdagi yo'qotishlarni bartaraf qilish uchun sarf-xarajatlar normativlari tarkibiga ishlarning quyidagi turlari kiritilgan (umumiy qiymatga nisbatan foizlarda): yer uchastkalari yuzasini rejalashtirish – 19%, ko'priklar va yo'llar qurilishi – 3%, nasos stansiyalari va inshootlari qurilishi – 12%, yerlarni ishlash va tuproq mahsuldorligini oshirish – 48%.

Eroziyaga qarshi tadbirlar

Eroziyaga qarshi gidrotexnik inshootlarni ularning vazifalariga bog'liq ravishda quyidagicha loyihalashtirish lozim:

a) suv to'xtatib qoluvchi inshootlar – ko'tarmalar-kanallar, ko'tarmalar-terrassalar, suvi bo'g'ilgan va yarim bo'g'ilgan suv havzalari;

b) suv yo'naltiruvchi inshootlar – suvning jamlangan oqimlarini tarqatishga mo'ljallangan ko'tarmalar va kanallar;

v) suv jamlovchi, suv oqimlarini tezlashtiradigan inshootlar.

Eroziyaga qarshi gidrotexnik inshootlarni loyihalashtirishda ishlov berishga qulay bo'lgan maydonlar konfiguratsiyalarini saqlab qolishni hisobga olib turib, bu kabi inshootlar uchun minimal yer ajratilishi lozim.

Turli vazifalar uchun mo'ljallangan inshootlarni birlashtirishga yo'l qo'yiladi.

Inshootlarni turi va ularni joylashtirish ushbu inshootlarning vazifalari, qurilish hududidagi tabiiy sharoitlar, qurilish materiallari mavjudligi va ishlarni bajarish va inshootlardan foydalanish shartlariga muvofiq belgilanadi.

Yuza suvlarini ushlab qoluvchi kanal-ariqlar quritilayotgan hududning yuqori chegarasi bo'ylab loyihalash zarur. Bunday kanallarning chuqurligi 1 metrdan kam bo'lmasligi lozim, ko'ndalang kesimining shakli esa GOST 33-23-79 ga muvofiq tanlanadi.

Sel oqizishi havfi mavjud hududlardagi imoratlarni himoya qilish uchun o'rmonlarni maksimal darajada saqlash, daraxt va butalar o'tqazish, qiyaliklarni terrasa shakliga keltirish, daryolar qirg'oqlarini mustahkamlash, sel hosil bo'ladigan zonalarda to'g'on va suv yig'adigan inshootlar qurish, sel oqimlarini yo'naltiruvchi to'g'onlar va suv chiqadigan konuslarda kanallar qurish kabi chora-tadbirlar nazarda tutilishi lozim.

Jarliklar hosil bo'lishi bilan birga kechadigan eroziya jarayonlari mavjud uchastkalarda yuza suvlari oqimini tartibga solish, jarliklarning o'zanlari mustahkamlanishi, qiyaliklar terrasa shakliga keltirilishi, qiyaliklarga daraxtlar ekilishi ko'zda tutilishi lozim.

Jarliklarning maydoni transport inshootlari, garajlar, omborxonalar va kommunal obyektlarini joylashtirish, shuningdek parklar tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

Toshqin suvlaridan himoya qilish inshootlarini O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi normativ hujjatlarga binoan loyihalashtirish lozim.

Ko'kalamzorlashtirish

Yashil o'simliklarning shaharsozlikdagi ahamiyati katta va ko'p qirralidir. Ular sanitariya-gigiyenik sharoitni vaziyatni yaxshilash

xususiyatiga ega bo'lganlari sababli inson yashaydigan atrof-muhitni shakllantirishda katta rol o'ynaydilar. Yashil o'simliklar shamol kuchini kamaytiradilar, issiqlik rejimini muvofiqlashtiradilar, havoni tozalaydi va namlaydi – bu omillarning barchasi sog'lomlashtirish nuqtai nazarida katta ahamiyatga ega.

Yashil o'simliklarning toifalanishi

1. Umumiy foydalanishdagi ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar (parklar, ommaviy dam olish zonalari, hiyobonlar, ma'muriy va jamoat muassasalar – hokimiyat, kutubxona, vokzal shu kabilar qoshidagi ko'kalamzorlashtirilgan yerlar).

2. Cheklangan foydalanishdagi ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar (maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari va shu kabi obyektlar qoshidagi ko'kalamzorlar).

3. Maxsus maqsadli ko'kalamzorlar (28-32-jadvallar)

A) Sanoat korxonalari qoshidagi himoya zonalari - sanoat korxonalari va turar-joy binolari joylashgan hududlar o'rtasida yashil o'simliklar ekilgan sanitariya zonalari, bunday zonalar sanoat korxonasining yondosh turar-joy massivlariga zararli ta'sirini kamaytirish maqsadida tashkil etiladi.

B) Noqulay tabiiy hodisalardan himoya qilish zonalari – aholi punktini yoki uning alohida hududlarini shamol, qor va qum uyumlaridan himoya qilish maqsadida ekilgan yashil o'simliklar (daraxtlar, butalar va hk.).

D) Suvni himoya qilish zonalari – ko'l, hovuz, suv omborlari va daryolarning qirg'oqlarida bug'lanishni kamaytirish va suv havzalarini ifloslanishdan himoya qilish maqsadida ekilgan yashil o'simliklar.

E) Yong'inga qarshi ekilgan yashil o'simliklar – yoqilg'i omborlari va yong'in nuqtai nazaridan xavfli hisoblangan obyektlari atrofiga ekiladi, bunday yashil zonalar yong'in tarqalishini oldini olish maqsadida tashkil qilinadi.

F) Melioratsiya maqsadlarida tashkil qilinadigan himoya – qirg'oqlarni, qiyaliklarni mustahkamlash, ko'chki hodisalarini bartaraf qilish, jarliklar ko'payishini qisqartirish va sernam hududlarni quritish uchun ekiladigan yashil o'simliklar.

G) Avtomobil va temir yo'llar bo'ylab ekiladigan yashil o'simliklar – yo'llarni qor va qum uyumlaridan himoya qilish maqsadida o'tqaziladigan daraxt va butalar.

H) Qabrisonlarga ekilgan daraxt va butalar hududni manzarali bezash va obodonlashtirish uchun xizmat qiladi.

I) Ko'chatxonalar va gul yetishtirish xo'jaliklari – ochiq tuproqda, issiqxona va gulxonalarda manzarali o'simliklarni yetishtirish uchun maxsus tashkil etilgan korxonalar.

Qishloq aholi punktlarida daraxtlar va butalar o'rtasidagi minimal masofalar

Daraxtlar o'rtasidagi minimal masofalar

24-jadval

O'simlik turlari	Daraxtlar va butalar o'rtasidagi masofa, m
1. Yorug'lik yoqtiradigan daraxtlar	3-6
2. Soyaga chidamli daraxtlar	2,5-5
3. Balandligi 1 metrgacha bo'lgan butalar	0,4-0,6
4. Balandligi 2 metrgacha bo'lgan butalar	0,6-1
5. 2 metr dan baland bo'lgan butalar	1-1,5

Yashil o'simliklar ekilganida va parvarish qilinayotgan davrda: bitta standart ko'chatga 20 litr;

1x1 m o'lchamli yumaloqlangan tuproqli bitta daraxtga 50 litr;

o'lchami 1x1 m dan katta bo'lgan yumaloqlangan tuproqli bitta daraxtga 100 litr;

bitta buta yoki lianaga 10 litr;

ko'p yillik gullar ekilgan gulzordagi bitta gulga 5 litr;

gul yoki gazon urug'lari ekilgan 1 m² uchun 10 litr hisobidan sug'orilishi lozim.

Yashil daraxt va butalarni o'tqazishni loyihalashtirish ishlari irrigatsiya tizimlari bilan uzviy bog'liqlikda, qishloq aholi punktlarining butun hududini landshaftini tashkil qilish bo'yicha vazifalar kompleksini hisobga olgan holda bajaralishi zarur.

Vertikal rejalashtirish

Hududni vertikal rejalashtirish, odatda, yer massalarining nolli balar muvozanati bilan belgilanadi (jarliklarni ko'mish, suv bosadigan va toshadigan hududlarga yer bilan to'ldirish bundan mustasno). U jala oqovasini tuproq eroziyasiga yo'l qo'ymaydigan tezlikda oqizib yuborilishini ta'minlashi lozim. Yer sathi nishabliklarini tuproq xossalari ga ko'ra 25-jadval bo'yicha qabul qilish kerak.

Tuproq xossalari ko'ra yer sathi nishabliklari

25-jadval

t/r	Tuproqlar	Sath nishablari, %, yog'inlarning yillik miqdoriga ko'ra, mm			
		150 gacha	151-300	301-450	451 va ortiq
1	Loyli	2-50	2-50	3-50	3-50
2	Qumli	2-30	10-30	20-30	30
3	Lyoss, mayda qum	2-10	3-10	5-10	10
4	Iturdagi cho'kuvchan tuproqlar	2-10	3-10	5-10	5-10

Mahsuldor tuproq qatlami vaqtincha saqlanib, keyinchalik o'simliklarni o'stirishda ishlatilishi mumkin.

Aholi punktlaridagi sanitariya-himoya uzilishlarning o'lchamlari

26-jadval

Qishloq xo'jalik korxonalar va boshqa obyektlar	Sanitariya-himoya zonasining o'lchamlari, m
1. O'SIMLIKSHUNOSLIK OBYEKTTLARI	
1. Kultivatsiya bilan bog'liq korxonalar va obyektlar: elektr toki, bug', issiq suv bilan isitiladigan issiqxonalar	me'yorlanmaydi
biologik usulda isitiladigan issiqxonalar:	
go'ng yordamida isitiladigan	100
chiqindi yordamida isitiladigan	300
2. Traktorli dala brigadalarining shiyponlari	100
statsionar don tozalash va quritish punktlari	100
Tomchilatish qurilmalarida go'ngning suyuq fraksiyalari bilan sug'oriladigan ekin yerlari	100
qisqa masofaga purkashda	300
o'rtacha masofaga purkashda	500
uzoq masofaga purkashda	1000
3. Bog'bonchilik-uzumchilik brigadalarining shiyponlari	
Tayyor mahsulotni saralash, taralarga joylash va o'rash punktlari	50
2. CHORVACHILIK OBYEKTTLARI	
1. Sut va mol go'shti ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qoramolchilik fermalari	

400 boshgacha	100
400 dan 800 boshgacha	200
800 dan 1200 boshgacha	300
1200 dan 2000 boshgacha	500
2000 boshdan ko'p	1000
2. Cho'chqachilik fermalari va komplekslari	
3000 boshgacha	300
3000 bosh	500
12000 boshgacha	
3. Qo'ychilik fermalari	
3000 boshgacha	200
3000 boshdan ko'p	300
4. Yilqichilik fermalari:	100
5. Quyunchilik fermalari	100
6. Hayvonotchilik fermalari	300
3. PARRANDACHILIK OBYEKTлари	
Tuxum beradigan tovuq, o'rdak, g'oz, kurka – 100 ming boshgacha	300
Yiliga 1 mln.gacha broyler tovuqlari boqiladigan ferma	300
4. ZOOVETERINARIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALAR	
Veterinariya kasalxonasi	200
Qoramol qabristonlari	
biologik kamerali	300
o'ralarda ko'miladigan	500
Hayvonlar mardalari va konfiskatlarni yo'q qilish zavodlari	500
Go'ng saqlanadigan joylar	
Ochiq, suyuq go'ng saqlanadigan hovuz-omborlar	500-2000
Go'ngning biologik ishlov berilgan suyuq fraksiyalarini saqlash hovuz-omborlar	500
Parranda tezagi saqlanadigan omborlar	500
5. QISHLOQ XO'JALIK VA BOSHQA MAHSULOTLAR, TEXNIKA SAQLANADIGAN SUBYEKT VA MAYDONCHALAR	
1. Qishloq xo'jalik mahsulotlari saqlanadigan omborlar	
600 t sig'imli sovutgichlar	50
Don, sabzavot, ho'l meva, kartoshka va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari saqlanadigan omborlar	50
Dag'al yem-xashak, yanchilmagan don, o'simlik (paxta, zig'ir) tolasi saqlanadigan omborlar	100

Elevatorlar	100
Ishlov berilmagan 200 donagacha ho'l tuzlangan terilarni vaqtincha saqlash uchun omborlar	50
shu kabi 200 donadan ortiq	300
2. Toshko'mir, torf, o'tin, oson alanganuvchi va yonuvchi suyuqliklar saqlanadigan omborlar	100
3. Yuk mashinalari va qishloq xo'jalik texnika ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va saqlash uchun garaj va parklar (dvigatellar soni 200 dan ortiq)	100
4. Jamoa xo'jaligining qurilish hovlisi	50
6. QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARI	
1. O'simlikshunoslik mahsulotlarni qayta ishlash, ho'l meva va sabzavotlarni birlamchi ishlash va qayta ishlash korxonalari va sexlari	me'yorlanmaydi
Moy ishlab chiqaradigan korxonalar	50
Sirka ishlab chiqarish korxonalari	50
Xo'l meva, sabzavot va uzum sharbati, alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish va birlamchi vinochilik korxonalari	50
Pivo zavodlari (solodka (qizil miya)siz, solodok pishirish va xamirturush ishlab chiqarish korxonalari	50
Non va konserva zavodlari	50
Oziq-ovqat va yem uchun don zavodlari, donli va moyli ekinlar urug'liklarini dorilamasdan ishlab chiqarish korxonalari	100
Shu kabi, faqat dorilab ishlab chiqarish korxonalari	200
O'simlik (paxta, zig'ir) tolalarini birlamchi ishlash korxonalari	300
2. Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash, sutni birlamchi qayta ishlash korxonalari	me'yorlanmaydi
Sut va yog' zavodlari	50
Kolbasa sexlari (smedenada 3 tonnadan ko'p)	50
Oziq-ovqat mahsulotlari, yarim fabrikat tayyorlash fabrikalari	50
Pishloq pishirish korxonalari	100
Margarin ishlab chiqarish, go'sht dudlash korxonalari	100
Jun, momiq, pat, shox va tuyuq qayta ishlash korxonalari	100
Pilla qaynatish, ipak tayyorlash korxonalari	100

Mayda hayvonlar parrandalar qushxonasi	300
Jun yuvish korxonalari	300
Qoramol (1000 boshgacha) saqlanadigan bazalar	300
Qoramol (1000 boshdan ko'p) saqlanadigan bazalar	500
Qushxonalar (yirik va mayda shoxli qoramol uchun), go'sht kombinatlari, qushxona va go'sht sovutgichlar, jumladan so'yishdan oldin qoramol saqlanadigan (3 sutka) bazalar	500
3. Yem tayyorlash (oziq-ovqat chiqindilarisiz) korxonalari	me'yorlanmaydi
Oziq-ovqat chiqindilari bilan yem tayyorlash korxonalari	100
Ignabargli-vitaminli un, ignabarg ekstrakt tayyorlash korxonalari	100
Omuxta yem zavodlari	100
Antibiotikli yem ishlab chiqaruvchi korxonalar	300
7. KIMYOVIY MAHSULOTLAR OBYEKTлари	
1. Omborlar	
mineral o'g'itlar saqlanadigan	200
mineral o'g'itlar va kimyoviy zaharlar saqlanadigan ombor, 20 tonnagacha	200
Kimyoviy zaharlar saqlanadigan omborlar: 20 tonnagacha	200
20 tonnadan 50 tonnagacha	300
50 tonnadan 100 tonnagacha	400
100 tonnadan 300 tonnagacha	500
300 tonnadan 500 tonnagacha	700
500 tonnadan ko'p	1000
2. Kimyolash punktlari	
Mineral o'g'itlar va pestitsidlar birga saqlanganida, 200 tonnagacha	300
Mineral o'g'itlar (200 dan 2000 tonnagacha) ombori alohida, pestitsidlar (100 dan 400 tonnagacha) ombori alohida saqlanganida	300-800
3. Kimyolash agrokomplekslari	
Faqat mineral o'g'itlar saqlanadigan omborlar (2000 dan 20000 tonnagacha)	1000
Mineral o'g'itlar saqlanadigan omborlar (2000 dan 20000 tonnagacha) va pestitsidlar ombori (1000 dan 10000 tonnagacha)	1500

8. KOMMUNAL SOHASI OBYEKTлари

1. Qabristonlar yopilgan	50
faoliyat ko'rsatayotgan	300
2. Qattiq chiqindilarni kompostlash uchun maydonchalar	
go'ng va tezaksiz axlat uchun	300
aholi punktidan chiqadigan axlat uchun	500
3. Qattiq chiqindilar uchun takomillashgan axlatxonalar	500
4. Organik axlatlar va suyuq xo'jalik chiqindilari uchun nazorat qilinadigan takomillashmagan axlatxona	1000
5. Kanalizatsiya inshootlari, nasos stansiyalari	
quvvati sutkasiga 200 m ³ gacha	15
quvvati sutkasiga 200 m ³ dan ko'p	20
(il maydonchalari bilan)	
quvvati sutkasiga 50 m ³ gacha	100
quvvati sutkasiga 51 dan 200 m ³ gacha	150
quvvati sutkasiga 200 m ³ dan ko'p	200
Mexanik va biologik tozlash uchun inshootlar, cho'kindini yopiq xonalarda termomexanik ishlanişi bilan	
quvvati sutkasiga 200 m ³ gacha	100
quvvati sutkasiga 200 m ³ dan ko'p	150
Filtratsiya maydonlari:	
Yer osti, o'tkazish qobiliyati sutkasiga 15 m ³ gacha	15
Ochiq, maydoni 0,5 gektargacha	100
Ochiq, ishlab chiqarish quvvati	
sutkasiga 200 m ³ gacha	200
sutkasiga 200 m ³ dan ko'p	300
Maydoni 1 gektargacha bo'lgan sug'orish maydonlari	50
Ochiq, quvvati	
sutkasiga 200 m ³ gacha	150
sutkasiga 200 m ³ dan ko'p	200
Biologik hovuzlar	200
Suv to'kish stansiyalari	300
Ishlov va assenizatsiya maydonlari	1000
ESLATMALAR: 1. Sanitariya-himoya uzilishni ishlab chiqarish zararlari chiqariladigan joylardan turar-joy yoki jamoat binolarigacha belgilash lozim, sanitariya-himoya zonada joylashtirishga ruxsat berilgan binolar bundan mustasno	

2. Kimyolash obyektlari (o'g'itlar, pestitsidlar, kimyoviy zaharlar) uchun ko'rsatilgan uzilishlar suv havzalarigacha va qishloq xo'jalik mahsulotlarni qayta ishlash va saqlash obyektlarigacha belgilanishi kerak.

3. Kommunal soha obyektlari uchun ko'rsatilgan masofalarga oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash obyektlari va chorvachilik qurilmalarigacha rioya qilinishi zarur.

4. Ko'rsatilgan sanitariya-himoya uzilishlar viloyat sanitariya-epidemiologik va arxitektura xizmatlarining birgalikda qabul qilgan qarorlariga ko'ra, tegishli texnik-iqtisodiy asoslanishlar mavjud bo'lganida, kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

5. Atmosferaga zaharli moddalar chiqarmaydigan, shovqinning zararli darajasini va normalarning yo'l qo'yilgan darajalaridan yuqori bo'lmagan boshqa zararli omillar keltirib chiqmaydigan, shuningdek, temir yo'lli kirish joyini talab qilmaydigan korxonalarni turar-joy zonasining chegarasida joylashtirishga yo'l qo'yiladi.

Obyektlar orasida tabiiy muhofaza zonolari

27-jadval

Obyekt	Muhofaza zo'nasining chegarasi va obyektgacha masofasi				
	Har xil jamoa obyektlarni klassi va ularning zararli zo'na muhofazasi			Transport magistral yo'lgacha	Qurulish chegarasigacha
	I	II	III-IV		
Qo'riqhona va milliy bog'	10-30	5-10	1-3	1	0.3
Tabiiy bog'lar va sog'lomlashtirish dam olish zonalarlari	5-10	1-3	0.5-1	0.2	0.2
Aholi gavjum dam olish zo'nalari	5-10	0.5-2	0.2-0.5	0.2	0.2
Tabiiy landshaftni muhofaza zo'nalari	3-5	0.5-1	0.2-0.6	0.1	0.1

ESLATMA: Oraliq masofani ishlab chiqarish muhofaza zonasiga nisbatan joylashuviga qarab masofani qisqartirish mumkin; Sanitar zo'nasi-

da ishlab chiqarish noqulay joylashgan bo'lsa, muhofaza zonasi kengaytiriladi.

Landshaftga bo'lgan ekologik yuklamalarning yo'l qo'yilgan normativlari

28-jadval

Yashil daraxtlar toifalari	Yuklamalar, kishi/gektar		
	yo'zgi	qishki	yil davomida
To'q rangli ignabargli o'rmonlar	2	3	2,5
Och rangli ignabargli o'rmonlar	2,5	3,5	3
Mayda bargli o'rmonlar	4	5	4,5
Katta bargli o'rmonlar	7	9	8
Aralash o'rmonlar	4	5	4,5
O'rmondagi o'tzorlar	20	28	24
Qayir o'tzorlar	22	30	26

ESLATMA: Tog' sharoitlarida qiyaliklar 3^o dan 9^o gacha bo'lganida yuklamalar 20% ga, qiyaliklar 10^o-30^o gacha bo'lganida esa – 50% ga kamaytirilish lozim.

Yuqori voltli tok uzatish liniyalarining muhofaza zonalarini

29-jadval

EUL quvvati, kV	Liniya o'qining ikkala tomonidagi zona kengligi, m	
	Aholi punktlari tashqarisida	Aholi punkti hududining ichida
1150 va undan ko'p	300	O'tkazilmaydi
500	150	50
220	55	18
110	20	14
35	15	9
22 va undan ko'p	10	7

Suv havzalari yonidagi obyektlar va sun'iy inshootlarning muhofaza zonalari

Suvni himoya qiluvchi va suvni tartibga soluvchi yashil o'simliklarning parametrlari (aholi punktlaridan tashqarida)

30-jadval

Yashil o'simliklarning turlari	Yashil o'simliklar ekilgan maydonlarning xarakteristiklari	Joylashtirilishi
Daryo va suv havzalari bo'yidagi himoya zonalari	I, II va III toifaga mansub daryolar, 100 dan 1000 metrgacha kenglikdagi zonalari, kichik daryolarning bo'yida zonaning kengligi 80 metrgacha. Suv havzalari bo'yidagi himoya zonalarining kengligi ularning o'lchamlariga bog'liq ravishda 20 dan 1000 metrgacha	Qirg'oqlar bo'ylab, o'tloqlar, yaylovlar, bog'lar va dala maydonlari bilan almashib ketgan o'rmonli yo'laklar yoki uchastkalar ko'rinishida
Magistral va xo'jaliklararo sug'orish kanallari va drenaj kollektorlari bo'yab tashkil qilingan himoya yo'laklari	Magistral kanallar bo'yab 30-50 metrli, ayrim hollarda 100 metrgacha bo'lgan kenglikda. Katta bo'lmagan xo'jaliklararo magistrallik va suv chiqaradigan kanallar bo'yida 10-20 metrli kenglikda	Daraxtzorlardagi uzilishlarga yo'l qo'yiladigan katta magistrallik kanallarni istisno qilganda kanalning bir tarafidagi taqirliklar. Kanallar yo'nalishi ekvatorga parallel bo'lganida daraxtlar janubiy tomonda o'tqaziladi, meridianga parallel bo'lganida – ikki tomonida o'tkaziladi.

ESLATMA: Daryo va suv havzalarining aholi punktlari ichidagi qirg'oqlari ko'kalamzorlashtirilishi va obodonlashtirilishi lozim (plaj, qayiq stansiyalari, parklar, sport maydonchalari va boshqa inshootlar bo'lgan dam olish zonalari tashkil qilish bilan birga).

TAQI talabalarining QFY hududini Me'moriy-rejali tashkil qilish bo'yicha loyihaviy takliflari quyida keltirilgan (3.1.1-rasm, 3.1.2-rasm va 3.1.3-rasm) va talabalar uchun namuna sifatida berilmoqda.

«Toshkent viloyati Yuqori-Chirchiq tumanidagi «Bordonko'l» QFY hududining me'moriy-rejali tashkil etish» kurs ishi. Zamonaviy holati. Rejaviy chegaralanishlar sxemasi.



3.1.1-rasm. «Toshkent viloyati Yuqori-Chirchiq tumanidagi «Bordonko'l» QFY hududining me'moriy-rejali tashkil etish» kurs ishi. Zamonaviy holati. Rejaviy chegaralanishlar sxemasi.
Talabalar: D.I.Hojiyeva, O.A.Rahimov, X.J.Mirzayev, S.M.Sultonmurodova. Rahbar: M.U.Umarov (TAQI)



**3.1.2-rasm. «Toshkent viloyati Yuqori-Chirchiq tumanidagi
«Bordonko'lb» QFY hududining me'moriy-rejali tashkil etish» kurs
ishi. Loyiha taklifi. Rejaviy chegaralanishlar sxemasi. Talabalar:
D.I.Hojiyeva, O.A.Rahimov, X.J.Mirzayev, S.M.Sultonmurodova.
Rahbar: M.U.Umarov (TAQI)**

**«Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi
«Toshto'g'on» QFY hududining Me'moriy-rejali
tashkil etish» Zamonaviy holati**



**«Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi
«Toshto'g'on» QFY hududining Me'moriy-rejali
tashkil etish» kurs ishi. Loyiha taklifi.**



**3.1.3-rasm. «Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi
«Toshto'g'on» QFY hududining Me'moriy-rejali tashkil etish»
kurs ishi. Loyiha taklifi. Avtomobil yo'llari va
SKB obyektlarining sxemalari.**

Talabalar: _____ Rahbar: M.U.Umarov (TAQD)

IV bob. QISHLOQ AHOLI PUNKTLARINING QISHLOQ FUQAROLAR YIG'INI TUZILMASIDAGI FUNKSIONAL- REJALI TASHKIL ETILISHI

4.1. Yetakchi omillarning qishloq aholi punktlarining funksional- rejali tashkil etilishiga ta'siri

4.1.1. Tabiiy-iqlimiy sharoitlar

Tabiiy-iqlimiy sharoitlar – qishloq aholi punktlarining me'moriy-rejali yechimiga eng katta ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Bu sharoitlar qatoriga landshaft, quyosh radiatsiyasi, shamol, havo harorati, tuproq tuzilishining xususiyatlari, yog'inlar va shu kabilarni kiritish mumkin. Sanab o'tilgan sharoitlar bo'yicha respublika hududi bir xil emas, shuning uchun tabiiy muhitning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda shaharsozlik masalalari yechimini hal qilish uchun «O'zshaharsozlikLITI» instituti tomonidan O'zbekiston hududining landshaft-iqlimiy zonalashtirilishi bajarilgan (4.1.1.1-rasm), unga ko'ra respublikaning butun hududi shartli ravishda 3 ta mintaqaga bo'lingan.

I-mintaqa tarkibiga tekislik va tog' oldi vohalar, tog' vodiylarining pastliklardagi qismlari, dengiz sathidan balandligi 1000 metrgacha bo'lgan tog' oldi hududlar kiradi. Bunday yerlar avvaldan sug'orilib kelingan va yangidan o'zlashtirilayotgan bo'lib, aholi zichligi ancha yuqori – ayrim hududlarda 1 kv.km ga 400-500 tagacha kishi to'g'ri keladi. Bu hududlar o'zining tuproq va suv resurslarining qulayligi, o'simliklarning yaxshi rivojlanishi va yerlarni qishloq xo'jalik nuqtai nazarida yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlash imkoniyatini yaratuvchi shakllangan irrigatsiya tizimlari bilan ajralib turadilar.

Iqlim quruq va issiq bo'lib, yoz faslida tashqi muhitning issiq diskomforti shakllanadi – bunday davr shimolda 60 kunga yaqin, janubda esa 120 kundan ko'proq davom etadi. Shamol rejimi shamol tezligining kichik va normal ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi – kun va tun vaqtida shamolning o'rtacha tezligi 3 m/s dan oshmaydi. Sahro

bilan cheradosh hududlarda qum bo'ronlar kuzatiladi, ularning taklorlanishi yoz kunlari kamida 3 kunni tashkil qiladi.

Ushbu hududdagi iqlimiy sharoitlar melioratsiyasi bo'yicha asosiy chora-tadbirlar posyolka va uning elementlarini hajmiy-rejali tashkil etish, ko'kalamzorlashtirish, suv chiqarish va obodonlashtirish kabi shaharsozlikning barcha vositalaridan foydalangan holda yilning yoz faslida shamol rejimini saqlash yoki intensivlikatsiya qilish yo'li bilan issiqni kamayirishga qaratilishi lozim.

Posyolkaning ochiq va yarim ochiq tuzilmasi 1-mintaqada joylashgan qishloq aholi punktlarini rejali tashkil etishning asosiy tipologik prinsipi hisoblanadi, chunki aynan shunday tuzilma ochiq bo'shliqlarni ularga yondosh bo'lgan qulay va maqbul landshaft bilan bevosita bog'lanishini, shuningdek sahro chegarasida yoki vodiylarning bo'g'izlarida joylashgan posyolkalarni yozdagi qaynoq va qishki sovuq shamollardan himoya qilinishini ta'minlaydi (4.1.1.2-rasm). Tog' oldi vohalarda nurlisimon va to'g'ri burchakli tuzilma afzalroq hisoblanadi, bunda ko'chalarni bir maromda shamollatish uchun ko'chalar tarmog'i relyefga nisbatan qiya burchak ostida trassalashtiriladi (belgilanadi). Tekislikda joylashgan vohalardagi posyolkalarni rejali tashkil etilishida ko'cha tarmog'i radial tizimi qo'llaniladi. Lekin, bu kabi tuzilmalarda ko'chalar yo'nalishi va sahro tomondan esadigan shamollar yo'nalishi mos tushishini oldini olish zarur. Qishloq aholi punktlaridagi aholi istiqomat qiladigan zonalarning tavsiya etigan rejali tuzilmalari 4.1.1.3a-rasm va 4.1.1.3b-rasmda keltirilgan.

2-mintaqa (cho'l-sahro) tarkibida kam o'zlashtirilgan, texnik ekinlar uchun noqulay, sug'orma dehqonchilik uchun deyarli yaroqsiz suvi kam hududlar kiradi. Yerni o'zlashtirish juda murakkab bo'lib, faqat tuproqqa agrotexnik ishlov berish yo'li bilangina qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish mumkin. Hududlarda aholi zichligi juda past, aholi punktlari atrofi sahro va cho'llar bilan o'ralgan bo'lib, kommunikatsion aloqalar cheklangan.

Bunday hududlarda yoz quruq va issiq bo'lib, janubda 120 kun davomida issiq va quruq havoli o'ta murakkab termik sharoitlar hukm suradi. Shamol tezligi yil davomida 3 m/s dan katta bo'lib, agar hududda mustahkamlanmagan va eroziyaga uchragan tuproqlar bo'lsa, yoz oylarida 3-5 kundan ortiq davom etadigan qum bo'ronlari kuzatiladi.

Bu mintaqadagi atrof muhitni yaxshilanishi sun'iy landshaft yaratish, tabiiy sharoitlarni o'zgartirish, sahroning salbiy ta'sirlaridan, chang shamollari va bo'ronlaridan himoya qilish, changlanganlik darajasini kamayirish yo'li bilan aholi yashashi uchun qulay sharoitlarni yaratishga qaratilishi lozim. Shahar muhitini meliorativ holatini yaxshilashda shaharsozlik vositalaridan foydalanish imkoniyatlari cheklanganini hisobga olgan holda, birinchi navbatda, imoratlar qurilishini tashkil etish usullari va ularning funksional elementlarini nomaqbul tashqi omillardan himoya qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Yashil o'simliklardan va suv qurilmalaridan foydalanish imkoniyatlari har bir aniq holat uchun suv resurslari va hududni sug'orish sharoitlari bilan belgilanadi.

2-mintaqadagi aholi punktlarining tipologik xususiyatlari rejali tuzilmaning yopiqligi, tashqi muhit bilan bog'lanishlarning minimalligi va bo'sh maydonlarning o'lchamlari, turar-joy binolari va kundalik xizmat ko'rsatish muassasalari qurilishini kompleks tarzda yechimi vositasida ifodalanishi lozim. Posyolka va uning elementlarini rejali tuzilmasi posyolka ichidagi bo'shliqlarni shamolning salbiy ta'siridan, qum bo'ronlari va sahroning yuqori haroratli fonidan imkon qadar himoya qilishi lozim (4.1.1.4-rasm).

Qishloq aholi punktlarining rejali tuzilmasi istiqomat zonasidagi bo'shliqlar shamollatilishi uchun optimal sharoitlar yaratilishini, shamol tezligi kamaytirilishi yoki intensifikatsiyasini o'zaro bog'liq ko'chalar, maydonlar, ko'kalamzorlashtirilgan zonalar tashkil qilish hamda suvli yuzalarning yagona ventilyatsion tizimga ochish yo'li bilan ta'minlab berishi lozim. Sahro-cho'li zonalardagi posyolkalarning ko'chalar tizimi yopiq halqasimon sxema asosida tashkil etilib, aholi punkti chegaralaridan tashqariga chiqishni cheklashi zarur. Shuningdek, to'g'ri chiziqli kommunikatsiyalar uzunligi va o'lchamlarini cheklash, ko'chalarni rejada bo'lib tashlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. (qishloq aholi punktlaridagi aholi istiqomat qiladigan zonalarining 2-mintaqada qo'llanilishi uchun tavsiya etilgan tuzilmalari 4.1.1.5-rasm, 4.1.1.6-rasm va 4.1.1.7-rasmda keltirilgan).

3-mintaqa (baland tog' oldi va tog'li hududlar) relyefning murakkab kesimi va meteorologik omillarning joyning orfografiyasi bilan shartlangan turli mujassamliliklari bilan ta'riflanadi. Bunday hududlar tuproq, suv va o'simlik resurslarining rang-barangligi hamda qurilish uchun qulay uchastkalarining cheklanganligi bilan ajralib

turadi. Shu sababdan ham, bu kabi hududlarda aholi punktlarini qurishga bo'lgan shaharsozlik talablari aniq mahaliy sharoitlar bilan belgilanadi va mazkur qo'llanmada ko'rilmaydi.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekiston hududi, O'zshaharsozlikLITI instituti tomonidan bajarilgan landshaft-iqlimiy rayonlashtirishga ko'ra, qanday mintaqalarga bo'linadi?

2. 1-mintaqa tarkibiga qanday hududlar kiradi? Ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. 2-mintaqa tarkibiga qanday hududlar kiradi? Ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

4. 3-mintaqa tarkibiga qanday hududlar kiradi? Ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

5. 1-mintaqada joylashgan qishloq aholi punktlarini rejali tashkil etilishining asosiy tipologik prinsipi nimadan iborat?

6. 2-mintaqada joylashgan qishloq aholi punktlarini rejali tashkil etilishining asosiy tipologik prinsipi nimadan iborat?



4.1.1.1-rasm. O'zbekiston hududining shaharsozlik maqsadlarida landshaftli-iqlimiy rayonlashtirilishining sxemasi. (O'zshaharsozlikLITI)



4.1.1.2-rasm. O'zbekistonning 1-mintaqasida joylashgan qishloq aholi punktining rejali tashkil etilishining modeli




- ▣ aholi yashaydigan hudud;
- ▤ ishlab chiqarish hududi;
- ▥ ko'kalamzorlashtirish, suv sathi;
- jamoa markazi.



4.1.1.3-rasm. O'zbekistonning mintaqa qishloq aholi punktlarining bosh tarh misollari

a) mintaqa sharoitlari uchun qishloq aholi punktlari bosh rejaları yechimlarining namunalari; a) Samarqand viloyati Urgut tumani sharoitlari uchun qishloq aholi punktining bosh rejasi. Talaba I.Sherqulov, rahbar dos. Sh.Ochilov, SamDAQI;

b) namangan viloyati sharoitlari uchun agrar-rekreatsiya funksiyalari bo'lgan qishloq aholi punktining bosh rejasi. Talaba X.Alimov, rahbar katta o'qituvchi M.K.Yo'ldosheva, SamDAQI.



4.1.1.4-rasm. O'zbekistondagi 1-mintaqada joylashgan qishloq aholi punktini rejali tashkil etish modeli



-  aholi yashaydigan hudud;
-  ishlab chiqarish hududi;
-  ko'kalamzorlashtirish, suv sathi;
-  jamoa markazi;
-  piyoda bog'lanishlar.

4.1.1.5-rasm. Agrosanoat posyolkasidagi aholi istiqomat qiluvchi zona fragmenti. Talaba V. Bahromov. Rahbar dotsent R.T. Toshtemirov. SamTAQI



4.1.1.6-rasm. Sirdaryo viloyatidagi «Marjonbuloq» qishloq aholi punktining bosh rejasi. Talaba B. Shomirzayev rahbar dotsent R.T. Toshtemirov



**4.1.1.7-rasm. Qoraqalpog'iston sharoitlari uchun
qishloq posyolkasining bosh rejasi.**

Talabal.Sarsenbayev.Rahbar dotsent S.R.Karimov, SamDAQI

4.1.2. Aholi punktlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning rivojlanishi

Aholi punktlarining ochiq rejaviy tuzilmasini shakllantirish bo'yicha asosiy prinsiplar. Joylashuv tizimlarini va bu tizimlarning funksional tarzda birlashtirilgan tuzilmaviy elementlari sifatida aholi punktlarini joylashtirish jarayoni hanuzgacha pala-partish xususiyatga ega. Bu holat uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi, sababi, yangi tendensiyalar me'moriy-rejaviy tashkillashtirishning shakllanib va allaqachon eskirib ulgurgan prinsiplari va metodlariga to'qnash keladi. Ayrim hollarda esa bu yangi tendensiyalar yaxshi o'rganilmagani tufayli to'liq qo'llanilmaydi. Shuning uchun ham, bu tendensiyalar va uslublarni puxta o'rganilishi va anglanishi, loyihalash amaliyotida ulardan aniq maqsadga yo'naltirilgan tarzda foydalanish ham loyihaviy yechimlar, ham aholi punktlari faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Joylashtirish tizimlarida ro'y berayotgan integratsiya jarayonlari bilan rag'batlantirilayotgan qishloq aholi punktlari rivojlanishining yangi shart-sharoitlari, joylashtirish tizimining tuzilmaviy elementlarini aholi punktlarining arxitektura-rejaviy tashkil qilinishi uchun zarur sharoitlar sifatida yaratilishini oldindan belgilab beradi. Loyiha tuzilishi jarayonida, ba'zan, aholi punktlari joylashtirishning avtonom elementlari sifatida qabul qilinadi, bu kabi loyihalashtirish «yopiq» rejaviy tuzilmaga ega bo'ladi. Bunday holatlarda aholi punktlarini rejaviy tashkil etilishida mehnat va madaniy-maishiy hamda ishlash joylari va xizmat ko'rsatish muassasalarining ushbu aholi punkti chegaralarida bo'lgan o'zaro aloqalari katta ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bu kabi turar joylarning hududiy rivojlanishi «shahar chegarasi» deb atalmish (ko'rilayotgan vaziyat uchun – «posyolka chegarasi») doira bilan qat'iy chegaralangan bo'ladi.

Shu bilan birga, qishloqlararo aloqalarning rivojlanishi aholi punktlarining lokal territorial tuzilmalari chegarasida ham, yuqori miqyosdagi markazlar doirasida tashqi muloqotlarni hisobga olinishini taqozo qiladi. Bu kabi talablarga aholi punktlarining «ochiq» deb ta'riflangan tuzilmasining modeli mos keladi. Ochiq rejaviy tuzilma o'zaro bog'liq faoliyatni amalga oshirish jarayonini rejalashtirish vositalari bilan va har bir aholi punktini boshqalari bilan birgalikda, bir xil rivojlanishini ta'minlaydi.

Aholi punktlarini loyihalashtirish bo'yicha shakllanib ulgurgan yondoshuv ularning shaharsozlik nuqtayi nazarida rivojlanishi shartlariga javob bermaydi. Bu metod, odatda, aholi punktlarining avtonom tarzda faoliyatiga asoslanadi. Bunday yondoshuv «yopiq» deb ta'riflanuvchi rejali tuzilma sxemasi bilan ifodalanadi (4.1.2.1a-rasm).

Aholi punktlarining bu kabi rejaviy tashkil etilishida mehnat va madaniy-maishiy hamda ishlash joylari va xizmat ko'rsatish muassasalarining ushbu aholi punkti chegaralarida bo'lgan o'zaro aloqalari katta ahamiyat kasb etadi. Aholining ham mehnat bilan, ham madaniy-maishiy maqsadlar bilan bog'liq mayatniksimon tarzda qishloqlararo qatnashlari bu konsepsiya doirasida kam uchraydigan va noratsional holat sifatida ko'riladi. Loyihalashtirish amaliyotidagi bu kabi yondoshuv tashqi transportni joylashuv tuzilmasidan nomaqbul omil sifatida chiqarib tashlashni taqozo qiladi. Rejali tuzilma

shakllanishi jarayonida qishloqlararo transportning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga yetarlicha baho berilmaydi. Aholi punktlarining hududiy rivojlanishida ham uning tuzilmasi rivojlanishini «shahar doirasi» bilan qat'iy cheklash, joylashuvning yondosh tizimlari bilan qo'shilib ketishiga to'sqinlik qilish tendensiyasi olg'a suriladi. Zamonaviy sharoitlarda shaharlar va qishloq aholi punktlarining o'zaro bog'liq tarzda rivojlanishidagi mavjud obyektiv tendensiyalarga yetarlicha ahamiyat bermaslik bunday yondoshuvning asosiy sabablaridan biridir.

Qishloqlararo munosabatlarning kuchayishi loyihalashtirish va kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini rejalashtirish jarayonida aholi punktlaridagi ham lokal hududiy tuzilmalar, ham markazlar bilan tashqi aloqalarni albatta hisobga olish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Lekin, bunday aloqalarning hisobga olinishi hozircha to'liq emas. Loyiha tuzuvchi e'tiborini, odatda, bunday aloqalarning asosan bitta jihatiga, ya'ni jamoat xizmat ko'rsatish muassasalarini hisobga olishga qaratadi. Aholi punktlarining loyihalarida aholining tuman va viloyat markazlari bilan mayatniksimon migratsiya aloqalari, bu aloqalar intensivligi va xususiyatlaridagi farqlanishlar, ularning aholi punktlarining rejali tuzilmasiga, xizmat ko'rsatish muassasalarining tarkibi va rivojlanish darajasiga, jamoat transporti marshrutlarini belgilashga ko'rsatadigan ta'siri hisobga olinmaydi. Ta'kidlash lozimki, zamonaviy sharoitlarda muayyan joylashuv chegaralari nafaqat ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi, balki aholi punktlarining boshqa funksional tizimlari uchun ham tor bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, qishloqlararo aloqalarning rivojlanishi aholi punktlarining lokal territorial tuzilmalari chegarasida ham, yuqori miqyosdagi markazlar doirasida tashqi muloqotlarni hisobga olinishini taqozo qiladi. Bu kabi talablar kompleksiga aholi punktlarining «ochiq» deb ta'riflangan tuzilmasining modeli mos keladi. Ochiq rejaviy tuzilma o'zaro bog'liq faoliyatni amalga oshirish jarayonini rejalashtirish vositalari bilan va har bir aholi punktini boshqalari bilan birgalikda, baravar rivojlanishini ta'minlaydi. Ochiq rejaviy tuzilmaning asosiy farqlanuvchi jihati, bu uning ichki va tashqi aloqalarga bir xil yo'naltirilganidir, bu esa aholi punktlarining yakkalanib qolinishini oldini oladigan omil bo'lib xizmat qiladi.

Joylashtirishning mahalliy tizimlari, ya'ni aholi punktlarining rejaviy tuzilmasini shakllantirish vazifasi - bu yerda kechayotgan

ijtimoiy jarayonlar, qishloq aholisining mehnat, madaniy va ijtimoiy faoliyati uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Bu kabi sharoitlarda ochiq rejaviy tuzilmaning asosiy ijtimoiy mohiyati quyidagidan iborat – me'moriy-rejali tashkillashtirish vositasida joylashtirishning lokal hududiy birliklarining markaziy va oddiy tuzilmaviy elementlaridagi mavjud yashash sharoitlari o'rtasidagi farqlanishlarni ma'lum darajada bartaraf qilish (4.1.2.1-rasm). Qishloqlararo aloqalarning kuchayishi joylashtirish tizimi tuzilmalaridagi funksional zonalarining to'liq tarkibiga ega aholi punktlari bilan bir qatorda ayrim obyektlar va ularning guruhlar ham rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bunda tizim tarkibidagi ayrim hududlarda ish joylarining yetishmasligi va boshqa hududlarda esa ishlab chiqarish va agrosanoat obyektlarining rivojlanishi kabi tendensiyalar namoyon bo'ladi. Bu kabi, qishloqlararo miqyosga ega holat dam olish zonalar hamda kommunal-ombor hududlarda ham kuzatiladi. Bunday yondoshish qishloq aholi punktlarining joylashtirish tizimida yakkalanib qolishini oldini olishga va tizimning tuzilmaviy elementi sifatida rivojlanishiga yordam beradi (4.1.2.2-rasm).

Bu jarayon hozirgi sharoitlar uchun tabiiy bo'lib, aholining ichki va qishloqlararo qatnashlarining xususiyatlari (qulayligi, qatnov uchun sarflanadigan vaqt va h.k.) yaqinlashib borayotganini aks ettiradi. Qishloq aholi punktida tashqi safarlarning hajmi qishloq ichidagi harakatlar hajmidan ancha katta. Shuning uchun ham, qishloq aholi punktining rejaviy tuzilmasiga tashqi transportning ta'siri eng muhim omil maqomiga ega bo'lib qoladi. Demak, aholi punkti rejaviy tuzilmasining muhim elementi hisoblanuvchi jamoa markazi bilan, bir qator holatlarda (birinchi navbatda, mahalliy markazlarda), rejaviy bog'langan yo'lovchi transport infratuzilmasini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aholi punktini joylashtirish tizimining tuzilmaviy elementi sifatida qabul qilinishi, avvalgi, an'anaviy yondoshishdan farqli o'laroq, uning territoriyasi funksional ravishda zonalashtirilishini belgilab beradi. Aholi punkti va joylashtirish tizimini rejaviy tashkil etilishining uslubi sifatida ko'riladigan funksional zonalashtirishning imkoniyatlari ayrim zonalarining o'zaro ta'siri, masalan, bu zonalaridagi ayrim elementlarning bir-biriga qo'shilib ketishi va integratsiyasi kabi shaharsozlik yaxlitligiga xos bo'lgan tendensiyalar

kuchayishini hisobga olishi zarur. Qurilish obyektlarining nafaqat funksional, balki hajmiy-fazoviy jihatlarini hisobga olish zarurati funksional bir turga mansub territorialarni belgilashdek nisbatan oddiy prinsiplardan o'zgaruvchan, shaharsozlik tuzilmalari shakllanishining barcha jihatlarini o'z tarkibida qamrab olgan prinsiplarga o'tish maqsadga muvofiq ekanligini taqozo qiladi.

Qishloq aholi punktlarining joylashuv tizimi tarkibida rivojlanish sharoitlarini xilma-xilligi ularni tizim tuzilmasiga kiritish imkoniyatlari va shakllari bir xil bo'lmashligini shartlab beradi. Ular hududning urbanizatsiya darajasi, u yoki bu joylashuv mintaqasiga mansubligi va shu kabi omillarga qarab belgilanadi. Tabiiyki, aholi punkti rejali tuzilmasi ham muayyan mintaq va hududlardagi mavjud sharoitlarga qarab o'zgaradi.

Alohida joylashgan va joylashuv tizimining elementlari sifatida ko'rilayotgan qishloq aholi punktlariga nisbatan shakllanayotgan me'moriy-rejali tuzilmalar shakllanishining solishtirma tahlili tizimdagi aholi punktning ochiq tuzilmasiga xos prinsipial xususiyatlarni aniqlash imkoniyatini berdi. Agar alohida joylashuv tizimi rivojlanishi asosida uning faoliyatidagi bir qator jihatlar bo'yicha o'zini o'zi ta'minlash dasturi mavjud bo'lsa, aholi punktida, ya'ni joylashuv tizimining elementida - funksiyalar birlashtirilishiga asoslangan ixtisoslashtirilgan rivojlanish, tuzilmaviy elementlarning turlari, tarkibi va o'lchamlari, tizimning turli tarkibiy qismlari o'rtasidagi rivojlanish bo'yicha shaharsozlik dasturlari ko'zga tashlanadi. Bu farqlanishlar aholi punktini me'moriy-rejali tuzilmasi shakllanishining barcha jihatlarida o'z aksini topgan.

Qishloq aholi punktning joylashuv tizimidagi rivojlanishida uning asosiy tuzilmaviy-funksional elementlari o'rtasidagi muayyan mutanosibliklarni saqlab qolish vazifasi o'z ma'nosini yo'qotadi. Aholi istiqomat qiluvchi va sanoat-ishlab chiqarish hududlarning o'zaro nisbati misolida uchta asosiy vaziyat yuzaga keladi (4.1.2.3-rasm). Birinchi holatda aholi yashaydigan hudud ko'proq rivojlanadi, sababi – ushbu aholi punkti aholisining bir qismi undan tashqarida mehnat qiladi. Ikkinchi holatda – buning aksini, ya'ni rivojlangan ishlab chiqarish zonasi boshqa aholi punktlarida yashaydigan aholining katta qismini o'ziga jalb qilishini ko'rish mumkin. Uchinchi holatda, ya'ni zonalarining hududiy rivojlanishi mutanosib ko'rinishga ega bo'lganida, funksional balans saqlanmay qoladi, sababi – ushbu

aholi punktidagi aholining bir qismi ushbu aholi punktni tashqarisida mehnat qilsa, boshqa qismi esa mayatniksimon migrantlar hisoblanadi. Shunday qilib, joylashuv tizimlarining elementlari hisoblangan aholi punktlaridagi tuzilmaviy-funksional nisbatlar, aksariyat hollarda, muvozanatlashmagan bo'lib chiqadi, chunki aholi punktni joylashuv tizimidagi roli va mavqeini belgilab beruvchi vazifalari aynan shunday nomutanosiblikni avvaldan shartlab beradi.

Qishloq aholi punktlari elementlarining tarkibi ham turlichadir. Ularning joylashuv tizimidagi rivojlanishida, ayniqsa, hududiy jihatdan yaqin bo'lgan aholi punktlari guruhidagi rivojlanishida aholi punktlarining biridagi alohida obyektlari yoki komplekslari (masalan, ishlab chiqarish korxonalari, ijtimoiy xizmat ko'rsatish obyektlari va sh.k.) qolganlarining ehtiyojlarini ta'minlashi mumkin. (4.1.2.2-rasm). Natijada, bir qator aholi punktlaridagi elementlar tarkibi to'liq emas, cheklangan bo'lib chiqadi. Misol uchun, bir aholi punktida dam olish zonasi bo'lmaydi, ikkinchisida esa ishlab chiqarish bazasi yaxshi rivojlanmagan bo'ladi va h.k. Mavjud bo'lmagan yoki sust rivojlangan funksiyalar ushbu tizim tarkibiga kiruvchi boshqa aholi punktlari hisobiga qoplanadi.

Qishloqlararo mayatniksimon migratsiyalar rivojlanayotgan sharoitlarda elementlarning o'zaro aloqalarining xususiyatlari ham o'zgaradi. Shahar va qishloq aholi punktlarining tuzilmaviy-funksional elementlarida bevosita o'zaro ta'sir tendensiyalari yuzaga keladi, natijada, muayyan aholi punktidagi avvalgi tuzilmaviy-funksional yaxlitlik yangi, mintaqaviy yoki mahalliy joylashuv tizimi yadrosiga asoslangan yanada yirikroq yaxlitlikka o'zgartiriladi. Joylashuv tizimining elementi hisoblangan aholi punktida turli zonalar, obyektlar, muassalarning nomutanosib tarzda rivojlanishi mumkin bo'lib, ayrim hollarda esa, maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Sababi, yanada yirikroq shaharsozlik tuzilmasi – joylashuv tizimi yoki uning kichik tizimlar vositasida umumiy balansga erishish imkoniyatlari vujudga keladi.

Joylashuv tizimida rejalashtirishning turli chegaralari va hududiy rivojlanishning tabiiy to'siqlariga bo'lgan munosabat ham o'zgaradi. Joylashuvning guruhli shakllarini loyihalash jarayonida landshaftning jarliklar, suv havzalari, qo'shni qishloqlar o'rtasidagi hududiy uzilishlar kabi elementlari turli funksional vazifalarga ega umumguruh

zonalar rolini bajargan holda, qo'shni aholi punktlarini ajratuvchi emas, balki birlashtiruvchi elementlar sifatida qabul qilinadi.

Nisbatan alohida joylashgan aholi punktlari deyarli universal dastur bo'yicha rivojlanadilar, unga ko'ra har bir alohida aholi punktida shaharsozlikka oid asosiy vazifalarning butun kompleksi, ya'ni: yangi qurilish; tarixiy yoki badiiy qiymatga ega elementlar konservatsiyasi; ularning ayrimlarini yangi funksiyalarni bajarish uchun moslashtirilishi; eski shakllarni keskin yangilanishi yoki batamom bartaraf etilishi amalga oshiriladi. Bir-biriga zid bo'lgan bir qator funksional vazifalarni bitta rejaliy tuzilma doirasida amalga oshirish ancha murakkab masala hisoblanadi. Oxir-oqibat, eskirgan tuzilmaning mutlaqo yangi sharoitlarda ishlashi aksariyat hollarda uning buzilishiga olib keladi.

Qishloq aholi punktlarini joylashuv elementlari sifatida rivojlanishida ixtisoslashuv yo'li bilan alohida, tizim ehtiyojlari talab etayotgan va u yoki bu aholi punkt uchun maqbul keladigan rivojlanish dasturining istalayotgan, maqsadga muvofiq rejimini amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, joylashuv tizimida aholi punktlari uchun rivojlanish dasturlarini birlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bunda har bir qishloq aholi punkti uchun eng maqbul va afzal deb topilgan dastur ushbu tuzilmadagi boshqa dasturlarning elementlari bilan birga amalga oshiriladi.

Ochiq rejalashtirish tuzilmasining xususiyati qishloqlararo mehnat aloqalarning intensivligi va yo'nalishiga bog'liq ravishda sezilarli darajada o'zgaradi. Shundan kelib chiqib, ochiq tuzilmaning uchta eng ahamiyatli turini ajartirish mumkin: I – mehnat resurslarini yetkazib beruvchi aholi punkti tuzilmasi; II – mehnat resurslaridan foydalanuvchi aholi punkti tuzilmasi; – mehnat resurslarini yetkazib beruvchi-ulardan foydalanuvchi aholi punkti tuzilmasi, bu tuzilmada qishloqlararo mehnat safarlari almashinishi ko'zda tutiladi. Rejali tuzilmalarning har bir turi uchun rivojlanish darajasi va tuzilma elementlarining o'zaro joylashuviga, birinchi navbatda, jamoat transporti tuguni va mehnat qilinadigan joylarga nisbatan muayyan talablar qo'yiladi. Bunda har bir tuzilma turi uchun mehnat aloqalarining nafaqat quvvati, balki ularning yo'nalishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ochiq rejali tuzilmaning I turida transport tugunining (bir transportdan ikkinchisiga o'tish punktining) joylashuv tizimining

markaziga nisbatan eng yaqin joylashtirilishi, shuning natijasida jamoat-transport kompleksini shakllantirish eng maqbul yechim hisoblanadi. Bunday kompleks «aholi punkti-yotoqxona» turiga mansub aholi punktidagi aholining maksimal soni undan foydalanishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi.


II turdagi ochiq rejaviy tuzilmada transport tugunlarining qishloqlararo mehnat markazlari (agrar-sanoat zonasi va shu kabilar) yonida joylashtirilishi eng optimal yechim hisoblanadi. Transport tugunining aholi istiqomat qiladigan hududlarga nisbatan joylashuvi esa ikkilamchi, bo'ysinuvchi tusga ega bo'ladi, shu sababdan transport uzeli chekkada joylashtirilishi maqsadga muvofiq yechim sifatida qabul qilinadi.

Ochiq rejaviy tuzilmaning eng ko'p tarqalgan III turida barcha holatlarda transport tuguni markazda joylashtirilishi eng maqbul yechim hisoblanadi. Bunda aholining qishloqlararo qatnashlari uchun sarflanadigan umumiy vaqtni kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Ta'kidlash lozimki, jamoat markazini, u qishloqlararo funksiyalarini bajarishi yoki bajarmasligidan qat'iy nazar, transport tuguni bilan birlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Migrantlar manfaatlarini hisobga olgan holda jamoat markazi bilan mehnat markazlari sifatida qabul qilingan boshqa obyektlarni ham rejali tarzda birlashtirish muhimdir.


Ochiq rejali tuzilmaning uchchala turida, agar sxemadan amaldagi vaziyatlarning ko'p sonli variantlariga o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilgan elementlar (aholini jalb qiluvchi mehnat markazlari)ni joylashtirilishi lokal vaziyatlarning ko'plab variantlariga bog'liq bo'lgan boshqa omillar bilan ham belgilanadi. Bunda aholi punkti rejasining shakli, joyi va tabiiy elementlar (suv havzalari, yashil o'simliklar, foydalanilmaydigan maydonlar va sh.k.)ning joylashuv tuzilmasida tutgan o'rni va ahamiyati muhim rol o'ynaydi. Posyolka ichidagi aloqalarning butun tizimi, ayniqsa, piyoda aloqalar tizimi mehnat, madaniy-maishiy va boshqa maqsadlarda bajariladigan qatnovlar uchun sarflanadigan vaqt minimal bo'lishini hisobga olgan holda tashkil qilinishi zarur.



a-yopiq



b-ochiq




1 - turar-joy zonasi; 2- jamoat markazi; 3 - ishlab chiqarish zonasi;
4 - dam olish zonasi; 5 - ichki aloqalar; 6 - aholining qishloqlararo tashqi aloqalari;
6a - ushbu aholi punktining; 6b - ushbu aholi punktiga intilayotgan aholining.

a)yopiq rejali tuzilma

b) ochiq rejali tuzilma

**4.1.2.1-rasm. Joylashuv tizimi elementi - aholi punktining ochiq
rejali tuzilmasining prinsipial sxemasi**



A - alohida joylashgan aholi punktlari;

B - aholi punktlari va ularning joylashuv tizimidagi tuzilmaviy-funksional elementlari

1 - turar-joy zonasi; 2 - sanoat hududi; 3 - jamoat markazi;

4 - dam olish zonasi; 5 - aholi punkti elementlarining tizim ichidagi o'zaro aloqalari;

6 - alohida joylashgan aholi punktlarining o'zaro aloqalari;


7 - alohida joylashgan aholi punkti nisbatan chegarasi;

8 - joylashuv tizimining chegarasi;

9 - tizim elementi - aholi punktining chegarasi

4.1.2.2-rasm. Aholi punktlari elementlari tarkibining shakllanishi

Xususiyatlari va ularning joylashuv tizimidagi o'zaro bog'liqliklari



4.1.2.3-rasm. Aholi punktining tuzilmaviy-funksional elementlarining proporsiyalari va o'zaro aloqalari

Aholi punktlarini loyihalashdagi shakllangan yondoshuv ularning shaharsozlik nuqtayi nazarida rivojlanishi bo'yicha vazifalariga javob bermaydi. Bunday eskirgan yondoshuv, odatda, aholi punktlarining nisbatan avtonom faoliyat yuritishiga asoslangan. Bunday yondoshuv yopiq deb qabul qilinishi mumkin bo'lgan rejali tuzilmaning sxemasi bilan ifodalanadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Aholi punktlarini loyihalashdagi shakllangan yondoshuv ularning shaharsozlik nuqtayi nazarida rivojlanishi bo'yicha vazifalariga nima sababdan javob bermaydi?

2. Aholi punktlari rejali tuzilmasining «yopiq» sxemasini mohiyati nimadan iborat?

3. Aholi punktlari rejali tuzilmasining «yopiq» sxemasining mohiyati nimadan iborat?

4. Mehnat qilinadigan joylari, ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari va dam olish joylarining umumiy tizimlari, muhandislik-transport infratuzilmasi, shuningdek ma'muriy-xo'jalik boshqaruvni yagona tizimi rivojlanishining o'zaro ratsional shartlanganligi va joylashtirilishi asosida shakllanayotgan joylashuv tizimining tuzilma-viy-funksional elementlari bo'lgan aholi punktlarini loyihalashtirishga bo'lgan yondoshuv qaysi prinsiplarga asoslanadi?

5. Aholi punktining «ochiq» rejali tuzilmasi qishloqlararo mehnat aloqalari intensivligi va yo'nalishlariga bog'liq ravishda qaysi alohida turlarga ajratiladi?

6. I turga mansub ochiq rejali tuzilma uchun qaysi yechim maqsadga muvofiq hisoblanadi?

7. II turga mansub ochiq rejali tuzilma uchun qaysi yechim maqsadga muvofiq hisoblanadi?

8. III turga mansub ochiq rejali tuzilma uchun qaysi yechim maqsadga muvofiq hisoblanadi?

Qishloqlararo muhandislik-transport tuzilmasining aholi punktlarining rejali tuzilmasi shakllanishidagi roli.

Qishloq aholi punktida tashqi safarlarning hajmi qishloq ichidagi harakatlar hajmidan ancha katta. Shuning uchun ham, qishloq aholi

punktining rejali tuzilmasiga tashqi transportning ta'siri eng muhim omil maqomiga ega bo'lib qoladi. Demak, aholi punkti rejaviy tuzilmasining muhim elementi hisoblanuvchi jamoa markazi bilan, bir qator holatlarda (birinchi navbatda, mahalliy markazlarda), reja asosida bog'langan yo'lovchi transport infratuzilmasini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin, bugungi kunga kelib qishloqlararo transport aloqalarining rivojlanish darajasi nisbatan yuqori emasligini ham ta'kidlash lozim. Shuning uchun ham, yaqin kelajakdagi qishloqlararo transport aloqalarining ahamiyati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun yetarlicha imkoniyat yo'q. Biroq, aholi punktlarining rejali tuzilmasi, baribir, tashqi aloqalar jadallashuvi va ularning iqtisodiyotda, aholi turmushi yaxshilanishidagi muhim o'ringa ega bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Yo'lovchi transportining sifat va miqdor nuqtayi nazarida yaxshilanishi, nafaqat respublika va viloyat miqyosidagi, balki mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo'llarining yuqori sifatli tarmoqlarining tashkil qilinishi qishloqlararo aloqalar hajmi sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Aynan shunday istiqbolli daraja aholi punktlarining rejali tuzilmasini shakllantirishdagi yondoshuvni belgilab berishi lozim. Demak, yopiq rejali tuzilmadan keskin farqlanuvchi ochiq rejali tuzilmada qishloqlararo transport va muhandislik kommunikatsiyalarning ahamiyati eng muhim omil sifatida qabul qilinadi.

Umumiy tizim tarkibidagi transport va muhandislik infratuzilmasi aholi punktining rejali tuzilmasini shakllantirishda boshqa qishloqlararo omillar bilan bir qatorda eng ahamiyatli omil sifatida qabul qilinadi. Bunday infratuzilma, o'z mohiyatiga ko'ra, aholi punktlarining mahalliy lokal guruhi tuzilmasidagi umumtizim yoki umumguruh infratuzilmaning bir qismi sifatida rivojlanib boradi. Bunday sharoitlarda muayyan aholi punktining rejali tuzilmasida qishloqlararo infratuzilma komplekslari va obyektlarining roli tobora ortib boradi. Bu obyekt va komplekslarning joylashuv tizimida joylashtirilishi tashqi aloqaning rejali vositalari bilan ta'minlanadi. Shu sababdan ham, aholi punktining rejali tuzilmasi rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: yo'lovchi transporti tugunlarini shakllantirish; jamoat markazidagi turli funksional zonalarini ularning transport tarmog'i bilan bog'lanishiga (qatnovlar intensivligiga) qarab joylashtirish, sharoitlardan kelib chiqqan holda transport tugunini jamoat markazi bilan birlashtirish

(birinchi navbatda – mahalliy markazlarda) va ijtimoiy-transport kompleksini mahalliy markazning rejali tuzilmasidagi eng muhim elementi sifatida shakllantirish; qishloqlararo infratuzilmaning turli tizimlaridagi bosh obyektlarni o'zaro bog'liq va muvofiqlashtirilgan tarzda joylashtirish.

Kelgusida, mahalliy markaz (kichik shahar yoki yirik qishloq aholi punkti) ham katta markaz, ham joylashuvning mahalliy tizimidagi aholi punktlari bilan yaqindan aloqada bo'lishini e'tiborga oladigan bo'lsak, shahardan tashqari bog'lanishlar va aloqalarni tumanlar ichidagi va tumanlar tashqarisidagi aloqalarga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi turdagilari mahalliy markazlarga, ikkinchi turdagilari joylashuv tizimidagi elementlar – aholi punktlariga xos bo'ladi. Markaz funksiyalarini bajaruvchi aholi punktlari rejali tashkil etilishi tumanlar ichidagi va tumanlar tashqarisidagi aloqalarni birlashtirgan holda hisobga olishni taqozo qiladi (4.1.2.4-rasm). Ichki va tashqi transport aloqalarining o'zaro nisbati joylashuv mintaqasiga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin.

Qishloqlararo transport infratuzilmasi obyektlarining roli, ayniqsa, joylashuvning I va II mintaqalarida katta. Bu mintaqalardagi rejali tuzilma mahalliy markazlar yirik shahar-markaz bilan aloqalar yaxshi rivojlangani sababli aholi punktining tizimga qo'shilganlik darajasi yuqori bo'lishini ta'minlashi lozim. Bu mintaqalardagi aksariyat aholi punktlari uchun tashqi aloqalarni amalga oshirish vositasi sifatida avtobus qatnovlaridan (shaharlararo va shahar atrofi avtobuslardan) foydalaniladi. Kelgusida, qishloqlararo aloqalar jadallashuvi va avtobus qatnovlari ortishi natijasida transport tarmog'ining tuzilmaviy-rejali ahamiyati ham ortib boradi. Ayniqsa, avtobus marshrutlari uchun so'nggi manzil bo'lgan aholi punktlarida avtotransport tizimini tashkil qilish katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Aholi punktlari tuzilmasida agrar-sanoat korxonlari va jamoat transport tugunlarining joylashtirilishi ushbu aholi punkti aholisi va boshqa aholi punktlari aholisi uchun qulayliklarni yaratish talabi bilan shartlanadi. Ushbu komplekslarni rejali tuzilmadagi o'rmini belgilab berruvchi asosiy shartlar bu – bir tomondan, ularni turar-joy hududiga nisbatan qulay joylashtirish zarurati bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ularni tashqi magistrallarda joylashtirish zaruratidir. Ana shu, bir-biriga zid bo'lgan shart va talablarni hisobga olgan holda eng maqbul shaharsozlik yechimlarni qabul qilishni nazarda tutadi.


Joylashuv mintaqasi	Qishloqlar sistemi	Qishloq aholi punkti rejali tuzilishining sxemasi	Transport tuguni joylashuvining xususiyati
------------------------	-----------------------	--	---



Mintaqaviy joylashuv tizimining bosh shahri bilan mehnat va madaniy-maishiy aloqalar transport tuguni aholi ishqomati qiladigan joyga imkon qadar yaqin bo'lishini taqozo qiladi.



Transport tuguni asosiy intilish fokuslari (jamost markazi, sanoat-ehlab chiqarish zonalar) kabi ahamiyatga ega bo'ladi. Aholi punktidagi harakatlarni tashkil qilish sxemasi shunga muvofiq tarzda tuzilib, uni markazlashgan shakliga keltiradi.



Ushbu mintaqadagi aholi punktlarining shahar-markazdan 1,5 soatli uzoqlikdagi radiusda joylashuvi tashqi yo'lovchi transport inshootlari joylashuvini an'anaviy intilish zonalariga nisbatan ikkinchi darajali maqomga ega bo'lishini keltirib chiqadi.



1. turar-joy zonasi; 2 - jamost markazi; sanoat-ehlab chiqarish zonasi;
- 4 - dam olish zonasi; 5 - transport tuguni; 6 - jamost transporti kompleksi;
- 7 - qishloq aholi punkti aholisi aloqalarining sxemasi;
- 8 - tuman markaziga intiluvchi aholining qishloqlararo aloqalari;
- 9 - tumanlararo ichki yo'llar; 10 - tumanlararo tashqi yo'llar

4.1.2.4-rasm. Joylashuvning turli mintaqalaridagi qishloq aholi punktlari rejali tuzilmalari shakllanishining prinsipial sxemalari

Zamonaviy aholi punkti tuzilmasidagi tashqi kommunikatsiya-larga, xuddi tashqi aloqalarga bo'lgani kabi e'tibor qaratish shaharsozlikdagi eng prinsipial masalalardan biri hisoblanadi. Shaharsozlikdagi loyihalash amaliyotida aholi punktiga nisbatan tashqi hisoblangan transport kommunikatsiyalarini imoratlar qurilgan zonadan tashqariga chiqarish g'oyasi ustuvor hisoblanadi. Bunday fikr ikkita muhim asosga tayanadi: aholi punkti hududining qishloqlararo

avtomobil magistrallari bilan kesib o'tilishi (sanitariya-gigiyenik sharoitlar yomonlashadi – shovqin, gazlanganlik darajasining ortishi); aholi punktining turli qismlari orasidagi aloqalar qiyinlashgani tufayli katta xarajatlarni talab qiluvchi kommunikatsiyalar (yo'lovchi, transport, muhandislik) qurish zarurati.

Lekin, joylashuv tizimining elementi sifatida qaralayotgan aholi punktidagi funksional aloqalar tizimi masalalarini hal qilishda qishloqlararo qatnovlar uchun sarflanadigan umumiy vaqtni tejash muammosi eng ahamiyatli vazifalar sifatida ko'rilishiga e'tibor qaratish zarur. Joylashuv tizimidagi aholi punktlarini shakllantirishda vaqt omili katta ahamiyatga ega va bu ahamiyat yanada ortib borish ehtimoli yuqori hisoblanadi. Shu sababdan ham, aholi punkti tuzilishida qishloqlararo qatnovlar uchun sarflanadigan vaqtni tejashga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqish muhim vazifa sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda transport tugunini markazga yaqin joylashtirilishi eng maqbul va oqilona yechimlardan biri hisoblanadi. Bunday yechimning salbiy tomonlari suv yuzalari, yashil o'simliklardan foydalanib turib tashkil qilingan himoyaviy bufer elementlarini yaratish vositasida bartaraf qilinishi mumkin.

Takrolash uchun savollar:

1. Aholi punktlari rejali tuzilmasini shakllantirishga yondoshuv yaqin kelajakda qaysi istiqbolli daraja bilan belgilanadi?

2. Qishloqlararo infratuzilma komplekslari va obyektlarining roli ortib borayotgan va ularning aholi punktida rejaviy vositalar yordamida joylashtirilishi tashqi aloqalarni ta'minlab berayotgan sharoitlarda qaysi parametrlar aholi punktlari rejali tuzilmasi rivojlanishidagi yo'nalishlar uchun eng ahamiyatli hisoblanadi?

3. Qaysi markazlarda tashqi tumanlararo aloqalar salmog'i ko'proq bo'ladi?

4. Qaysi markazlarda tashqi tumanlardan tashqari aloqalar salmog'i ko'proq bo'ladi?

5. Tashqi tumanlararo aloqalar va tashqi tumanlardan tashqari aloqalar qaysi sabablarga bog'liq ravishda birlashtiriladi?

6. Aholining mayatniksimon migratsiyasi mavjud bo'lgan sharoitlarda joylashuvning qaysi mintaqalarida qishloqlararo transport infratuzilmasi obyektlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi?

7. Aholi punktlari tuzilmasida agrar-sanoat korxonalari kompleksi va jamoat-transport tugunining joylashtirilishi qaysi talablar bilan shartlanadi? Qishloq aholi punkti rejalashtirishida transport tugunining markazga yaqin joylashtirilishi oqilona yechim hisoblanadimi?

4.1.3. Muhandislik-texnik ta'minoti

Muhandislik-texnik sharoitlarning ta'siri. Qishloq aholi punktlarining me'moriy-rejali tuzilmasi shakllanishiga muhandislik-texnik sharoitlar, xususan, sug'oriladigan dehqonchilik texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, sizot suvlarining yuqori sathlari, tuproqning sho'rlanganligi, tuproqlarning cho'kuvchanligi kabi omillar sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Bu sharoitlarning ta'siri, ayniqsa, tekislikdagi sug'oriladigan mintaqalarda, shuningdek cho'l va yarim sahro hududlarda yaqqol seziladi. Sug'oriladigan dehqonchilik hududlarida, odatda, sug'orish kartalari, sug'orish kanallari va kollektor-drenaj tarmog'ining aniq geometrik tizimi tashkil qilinadi. Bu sharoitlarda aholi punktlarini qurish uchun ajratilgan maydonlar to'g'ri to'rtburchakli shaklga ega bo'lib, bu holat ko'pgina me'moriy-rejali yechimlar geometrik shaklda bo'lishini shartlab beradi. Yangi o'zlashtirilgan hududlarda o'tkazilgan tadqiqotlar (V.I.Nemirovskiy) shuni ko'rsatdiki, baland ko'tarmali ochiq kollektorlar, 1,5-2,0 metr balandlikka ega temir-beton lotoklardan iborat kanallar, baland ko'tarmalarda qurilgan avtomobil yo'llari transport va piyoda qatnovini qiyinlashtirar ekan. Qiyaligi 0,003 metrdan kichik bo'lgan relyef temir-beton lotoklar vositasida bajariladigan irrigatsiya masalalarini hal qilishda ham turli muammolar yuzaga keladi. Irrigatsiya bilan birga ko'chalar tarmog'i ham ko'tariladi. Bu esa, o'z navbatida, ko'chalarning tashqi ko'rinishini, uy-joylarga kirish yo'llarini, atmosfera yog'inlaridan hosil bo'ladigan suvlarni chiqarib tashlashni tashkil qilinishida sarfxarajalar ortishiga olib keladi.

Sizot suvlarining sathi tez ko'tarilishini oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan drenajlar qurilishi qo'riq yerlarda posyolkalarni rejalashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Drenlar joylashuvining 60 dan 300 metrgacha bo'lgan chastotasi, ularning to'g'ri chiziqli shakli, qurish metodlari, joylashtirish chuqurligi – bularning barchasi posyolka rejalashtirili-

shida va qurilishida, ayniqsa, mavzelnari erkin joylashuvi chegaralarini belgilashda, imoratlarning uzluksiz qurilishida loyihachilarning imkoniyatlarini keskin cheklaydi. Bu masalalarni yechish yo'llari quyidagicha: gidrogeologik sharoitlar imkoniyat beruvchi joylarda vertikal drenajdan keng foydalanish, drenajlarni polietilen quvurlarini qo'llagan holda handaqsiz o'tkazish metodlaridan keng foydalanish – bu metod drenajlarni ko'cha tarmog'ida yoki katta bo'lmagan texnik yo'laklarda o'tkazish imkoniyatini beradi. Kombinatsiyalashgan drenajlar istiqbolli hisoblanadi, siyraklashgan gorizontal drenlarda vertikal quduq-kuchaytirgich o'rnatiladi. 300-500 m li drenning siyrak to'ri loyihachilar uchun hududdan erkinroq foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Suv ta'minoti quvurlari va kanalizatsiya tizimini qurishda ham bir qator muammolar mavjud. Cho'kuvchanlikning II toifasiga kiruvchi tuproqlarda kanalizatsiya tarmoqlari katta uzilishlarni talab qiladi va, agar, turar-joy binolarida tarmoqlarning bino chekkasidan chiquvchi joylari bo'lsa, u holda imoratlarning yagona zich frontini yaratib bo'lmaydi.

Bugungi kunda qishloq aholi punktlarida kanallar, hovuzlar, favvoralarining rivojlangan tizimlari loyihalanmoqda, bunday obyektlar aksariyat hollarda tuzilma yaratuvchi elementlar vazifasini o'tamoqdalar (ular atrofida turar-joy va jamoat binolarining muayyan tizimlari jamlanmoqda, yashil zonalar tashkil qilinmoqda). Biroq, bir qator aholi punktlarida yilning katta qismida ular qarovsiz qolib ketmoqda – suv havzalari va kanallar suvsiz qolayapti, ifloslanmoqda, ko'kalamzorlashtirilishi lozim bo'lgan zonalaridagi o't-o'lanlar yozda qurib, taqir maydonlarga aylanib qolmoqda.

Qishloq aholi punktlarida yangi rejali tuzilma shakllanayotgan sharoitlarda sug'orishning umuman yangi usullarini yaratish talab qilinadi, bu usullar nafaqat qulay sharoitlar, balki yangi shakllanayotgan tuzilmalarga har jihatdan mos bo'lishi talab etiladi. Sug'orishning yopiq tizimi (quvurlar bo'yicha) ana shunday usullardan biri bo'lib, respublikaning ko'pgina yaylov va ekin maydonlarida qo'llanilib kelmoqda. Bu usuldan foydalanishda sug'orishning quyidagi turlari qo'llaniladi: yuza bo'ylab sug'orish, tuproq ostidan sug'orish va yomg'irlatib sug'orish.

Yuza bo'ylab sug'orish usuli suvning uchastka bo'ylab bir tekisda taqsimlanishini, tuproqqa infiltratsiya qilinishini ta'minlaydi, natijada

suv o'simlikning ildiz tizimigacha yetib borib, uning yaxshi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Suv aholi punkti sug'orish tizimining hamma uchastkalariga egiluvchan quvurlar yordamida yetkazib beriladi, sug'orish jarayonining boshqaruvi avtomatik ochish-yopish moslamasi bilan amalga oshiriladi. Tizim konstruktiv jihatdan yer yuzasida tayanchlarga osilgan yoki yer ostiga yotqizilgan quvurlardan bajarilishi mumkin. Bu usul foydalanishdagi soddalik va kamxarjlik, turli vaziyatlarga moslashuvchanlik kabi bir qator afzalliklarga egadir. Shuning uchun aholi punktlarini sug'orishda aynan shu usuldan foydalanish tavsiya etiladi.

Tuproq ostidan sug'orish suvni 40-60 sm chuqurlikda yotqizilgan perforatsiyalangan (mayda-mayda teshiklarga ega) quvurlar orqali bevosita o'simliklarning ildiz tizimiga yetkazib berilishini ko'zda tutadi. Bunda maxsus qurilmalar hisobiga tuproqdagi ildiz rivojlanadigan qatlamda optimal namlik rejimi avtomatik tarzda saqlanib turadi, natijada oddiy sug'orishda bo'lgani kabi qobiq hosil bo'lmaydi, suvda eritilgan o'g'itlarni kiritish imkoniyati paydo bo'ladi.

Tuproq ostidan sug'orish usulining asosiy kamchiliklar – tizimning qimmatga tushishi va uning qurilishi murakkab ekanligidir. Texnik imkoniyatlarning ushbu bosqichida bu usul kam qo'llaniladi, lekin istiqbolda park zonalari, jamoat bog'lari, piyodalar yo'lkalari chekkasiga ekilgan chirmashuvchi o'simliklarni sug'orishda keng foydalanishi mumkin.

Tomchilatib sug'orish tuproq ostidan sug'orishning varianti hisoblanadi, bunda suv o'simliklarning ildiz tizimlariga datchiklar yordamida belgilanadigan optimal dozalarda tomchilatib beriladi.

Yomg'irlatib sug'orish usulida suv bosim ostida mayda yomg'ir tomchilari ko'rinishida purkaladi. Bu usul tuproqni, havoni va o'simliklarni namlash uchun qo'llaniladi. Posyolkalarni sug'orish uchun yomg'irlatib sug'orishning barcha turlaridan foydalanish mumkin: impulsli, mayda dispersli, statsionar yoki ko'chma tarmoqlar vositasida yomg'irlatish va h.k. Ta'kidlash zarurki, bu usul qo'llanilganida iqlimiy zonalar bo'yicha cheklanishlar belgilanmaydi. Suvni tejash va maksimal natijalarga erishish zarurati mavjudligini hisobga oladigan bo'lsak, bunday tizimni cho'l-sahro zonalarda qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan sug'orishning zamonaviy usullari me'moriy-fazoviy muhitni nafaqat gorizontaal tekislikda, balki ko'p

sathli vertikal tekislikda ham boyitish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradilar. Ularni turli ko'rinishda ochiq suv havzalari bilan birga qo'llanilishi mikroiklim yaratishda eng yaxshi samaralarni beradi.

Aholi punktlarini rejalashtirishda yuqorida qayd etilgan omillar kompleksini hisobga olinishi qishloq aholisi yashashi uchun qulay sharoitlarni yaratishda yordam beradi.

4.1.4. Ishlab chiqarish omilining ta'siri

Ishlab chiqarish omilining ta'siri. Aholi istiqomat qiladigan tuzilmani shakllantirishda ishlab chiqarish bilan bog'liq omilning roli kattadir. U qishloq xo'jalik ixtisoslashuvini, korxonalar quvvatini, istiqomat zonasining o'lchamlarini, turar-joy va jamoat binolarining turlarini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish zonasining aholi istiqomat qiladigan zonaga nisbatan joylashuvi ichki va tashqi aloqalar xususiyatini belgilab beradi. Zararlik toifasiga ko'ra ishlab chiqarish zonasini istiqomat zonasiga nisbatan joylashuvining uchta varianti bajariladi: istiqomat zonasi tuzilmasi ichida, uning chegarasida va uning tashqarisida.

Ishlab chiqarish zonasi (masalan: yirik chorvachilik komplekslari va shu kabilardan iborat zonalar) istiqomat zonasidan tashqarida joylashtirilganida uning istiqomat zonasining kompozitsiyasiga ta'siri katta bo'lmaydi. Odatda, ishlab chiqarish zonasi bilan bog'lanish bitta piyoda-transport tarmog'i orqali amalga oshiriladi (4.1.4.1a-rasm, 4.1.4.1b-rasm).

Istiqomat zonasi chegarasida joylashgan ishlab chiqarish zonasi (tarkibida qishloq xo'jalik texnikasini ta'mirlash va saqlash korxonalari, issiqxonalar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash korxonalari va shu kabilardan iborat zona) ishchilar oqimini jalb qiluvchi mehnat markazi hisoblanadi (4.1.4.2a-rasm, 4.1.4.2b-rasm). Qayd etilgan variantlarda qishloq aholi punktlarining yagona ijtimoiy-ishlab chiqarish markazlarini tashkil etilishi optimal variant sifatida qabul qilinishi mumkin.

Aholi istiqomat qiluvchi zonalarda ishlab chiqarish zararliklarisiz, shovqinsiz, intensiv transport oqimlari bo'lishi talab qilmaydigan korxona va muassasalar (umumiy ovqatlanish, kommunal-maishiy muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish va ilmiy komplekslar, halq hunarmandchiligi bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar)

joylashtiriladi. Odatda, bu kabi korxona va muassasalar (jamoat markazi bilan bir qatorda) aholi punkti kompozitsiyasida ustuvor maqomga ega bo'lib, asosiy aloqalarni jalb qiluvchi markazlar vazifasini bajaradilar (4.1.4.3a-rasm, 4.1.4.3b-rasm).

Komplekslar, ishlab chiqarish zonasi va uning uchastkalarini aholi istiqomat qiladigan zonaga nisbatan joylashtirilishi bir tomonlama, ikki tomonlama va perimetr bo'yicha bo'lishi mumkin.

Bir tomonlama joylashtirishda ishlab chiqarish korxonalari aholi istiqomat qiluvchi zonaning bir tomonida joylashtiriladi. Bunday holatlarda jamoat markazi zonalar chegarasida joylashtirilib, umumiy me'moriy-rejali yechimning muhim mazmuniy va shahar tashkil qiluvchi bo'g'ini hisoblanadi. Ishlab chiqarish zonasining bir tomonlama joylashtirilishi butun xo'jalikning transport va muhandislik kommunikatsiyalari hamda me'moriy-rejali tashkil etilishi bilan bog'liq masalalarini aniq va oqilona hal qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Ikki tomonlama joylashtirishda ishlab chiqarish zonasi aholi yashaydigan zonaga nisbatan alohida joylashgan ikki va undan ortiq ishlab chiqarish hududlaridan iborat bo'ladi. Joylashtirishning bunday varianti me'moriy-rejali tuzilmasi shakllanib ulgurgan qishloq aholi punktlari uchun xosdir.

Burchakli joylashtirishda posyolkaning me'moriy-rejali tuzilmasi ishlab chiqarish yo'nalishida, transportda tashiladigan yuk oqimlarini zona tashqarisiga chiqarish uchun transport kommunikatsiyalarini periferiyada tashkil qilish bilan rivojlanadi. Bunda qishloq aholi punktiga kiraverishda yagona jamoat-ishlab chiqarish markazini yoki alohida ma'muriy markazni tashkil qilish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Yonma-yon joylashtirishda alohida ishlab chiqarish hududlari qishloq aholi punktining aholi yashaydigan zonasining bir tomonida joylashtiriladi. Bu kabi joylashtirish varianti qo'llanilganida posyolkaning ishlab chiqarish va aholi istiqomat qilish zonalarining istiqbolda rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi. Jamoat markazi «ishlab chiqarish-istiqomat» deb nomlanuvchi shaharsozlik va funksional tizimdagi bog'lovchi element vazifasini bajaradi.

Ishlab chiqarish zonasining hududlari, sektorlari yoki uchastkalari va istiqomat qilish zonolari qutbli joylashtirilganida bu zonalar aholi punktining me'moriy-rejali tuzilmasining qarama-qarshi tomonlarida

bo'ladi. Bu kabi joylashtirishda ayrim hollarda yordamchi xizmatlar, transport-muhandislik kommunikatsiyalarni birlashtirish imkoniyatlari bo'lmisligi mumkin, bunday holat, o'z navbatida, obyektlarni qurish va ulardan foydalanishni qimmat bo'lishga olib keladi.

Ishlab chiqarish uchastkalari va sektorlarini aholi istiqomat qiluvchi zona perimetri bo'yicha joylashtirish – rekonstruksiya bilan bog'liq turli chora-tadbirlarning asoslangan va kompleks loyiha hujjatlarisiz amalga oshirilishi natijasida shakllanadi. Ko'rilayotgan holatda «ishlab chiqarish-istiqomat» funksional tizimining o'ta murakkablashishi kuzatiladi, natijada, qishloq aholi punktining butun hududidagi me'moriy-rejali tuzilma shakllanishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatiladi. Ishlab chiqarish obyektlarining bunday joylashuvida alohida ishlab chiqarish obyektlarini aholi punktining ishlab chiqarish zonasida birlashtirishga qaratilgan rekonstruksiya ishlari bajarilishi lozim.


Shunday qilib, qishloq aholi punktlarini loyihalashtirishda ishlab chiqarish omillarining hisobga olinishi ishlab chiqarish va aholi istiqomat qilish zonalarini o'zaro joylashishining optimal yechimlari uchun sharoitlar yaratib beradi, natijada, qishloq aholi punktlari qurilishida rejaviy va me'moriy-estetik sifatlar yanada ortishiga xizmat qiladi.





4.1.4.1-rasm. Ishlab chiqarish zonasi istiqomat zonasidan tashqarida joylashgan: a) sut va baliqchilikka ixtisoslashgan agroindustrial kompleks markazining bosh rejasi; b) posyolka rejali tuzilmasining prinsipial sxemasi



4.1.4.2-rasm. Ishlab chiqarish zonasi istiqomat zonasi chegarasida joylashgan a) posyolka rejali tuzilmasining prinsipial sxemasi; b) "Gorniy" qishloq aholi punktining bosh rejasi (Qishloq xo'jalik instituti, Ostona (Selinograd) sh.



4.1.4.3-rasm. Ishlab chiqarish zonasi istiqomat zonasining tuzilmasi ichida joylashgan: a) posyolka rejali tuzilmasining prinsipial modeli; b) xalq hunarmandchiligiga ixtisoslashgan agroindustrial kompleksning bosh rejasi (MarXI).

Primer			
Ikki tomonlik	Ko'p xilli		
	Ikki vodli		
	burchakli		
	Bir tomonlik		
		Sxemalar	Misollar



- 1 – ishlab chiqarish zonasi;
 2 – jamoat markazi;
 3 – aholi istiqomat qiladigan zona

4.1.4.4-rasm. Qishloq aholi punktidagi ishlab chiqarish va aholi istiqomat qiladigan zonalarining o'zaro joylashuvining asosiy sxemalari /SNIIEP grajdansel'stroy/.

Bir tomonlama joylashuvda – ishlab chiqarish zonasi istiqomat zonasining bir tomonida joylashtiriladi.

Ikki tomonlama joylashuvda – ishlab chiqarish zonasi ikkita alohida joylashgan uchastkalardan iborat bo'ladi, ularning biri, aksariyat hollarda, chorvachilik kompleksi bo'ladi. Perimetr bo'yicha joylashuvda ishlab chiqarish obyektlari aholi istiqomat qilish zonasi atrofida joylashtiriladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Ishlab chiqarish zonalarining istiqomat zonalariga nisbatan joylashuvining qanday variantlari mavjud?

2. Qaysi korxonalar va muassasalar istiqomat tuzilmasi ichida joylashtiriladi?

3. Qaysi korxonalar va muassasalar istiqomat tuzilmasidan tashqarida joylashtiriladi?

4. Qaysi korxonalar va muassasalar istiqomat zonasi bilan yonma-yon joylashtiriladi?

5. Komplekslar hududi, ishlab chiqarish zonasi va uning uchastkalari istiqomat zonasiga nisbatan qaynday joylashtirilishi mumkin?

6. Ishlab chiqarish zonasining istiqomat zonasiga nisbatan bir tomonlama joylashtirilishining mohiyati nimadan iborat?

7. Ishlab chiqarish zonasining istiqomat zonasiga nisbatan ikki tomonlama joylashtirilishining mohiyati nimadan iborat?

8. Ishlab chiqarish zonasining istiqomat zonasiga nisbatan burchakli joylashtirilishining mohiyati nimadan iborat?

9. Ishlab chiqarish zonasining istiqomat zonasiga nisbatan yonma-yon joylashtirilishining mohiyati nimadan iborat?

10. Ishlab chiqarish zonasining istiqomat zonasiga nisbatan qutbli joylashtirilishining mohiyati nimadan iborat?

11. Ishlab chiqarish zonasining istiqomat zonasiga nisbatan perimetrlil joylashtirilishining mohiyati nimadan iborat?

4.2. Qishloq aholi punktlari rejaviy tuzilmasining evolutsiyasi

O'zbekistondagi qishloq aholi punktlarining rejaviy tashkil qilinishi prinsiplari ko'p asrlar mobaynida shakllanib kelgan. Quldorlik tizimi davrida mustahkamlangan, istehkom ko'rinishidagi

qishloq posyolkalari, feodalizm davrida – mustahkamlangan qishloq aholi punktlari paydo bo'lgan. XIX asrning ikkinich yarmida Turkiston o'lkasi Rossiyaga qo'shib olinganidan keyin qishloqlarning tuzilmasi ochiq, mudofaa devorlarisiz xarakterga ega bo'lgan. Tarixiy shakllangan qishloqlarning aksariyat qismi yo'llar va irrigatsiya kanallari yoqasida shakllangan. Ularning tuzilmasi tomorqa maydonlari bo'lgan turar-joy imoratlaridan iborat bo'lib, ular, asosan, qishloqdagi bosh machit atrofiga jamlangan. Rejaviy tashkil etilishning asosiy jihatlari bugungi kungacha saqlanib qolgan bo'lsada, turli mintaqalardagi qishloqlar faqat o'zlariga xos xususiyatlarga egalar. Eski sug'orish hududlaridagi qishloq tuzilmasida ko'kalamzorlar va suv manbalari ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlanadi (4.2.1-rasm). Imoratlar qurilishining mavze ko'rinishidagi, qator bo'ylab va erkin turlari shakllangan. Qishloqning rejaviy tuzilmasiga uy-joy fondining siyrakligi xos bo'lib, buni har bir turar-joy qoshidagi tomorqa maydonlarining katta o'lchamlari bilan izohlash mumkin.

Tog' etaklaridagi qishloqlarning rejalaniishi manzarali bo'lib, ayrim hollarda imoratlarning qurilishi joyning faol relyefi ta'siri ostida bajariladi. Soy bo'ylab qator qilib quriladigan va tog' etaklaridagi terrasalarda erkin tarzda quriladigan imoratlar bu mintaqqa uchun xos jihat hisoblanadi (4.2.2-rasm, 4.2.3-rasm).

Cho'l va sahro zonalarida dov-daraxtlar va suv tanqisligi mavjud bo'lgani sababli qishloq tuzilmasi ixcham ko'rinishga ega. Imoratlar qurilishi – mavze ko'rinishi yoki erkin usulda bajariladi (4.2.4-rasm).

Shakllangan qishloqlar rejalashtirilishi va qurilish usullarini istiqbolda ularni qo'llash nuqtayi nazarida o'rganish davomida ularning salbiy va ijobiy tomonlarini ajratish mumkin. Ijobiy jihatlar sirasiga imoratlar ko'kalamzorlar ichiga joylashtirilganini, mahalliy sharoitlarga yaxshi moslanganligini, mahalliy qurilishi materiallaridan foydalanish hisobiga o'ziga xos milliy qiyofaga ega ekanligini, quyosh radiatsiyasidan himoya qilish vositalarining mavjudligini, hududni ko'kalamzorlashtirish va suv chiqarishning mahalliy usullari mavjudligini kiritish mumkin. Muhandislik tarmoqlarining yo'qligi va uy-joy fondining siyrakligi esa asosiy salbiy jihatlar hisoblanadi.

Turkiston o'lkasidagi (hozirgi O'zbekiston hududi ham o'sha davrlarda o'lka tarkibida edi) qishloqlar tuzilmasining tubdan o'zgartirilishi XX asrning birinchi o'n yiligidagi boshlangan. Qishloq

hayotining feodal-patriarxal shaklining o'zgarishi ham aynan shu davrga to'g'ri keladi. 1918 yilda «Turkiston o'lkasidagi sug'orish ishlarini bajarish va ularni tashkil qilish uchun 50 million rubl ajratish to'g'risida»gi dekret qabul qilingan bo'lib, ushbu dekret Turkistondagi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning dasturiy hujjati maqomiga ega bo'ldi. Suv-yer islohoti qishloqlar hayotini o'zgartirib yubordi, dastlabki jamoa xo'jaliklari (kolxozlar) va davlat xo'jaliklari (sovxozlar) tashkil etila boshlandi. Masalan, 1924 yilda paxtachilikka ixtisoslashgan «Paxtaorol» sovxozi, 1927 yilda «Boyovut», 1939 yilda «Dalvarzin», «Malik» paxtachilik sovxozlari, «Udarnik», «Zomin» g'allachilikka ixtisoslashgan sovxozlari tashkil etildi. Qishloq turar-joy binolarining birinchi loyihalari aynan o'sha davrda tuzilgan. (4.2.5-rasm). O'sha davrga qadar qishloqlarda mavjud bo'lmagan madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarining loyihalari ishlab chiqarildi va qurildi.

Dehqon xo'jaliklarini kollektivlashtirish davrida (1929-1941 yillar) mashina-traktor stansiyalari (MTS) tashkil qilindi, sovxozlar soni yildan-yilga ortib bordi. Bu davrda qishloq aholi punktlarini rejalashtirish bo'yicha loyiha ishlari yanada jadallashdi, chorvachilik fermalari, xo'jalik maydonlari va jamoat markazlari tashkil qilindi. Kolxoz va sovxoz posyolkalaridagi hududlarni turar-joy va ishlab chiqarish zonalariga ajratish boshlandi. XX asrning 30-yillarida tashkil etilgan «Politotdel» kolxozining posyolkasi aynan shunday tuzilmaga ega (4.2.6-rasm). Egri-bugri va tor ko'chalarning o'miga obodonlashtirilgan ko'kalamzorlashtirilgan keng va to'g'ri ko'chalar, derazalari ko'chaga qaragan shinam turar-joy binolari paydo bo'ldi. 1938-1939 yillarda «Agrotexnika», «Sotsializm» va «Qizil dehqon» sovxozlarining posyolkalari qurilishi ham umuman yangicha usulda amalga oshirildi. O'sha davrga kelib ishlab chiqarish va ma'muriy, turar-joy va madaniy-maishiy binolarning yangi loyihalari ishlab chiqildi. Loyihalarda tabiiy-iqlimiy sharoitlar va mahalliy an'analarga moslashtirilgan qishloq posyolkalarini yaratishga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan edi (4.2.7-rasm). Posyolka markazlarida qishloq soveti, kolxoz pravleniyasi, klub, maktab, pochta, do'konlar va boshqa binolar barpo etildi. Bu yangi jamoat binolari qishloqning ijtimoiy hayotida, uning me'moriy va tashqi qiyofasida muhim ahamiyatga ega edilar.

XX asrning o'rtalariga kelib qishloq qurilishidagi hajmlar va sur'atlar sezilarli darajada ortdi. Namunaviy loyihalarni ishlab chiqishga katta ahamiyat qaratildi, standartlashtirishga bo'lgan intilishlar kuchaydi. Turar-joy binolarining shunday loyihalari paydo bo'ldiki, ularda mualliflar xalq me'morchiligi an'analari hisobga olib va qo'llagan holda qishloq uyining umuman yangi namunalarini yaratishga harakat qilgan edilar (4.2.10-rasm, 4.2.11-rasm). Lekin, aynan o'sha davrda zamonaviy texnika va iqtisodiyot talablariga umuman javob bermaydigan estetik formalizm kabi uslub ham keng tarqalgan edi. Qishloqning real imkoniyatlarini inobatga olmay turib, ba'zi arxitektorlar qishloq klub binosini dabdurustdan saroyga aylantirib qo'yar edilar («Sotsializm» kolxozidagi klub binosi, «Paxtaorol» kolxozidagi yozgi klub va boshqalar), (4.2.8-rasm).

50-yillarning boshlarida O'zbekistonda jamoa xo'jaliklari (kolxozlar)ni yiriklashtirish o'tkazilgan. Qishloq xo'jaligida texnika vositasida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish hajmlari ortgani natijasida yuzaga kelgan yangi sharoitlar mayda xo'jaliklarni birlashtirib, yirik ishlab chiqarish birlashmalari – katta kolxoz va sovxozlarni tashkil qilishni taqozo etardi. Respublikada mavjud 6399 jamoa xo'jaliklari (1949y.) o'rniga 1952 yilga kelib 2573 ta kolxoz qoldi. Bu jarayon davomida kolxozlar tasarrufidagi yer maydonlarining birlashtirishi bilan olib borildi, mayda yer uchastkalari butkul yo'q qilindi, natijada qishloq xo'jalikdagi ishlab chiqarish kuchlaridan foydalanish samarasi oshdi. Biroq, mayda qishloqlarga oid joylashuv tuzilmasi ko'p jihatlar bo'yicha o'zgarmay qoldi. Kolxozlar yiriklashtirilishi, ishlab chiqarish va madaniy-maishiy, turar-joy qurilishi miqyoslari ortishi bilan bir qatorda yiriklashtirilgan xo'jaliklarning markaziy posyolkalardagi ishlab chiqarish zonalarini ham kengayib bordi.

1956 yilda Mirzacho'ldagi millionlab gektar qo'riq yerlarni kompleks sug'orish va o'zlashtirish ishlari boshlandi. 23 ta yangi davlat qishloq xo'jalik korxonalarini (sovxozlarni) tashkil etish rejalashtirildi. 1957 yilda «Farhod» sovxozi, 1959 yilda 5-sonli sovxoz, 1961-1963 yillarda esa 1-, 2-, 3-, 4-, 6-, 7-, 17-, 26-sonli va boshqa ko'pgina davlat xo'jaliklari tashkil etildi. Sovxozlar ko'p bo'linmali xo'jaliklar shaklida loyihalangan edi, ularning tuzilmasi o'sha davrda mavjud bo'lgan xo'jalik yuritishning qo'l mehnati ulushining kattaligi va mexanizatsiyalashgan paxtachilikni

rivojlantirish an'analariga umuman mos kelmasligi bilan shartlangan tashkiliy shakllariga muvofiq edi. Sovxozlar har birining mustaqil qo'rg'oni bo'lgan 5-6 ta bo'linmalardan iborat bo'lib, turar-joy imoratlari asosan 1 qavatli qurilar edi. Har bir turar-joy binosi qoshida 0,15 gektar tomorqa maydoni ajratilib berilardi (5-sonli «Farhod» sovxozi va b.). Imoratlar qurilishining o'sha yillarga xos bo'lgan keng ko'chali va mayda mavzeli to'g'ri to'rt burchakli tuzilmasi (4.2.9a-rasm) posyolkalar qurilishiga sarflanadigan xarajatlar katta bo'lishini shartlab bergan edi. Sovxozlarning ko'p bo'linmali tuzilmasida aholini madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish bilan yetarli darajada ta'minlashning imkoniyati yo'q edi. Mirzacho'ldagi xo'jaliklarning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilganidan so'ng (1950-1964 yy.) ular bo'linmalarsiz shaklga o'tdilar. Sovxoz hududi (8-10 ming gektar yer maydonlari) 3-4 ta agrouchastkalarga bo'lib tashlandi. Har bir agrouchastka o'z agroxo'jalik markazlari va brigada shiypolariga ega edi. Bitta sovxozda bitta markaziy posyolka tashkil qilingan edi. Uy-joy fondi zichligini oshirish va muhandislik infratuzilmasi sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida tomorqa uchastkalarining o'lchamlari 0,02-0,04 gektargacha qisqardi. 2 qavatli imoratlar qurilishi boshlandi, ayrim xo'jaliklarda tomorqa uchastkasi bo'lmagan turar-joy binolari paydo bo'ldi. O'sha davrda shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutni yanada jadalroq bartaraf qilishga qaratilgan posyolok-mikrorayon g'oyasi ustuvor edi. Natijada, o'ta yiriklashtirilgan posyolkalar (2-, 3- va 8-sovxoz qo'rg'onlarining birlashtirilishi, 1962y.), tomorqasiz uy-joylar qurilishi ulushining ortishi (11-sonli sovxoz, 1964 y.), respublikadagi qishloq aholisi an'analari va turmush tarziga mos kelmaydigan va shahar arxitekturasiga xos uy-joy binolari va xonadonlar sonining keskin ko'payishi kuzatildi (4.2.9b-rasm).

Eski sug'orish zonasida loyihalashtirilayotgan qishloq aholi punktlarida ham shunga o'xshash alomatlar paydo bo'la boshladi. Bunday qishloqlarda aholi istiqomat qiladigan hududlar chekkasida qo'rg'onchasi bo'lgan uy-joy binolarini uchratish mumkin bo'lsada, markazga yaqinlashgan sari tomorqasiz seksiya tipidagi turar-joy binolari ko'proq qurila boshlandi (4.1.12-rasm). Posyolkaning markaziy qismi xiyobon shaklida loyihalashtirilib, hiyobonga qirish qismida jamoat binolari (odatda, klub), ichida esa sport zonasi, dam

olish maydonchalari joylashtirilardi (4.2.15-rasm). Rejaviy uslublar to'g'ri to'rtburchakli mavzelar qurilishi bilan cheklangan edi. O'sha yillardagi rejaviy tuzilmalarda ko'chalarning turli qismlari simmetrik tarzda qurilishi keng tarqalgan edi. (4.1.12-rasm, 4.2.13-rasm, 4.2.15-rasm).

Ishlab chiqarish zonasi qishloq xo'jalik uchastkalari – mashina-traktor, omborxona, sut-tovar fermasi, qurilish va boshqa uchastkalar jamlanmasi ko'rinishida loyihalashtirilgan (4.2.14-rasm). Bosh rejalardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish obyektlarini madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari bilan kompozitsion nuqtayi nazarida bog'lashga aytarli e'tibor qaratilmagan.

1965 yildan keyin O'zbekistondagi qishloq aholi punktlarini qayta qurish ikkita asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan: mavjud qishloqlarni rekonstruksiya qilish va yangi posyolkalarni qurish. Bu tadbirlar avvaldan sug'orib kelingan hududlarda tarixiy qaror topgan qishloq joylashuvini tartibga solish va cho'l zonasidagi yerlarni o'zlashtirish jarayonida yangi joylashuv tuzilmalarini tashkil qilish dasturining tashkiliy qismi sifatida amalga oshirilgan. Barcha ishlar ma'muriy rayonlarning tuman miqyosida rejalashtirilishiga muvofiq olib borilgan. Bunda alohida hududlardagi tabiiy iqlim va milliy-maishiy sharoitlar bilan uzviy bog'liqlikda bo'lgan qishloq turmush tarzi va qishloq xo'jalik faoliyatini yuritishning xususiyatlari hisobga olingan. Turar-joy qoshidagi shaxsiy tomorqa uchastkalaridagi cheklovlar (bu cheklovlar 1960-1964 yillarda amal qilgan) bekor qilinishi va tomorqalar o'lchamlarining kattalashtirilishi hamda muhandislik tarmoqlarining nisbatan yuqori darajasi posyolkalar, yangi tipdagi turar-joy binolari va xonadonlarni loyihalashda yangi oqilona yechimlarni izlash zaruratini shartlab berdi.

XX asrning 70-yillarida O'zbekistonda eksperimental-namunaviy posyolkalarni loyihalash va qurilishi boshlandi. Har bir viloyatda 1-2 ta, jami 12 ta shunday eksperimental-namunaviy posyolkalar qurilishi rejalashtirildi. Loyiha tashkilotlariga yaqin yillar ichida madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish, turar-joy va jamoat binolarining turlari, me'moriy yechimlar, muhandislik uskunalari va tarmoqlari hamda obodonlashtirish bo'yicha mavjud loyihalardan 10-15 yilga o'zib ketadigan loyihalar yaratish vazifasi yuklatildi. Respublika miqyosida amalga oshirilgan loyihalash-qurilish ishlari natijasida Surxondaryo

viloyatining «Leningrad» kolxozidagi posyolka, Samarqand viloyatining «Oktabr» kolxozidagi «Beshbola» va Qashqadaryo viloyatidagi XXII syezd kolxozining «Pachkamar» posyolkasi, Xorazm viloyatidagi Y.Oxunboboyev nomli kolxozidagi posyolka va boshqa aholi punktlari qurildi. Optimal tuzilmaviy yechimlarni izlash barobarida turar-joy va jamoat binolarining me'moriy sifatini yaxshilash borasida keng miqyosli ishlar olib borildi. Turar-joy va jamoat binolari bo'yicha eksperimental loyihalarning bir nechta namunaviy seriyalari ishlab chiqildi (4.2.16a-rasm, 4.2.16b-rasm, 4.2.19-rasm, 4.2.21-rasm). Yurar-joylarning ishlab chiqilgan namunaviy loyihalarida O'zbekistonning turli mintaqalaridagi iqlimiy sharoitlar hisobga olindi: »Termez» seriyasi – respublikaning janubiy hududlari uchun, »Yangiyer» seriyasi – janubiy va tog' oldi hududlar uchun, shimoliy hududlar uchun maxsus loyihalar ishlab chiqildi. Lekin, ta'kidlash zarurki, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalari bino va inshootlarining me'moriy-rejali va hajmli-fazoviy tashkil etilishini yaxshilash bo'yicha ishlar yetarlicha keng qamrovga ega bo'lmadi.

Eksperimental-namunaviy va oddiy qishloq aholi punktlarini loyihalash va qurish jarayonida ijobiy tendensiyalar va kamchiliklar hamda xatolar aniqlandi. Kelgusida bo'lajak posyolkalarni loyihalash va qurishda hisobga olish uchun ularni o'rganib, tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tarixiy qaror topgan qishloqlarga qaraganda bir qancha afzalliklarga ega zamonaviy aholi punktlari qishloq aholisi uchun mehnat, maishiy va dam olish uchun qulay sharoitlarni yetarli darajada taqdim eta olmayaptilar. Respublikadagi qishloq aholi punktlarini loyihalash amaliyotidagi zaif nuqtalardan biri sifatida ularning rejaviy tuzilmalari mahalliy tabiiy-iqlimiy sharoitlarga moslashmaganini e'tirof etish mumkin. Tog' oldi hududlardagi relyefning faolligi, cho'l va sahro zonalaridagi suv tanqisligi, sug'oriladigan hududlardagi yashil zonalarining ko'pligi mavjud bo'lgan sharoitlarda to'g'ri chiziqli mavzelar ko'rinishidagi rejalashtirish tizimi qo'llanilmoqda. Loyihachilar bunday holatni tabiiy omillar (tekislik relyefi, turar-joy binolarining yo'naltirilganligi, yechimni yengillashtiradigan vaziyatning yo'qligi), texnik (irrigatsiya tarmoqlarining to'g'ri chiziqli sxemalari) va funksional omillar bilan asoslab bermoqdalar. Chiziqli tizimni rad etish tendensiyasini

respublikaning ayrim posyolkalarida ko'rish mumkin. Misol tariqasida Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi «Beshbola» posyolkasini keltirish mumkin (4.2.17-rasm). Bu yerda mavzelarning bir qismidagi ko'chalar egri chiziqli sxema asosida loyihalashtirilgan. Manzarali, badiiy jihatdan ko'rimli kompozitsiyalar yaratishning bir qator usullari mavjud: ko'chalarning qisqa uchastkalarini tashkil qilish, boshi berk ko'cha atrofida turar-joy binolari guruhini joylashtirish (4.2.17-rasm, 4.2.20d-rasm), mavze ichidagi maydonlarni ko'kalamzorlashtirish (4.2.20a-rasm, 4.2.20e-rasm).

Qaror topgan loyihalash amaliyotida ishlab chiqarish zonasi posyolkaning tarkibiy qismi sifatida uning fazoviy yechimida deyarli ishtirok etmaydi. Natijada, u «istiqomat» zonasidan ajralgan holda tashkil etiladi (istiqomat va ishlab chiqarish zonolari o'rtasida o'zaro aniq funksional-rejaviy va fazoviy bog'lanishlar bog'lanishlar yo'q bo'lib chiqadi). Ayrim hollarda ishlab chiqarish va istiqomat zonolari sanitariya zonasi bilan birlashtirilgan park bilan bog'lanadi, natijada ishlab chiqarish zonasi, jamoat markazi va parkni yagona kompozitsion yadroga bog'lovchi ko'kalamzorlashtirilgan yirik massiv hosil bo'ladi.

Ishlab chiqarish zonasini posyolkaning rejali-fazoviy tuzilmasi tarkibiga kiritish usuli amaliy yechimlardan biri hisoblanib, buni Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi «Chakar» posyolkasi misolida ko'rish mumkin (4.2.22d-rasm). Bu yerda o'zaro perpendikular kompozion o'qlarda joylashtirilgan jamoat markazi asosiy kompozitsion yadro bo'lib xizmat qiladi. Bu o'qlarning biri markazlar tizimi – jamoat markazi – kommunal markaz – ishlab chiqarish zonasi ichidan o'tadi, ikkinchi o'q esa jamoat markazini jamoa xo'jaligi pravleniyasining alohida joylashgan binolari bilan birlashtiradi. «Uymout» posyolkasida istiqomat zonasi bilan bog'langan ishlab chiqarish-kommunal markazini yaratishga harakat qilingan. Ishlab chiqarish zonasining ichida xiyobon tashkil qilinib, basseyn va umumiy ovqatlanish bloki barpo etilgan (4.2.22e-rasm).

Aksariyat hollarda loyihachilar jamoat markazini joylashtirish masalasiga to'g'ri yondoshadilar – markazning ustuvor holati va turar-joy va ishlab chiqarish zonalarining asosiy bog'lanishlari aynan u tomonga yo'naltirilgani aniq ko'rsatiladi. Lekin, ayrim hollarda, jamoat markazi posyolkaning chekkasida, kirish yo'lidan uzoqda

joylashtirilgani tufayli uning ustuvor kompozitsion roli o'zgaradi. (4.2.20-rasm). Bir qator loyihaviy yechimlarda xizmat ko'rsatish obyektlarining tarqoq joylashtirilishi kuzatiladi. Misol uchun, «Pachkamar» jamoa xo'jaligidagi posyolkada jamoat markazi funksional guruhlariga bo'lib tashlangan. Ma'muriy-xo'jalik muassasalari posyolokka kirish yaqinida joylashtirilgan, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish binolari markazda, ta'lim-tarbiya muassasalari esa park zonasiga yaqin joyda tashkil qilingan. (4.2.22b-rasm). Bu usulni qo'llashda bir qator kamchiliklar aniqlandi: jamoat markazi qurilishida yagona ansambl ko'zga tashlanmaydi, uning mayda va tarqoq obyektlari ifodali chiqmagan. Nisbatan kattaroq bo'lgan «Beshbola» posyolkasida xizmat ko'rsatish muassasalarini bu kabi joylashtirilishi yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklardan tashqari yana yetib olish radiusi ortishiga olib keldi.

TashZNIIEP instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, respublikaning ko'pgina qishloq aholi punktlarida qishloqlararo madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinmas ekan. Xususan, «Beshbola» posyolkasida madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarining hisobi faqat shu posyolka uchun bajarilgan, yordamchi posyolkalardagi aholining ehtiyojlari inobatga olinmagan.

Loyihalarning aksariyat qismi shakllanib bo'lgan yirik aholi punktlari uchun bajarilgani uchun mavjud uy-joy fondidan oqilona foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar doimo dolzarb bo'lib kelmoqda. Mavjud imoratlar qurilishi ekspertizasi dalolatnomalaridagi materiallar shuni ko'rsatayaptiki, mavjud qurilmalarning katta qismi, ayrim hollarda esa barchasi bosqichma-bosqich buzib tashlanishi lozim ekan. Shu bilan birga, loyihachilar mavjud imoratlar majmuasini rekonstruksiya qilish o'rniga uni batamom buzib tashlashni taklif qilishi ham kuzatiladi, natijada tarixiy qaror topgan va o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lgan ko'chalar tizimi yangi loyihaning kompozitsion jihatdan ifodasiz «bir chiziqli» tizimiga moslashtiriladi. Lekin, mavjud turar-joy muhitidan oqilona foydalanishning yorqin misollarini ham keltirish mumkin. Masalan, «Karnab» qishloq aholi punktida yangi turar-joy mavzellarini ko'chalarning shakllanib bo'lgan tizimiga moslashtirib turib, mavjud turar-joy fondi butunligicha saqlanib qolgan.

Bir qator loyihalarda posyolkalarning funksional zonalanishini amalga oshirishda istiqomat hududi orqali o'tadigan tranzit qatnov saqlanib qolgan, natijada, funksional va sanitariya-gigiyenik ko'rsatkichlar yomonlashdi. Qishloq aholi punktlarida yashash uchun qulay sharoitlarni yaratish uchun tranzit yo'llarni uning tashqarisiga olib chiqish zarur.

Ba'zi loyihalarda posyolkalarning me'moriy-rejali tuzilmasini mahalliy tabiiy-iqlimiy sharoitlarga moslashtirishga urinishlar kuzatilgan. Misol uchun, «Leninizm»sovxozidagi posyolka tabiiy landshaft tarkibidagi rejali tuzilma ko'rinishida loyihalangan (4.2.20g-rasm). «Leningrad» posyolkasining tuzilmasi cho'l mintaqasi uchun xos bo'lgan jihatlariga ega – turar-joy guruhlar yopiq rejali tuzilmaga ega, ko'chalarning qismlari rejada qayta bo'lib tashlangan, posyolka parki kompozitsiyaning markazida joylashtirilgan va h.k. (4.2.22a-rasm). Mirzacho'ldagi 14-son sovxoz posyolkasida ham xuddi shunday rejaviy tuzilma tashkil etilgan (4.2.26-rasm).

Ayrim qishloq aholi punktlarida turar-joy zonasi ixcham turar-joy guruhlar shaklida tashkil etilgan. Bu guruhlar ko'kalamzorlashtirilgan uchastkalar atrofiga joylashtirilib, tuzilma tashkil etuvchi funksiyalarni birlamchi madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish bloklari bajaradi. Loyiha mualliflarining fikricha, bunday yechim mahalliy aholining ilg'or an'alarining davomi sifatida qabul qilingan (4.2.25a-rasm, 4.2.25b-rasm, 4.2.26-rasm, 4.2.27-rasm). Sahroning noqulay tabiiy-iqlimiy sharoitlari atrofida butun kompozitsiya shakllanadigan katta yashil massivlar tashkil qilinishini shartlab beradi (4.2.20b-rasm, 4.2.20d-rasm, 4.2.23d-rasm). Bulvarlar, turar-joy hududlarining ko'kalamzorlashtirilishi va aholi punktlarining atrofida tashkil qilinuvchi shamoldan himoya qiluvchi daraxtzorlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan rejali tuzilmalar yaratilishida keng qo'llaniladi.

Shunday qilib, bugungi kunga kelib O'zbekistonning qishloq joylarida tarixiy qaror topgan qishloqlar va yangi loyihalar asosida qurilgan qishloq aholi punktlari shakllangan bo'lib, bu posyolkalarning rejali tuzilmalarini tashkil etishdagi ilg'or prinsip va g'oyalardan qishloqni o'zgartirish muammosini hal qilishda faol foydalanish zarur.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbekistonning tog' oldi hududlarida shakllangan qishloqlar tuzilmasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Rejalashtirishning qaysi usullari bunday qishloq aholi punktlari uchun xos hisoblanadi?

2. O'zbekistonning cho'l va sahro hududlarida shakllangan qishloqlar tuzilmasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Rejalashtirishning qaysi usullari bunday qishloq aholi punktlari uchun xos hisoblanadi?

3. O'zbekistondagi qishloq turar-joy binolarining birinchi loyihalari qaysi davrda ishlab chiqilgan?

4. O'zbekistondagi qishloq aholi punktlarini rejalashtirish bo'yicha birinchi loyihalar qaysi davrda ishlab chiqilgan, chorvachilik fermalari, xo'jalik uchastkalari va jamoat markazlari, kolxoz va sovxozlarning yangi loyihalarida turar-joy va ishlab chiqarish zonolari qachon birinchi marta loyihalashtirilgan?

5. Mirzacho'ldagi qo'riq yerlarni kompleks sug'orish va o'zlashtirish davrida posyolkalarning turar-joy zonalarini tuzilmasini yaratishda qaysi rejalashtirish usuli qo'llanilgan?

6. Yangi sug'oriladigan yerlarda (Mirzacho'lni o'zlashtirish davrida) posyolok-mikrorayonlarni rejalashtirish g'oyasining mazmun-mohiyati nimalardan iborat bo'lgan?

7. 1965 yildan boshlab O'zbekistondagi qishloq aholi punktlarini qayta qurish (avvaldan sug'orib kelingan hududlarda tarixiy qaror topgan qishloq joylashuvini tartibga solish va cho'l zonasidagi yerlarni o'zlashtirish jarayonida yangi joylashuv tuzilmalarini tashkil qilish dasturining tashkiliy qismi sifatida) nimalardan iborat bo'lgan?

8. O'zbekistondagi eksperimental-namunaviy posyolkalarni tashkil qilishda (XX asming 70-yillarida) qaysi maqsadlar ko'zlangan? O'sha davrda qurilgan eksperimental-namunaviy posyolkalarida qo'llanilgan rejalashtirish loyihalaridagi asosiy xususiyatlardan misol keltiring?

9. Qishloq aholi punktlarini loyihalash bo'yicha qaror topgan amaliyotida shakllangan rejalashtirish usullarining asosiy xarakteristikalarini aytib bering.



4.2.1-rasm. Eski sug'orish zonasidagi qishloqning tarixiy shakllangan rejali tuzilmasidan parcha. (Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi «Yangi-qo'rg'on» qishlog'i)




4.2.2-rasm. Qashqadaryo viloyatidagi Qizil Emchak qishlog'ining terrasa usulidagi qurilishi




4.2.3-rasm. Tojikistonning Xo'jand viloyati Qurud qishlog'idagi turar-joy kompleksi




4.2.4-rasm. Sahro zonasidagi qishloqning tarixiy shakllangan rejali tuzilmasi (Buxoro viloyatining Olot tumanidagi Sariasp qishlog'i)



4.2.5-rasm. Rogalskiy qo'rg'onchasing loyihasi. 1917-y.



4.2.6-rasm. Toshkent viloyati «Politotdel» kolxozi posyolkasining bosh rejasi




4.2.7-rasm. Turar-joy xonalari birlashtirilgan kolxozchi uyining loyihasi. Arxitektor Dmitriyev V.M. 1937-y. Umumiy ko'rinishi va rejasi.


1-umumiy xona; 2-bolalar yotoqxonasi; 3-ota-onalar xonasi;
4-oshxona; 5-dahliz; 6-ombor; 7-ayvon; 8-oziq-ovqat mahsulotlari ombori; 9-bostirma; 10-yozgi oshxona.




4.2.8-rasm. Qishloqdagi klub binosi, Toshkent viloyati.



4.2.9-rasm. Mirzacho'ldagi qishloq posyolkalarining bosh rejaları:
 a) "Farhod" posyolkasining bosh rejasi.
 b) 25-sovхоз posyolkasining bosh rejasi.



4.2.10-rasm.
 Mirzacho'ldagi kolhoz va
 sovxozlar uchun turar-joy
 binosining namunaviy
 loyihasi, 1951y.
 (fasad va devorlar rejasi).




**4.2.11-rasm. Ikki qavatli 4 xonadonli turar-joy binosi
1959 y. Fasad va reja.**




**4.2.12-rasm. Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi 5-sovхоз
markaziy qo'rg'onining bosh rejasi. 1954 y.**



**4.2.13-rasm. Samarqand viloyati Paxtakor tumanidagi O'zbekiston
30 yilligi kolxozidagi markaziy posyolkaning bosh rejasi
Muallif: Ishchenko A.I. 1959-y.**



**4.2.14-rasm. Sovxozdagi ishlab chiqarish zonasi tuzilmasining
sxemasi.**



4.2.15-rasm. Samarqand viloyati Oqdaryo tumani markaziy posyolkasining bosh rejasi. Muallif: Yampolskiy. 1954y.



4.2.16-rasm. Qishloq turar-joy va jamoat binolari:
a) maktabgacha ta'lim muassasasi (90-180 o'rinli).
b) 7 xonadan iborat bitta xonadonli bir qavatli turar-joy binosi.




4.2.17-rasm. Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi «Nazar» qishloq posyolkasining bosh rejasi



4.2.18-rasm. Samarqand viloyati Bo'lung'ur tumanidagi «Besh bola» qishloq posyolkasining bosh rejasi




4.2.19-rasm. Qishloq kengashining binosi





4.2.20-rasm. Qishloq posyolkalarining bosh rejalari:

- a) Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi «Karnab» posyolkasi,**
- b) Mirzacho'ldagi 21a-sonli sovxoz qo'rg'oni. Arx.Malkov YU.F.,
Nemirovskiy V.I.**
- d) Qarshi cho'lidagi 4-son sovxoz posyolkasi Arx.
Mirzaaxmedova K.M.**
- e) Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi posyolka. Arx.Sazanskiy
G.YE., Mahkamov A.**



4.2.21-rasm. Bir qavatli, 5 xonali xonadonlarga ega yirik panelli turar-joy binosi






4.2.22-rasm. a) Sirdaryo viloyatidagi «Leningrad» kolxozining markaziy posyolkasi Arx. Maxkamov A., Fayzullayev A.

b) Qashqadaryo viloyati «Pachkamar» sovhozining qo'rg'oni.

d) Samarqand viloyati Ishtixon tumanidagi «Chakar» posyolkasi.


e) Samarqand viloyati Chiroqchi tumanidagi «Uymaut» posyolkasi Arx.SH.D.Achilov.






4.2.23-rasm. Qishloq posyolkalarining bosh rejalari:


- a) Qashqadaryo viloyati Kuybishev kolxozidagi «Beshkazak» posyolkasi Arx. Rajabbayev T.R., Ochilov SH. D b) Samarqand viloyati Nurota tumanidagi «G'ozg'on» posyolkasi d) Jizzax cho'lidagi 13-sovxoizning markaziy qo'rg'oni. Arx. Lukavetskiy A. YA. e) Qashqadaryo viloyatidagi Begimqulov sovxozining markaziy qo'rg'oni**



4.2.24-rasm. Posyolkaning ishlab chiqarish zonasi. Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi «Chuyut» posyolkasi. Arx. Ablakulov B.A. 1-tutuzor, 2-omborxonalar uchastkasi, 3-avtotransportni ta'mirlash va saqlash uchastkasi, 4-qishloq xo'jalik texnikasini ta'mirlash va saqlash uchastkasi, 5-qurilish uchastkasi, 6-novvoyxona



4.2.25-rasm. Qashqadaryo viloyatidagi XXII partsyezd nomli kolxoz posyolkasi: a) bosh reja; b) dastlabki xizmat ko'rsatish bloki
1-qizil burchak; 2-bolalar xonasi; 3-to'garakalar xonasi; 4-yozgi choyxona; 5-yordachi xona; 6-bufet; 7-kabobxona; 8-palovxona; 9-yechinish-kiyinish xonasi; 10-idish-tovoq yuvish xonasi; 11-omborxona; 12-yozgi maydoncha, 13-xoll



4.2.26-rasm. Mirzacho'ldagi 14-sovхоз posyolkasining bosh rejasi
Arx. Kononova G. Mirzaaxmedova K.M.



4.2.27-rasm. Namangan viloyati «Namangan» sovxozidagi markaziy qo'rg'on bosh rejasi.

V bob. QISHLOQ AHOLI PUNKTLARINING FUNKSIONAL ELEMENTLARINI ME'MORIY-REJALI TASHKIL ETISH

5.1. Hududni zonalashtirish va funksional zonalarni rejali tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Joylashuvning mahalliy tizimi elementi - qishloq aholi punkti hududini funksional zonalash prinsiplari. Aholi punktini joylashtirish tizimining tuzilmaviy elementi sifatida qabul qilinishi, avvalgi, an'anaviy yondoshishdan farqli o'laroq, uning territoriyasi funksional ravishda zonalashtirilishini belgilab beradi. Aholi punkti va joylashtirish tizimini rejaviy tashkil etilishining uslubi sifatida ko'riladigan funksional zonalashtirishning imkoniyatlari ayrim zonalarining o'zaro ta'siri, masalan, bu zonalaridagi ayrim elementlarning bir-biriga qo'shilib ketishi va integratsiyasi kabi shaharsozlik yaxlitligiga xos bo'lgan tendensiyalar kuchayishini hisobga olishi zarur. Qurilish obyektlarining nafaqat funksional, balki hajmiy-fazoviy jihatlarini hisobga olish zarurati funksional bir turga mansub hududlarni belgilashdek nisbatan oddiy prinsiplardan o'zgaruvchan, shaharsozlik tuzilmalari shakllanishining barcha jihatlarini o'z tarkibida qamrab olgan prinsiplarga o'tish maqsadga muvofiq ekanligini taqozo qiladi. Ushbu prinsipni amalga oshirish uchun eng qulay sharoitlar yangi va yetarlicha darajada istiqbolli hisoblangan aholi punktlarida mavjud, ulardagi tuzilmani aholi istiqomat qiladigan va sanoat zonalarini ajratgan holda shakllantirish maqsadga muvofiq. Boshqa funksional turdagi shakllanib bo'lgan aholi punktlarida, ayniqsa, ko'p funksional shahar tashkil etuvchi bazasi va hududiy jihatdan murakkab aloqalar mavjud bo'lgan sharoitlarda esa funksiyalarning qat'iy birlashtirilishi funksional nuqtayi nazarda o'zini oqlaydi.

Mavjud qishloq aholi punktaridagi barcha hududlar – aholi istiqomat qiladigan zona, uning markaziy qismi, tashqi zonasi ko'p funksional tuzilmalar sifatida shakllanadi. Aksariyat qishloq aholi punktlari tuzilmasi o'rganilganida, aholi istiqomat qiladigan va ishlab

chiqarish zonalarining ajratilishi aniq belgilanmaganligi ko'zga tashlanadi. Undan tashqari, rekonstruksiya tajribasini tadqiq etish jarayonida aniqlandiki, bu kabi zonalashda katta qiyinchiliklar yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lar ekan.

Qishloq aholi punkti hududining funksional jihatdan qat'iy zonalanashida har bir zona o'zining hajmiy-fazoviy xarakteristikalarini bo'yicha bir-biridan ancha farqlanishi kuzatiladi. Bu aholi punktlaridagi korxonalar qavatlilik bilan ham, hududdan foydalanish intensivligi bilan ham turlicha bo'ladi. Bu yerda ko'proq kam qavatli binolarda joylashgan kommunal xizmat, qishloq xo'jalik yo'nalishlaridagi va kamroq agrar-sanoat korxonalari qurilgan. Transport obyektlari bilan band bo'lgan hududlar ham jamoat-transport kompleksi, avtokorxonalar tarkibidagi uchastkalarga bo'linadi. ushbu holatlarning barchasi hududni rejali tashkil etish metodi sifatida qabul qilingan funksional zonalashning keng imkoniyatlari mavjud ekanligini ko'rsatadi. Biroq, bunday yondoshuv tuzilmaviy-rejali tashkillashtirishning faqat funksional jihatlarini hisobga olgan holda estetik xususiyatlarni deyarli chetlab o'tadi.

Hududni funksional tashkil etishda ayrim zonalar o'rtasidagi istalgan shaharsozlik yaxlitlikka xos bo'lgan o'zaro ta'sir (masalan, zonalar elementlarining qo'shilishi va integratsiyasi) kuchayishini ham hisobga olish zarur. Imoratlar qurilishining nafaqat funksional, balki hajmiy-fazoviy xarakteristikalarini hisobga olish zarurati funksional jihatdan bir xil bo'lgan hududlarni nisbatan oddiy bo'lgan ajratish prinsipidan moslashuvchanroq, shaharsozlik tuzilmalari shakllanishining barcha xususiyatlarini to'laroq qamrab oluvchi kompleks zonalashtirish prinsipiga o'tish lozimligini shartlab beradi. Bu prinsip qurilish zichligi va qavatlilikini hisobga oluvchi funksional va hajmiy-fazoviy xarakteristikalar jamlanmasiga asoslanadi.

Joylashuv tizimining mahalliy markazi vazifasini o'tovchi aholi punktlarining qishloq hududlarini o'zgartirishdagi ahamiyatli o'rnini ularning hajmli-fazoviy tuzilmasiga alohida talablar qo'yilishini taqozo qiladi. Bunday obraz shaharga xos va qishloqning ma'lum afzalliklarini sifat jihatidan umuman yangi bo'lgan asoslarda uzviy mujassamlashtirishning mantiqiy natijasi deb qabul qilish mumkin. Bunda shaharga xos madaniyatning kelgusidagi rivojlanishi va qishloq aholi punktlarining ijobiy ekologik xarakteristikalarini saqlab qolinishi

albatta hisobga olinadi. Ushbu aholi punktlarining o'lchamlari ularning hududlarida o'z parametrlari bo'yicha to'liq birlashtirilgan muhit yaratilishini nazarda tutadi.

Tizim tashkil etuvchi aholi punktlari – o'zaro bog'langan aholi punktlari markazlarining shakllanishidagi o'ziga xos jihatlar ular tarkibida hajmiy-fazoviy ko'rsatkichlari bo'yicha va imoratlar qurilishi tizimi bilan farqlanuvchi uchta zonani ajratish zaruratini keltirib chiqadi. Bunda har bir zona bir xil bo'lmasa-da, lekin bir-biriga zid bo'lmagan funksional jihatdan mos elementlardan tashkil topadi (5.1.1-rasm).

Aholi punkti tomonidan ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazi vazifasini bajarilishi uning markaziy qismida urbanizatsiyalashgan deb qabul qilinishi mumkin bo'lgan zona shakllanishi uchun dastlabki shart xizmatini o'tab beradi. Ushbu zonadagi bino va inshootlar, markazda joylashgan korxonalar va turar-joy binolarining bir qismidan tashkil topgan guruh urbanizatsiyalashgan muhitni yaratadilar. Obrazli, hajmli-fazoviy asosiy jihatlariga ega va qaysidir holatlari bilan shaharni eslatuvchi bunday muhit birinchi navbatda aholi punkt-markazlarda shakllanadigan me'moriy tuzilmaning muhim elementi hisoblanadi. U ham funksional, ham psixologik tomondan ijtimoiy faoliyatning eng muhim turlari va aholi bilan muloqot qilish uchun eng maqbul sharoitlarni yaratib beradi.

Ikkinchi zonani asosan turar-joy mavzelari joylashgan chekka tumanlardan, shuningdek o'zining shaharsozlik xususiyatlari bilan shunga o'xshash bo'lgan funksional elementlardan iborat. Kam qavatli va tomorqa uchastkalari hamda bog'lari bo'lgan turar-joylarning ko'pligi bu zonani kam urbanizatsiyalashgan deb ta'riflashga asos bo'ladi.

Nihoyat, tarkibida qishloq xo'jalik korxonalariga yaqindan bog'langan turar-joy massivlari, joylashuvning mahalliy tizimining muhandislik infratuzilmasini bosh obyektlari joylashgan, asosan, bog' va uzumzorlar, qishloq xo'jalik uchastkalari va bir qavatli imoratlar zonasidan iborat tashqi zona hududlari qishloqqa xos yoki urbanizatsiyalashmagan muhitni tashkil qiladilar.

Aholi punktlari – joylashuv tizimi elementlari hududining zonalanishidagi e'tiborga molik xususiyatlarni aniqlashda, kattaligi turlicha bo'lgan aholi punktlarida urbanizatsiya darajasi turlicha

bo'lgan zonalarining o'zaro bir-birlarini to'ldira olishdek xususiyatlarini va barcha aholi punktlari uchun yagona kelishilgan zonalash tizimini qo'llash zarurligini ta'kidlash lozim. Masalan, faoliyat va ijtimoiy muloqotning keng qamrovli bo'lishi faqat urbanizatsiya darajasi yuqori muhiti ta'minlay oladi. Bunday muhit, o'z navbatida, joylashuvning viloyat tizimidagi yirik shahar-markazda shakllanishi mumkin. Shu bilan birga, yirik shaharlarda urbanizatsiyalashmagan yoki sust urbanizatsiyalashgan zonalarini shakllantirishning imkoniyati yo'q.

Joylashuvning turli mintaqalaridagi aholi punktlarini me'moriy-rejali tuzilmasida urbanizatsiyalashgan, sust urbanizatsiyalashgan va urbanizatsiyalashmagan (qishloq) zonalarining turlicha o'zaro nisbatlarini ko'zda tutish maqsadga muvofiq, xususan:

-joylashuvning I va II mintaqalarida ko'p qavatli imoratlar va qurilish zichligi yuqori bo'lgan urbanizatsiyalashgan va sust urbanizatsiyalashgan zonalarini joylashtirish (urbanizatsiyalashmagan zonani mutlaqo bo'lmasligi imkoniyati mavjud hollarda);

urbanizatsiyalashgan zona joylashuvning III mintaqasidagi aholi punktining katta bo'lmagan markazida jamlangan holatlarda shu aholi punktining kam qavatli va qurilish zichligi past turar-joy binolariga ega sust urbanizatsiyalashgan zonasini rivojlantirish (urbanizatsiyalashmagan zonani mutlaqo bo'lmasligi imkoniyati mavjud hollarda).

Joylashuv tizimining viloyat miqyosida aholi istiqomat qiladigan zonalarini markazga yaqinlashgan sari kichik aholi punktlaridagi turar-joy zonalarining urbanizatsiya darajasi ko'tarilib borishini kuzatish mumkin. Bu tendensiya loyihalash amaliyotida hozircha inobatga olinmayapti, lekin uning tahlili shuni ko'rsatadiki, turar-joy qurilishi va qavatlilik turli bo'lgan turar-joy binolarini tizim markaziga nisbatan joylashuviga bog'liq ravishda tanlashga asoslangan uzoq muddatli siyosat ishlab chiqish uchun yetarlicha asoslar mavjud.

Qishloqlararo aloqalar jadallashuvi sharoitlarida joylashuv tizimlari shakllanishini aholi punktlari hududlarini zonalalanishi va me'moriy-rejali tashkil etilishidagi yangi omillar deb qabul qilinayotgan hodisalar doirasi kengayib boradi. Bu hodisalarning xususiyatlarini, ularning aholi punktlari shakllanishidagi ta'sir mexanizmini va ahamiyatini yanada chuqurroq o'rganish zarur. Lekin, shaharsozlar tomonidan bu omillarni ma'lum ketma-ketlikda

o'zlashtirilishi qishloq aholi punktlarini rejalashtirish va qurish loyihalarini ishlab chiqish metodikasini ma'lum darajada murakkablashtirsada, oxir-oqibatda loyihaviy yechimlar sifatini va qishloq joylashuvi hududlarida aholi punktlarini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblangan loyihaviy-rejali hujjatlar samarasini sezilarli darajada oshiradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qishloq aholi punkti hududini «qat'iy» zonalashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlarning mohiyati nimalardan iborat?

2. Qishloq aholi punkti hududini kompleks tarzda zonalashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlarning mohiyati nimalardan iborat?

3. Tizim tashkil etuvchi aholi punktlari – o'zaro bog'langan aholi punktlari markazlarining rejali tuzilmasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

4. Urbanizatsiyalashgan, sust urbanizatsiyalashgan va urbanizatsiyalashmagan (qishloq) zonalarining joylashuvning turli mintaqalarida joylashgan qishloq aholi punktlarining me'moriy-rejali tuzilmalaridagi turli nisbatlarini qay tarzda nazarda tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi?

5. Joylashuvning viloyat miqyosidagi tizimida kichik qishloqlardagi turar-joy qurilishi va turar-joy hududlaridan jadal foydalanish tendensiyasining mohiyati nimalardan iborat?

Qishloq aholi punktlari funksional zonalarini tuzilmaviy-rejali tashkil etish

Joyning tabiiy xususiyatlarini, sanitariya-gigiyenik normalar, iqtisodiy va shaharsozlikka oid talablarni, shuningdek har bir funksional zona va butun aholi punktini kelgusidagi rivojlanishini qat'iy hisobga olib turib hududni zonalashtirish qishloq aholi punkti – joylashuv tizimi elementining rejali tuzilmasi oqilona tashkil etilishini belgilab beruvchi talablardan biri hisoblanadi. To'g'ri tanlov va hududni funksional zonalanishi shaharsozlik asosini, aholi punkti

hududini qulay tashkil etilishini belgilab beradi va aholining ishlab chiqarish faoliyati va turmushi uchun eng qulay sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi. Bularning barchasi qishloq aholi punktlarining rejali tashkil etilishida asosiy va majburiy prinsiplar hisoblanadi.

Aholining madaniy-maishiy ehtiyojlari va moddiy-texnik imkoniyatlar ortib borayotgan sharoitlarda alohida zonalarini rejalashtirish aniqlashtirilishi va o'zgartirilishi mumkin bo'lsada, lekin aholi punktlarining funksional zonalanishi umuman saqlanib qoladi. Zonalashtirish sxemasi, garchi aholi punktlari bosh rejaga ega bo'lmasalar ham, joriy qurilishni yetarli darajada to'g'ri amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Shu sababdan, ushbu bosqich katta ahamiyatga ega.

Aholi punktlarining rekonstruksiya sharoitlarida hududni zonalashtirish asosiy funksiyalarni hisobga olish asosida bajariladi. Bu holatda alohida funksional zonalar doirasida ixtisoslashgan obyektlardan tashqari boshqa, zona tarkibini boyituvchi va uning chegaralarida mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashuvchi qo'shimcha obyektlar joylashtirilishi mumkin. Masalan, aholi istiqomat qiladigan zonada ayrim, aholi turmush sharoitlariga zarar yetkazmaydigan va katta hududlarni egallamaydigan ishlab chiqarish obyektlari joylashtirilishi mumkin.

Joylashtirishning mahalliy tizimlari elementlari, ya'ni — aholi punktlarining rejaviy tuzilmalarini belgilab beruvchi funksional tashkillashtirishning muhim shartlari quyidagilardir:

ishlab chiqarish zonasini intensiv tashqi mehnat aloqalarini hisobga olgan holda joylashtirish;

seliteb zonaning ixcham bo'lishi va uning ishlab chiqarish zonasi bilan qulay aloqalarini yo'lga qo'yilishini ta'minlash;

tashqi transport va uning inshootlarining muhimligi sharoitida ko'cha va yo'llarning differensiallashgan tizimini yaratish;

qishloqlararo tizimni, unga yondosh territoriyalarda istiqomat qiluvchi aholining ehtiyojlari har tomonlama ta'minlashini hisobga olgan holda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etish;

barcha funksional zonalarini, ularning rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlarini va yondosh aholi punktlari bilan aloqalarini hisobga olgan holda aholi punktida o'zaro joylashtirish.

Alohida funksional zonalarni joylashuvning mahalliy tizimlari – aholi punktlarida joylashtirish ularning joylashuvning lokal hududiy birligi chegaralaridagi holatiga uzviy ravishda bog‘langan. Bu aholi punktlarining ishlab chiqarish zonasidagi korxonalar (mehnat qiluvchilar soni nisbatan kam bo‘lsada) nisbatan katta maydonlarni talab qiladilar. Ushbu omil, shuningdek aholi punkti yaqinida joylashgan qishloq xo‘jalik yer maydonlari bilan uzviy aloqalar ishlab chiqarish zonasining posyolka rejasidagi joylashuvini belgilab beradi. Bunda ishlab chiqarish zonasining turar-joy hududiga yaqin joylashishi va xo‘jalik ichidagi yo‘llar bilan qulay bog‘lanishlar ta‘minlanishi lozim, shuningdek ishlab chiqarishning har bir turiga qo‘yiladigan transport, sanitariya va maxsus talablar hisobga olinishi zarur. Ayrim hollarda ishlab chiqarish obyektlari va qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi (tayyorlov-ta‘minot, ta‘mirlash va b.) korxonalarni, ularni joylashtirish bo‘yicha normativ talablarni hisobga olgan holda yagona ishlab chiqarish zonasiga birlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Aholi yashaydigan zona hududning umumiy balansida, odatda, aholi punktining butun maydonini yarmisidan ko‘prog‘ini egallaydi. Ana shu nisbatning o‘zi uning posyolka rejaviy tuzilmasidagi ustuvor ahamiyatini belgilab beradi. Aholi istiqomat qiladigan zona turar-joy mavzelarini, jamoat markazi va ijtimoiy muassasalar uchastkasi hamda sport kompleksi bo‘lgan parkni birlashtiradi. Istiqomat zonasidagi ushbu elementlarning o‘zaro bog‘liqligi uning funksional tashkil etilishini belgilaydi. Ushbu hududning tarkibiy qismlarini joylashtirishni mehnat va madaniy-maishiy aloqalarni hisobga olib turib bajarish maqsadga muvofiq.

Rejali tuzilma shakllanishiga qishloq aholi punktlarining katta bo‘lmagan o‘lchamlari bilan shartlangan ustuvor aloqalar ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababdan, ularni rejalashtirishda aloqalar intensivligi darajasi bo‘yicha hududlarni birlashtirish va zonalarni asosiy piyoda yo‘llariga nisbatan muvofiq tarzda joylashtirish zarur. Piyoda aloqalar, ayniqsa, uy-joy binolari va ishxonalar o‘rtasida ko‘p amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish korxonlarining zichligi qancha katta bo‘lsa va ular aholi yashaydigan joylarga qanchalik yaqin bo‘lsa, mehnat qilish joylariga bo‘lgan yo‘nalishlar shunchalik aniq namoyon bo‘ladi.

Turar-joy va ishlab chiqarish zonalarining o'zaro joylashuvi mahalliy omillardan tashqari ko'rilayotgan aholi punktining o'zaro bog'langan aholi punktlari tizimidagi joylashuviga bog'liq sharoitlar bilan ham belgilanadi. Bu omillar qatoriga qishloqlararo aloqalarning tarkibi va intensivligi, transport kommunikatsiyalarning tuzilmasi va aholi punktlarining tashqi funksional aloqalari bilan shartlangan boshqa omillarni kiritish mumkin.

Xizmat ko'rsatish elementlarining guruhli joylashuv tizimidagi holati aholi punktining ushbu tizimdagi ahamiyati va o'miga bog'liq. Masalan, joylashuvning mahalliy tizimidagi aholi punktlar-markazlarning roli ularda boshqaruv va madaniy-ma'rifiy soha obyektlari, kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va shu kabilar joylashtirilishini belgilab beradi. Ushbu holat, shuningdek, mahalliy markaz hududini zonalashtirish jarayonida tashqi aloqalar intensivligini hisobga olinishini taqozo qiladi.

Zonalashtirishning yuqorida sanab o'tilgan barcha xususiyatlarini uzviy ketma-ketlikda hisobga olinishi rejali tashkil etishni aniqroq belgilash imkoniyatini berib, funksional jihatdan eng qulay aholi punktini yaratishga ko'maklashadi. Boshqa tomondan, turli aholi punktlarining ustuvor funksiyalari hududlar zonalashtirilishidagi muayyan funksiyalarni bajarish bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarni aniqlab beradi. Bu, o'zlarining asosiy funksiyalaridan tashqari sog'lomlashtirish, kurort, turistik funksiyalarni ham amalga oshiruvchi agrar-sanoat, agrar va qurama ixtisoslashuvga ega aholi punktlaridir.

Agrar-sanoat ixtisoslashuvga ega aholi punktlarini funksional tashkil etishning asosiy prinsipi – istiqbolli hududiy o'sish yo'nalishlarini aniqlashdir. Ushbu yo'nalishlar zonalarining o'zaro joylashuvini belgilaydi. Bunday aholi punktlarida aholi istiqomat qiladigan va ishlab chiqarish zonalarining o'zaro mutanosib joylashuvi yaqqol namoyon bo'ladi. Mehnat oqimlarining aksariyat ulushi asosiy ishlab chiqarish korxonasiga yo'naltirilganligi yaqqol bo'lib, ana shu holat posyolkadagi asosiy piyoda yo'nalishlar trassirovkasini belgilab beradi.

Agrar yo'nalishda faoliyat ko'rsatadigan aholi punktlarida funksional zonalashtirish ularning qishloq xo'jalik maydonlari bilan uzviy bog'liqligi bilan belgilanadi. Bu holat ishlab chiqarish zonasi joylashuvini shartlab beradi – bu zona ichki yo'llar bilan qulay

aloqalar mavjud bo'lgan holda turar-joy zonasiga nisbatan yaqin joylashtiriladi.

Qurama ixtisoslashuvga ega posyolkalarning funksional tashkil etilishi asosiy ixtisosga yaqin va yaqqol ifodalangan funktsiya xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, asosiy funktsiyalaridan tashqari madaniy-sog'lomlashtirish funktsiyalarni ham amalga oshiradigan aholi punktlarida hududning tashkillashtirilishi dam olish va davolanish obyektlari hamda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar turar-joylari o'zaro yaqin joylashishini talab etadi. Bu turdagi posyolkalardagi hududni tashkil etishda qulay muhitdan maksimal foydalanish asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Umuman, qishloq aholi punktlarining asosiy zonalarini joylashtirish bilan birga ularning tashqi zonalaridagi hududni tashkil qilishni ham ko'zda tutish lozim. Tashqi zonalar tarkibiga aholi istiqomat qiladigan va ishlab chiqarishning zaxira hududlari, pitomniklar, sug'oriladigan maydonlar va shu kabilar kiradi. Qishloq aholi punktini rejalashtirishda bunday hududlarni hisobga olish zarur, sababi ular bevosita aholi punktiga yondosh bo'lib, uning rejali tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatadilar.

Takrorlash uchun savollar:


1. Qishloq aholi punktlari hududlari rekonstruksiya qilinayotgan sharoitlarda hududni ustuvor funktsiyaga asoslangan zonalashtirishining mohiyati nimadan iborat?

2. Qishloq aholi punktlari – joylashuvning mahalliy tizimi elementlarining rejali tuzilmasini qaysi sharoitlar belgilab beradi?


3. Agrar-sanoat ixtisoslashuvga ega aholi punktlarini funksional tashkil etishning asosiy prinsipi bo'lib qaysi holatlar xizmat qiladi?

4. Agrar ixtisoslashuvga ega aholi punktlarini funksional tashkil etishning asosiy prinsipi bo'lib qaysi holatlar xizmat qiladi?

5. Qurama ixtisoslashuvga ega aholi punktlarini funksional tashkil etishning asosiy prinsipi bo'lib qaysi holatlar xizmat qiladi?



A - qishloq aholi punktlari hududini urbanizatsiya darajasi bo'yicha zonalashtirish sxemasi
 1 - urbanizatsiyalashgan zona; 2 - sust urbanizatsiyalashgan zona;
 3 - urbanizatsiyalashmagan zona.



B - turli funksional vazifalarga ega hududlarning zonalarining har biridagi o'zaro nisbati
 I - kommunal-omborxona; II - ishlab chiqarish; III - transport;
 IV - jamoat muassasalar; V - turar-joy; VI - ko'kalamzorlar

5.1.1-rasm. Polifunksional me'moriy-rejali zonalar tarkibi

Qishloq aholi punktlarining kompozitsiyasi

Hududning funksional zonalashtirilishi kompozitsiya bilan o'zaro bog'liqdir. Qishloq aholi punktlari kompozitsiyasini uning mazmuni bilan shartlangan va o'rganilayotgan obyekt hayotidagi hodisalarning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi me'morchilik asari sifatida qabul qilish lozim. Qishloq aholi punkti kompozitsiyasini yaratishdagi ko'p qirrali jarayon uning umumiy qiyofasini ishlab chiqishni, mazmunini belgilashni, alohida tarkibiy elementlari (ishlab chiqarish va istiqomat zonolari, bosh va lokal markazlar, ko'cha va magistrallar, park zonalari va h.k.) o'rtasidagi uzviylikni tabiiy-geografik sharoitlarni, milliy an'analarni hisobga olgan holda belgilab beradi.

Qishloq aholi punktining kompozitsion mohiyati fan va texnika-ning so'nggi yutuqlari, qurilishning industrializatsiyasi, tipizatsiyasi va iqtisodiyoti, texnika, muhandislik, estetika va gigiyena sintezini hisobga olgan holda aholiga yashash uchun qulay sharoitlar yaratib berishni belgilab beradi. qishloq aholi punktini rejalashtirish va qurishning funksional vazifalari ko'p qirrali bo'lib, turli yechimlarga ega. Ularning qismlari, inshoot va maydonlar, ko'chalar, turar-joy mavzelari, jamoat binolari, ishlab chiqarish inshootlari, ochiq bo'shliqlarning alohida guruhlarini joylashtirish va qurishning kompozitsion yechimlari ham xilma xildir. Shu sababdan, kompozitsiya asosi tuzilmani tashkil qilishdan boshlanadi. Kompozitsion yagonalikka ansambllarni fazoviy o'zaro bog'lanishi orqali erishish mumkin: imoratlar qurilishini qavatlilik bo'yicha va relyefga bog'liq ravishda joylashtirish; markaziy ansamblni ustuvor tuzilma sifatida ajratish; aholi punktini me'moriy peyzajini belgilab beruvchi ommaviy qurilish hamda ochiq va ko'kalamzorlishtirilgan maydonlarni joylashtirilishi.

Qishloq aholi punkti kompozitsiyasida posyolka tuzilmasida karkas vazifasini o'tovchi ko'chalar, o'tish yo'llari va piyoda yo'llar tizimi muhim ahamiyatga ega. Ko'chalar tarmog'i muhim kompozitsion sifatga, ya'ni tizimning yagonaligiga ega bo'lishi lozim. Bunga ko'chalarni bosh va ikkinchi darajali toifalarga ajratish, ansambllar tizimi vositasida ular o'rtasidagi bog'lanishlarni yaratish yordamida erishish mumkin. Bunda aksariyat hollarda asosiy kompozitsion o'q vazifasini bajarnvchi bosh ko'cha alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Uning kompozitsion ahamiyatiga urg'u berish uchun bosh ko'chada me'moriy va hajmiy jihatdan eng ifodali va mahobatli binolar barpo

etiladi, ko'kalamzorlashtiriladi, suv havzalari tashkil qilinadi, asosiylar manzarali obyektlar joylashtiriladi va ular atrofiga hamda ularga nisbatan boshqa obyektlar (maydonlar, ko'kalamzorlar, imoratlar va sh.k.) kompozitsiyasi tuziladi.

Qishloq aholi punkti imoratlarining osmon, tepaliklar yoki tog'lar fonidagi konturi muhim ahamiyatga ega. Lekin, bu nafaqat umumposyolka panoramasi, balki uning ichidagi alohida kartinalar: alohida bino va inshootlar abrisi, ko'cha perspektivasini yopadigan yoki jamoat markazini shakllantiruvchi me'moriy shakllar, tomlar, daraxtlar va shu kabilar konturi yig'indisi hamdir. Konturi va panoramasi qismlab qabul qilinadigan yirik shaharlardan farqli o'laroq, posyolkada ular yaxlit tarzda ko'rinadi. Shu sababdan konturni uzoqdagi nuqtalardan ko'rib qabul qilish muammosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oddiy qurilmalar tarkibida ulardan keskin farq qiladigan, ya'ni o'zining me'moriy shakllari, o'lchamlari bilan ajralib turadigan, lekin qolgan imoratlarga miqyosi bilan mos keladigan bino va inshootlarni loyihalashtirish kontur yaratishning muhim sharti hisoblanadi. Joy relyefi murakkab bo'lgan hududlarda kontur yaratishning yana bir usuli – bino va inshootlar, o'ziga xos ko'kalamzorlashtirish vositasida joyning baland nuqtalariga alohida urg'u berish hisoblanadi. Individual kontur hosil qilish uchun namunaviy turar-joy va jamoat binolari, standart suv minoralari va shu kabilardan foydalanish mumkin. Konturning badiiy va ifodali chiqishiga kompozitsiyada ustuvor holatni egallab turuvchi biron me'moriy hajm orqali erishish mumkin.

Barcha tashkil qiluvchi elementlarning yagona yaxlitligi me'moriy kompozitsiyaning majburiy sharti hisoblanadi. Bunday yaxlitlik me'moriy kompozitsiyaning eng yuqori shakli hisoblangan ansamblda yaqqol va to'liq namoyon bo'ladi.

Bo'liqlar tizimi, suv, relyef va boshqa elementlar yagona shaharsozlik va estetik g'oyaga bo'ysinishi lozim. Qishloq joydagi kompozitsion yaxlitlik alohida ansambllarning puxta o'ylangan guruhlanishiga bog'liq (jamoat markazi, turar-joy binolari qurilishi, ishlab chiqarish zonasi va b.), ularning orasida jamoat markazi bosh va ustuvor o'ringa ega bo'lishi kerak.

Qishloq aholi punktining kompozitsiyasi ko'p jihatdan uning shakllangan rejali tuzilmasiga, avvalroq qurilgan eski imoratlar

rejalanganligiga bog'liq. Lekin, ta'kidlash lozimki, bugungi kunda ishlab chiqarish, jamoat va turar-joy binolarining namunaviy loyihalari qo'llanilib, aksariyat hollarda bunday loyihalar estetik talablarga javob bermaydilar, me'moriy-hajmli moslanuvchanlikka ega emaslar. Mavjud sharoitlarda namunaviy loyihalar bo'yicha bunyod etilayotgan imoratlar eskitdan shakllangan qurilmalar bilan hamohang bo'lishi uchun imoratlar majmuasini shakllantirishning blok-seksiya, blok-xonadon va boshqa namunaviy yechimlaridan foydalanish lozim.

Qishloq aholi punktining kompozitsiyasi, uning me'morchilik nuqtayi nazaridan ifodali bo'lishi ko'p jihatlardan yon-atrof landshafti bilan ham belgilanadi. Tabiiy muhitning xususiyatlariga qarab kompozitsiya yopiq yoki ochiq tarzda shakllantiriladi. Relyef xususiyatlari va yashil o'simliklar massivi aholi punktidagi alohida qismlarni birlashtirish yoki, aksincha, ajratib tashlash imkoniyatini beradi. daryolar, ko'llar, suv havzalari esa imoratlar qurilgan hudud konfiguratsiyasi va chegaralarini belgilab beradi. aholi punktining qiyofasini shakllantirishda, shuningdek, sun'iy tarzda yaratilgan muhit (daraxtzorlar, parklar, hovuzlar) ham ishtirok etadi.

Qishloq aholi punktining katta bo'lmagan o'lchamlari uning istalgan nuqtasidan yon-atrofdagi tabiiy manzaralarni kuzatish va, aksincha, aholi punktini tabiiy muhit fonida ko'rish, qabul qilish imkonini beradi. posyolokdagi me'moriy hajmni shakllantirishda an'anaviy shaharsozlik usullarining hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega. Ular aholini yozning jazirasidan himoya qilishda, ijtimoiy, milliy-maishiy ana'analarda namoyon bo'ladi. Bu omillarning barchasi aholi punktlarini rejalashtirishga, bino va inshootlar arxitekturasiga, ko'kalamzorlashtirilgan va suv chiqarilgan hududlarning xususiyatlariga ta'sir o'tkazadi. Bugungi kunga kelib shahar muhitiga nisbatan ushbu masalalar yechimi mutaxassislarning (I.I.Notkin, Sh.D.Asqarov va boshqalar) bir qator ishlarida yetarli darajada keng yoritilgan. Lekin, ta'kidlash zarurki, qishloq aholi punktlari va qishloq xo'jalik korxonalari, ishlab chiqarish komplekslariga nisbatan qo'llaniladigan me'moriy-hajmiy yechimlar bo'yicha tadqiqotlar yanada kengroq ko'lamda o'tkazilishi talab etiladi.

Shaharsozlik amaliyotida kompozitsiyalarning 4 ta turi ma'lum: chiziqli (anfiladali), o'qli, panoramali, markaziy. Ularning har biri aniq shaharsozlik vaziyatlariga bog'liq bo'lgan ko'p turli prinsiplarga

asoslanadi. Kompozitsion g'oya posyolka hududini funksional zonalashdan uning tuzilmaviy elemenlarini loyihalashgacha bo'lgan butun loyihalash jarayonini qamrab oladi.

Posyolkalarni loyiha tashkilotlarida, kurs va diplom ishlarida bajarilgan loyihalashtirish amaliyotini umumlashtirish natijasida ularning kompozitsion tuzilishidagi ayrim xususiyatlarni ajratish imkonini berdi.

Qishloq aholi punktining me'moriy-rejali tuzilmasini chiziqli (anfilada shaklida) shakllantirish uning bosh ko'chasini aniq ajratish zarur bo'lgan vaziyatlarda qo'llaniladi (5.1.2-rasm, 5.1.3-rasm). Qoidaga ko'ra, bosh ko'cha asosiy kompozitsion o'q vazifasini bajaradi. Boshqa ko'chalar (yordamchi kompozitsion o'qlar) bosh ko'chaga nisbatan tuziladi va yo'naltiriladi. Agar posyolok rejaning chiziqli shakliga ega bo'lsa, ya'ni transport kommunikatsiyalar va daryo yoki kanal bo'ylab joylashgan bo'lsa, bosh kompozitsion o'q yo'nalish va xarakteri bo'yicha ularga mos bo'ladi. Bunday vaziyatda o'qning ikkala tomonida posyolkaning kompozitsion tuzilmalari yaratiladi. Aksariyat hollarda eng ifodali inshootlar va imoratlar qurilishining oddiy foni o'rtasidagi farqlanishga urg'u beriladi. Chiziqli kompozitsiya varianti sifatida anfilada tuzish usuli qo'llaniladi, ya'ni bosh kompozitsion o'q bo'ylab me'moriy hajmlarni yordamchi o'qlar bo'yicha joylashtiriladi. Aksariyat hollarda bosh va yordamchi o'qlar eng mahobatli va eng ifodali inshootlar bilan yakunlanadi.

O'zbekistondagi xalq me'morchiligida chiziqli kompozitsiya prinsiplarini Samarqand shahridagi Shohi-zinda nekropoli, Buxorodagi Toqi-Zargoron, Toqi-Telpak furushon, Toqi-Safaron tuzilmalarida ko'rish mumkin. Shohi-Zinda ansamblida piyoda ko'chalar bo'ylab joylashgan mavzoleylar (ayniqsa, ularning peshtoqlari) ustuvor inshootlar sifatida qabul qilinadi. Ular yopiq devorlar, yer sathida pastroqdagi ko'chaning neytral fonlari bilan keskin farqlangan holda o'ziga xos kompozitsiyani tashkil qiladilar. Kompozitsiya mavzoleylarning bir inshooti bilan yakunlanadi. Buhorodagi gumbazli savdo inshootlar ansamblida usti yopiq piyodalar uchun mo'ljallangan ko'cha muayyan oraliqlarda urg'ular rolini bajaruvchi yordamchi aloqalar bilan kesishadi. Bosh o'q ochiq bo'shliqqa chiqish bilan yakunlanadi. Bu yerda ustuvor element sifatida o'qning oxiridagi oraliq xizmat qiladi, undan tushayotgan yorug'lik usti berk ko'chaning qarama-qarshi tomonidan ham ko'rinadi.

Hajmning markaziy kompozitsiyasi qishloq aholi punktlaridagi biron elementning ustuvor holatini belgilash maqsadida qo'llaniladi. Aksariyat hollarda bunday rolni posyolkaning jamoat markazi yoki ijtimoiy-ishlab chiqarish markazi bajaradi. Ustuvor element sifatida butun zona, yadro, masalan, jamoat markazi, maktab, sport kompleksi joylashgan posyolka parkining markaziy zonasi xizmat qilishi mumkin (5.1.4-rasm, 5.1.5-rasm, 5.1.6-rasm). Posyolkaning boshqa elementlarini shu elementga bo'ysindirish kompozitsiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Odatda, asosiy ko'chalar (kompozitsion o'qlar) ana shu markazga yo'naltiriladi; yon-atrofdagi imoratlar o'zlarining qavatligi, hajmi, rangi kabi jihatlari bilan ustuvor elementlardan yaqqol ajralib turadi. Ustuvor elementning bosh inshoot sifatidagi holatini yanada yaqqol belgilash maqsadida uning atrofidagi imoratlar «qo'llab-quvvatlovchi» fon funksiyasini bajaradilar. Biz tomondan ko'rib chiqilgan ko'plab misollarda ustuvor element atrofida ko'p xonadonli (yoki seksiyali) turar-joy binolari loyihalashtirilganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston xalq me'morchiligida markazga intilgan kompozitsiya Registon maydoni, Bibi-xonim jome masjidining me'moriy ansambllarini tashkil etishda qo'llanilgan. Bunda inshootlar arxitekturasini yon-atrofdagi kam qavatli imoratlarning neytral foni bilan keskin farqlanadigan (rangi, hajmi va shu kabi jihatlari bo'yicha) qilib qurilgan. Lekin, shu bilan birga, muhitning muayyan yaxlitligiga erishilgan. Yon-atrofdagi guzarlarning asosiy ko'chalari kompozitsiyaning aynan bosh elementlariga yo'naltirilgan.


Qishloq aholi punkti tuzilmasini panoramali kompozitsiya ko'rinishida tashkil qilish imoratlar qurilgan hududni yuza frontini idrok qilish zarur bo'lgan vaziyatlarda amalga oshiriladi. Bunday vaziyatlar posyolka tuzilmasi transport magistrali, suv arteriyasi bo'ylab joylashtirilganida kuzatiladi (5.1.7-rasm, 5.1.8-rasm, 5.1.9-rasm). Imoratlar qurilishining tashqi front arxitekturasini ham to'satdan, ham asta-sekin, aholi punktiga yaqinlashgan sari ochilishi mumkin. U asosan «manzara chegarasi» – yo'l yoki daryoning qishloq aholi punktiga bevosita yaqin joylashgan qismidagi uchastka uchun mo'ljallanadi. Bunda posyolka panoramasi va uning konturi ko'rinib turadi. Bu vaziyatda hal qilinadigan kompozitsion yechimlar xuddi chiziqli kompozitsiyada bo'lgani kabidir. Farqlanish shundan iboratki, imoratlar qurilishi kompozitsion o'qning (yo'l, daryoning) faqat bir tomonida va, odatda, ma'lum masofada loyihalashtiriladi.

Qishloq aholi punktining o'qli kompozitsiyasi ko'rib eslab qolish effekti prinsiplari asosida shakllantiriladi. Bunday yechim, asosan, qishloq aglomeratsiyalari (qishloq aholi punktlari bir-birlaridan 1-3 km masofada joylashgan) vaziyati, qishloqlarning qismlarga ajratilgan rejali tuzilmalari mavjud bo'lganida, shuningdek ishlab chiqarish va aholi istiqomat qiluvchi hududlar bir-birlaridan ancha uzoq masofada joylashganida qo'llaniladi (5.1.10-rasm, 5.1.11-rasm va 5.1.12-rasm).

Kompozitsiyaning bu turi shakllanishning mustaqil prinsiplariga ega emas: qurilgan imoratlar guruhi alohida joylashtirilsada, har bir guruh o'zaro bog'langan markaziy, chiziqli, panoramali ansambllardan tashkil topadi. Yirik elementlar (masalan, ishlab chiqarish va istiqomat zonalarini)ning alohida joylashtirilishi bu kompozitsiyaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Shu sababdan bu qismlarning uzviyligi va o'zaro bog'liqligi ularni yagona uslub bilan bog'lash orqali ta'minlanadi. Misol sifatida Samarqand shahridagi tarixiy zona fragmentini keltirish mumkin. Bu yerda Bibi-xonim va Registon maydonidagi ansambllar bir-birlaridan 1 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, o'zaro bitta ko'cha bilan bog'langanlar.


Ansamblni o'rab tuzuvchi imoratlar va ularni bog'lab turuvchi ko'cha ularga nisbatan «neytral fon» vazifasini bajaradi. Odatda, piyodalar avvaliga aytilgan ansambllardan biri bilan tanishadilar, keyin ko'cha bo'ylab ikkinchisi tomonga harakatlanadilar. Ikkinchi ansamblga yaqinlashganlarida uning arxitekturasini o'rganib va baholaganlarida beixtiyor avval ansambl bilan o'xshashlikni his qiladilar. Aynan shu vaziyatda ko'rib eslab qolish effekti ishga tushadi. Fazoviy o'zaro bog'lanish esa ushbu ansambllarda me'moriy va kompozitsion uslublar yagonaligiga asoslangan uslub qo'llanilgani sababli his qilinadi. Aytib o'tilgan prinsiplar qishloq aholi punktlarini loyihalash va qurishning zamonaviy amaliyotida ham qo'llanilishi mumkin.


Shunday qilib, qishloq aholi punktining rejali tuzilmasi ta'sir etuvchi omillarni (tabiiy-iqlimiy sharoitlar, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, muhandislik-texnik imkoniyatlar, xalq me'morchiligida hozirgi sharoitlar uchun mos bo'lgan an'analarni) hisobga olgan holda shakllantiriladi. Bunda har bir muayyan vaziyat uchun eng optimal va aniq kompozitsion g'oya belgilanishi lozim. Qishloq aholi punkti hududini funksional zonalash, ko'chalarni trassalash, turli hajmiy bo'shliqlari va tuzilmalarini joylashtirish masalalari aynan shu nuqtai nazar asosida hal qilinadi.



5.1.2-rasm. Qishloq aholi punktining anfilada (chiziqli) kompozitsion modeli.

200 kishilik dehqon - fermer xo'jaligini yashash hududini umumiy ko'rinishi






200 kishilik dehqon - fermer
xo'jaligini yashash hududini
umumiy ko'rinishi

**5.1.3-rasm. «Dehqon-fermer xo'jaligining 200 kishi uchun
mo'ljallangan istiqomat-ishlab chiqarish markazi»ning amfilada
ko'rinishidagi kompozitsion tuzilishi**

**Magistrant: Sultonov Damir. Koordinator:
professor X.K.Tursunov (TAQI)**

**Rahbar: dotsent SH.D.Ochilov Maslahatchilar: dotsent
M.U.Umarov (TAQI), arxitektor A.Roziqov.**




**5.1.4-rasm. Qishloq aholi punktining
markazga intilgan kompozitsion
modeli.**



**5.1.5-rasm. Qishloq posyolkasi
bosh rejasining markazga intilgan
kompozitsion tuzilmasi
(Qoraqalpog'iston sharoitlari
uchun) Talaba Sadenova N., rah.
dots. Kim V.YE. SamDAQL**


140 kishilik dehqon - fermer xo'jaligini yashash
hududini umumiy ko'rinishi



140 kishilik dehqon - fermer xo'jaligini yashash hududini
umumiy ko'rinishi



**5.1.6-rasm. «Dehqon-fermer xo'jaligining 140 kishi uchun mo'ljallangan
istiqomat-ishlab chiqarish markazi»ning anfilada ko'rinishidagi
markazga intilgan kompozitsion tuzilishi Magistrant Toshev Elbek.
Koordinator: professor X.K.Tursunov (TAQI), raxbar: dotsent
SH.D.Ochilov. Maslahatchilar: dotsent M.U.Umarov (TAQI),
Arxitektor A.Roziqov.**




5.1.7-rasm. Qishloq aholi punktining panoramali kompozitsion modeli.



5.1.8-rasm. Qishloq aholi punktining panoramali ko‘rinishidagi kompozitsion tuzilishi talaba M.Nurmagambetov, rahbar: dotsent Sh.D.Ochilov.


**300 kishilik dehqon-fermer xo'jaligi yashash hududining
umumiy ko'rinishi**




**5.1.9-rasm. «Dehqon-fermer xo'jaligining 300 kishi uchun
mo'ljallangan istiqomat-ishlab chiqarish markazi»ning panoramali
kompozitsion ko'rinishi**

**Talaba Rasulov Suxrob. Koordinator: professor X.K.Tursunov
(TAQI),**

**Rahbar: dotsent SH.D.Ochilov Maslahatchilar: dotsent
M.U.Umarov (TAQI), arxitektor A.Roziqov**




5.1.10-rasm. Qishloq aholi punktining o'qli kompozitsion modeli



5.1.11-rasm. Moskva oblastidagi qishloq aholi punktining bosh rejasi

**135 kishilik dehqon - fermer xo'jaligini yashash va ishlab
chiqarish hududini umumiy ko'rinishi**



Qaydnom		
1	Zavod	2
2	Tepilma	3
3	Tovar joy	8
4	Tourhaus	18
5	Markaz to'rtbishi	1
6	Maktab	1
7	Bog'cha	1



**5.1.12-rasm. «Dehqon-fermer xo'jaligining 135 kishi uchun
mo'ljallangan istiqomat-ishlab chiqarish markazi»ning o'qli
ko'rinishidagi kompozitsion tuzilishi.**
Magistrant: Sodiqov Zafar. Koordinator: professor X.K.Tursunov
(TAQI). Rahbar: dotsent Sh.D.Ochilov Maslahatchilar: dotsent
M.U.Umarov (TAQI), arxitektor A.Roziqov.

Takrorlash uchun savollar:

1. Posyolkaning kompozitsion mohiyati nimadan iborat?
2. Kompozitsion yaxlitlikka qaysi yo'llar bilan erishish mumkin?
3. Posyolka konturini shakllantirilishi deganda nima tushuniladi?
4. Posyolka kompozitsiyasi shakllanib ulgurgan rejali tuzilmaga, eski imoratlarga nisbatan belgilanadimi?
5. Posyolka kompozitsiyasi, uning me'moriy jihatdan ifodalan-ganligi yon-atrof landshafti, tabiiy muhitga bog'liq ravishda qanday shakllantiriladi?
6. Posyolka me'moriy-rejali tuzilmasini chiziqli (anfiladali) kompozitsiyasini shakllantirish prinsipi nimalardan iborat?
7. Posyolka me'moriy-rejali tuzilmasini markazga intilgan kompozitsiyasini shakllantirish prinsipi nimalardan iborat?
8. Posyolka me'moriy-rejali tuzilmasini panoramali kompozitsi-yasini shakllantirish prinsipi nimalardan iborat?
9. Posyolka me'moriy-rejali tuzilmasini o'qli kompozitsiyasini shakllantirish prinsipi nimalardan iborat?

5.2. Turar-joy hududining me'moriy-rejali tashkil etilishi

Qishloq aholi punktlaridagi turar-joy hududining tuzilmaviy ele-mentlari tarkibiga turar-joy komplekslari, mavzelar, turar-joy guru-hlari, umumiy foydalanishdagi uchastkalar (rekreatsion hududlar), to-morqa uchastkalari, turar-joy binolari, xo'jalki qurilmalari, ko'chalar kiradi.

Mutaxassislar (TashZNIIEP) turar-joy zonasini bitta yoki bir nechta turar-joy komplekslaridan tashkil qilish tavsiya etilgan. Turar-joy kompleksi – turar-joy zonasining eng katta tuzilmaviy elementidir. Uning o'lchamlari 500 dan 2000 kishigacha bo'lib, qishloq aholi punktining kattaligi, uning rejali tuzilmasi, imoratlar qurilishining zichligi, maktabgacha ta'lim muassasalari va birlamchi xizmat ko'rsatish korxonalari va umumiy foydalanishdagi ko'kalamlash-tirilgan uchastkalarning mavjudligi bilan belgilanadi.

Turar-joy kompleksining rejaviy yadrosi sifatida maktabgacha ta'lim muassasalari, birlamchi xizmat ko'rsatish punkti, jismoniy tarbiya va bolalar maydonchalari joylashgan hududlar xizmat qilishi mumkin. Turar-joy kompleksining yadrosi turar-joy zonasidan jamoat

markazi, ishlab chiqarish zonasi va rejaning boshqa tuzilmaviy elementlari tomonga piyoda yo'nalishlarda joylashtirilishi lozim.

O'lchami bo'yicha kichik va o'rtacha bo'lgan va rejaning ixcham shakliga qishloq aholi punktlarida turar-joy zonasi yagona kompleks qilib rejalashtirilishi mumkin. Bunda maktabgacha ta'lim muassasalari jamoat markaziga yaqin yoki bevosita uning tarkibida joylashtirilishi va markazning kompozitsion yechimi bilan bog'lanishi, muhandislik kommunikatsiyalarining umumposyolka tarmoqlariga ulanishlari lozim. xizmat ko'rsatish radiuslarini saqlagan holda qo'llanilgan bu usul jamoat markazi o'lchamlarini kattalashtirish va me'moriy jihatdan ifodalanishini kuchaytirish imkoniyatini beradi.

Rejali tuzilmalarning cho'zilgan va qurama shakllariga ega katta posyolkalarda turar-joy zonasi bir nechta turar-joy komplekslaridan tarkib topishi mumkin. Turar-joy komplekslaridagi umumiy foydalanishdagi uchastka elementlari tarkibida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish uchun maxsus maydoncha, bolalar maydonchasi, shuningdek katta yoshdagi aholi dam olishi, tantanali marosimlar, bayram va jamoat bayramlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan hududlarni ko'zda tutish kerak.

Bugungi kunda mamlakatning qishloq joylarida qo'rg'on tipidagi 1-2 qavatli turar-joy binolari, 1-2 qavatli 4, 6, 8 va ko'proq xonadonlari bo'lgan birlashtirilgan turar-joy binolaridan iborat posyolkaning istiqomat zonolari keng tarqalgan. Seksiyali va qurama tipdagi uylar aytarli keng tarqalmagan. Ikki xonadonli birlashtirilgan turar-joy binolari ham ko'pgina qishloq joylarda qurilmoqda.

Bir xonadonli uylar, normativ o'lchamli yer uchastkalari bo'lgan ikki xonadonli uylar qurilgan posyolkalarda shaxsiy tomorqalar xo'jalik yuritish uchun eng qulay sharoitlar yaratilgan. Lekin, bunday uylarning aksariyati umumiy kanalizatsiya, suv ta'minoti, isitish tarmoqlariga ulanmagan. Bunday posyolkalarning tashqi obodonlashtirilishi ham aytarli yaxshi ko'rinishga ega emas. Imoratlarning siyrak qurilganligi, aholi zichligining kichikligi barcha turdagi muhandislik kommunikatsiyalari qurilishini qimmatlashtirib, mahalliy tizimlar qo'llanilishini belgilab beradi. Bunday posyolkalar katta hududlarni egallaydilar.

Loyiha institutlarining mutaxassislari tomonidan uylar joylashuvining uchta asosiy usuli ishlab chiqilgan: ko'chalar bo'ylab (turar-joy ko'chasi); mavzelar perimetrlari bo'yicha; ochiq va yopiq hajmlarni

tashkil qiladigan guruhlar shaklida (31-jadval). Ko'rsatilgan usullarning hammasi turli tipdagi uylarni qurishda qo'llanilishi mumkin.

Uylarni ko'chalar bo'ylab joylashtirish usuli loyihalashtirishning zamonaviy amaliyotida keng tarqalgan. Bu kabi joylashtirishning kompozitsiyalari ko'p: uylar ko'chalarning ikki tomoniga o'zgaruvchan tartibda joylashtirilishi, bu usul qo'llanilganida bir maromdagi qatorlar uylar va yashil o'simliklardan iborat guruhlar bilan almashinib turadi; alohida joylashtirilgan urg'u elementlari bo'lgan uzluksiz tasma ko'rinishida; ko'cha tomonga ochilgan chuqur hajmlar tashkil qilinishi bilan, bunda ko'chalar tabiiy sharoitlar va posyolkaning umumiy kompozitsiyasiga bog'liq ravishda to'g'ri yoki egri chiziqli bo'lishi mumkin.

Bir qavatli yakka tartibda qurilgan va bir o'lchamli tomorqa maydonlariga ega uylardan tashkil topgan mavzening me'moriy kompozitsiyasi aksariyat hollarda jo'n ko'rinishda bo'ladi. Rejalashtirish shartlari uylar bir tekisda joylashtirilib, bir-biriga o'xshash qatorlar shakllanishini belgilab beradi. Ko'p xonadonli 2-4 qavatli turar-joy binolari mavze shaklida qurilganida mavze hududi va hajmi umumiy funksional-rejali ko'rinishga ega bo'lib, yagona fazoviy kompozitsiyani tashkil qiladi. Mavze ichidagi maydonlar bir-biri bilan o'zaro bog'langan hovlilarga bo'linishi kabi rejalashtirish usuli ijobiy baholandi. Bunda hovlilar ichida bog'lar, bolalar maydonchasi va xo'jalik bloklari joylashtirilishi mumkin. Eng katta mavzelar o'lchami 6-8 gektar, eng kichiklariniki esa 1,5-2,0 gektar qilib belgianadi.

Ko'proq bosh ko'cha, jamoat markazi yoki tabiiy landshaft tomonga yo'naltirilgan katta bo'lmagan maydon atrofida bir xil yoki turlicha tipdagi turar-joy binolari joylashtirilishi ham keng qo'llanilmoqda. Uylar guruhi posyolkaning birlamchi rejaviy va kompozitsion elementi sifatida uylarning tiplari va tarkibiga bog'liq ravishda turli o'lchamlarga va hajmiy-rejali yechimlarga ega bo'lishi mumkin. Undan tashqari, guruh tarkibida umumiy foydalanishdagi bog', kattalar dam olishi va bolalar o'ynashi uchun mo'ljallangan maydonchalar tashkil qilinishi mumkin. Turli tipdagi uylar guruhlarining shakllanishi demografik tarkibi turlicha bo'lgan oilalarni posyolka doirasida bir maromda joylashtirish imkoniyatini beradi. ko'p xonadonli va yakka tartibda qurilgan uylarning o'zaro nisbati loyihalashtirish jarayonida demografik ko'rsatkichlar asosida qurilish hududining sharoitlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

O'zbekiston sharoitlari uchun turar-joy binolari joylashtirishining eng optimal usuli, bu turar-joy guruhlarini tashkil etish hisoblanadi. Bunday guruhni tashkil etish uchun qo'shnilar jamoasi asos bo'lib xizmat qiladi. Guruhning taxminiy tarkibi 20-40 oiladan (100-250 kishi) iborat bo'ladi. Turar-joy guruhining markazi umumiy foydalanishdagi uchastok bo'lib, uning tarkibida bolalar va jismoniy tarbiya maydonchalari, shuningdek jamoaviy va bayram tadbirlarini o'tkazishga mo'ljallangan maydoncha loyihalashtiriladi.

Posyolkalardagi turar-joy binolari qurilishini shakllanishida respublikaning tabiiy-iqlimiy sharoitlari o'ta muhim ahamiyatga egadir. QMQ 2.08.01-94 normativ hujjatda O'zbekistonning turli mintaqalari sharoitlarida tipologik prinsiplar belgilab berilgan (5.2.1-rasm). Turar-joy binolarini loyihalashtirish O'zbekiston Respublikasi hududini zonalashtirish bo'yicha ko'rsatkichlariga muvofiq amalga oshirishi lozim.

I zona – sahrolarga xos iqlimning faol ta'siri ostida bo'lgan va ekstremal yozgi sharoitlari mavjud hududlar. Bu zonada jaziramali davrlar uzoq davom etadigan kichik zonalar (I A va I B kichik zonalar), changlanglik darajasi yuqori kichik zonalar (I A, I B va I V kichik zonalar), qishi sovuq kichik zonalar (I G) ajratilgan.

II zona – tog' oldi vohalar, vodiylar va past tog'li hududlar, bu zonadagi landshaft-iqlimiy sharoitlar nisbatan qulay hisoblanadi.

III zona – ekstremal iqlimiy sharoitlarga ega baland tog'li hududlar.

Zonalar va kichik zonalarining xarakteristikalarini QMQ 2.01.01.-94 «Loyihalashtirish uchun iqlimiy va fizik-geologik ko'rsatkichlar» berilgan.

Ushbu zonalardagi asosiy tipologik xarakteristikalar quyidagilar:

I zona sharoitlari uchun xonadonlar, turar-joy binolari va turar-joy tuzilmalarining tashqi ekstremal sharoitlardan (jazirama issiq va qum bo'ronlaridan) himoya qiluvchi yagona tizimni tashkil qiladigan rejaviy yechimlar ishlab chiqilishi lozim; turar-joy tuzilmalari (qo'rg'on va turar-joy guruhi miqyosidagi) yopiq yoki yarim yopiq kompozitsiyali, himoyalangan rekreatsiya zonolari (turar-joy xonalari asosan himoya qilingan tomonga ochiladi) bilan loyihalashtirilishi lozim; umumiy xona va yozgi xonalar foydalanishning yopiq rejimiga moslashtiriladi; yozgi xonalar usti yopiq kichik hovli shaklida (kam qavatli uylarda) yoki oynavand ayvonlar ko'rinishida (ko'p qavatli uylarda) quriladi (5.2.2-rasm).

II zona sharoitlari uchun tashqi muhitning qulay sharoitlaridan (yashil o'simliklar, suv, tog'-vodiya xos havo sirkulatsiyasi va b.) maksimal tarzda foydalanishni ko'zda tutuvchi turar-joy binolari va turar-joy tuzilmalarning rejaviy yechimlar ishlab chiqilishi lozim. Turar-joy muhiti mahalliy shamollarning asosiy qulay yo'nalishlarini ham hisobga olgan holda shakllantiriladi. Yozgi xonalar turi – an'anaviy ayvon (ochiq yoki oynavand) (5.2.2-rasm).

III zona sharoitlari uchun turar-joy binolari va turar-joy tuzilmalarning rejaviy yechimlari (qo'rg'on va turar-joy guruhi miqyosidagi) ixcham kompozitsion-rejali tuzilmaga asoslanib, turar-joy muhitini qishdagi sovuq iqlimga moslashuvini hisobga olishi lozim. Yozgi xonalar turi – an'anaviy ayvon (oynavand yoki ochiq) (5.2.4-rasm, 5.2.5-rasm).

Posyolkaning rejali tashkil etilishi va fazoviy kompozitsiyasiga, hududlardan foydalanish xarakteri va samaradorligiga, muhandislik nuqtai nazarida jihozlanishiga shaxsiy tomorqadagi xo'jalikni hududiy tashkil etilishi katta ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy yordamchi xo'jaliklar hajmi va ularni yuritish xususiyatlariga ko'ra 3 ta turga bo'linadi: minimal, cheklangan va rivojlangan. Tarkibida bog', kichik tomorqa va parranda boqish uchun mo'ljallangan xonalar bo'lgan xo'jaliklar «minimal» xo'jalik toifasiga kiradi. «O'rtacha» xo'jaliklarda mayda tuyoqli chorva mollari uchun og'ilxonalar ham bo'ladi, «rivojlangan» xo'jaliklarda esa yirik qoramol boqiladigan og'ilxona va qurilmalar mavjud bo'ladi.

O'zbekistondagi qishloq aholisining deyarli 80% shaxsiy xo'jalikning rivojlangan turini, qolgan qismi, asosan, o'rtacha xo'jalik yuritadi. Cho'l va sahro, shuningdek baland tog'li mintaqalardan tashqari barcha joylarda bog' va kichik ekin maydonlari parvarish qilinadi. Tomorqa uchastkalarining quyidagi funksional zonalar mavjud: turar-joy hovlisi (turar-joy xonalar bilan), maishiy qurilmalar – yozgi oshxona, mahsulotlar ombori (ayrim hollarda sanitariya-gigiyenik xonalar), bog'-tomorqa, xo'jalik hovlisi – og'ilxona, uy parrandalari uchun qurilmalar, xo'jalik anjomlari, yem-xashak saqlanadigan omborlar va h.k.

Hovlidagi turli qurilmalarning tarkibi va o'zaro nisbati turlicha bo'lishi mumkin. Dehqonchilik va chorvachilik hududlar uchun bog'dorchilik, kichik tomorqalarda ekin yetishtirish, yirik qoramol va parranda boqish kabi xo'jalik turlari xos. Bunday xo'jaliklar, asosan,

vohalarda va tog' etagidagi vodiylarda yuritiladi. Chorvachilik va yaylov qo'ychiligi bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar ulushi katta bo'lgan hududlarda bog' va kichik tomorqalar aytarli yaxshi rivojlanmagan, xo'jalik qurilmalari, asosan, mayda tuyoqli uy hayvonlari uchun mo'ljallangan. Tog'li va cho'l mintaqalarda bu kabi xo'jaliklar salmog'i katta bo'ladi.

Uyning, hovlidagi qurilmalar joylashuviga. Shuningdek hovli hajmini shakllanishiga zonalarga xos omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar yozgi turmushni tashkil qilish turini va hovlini obodonlashtirish bo'yicha kompozitsion yechimlar tizimini belgilab beradilar. Cho'l zonasining tekislikdagi hududlarida hovlida hajmlarning yopiq variantini shakllantirish imkoniyatlari ko'zda tutiladi (5.2.6-rasm, 5.2.7-rasm).

Hovli hajmining ochiq tizimi tog' oldi zonalar uchun nazarda tutiladi, bu tizim turar-joy hovlisini bog' bilan qo'shib ketishi uchun imkoniyat yaratadi. Hovlining ushbu turdagi tuzilmalari rasmlarda ko'rsatilgan (5.2.9-rasm, 5.2.10-rasm, 5.2.11-rasm, 5.2.12-rasm).

«O'zqishloqloyiha» instituti tomonidan har bir zona uchun tabiiy-iqlimiy sharoitlarga, qurilishning moddiy-texnik bazasiga mos keluvchi, aholining ijtimoiy-demografik tarkibini va me'morchilik va qurilishning ilg'or an'alarini hisobga olgan turar-joy binolarining mustaqil seriyalari ishlab chiqilgan (5.2.13-rasm, 5.2.14-rasm, 5.2.15-rasm).

O'zbekiston sharoitlariga mos keladigan turar-joy binolarini loyihalashtirish uchun uy-hududlarini me'moriy-rejali tashkil etishning ilg'or usullaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Turar-joy binolarining tarixiy shakllangan tuzilmalarini tadqiqot qilish natijasida mahalliy iqlim sharoitlariga moslashtirish bo'yicha juda ko'plab o'ziga xos va samarali g'oyalarni ochib berdi.

O'zbekiston olimlarining bu yo'nalishda olib borgan tadqiqotlari natijasida respublikaning turli iqlim mintaqalari uchun xos bo'lgan asosiy tuzilmalari aniqlandi. Ular qatoriga milliy uy-joylarning xorazmcha, buxorocho, farg'onacha kabi turlarini kiritish mumkin (5.2.16-rasm, 5.2.17-rasm, 5.2.18-rasm). Ularni rejali tashkil etilishining o'ziga xos jihatlari maxsus adabiyotlarda keng yoritilgan. Biroq, ushbu uy-joylarning xalq an'alarini zamonaviy qishloq uylarini loyihalashda qo'llash masalasi qishloq me'morchiligida eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekistondagi tadqiqot va loyiha

institutlari, OO'YUlari tomonidan bu yo'nalishda, ya'ni xalq an'analarini hisobga olgan holda qishloq uylarining optimal me'moriy yechimlarini topish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Izlanishlar natijasida yaratilgan loyiha takliflarining ba'zi namunalari 5.219- va 5.2.20-rasmlarda keltirilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda ko'p bolali va murakkab oilaviy tuzilmalarning zichligi yetarli darajada yuqori. Bu tendensiya, ayniqsa, qishloq joylarda keng tarqalgan, ba'zi hududlarda bunday oilalarning ulushi 60% ni tashkil qiladi. Murakkab tuzilmaga ega oilalar ulushi taxminan 30% ga teng. Ko'p bolali oilalar qatoriga ota-ona va 4 yoki undan ko'p bolalardan tarkib topgan oilalar kiradi. Bunday oilalar, agar balog'at yoshiga yetgan bir nechta aka-ukalar bo'lsa, murakkab oilaviy tuzilmalarga o'tishdagi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Murakkab tuzilmaga ega oilalar qatoriga tarkibida ota-ona, er yoki xotinning keksa ota-onasi, shuningdek yaqin qarindoshlari (oila boshlig'ining aka-ukalari yoki opa-singillari) 4 va undan ko'p farzandlari bo'lgan oilalar kiritiladi. Undan tashqari, murakkab oilalarning aksariyat qismi 2 yoki undan ko'p turli oilalardan iborat bo'ladi.

TashZNIIEP instituti tomonidan qishloq uy-joylarini me'moriy-rejali tashkil etishda quyidagi joylashuv tizimlari taklif qilingan: qo'shma (keksalar uchun alohida ajratilgan zonasi bo'lgan bitta xonadon); qo'shma va qo'shma-ajratilgan (turar-joy binosidagi bitta xonadon, unda turar-joy va yordamchi xonalarning ikkita guruhi, shuningdek ushbu, bittasi keksa ota-ona yoki uylangan bolali va bolasiz o'g'il uchun mo'ljallangan guruhlar o'rtasida transformatsiya vositasi mavjud); qo'shma-ajratilgan (qo'rg'oncha turidagi turar-joy binosidagi bitta xonadon, uning tarkibida 2 ta mustaqil turar-joy guruhi, oshxona va sanitariya bo'lmalari, shuningdek turar-joy guruhlar o'rtasida ichki rejaviy bog'lanishlar mavjud), yaqin-ajartilgan (bitta hovlida ikkita xonadon joylashadi, ichki rejaviy bog'lanishlar yo'q, funksional aloqa faqat hovli, shuningdek ko'chadan kiradigan eshik yoki orqa tomondagi eshik orqali ko'zda tutiladi).

Qishloqdagi uy-joy qurilishida yuqorida keltirilgan joylashuvning birinchi ikkita turi ko'p bolali oilalar uchun turar-joy rejali tuzilmasi uchun dastlabki shartlar bo'lib xizmat qiladi. Uchinchi va to'rtinchi turlari esa murakkab tuzilmaga ega oilalar uchun ana shunday vazifani o'tab beradi.


**Qishloq aholi punktlarini loyihalashning zamonaviy
amaliyotida ishlab chiqilgan turar-joy zonalarining sxemalari**

31-jadval

		Qurilish ko'rinishlari		
		Guruh	Kvartal	Ko'cha yuzida
Turar joy binolari tipi	Hovli tipida			
	2-xonadon qo'shil			
	Ko'p xonadonli blok			
	Ko'p qavatli			
	Har-xil tipolar			



**5.2.1b-rasm. O'zbekiston Respublikasining qurilish-iqlimiy
zonalari xaritasi
(QMQ 2.08.01-94)**



Janubiy iqlimga
mo'ljallangan uylar



1. Umumiy xona
2. Yotoqxona
3. Yozgi ochiq ayvon
4. Oshxona
5. Oynalixona
6. Mehmonxona
7. Yozgi oshxona
8. Issiqxona
9. Hojatxona

**5.2.2-rasm. Yarim cho'l
hududlarning janubiy zonasidagi
yer uchastkasining tuzilmasi.
Qarshi, 1-zona hududlari.**

Qirgim




1 yarus 2 yarus 3 yarus 4 yarus
Tog' oldi hududida turar joylarning qo'shona-qo'shona xonalarining
joylashuvi

1. Mehmonxona
2. Yotoqxona
3. Kirish
4. Yangi ochiq ayvon
5. Oshxona
6. Cho'milish xonasi
7. Hojatxona
8. Issiq xonasi
9. Oshxona
10. Xo'jalik xona
11. Mol xona
12. Xo'jalik soyboni

**5.2.4-rasm. Turar-joy va xo'jalik
xonalarining yaruslar bo'yicha
joylashuvi**


III zona, tog' yonbag'ri

Farg'ona tipavoy (II-zona)
Individual uy Mahalliy uy




**5.2.3-rasm. Uy-joyning
farg'onacha turi (2-zona).**

Tog' oldi turar joy qurilishi




Yuqori qavat




Pastki qavat



**5.2.5-rasm. Baland tog'li hududi
uchun uy-joy binosi**




5.2.6-rasm. Hovlisi yopiq hajmga ega tomorqa uchastkasining hajmli-fazoviy modeli





5.2.7-rasm. Dehqon uy (Misr). Arx.


Xasan Fatxi:

a) fasad; b) 1-qavat rejasi; d) 2-qavat rejasi; 1-ochiq hovli; 2-yotoqxonalar; 3-oshxona; 4-hojatxona va kir yuvish xonasi; 5-og'ilxona; 6-yem-xashak ombori; 7-go'ng saqlanadigan o'ra; 8-sanisi; 9-ombor.





5.2.8-rasm. Tojikiston sharoitlari uchun kam qavatli uy-joy tuzilmasi. Arx.V.Veselovskiy a) fasad; b) turar-joy yacheykasining rejası




5.2.9-rasm. Hovlisi yopiq hajmga ega tomorqa uchastkasining hajmli-fazoviy modeli



5.2.10-rasm. Yakka tartibda qurilgan turar-joy binosi. Beverli Xils (AQSH). a) umumiy ko'rinish; b) reja; 1-kirish; 2-osh-xona; 3-mehmonxona; 4-kattalar yotoqxonasi, sanitariya bloki va saunasi bilan; 5-bolalar yotoqxonasi; 6-bolalar xonasi; 7-oshxona; 8-ombor; 9-kir yuvish xonasi.



5.2.11-rasm. Voha sharoitlari uchua ikki xonadonli qishloq uy-joy binosi. Talaba Shirinov E., rahbar - arx. Ibragimov A.A. SamDAQL.



5.2.12-rasm. Samarqand viloyati sharoitlari uchun qishloq turar-joy binolari. Talaba Axmanova M., rahbar arx. Ibragimov A.A. SamDAQL.

Bir qavatli 6-xonali turar joy binosi



Asosiy fasad



Tashqi fasad



Devor tashri



Xonalar qaydnomasi

1. Mehnatona
2. Yotoqxona
3. Kúsh
4. Yozgi oshiq ayvon
5. Oshxona
6. Chid ilish korasi
7. Hojat xona
8. Iltish xonasi
9. Yozgi oshxona
10. Mehnat xonasi
- 11-16. Xot janti fuskali

Qirg'in 1-1




Hovli tashri



Qaydnoma


1. Turar joy binosi
2. Garaj
3. Mevvali dars xolar
4. Xo'jalik xonalar
5. Yandil xona
6. Yozgi xona
7. Hojat xona
8. Yordamchi xonalar

5.2.13,14,15-rasm. 3-qurilish-iqlimiy zona uchun bir qavatli, 6 xonali turar-joy binosi.



5.2.16-rasm. Xiva shahridagi xalq turar-joy binosi. O'lchov - t.f.n. Kotlyar O.K. 1959y.

Turar-joy tuzilmasining o'ziga xos xususiyati – hovli hajmini shamol va qum bo'ronlaridan himoya qilishga intilish; yopiq turar-joy hajmining balandligi turli ayvonlar yordamidagi aeratsiyasi




5.2.17-rasm. Buxoro shahridagi xalq turar-joy binosi. O'lchov - Dmitriyev V.N., Toshmatov A. 1973y.

Turar-joy tuzilmasining o'ziga xos xususiyati – perimetri bo'ylab xonalar qurilgan hovlining yopiq hajmi; yozgi xonalar vazifasini bajaruvchi tepasi ochiq hovli hajmlarining pog'onali tuzilishi



5.2.18-rasm. Samarqand shahridagi xalq turar-joy binosi. O'lchov - Dmitriyev V.N. 1940y



5.2.19-rasm. Qo'rg'oncha turidagi 2 qavatli turar-joy binosi. Turar-joy tuzilmasining o'ziga xos xususiyati Farg'onadagi uy-joyda bo'lgani kabi – obodonlashtirilgan va yashil o'simliklar ekilgan katta hovli; xonalar hovli perimetri bo'ylab qurilgan; yozgi xonalar – ayvonlar, uzum ishkamlari va hk.



5.2.20-rasm. Qo'rg'oncha turidagi 1 qavatli turar-joy binosi, qoplamaning bir qismi armotsement qobiqlardan bajarilgan (qoplama texnologiyasi –professor S.R.Razzoqov, SamDAQI)

5.3. Jamoat markazini shakllantirish va xizmat ko'rsatish muassasalari tarmog'ini tashkil etish

Xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish qishloq aholi punktlarini o'zgartirishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bunda qishloq jamoat binolarining rejali tuzilmasi va tipologiyasini qishloqlararo xizmat ko'rsatishning yagona tizimi – ijtimoiy, shahar-sozlik, kompozitsion nuqtayi nazarda ratsional bo'lgan posyolkaning jamoat markazini tashkil qilish asosida shakllantirish ko'zda tutiladi.

Qishloqlararo xizmat ko'rsatish tizimi. Qishloq xo'jaligini sanoat asosida yuritishga o'tish, transport va aloqa vositalarini, kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlanishi, joylashuv tizimlarining shakllanishi, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi ilmiy-texnik taraqqiyot qishloqlararo xizmat ko'rsatish tizimi yaratilishi uchun asosiy dastlabki shartlar bo'lib xizmat qildilar. Qishloq fuqarolar yig'ini hududida shakllanayotgan joylashuvning yangi tizimida bunday o'zgarishlarni amalga oshirish real voqelik sifatida qabul qilinmoqda. Joylashuvning bunday tizimi shahar va qishloq uchun yagona joylashuv tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Demak, qishloq joylardagi xizmat ko'rsatish tizimi ham shahar va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish bo'yicha yagona tizimning bir qismi bo'lishi kerak. Bu tizim shu sohaning barcha korxonalari va muassasalarining birlashishi asosida qurilib, aholi punktlariga (ular qayerda joylashishidan qat'i nazar) bir maromda xizmat ko'rsatilishini ta'minlashi lozim. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha taklif etilayotgan tizim to'g'risidagi ma'lumotlar III bobning («Qishloq fuqarolar yig'ini hududini me'moriy-rejali tashkil etish») 3.5-bandida berilgan.

Jamoat markazi. Qishloq aholi punkting jamoat markazi aholining ijtimoiy va ishbilarmonlik faoliyati jamlanadigan joy va shahar tashkil etuvchi bosh element hisoblanib, posyolkaning me'moriy-hajmiy kompozitsiyasi va konturini belgilab berishda katta rol o'ynaydi. Jamoat markazi ma'muriy boshqaruv, savdo-maishiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa funksiyalarni bajaradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jamoat markazlarini loyihalashda quyidagi holatlarni hisobga olish kerak ekan:

-markazning kompozitsion tizimi uzviy bog'lanishga ega bo'lishiga;

-xizmat ko'rsatishning qulay va oqilona tashkil etilishiga;

-markaz funksional vazifalariga muvofiq aniq zonalashtirilishi, hajmlar talqinidagi asimmetriyalik, shakllar, kontur va landshaft tuzilishidagi uyg'unlikka rioya qilinishiga;

-arxitektura, tabiat va san'at sintezi;

-markazdagi bino va inshootlar qurilishida miqyoslilik, modullik, uslubning yagona bo'lishi, shakllar va hajmlar uyg'unligiga.

Jamoat markazi hududining funksional jihatdan oqilona tashkil etilishida uni aniq belgilangan vazifalar (ma'muriy, madaniy-ma'rifiy, savdo-maishiy, ta'lim muassasalari, dam olish va sport) bo'yicha bo'lingan holda yagona rejaviy-hajmli zona yaratilishiga e'tibor qaratish lozim (5.3.1-rasm).

Madaniy-tomosha zona tarkibiga, odatda, qishloq klubi, kutubxona, choyxona kabi obyektlar kiradi. Faoliyat ko'rsatish xususiyatlari va O'zbekistonning issiq iqlimi bunday muassasalarga kechki salqinda tashrif buyurilishini shartlab beradi. Shu sababdan zona hajmi ham sutkaning aynan shu vaqtiga mos bo'lishi kerak: uning maydoni ochiq xarakterga ega bo'lib, imkon qadar suvli yuza (hovuz, favvora va h.k.) tashkil qilinishi lozim, shoxlari yoyilgan daraxtlar bo'lmasligi darkor, kechki salqinni saqlashi va yaxshi shamollatilishi, yetarli darajada chiroqlar va yoritiladigan reklamaga ega bo'lishi lozim. bu zona posyolka tuzilmasida ustuvor mavqega ega bo'lishi zarur.

Ma'muriy zona qishloq fuqarolar yig'ini ma'muriyati binosi, agrofirma birlashmasining boshqaruvi, aloqa bo'limi, omonat kassasi, ATS binolaridan tarkib topib, kundalik mehnat faoliyatining markazi sifatida asosan ertalab va kunduzi ishlaydi. U shoxlari keng daraxtlar, bostirma va galereyalar yordamida quyosh nurlaridan maksimal himoyalangan bo'lishi zarur. Undan tashqari, ma'muriy zonada qulay transport kirish yo'li, avtomobil turargohi tashkil etilib, bu zona ishlab chiqarish zonasi bilan qulay bog'langan bo'lishi lozim.

Savdo-maishiy zona tarkibiga oziq-ovqat va sanoat-xo'jalik mollari do'konlari, maishiy xizmat ko'rsatish kombinatlari, umumiy ovqatlanish korxonalari (oshxona, kafe va h.k.) kiradi. Bu zonaga

odamlar asosan ertalab va kunduzi tashrif buyurishadi, shuning uchun unga qo'yiladigan talablar ma'muriy zonadagi kabi bo'ladi.

Memorial zona jamoat markazida ham, park yoki posyolkaning bosh ko'chasidagi uchastkalarining birida joylashtirilishi mumkin. Qayerda bo'lishidan qat'i nazar bu zona va posyolka ansambli o'rtasida kompozitsion bog'liqlik bo'lishi zarur.

O'zbekistonning har bir mintaqasida qishloq posyolkalarining jamoat markazlari joylashtirilishida, ularning funksional-rejali va me'moriy-hajmiy tashkil etilishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud.

Tekisliklardagi vohalarda markaz eng qulay, mikroiklim yaratish imkoni beruvchi, hudud aeratsiyasi yetarlicha bo'lgan va binolarni issiqdan himoya qilinishini ta'minlaydigan uchastkada joylashtirilib, posyolkadagi ustuvor holatni egallashi lozim.

Jamoat markazidagi mikroiklim sharoitlarni yaxshilash maqsadida uni yashil daraxtzorlar yaqinida, park bilan birlashtirib yoki park tarkibida joylashtirish kerak. Suv manbalari yonida joylashgan jamoat markazini suv yuzalari bilan uyg'un tarzda bog'lanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mikroiklim sharoitlarini yaxshilash uchun qoplamalar yuzasini sezilarli darajada qisqartirish, maydon kompozitsiyasida asosan piyoda qatnovi yo'nalishlari bo'ylab joylashtiriladigan yashil o'simliklar, gulxonalaridan foydalanish zarur. Ularni sug'orish va qulay mikroiklim shakllantirish uchun zamonaviy uskunalar: yomg'irlatish va suv sachratish qurilmalaridan keng foydalanish kerak. Markaz mikroiklimini yaxshilash maqsadida amaliyotda keng tarqalgan manzarali basseynlar va favvoralarni suvni changlatuvchi va sachratuvchi qurilmalar bilan birga qo'llash maqsadga muvofiq. Qoplamalar sifatida issiqni yutmaydigan, mustahkam, kam yediriladigan materiallardan foydalanish zarur.

Tog' oldi vohalarda posyolkaning jamoat markazlarini uchastkaning eng yaxshi tabiiy jihatlari va yon-atrofdagi landshaft yordamida alohida urg'u berib, uning ustuvor mavqeini ko'rsatish zarur. Tabiiy landshaft elementlarini markazning, umuman posyolkaning hajmli-fazoviy tuzilmasi tarkibiga faol kiritish maqsadga muvofiq. Bu shartlarni bajarish uchun quyidagilarni bajarish tavsiya qilinadi:

-markaziy maydon uchun relyefi bo'yicha eng baland uchastka tanlash;

-binolarning asoslari va poydevorlari suvlanishini istisno qiladigan sharoitlarda markazni suv manbalariga imkon qadar yaqin joylashtirish, ularning suv yuzasidan (ko'zgusidan) markaz kompozitsiyasidagi element sifatida foydalanish;

-jamoat markazi joylashgan uchastkadagi daraxtlar va butalarni imkon qadar saqlash va ulardan markaz ansamblini individual qiyofasini boyitish uchun foydalanish;

-uchastkaning individualligi va markazning ifodali qiyofasini ajratish uchun boshqa obyektlarga nisbatan balandroq me'moriy inshootlarni teparoq uchastkalarda, bino rejasida uzun obyektlarni pastroq joylarda joylashtirish lozim.

Posyolka va yon-atrofdagi landshaft o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlash va hajmiy-fazoviy kompozitsiya ifodaliligini kuchaytirish maqsadida jamoat markazi, bosh ko'cha va asosiy me'moriy ansamblarni perspektivada tog' cho'qqilariga yo'naltirish kerak.

Vohalardagi jamoat markazlarining me'moriy-rejali tuzilmalarini shakllantirishda asosiy e'tibor tarkibida landshaftning manzarali elementlari bo'lgan va hududni shamollatish imkoniyatini yaratadigan ochiq rejali tuzilma tashkil qilishga qaratiladi (5.3.2-rasm). Tog' oldi vohalarda esa tuzilma tog' soyining bo'yida terrasa shaklida tashkil qilinishi mumkin. Bunda har bir terrasada zonalar guruhi yoki markazning alohida zonasini joylashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Vohalardagi jamoat markazlari hajmiy rejali tuzilmalarini shakllantirishning asosiy kompozitsion usullari, bu:

-binolari alohida (yoki birlashtirigan) holda qurilgan ochiq maydon ko'rinishidagi uchastka (5.3.3-rasm);

-o'zaro kirishib ketadigan hajmlar (5.3.4-rasm);

-chiziqli fazoviy hajm (5.3.5-rasm); Cho'l va sahro zonalaridagi jamoat markazlarini joyashtirishga bo'lgan talablar:

-tabiiy sifatlarning maksimal qo'llanishi, mikroiklim sharoitlarini yaratish uchun rejali usullardan keng foydalanishni ta'minlash; Bu talablarni bajarish uchun quyidagilarni bajarish tavsiya etiladi:

-Markaz holatini belgilashda mikrorelyefni baholash, teparoqda joylashgan va sizot suvlari sathi pastroq bo'lgan qulay uchastka tanlash, markaz mikrorelyefini vertikal rejalashtirish metodlari bilan kuchaytirish;

-Posyolka doirasida kanal yoki yirik ariqlar bo'lsa, markazni ularga yaqin joyga joylashtirish, texnik imkoniyatlar mavjud bo'lganida esa – bu suv manbalarini rejali kompozitsiya tarkibiga kiritish.

Uchastkaning tabiiy sifatлари neytral bo'lsa, jamoat markazi uchun joy uning tarkibidagi binolarning funksional vazifalaridan kelib chiqib tanlanadi (binolar uchun yer maydonlari ularni joylashuvi va xizmat ko'rsatishning optimal radiuslari, obyektlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ular faoliyat ko'rsatishi uchun eng maqbul sharoitlarni hisobga olgan holda). Bunday sharoitlarda posyolkaning rejali tashkil etilishi biron-bir jihat bo'yicha murakkablashmaydi. Jamoat binolari joylashgan uchastkadagi mikroiqlim barqarorligini ta'minlash uchun ularni birlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi, markazni esa park zonasida yoki daraxtzorlar bilan birlashtirilgan holda joylashtirish lozim. Markaz uchun joyni, kuchli shamol va qum bo'ronlaridan himoya qilish maqsadida, imoratlar qurilgan hududning ichkari qismidan tanlash kerak.

Sahro va cho'l zonalarda jamoat markazlarini me'moriy-rejali tuzilmasini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari – tuzilma yopiq (yarim yopiq) shaklda bo'lishi, quyosh radiatsiyasi ta'siri maksimal bo'lgan hajmlarning imkon qadar qisqartirilishi, muhitni qumli bo'ron va changli shamollardan himoya qilinishi (5.3.6-rasm).

Bu mintaqadagi jamoat markazlari fazoviy hajmlarini tashkil qilishdagi asosiy kompozitsion usullar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- yopiq (yarim yopiq) fazoviy hajm (5.3.7-rasm);
- birlashtirilgan binoning yagona yopilgan fazoviy hajmi (5.3.8-rasm);
- o'zaro kirishib ketgan fazoviy hajmlar (tuzilma posyolka markazida, yon-atrofdagi imoratlar bilan himoyalangan tarzda joylashtirilgan bo'lsa).

Taqdim etilgan kompozitsion usullar asosida jamoat markazlari tuzilmalarini shakllantirish bo'yicha juda ko'p variantlar ishlab chiqilishi mumkin. Ular oddiy va rivojlangan bo'lishi mumkin. Oddiy markaz ikki tuzilmaviy elementdan iborat:

- bitta maydon va unga olib kiradigan bosh ko'cha;
- bosh ko'cha yoki bulvar.

Tarkibida bosh ko'cha, bulvarlar yoki piyoda yo'laklari, xiyobon yoki parklar bilan o'zaro bog'langan ikkita yoki undan ko'p maydon bo'lgan jamoat markazlari rivojlangan hisoblanadi. Bunday markazda bosh elementning (maydon, bosh ko'chaning) markaziy ansamblidagi ahamiyati katta. Boshqa tuzilmaviy elementlarning me'moriy-rejali tashkil etilishi bosh elementni to'ldirish, uning yagona rejali tuzilmadagi o'rni va ahamiyatiga urg'u berish vazifasidan kelib chiqadi.

Binolar qurilishidagi xususiyatlarga bog'liq ravishda jamoat markazlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- yakka holdagi binolardan iborat;
- blokirovkalanagan;
- birlashtirilgan.

Qishloqda xo'jalik yuritishning yangi shakllariga o'tilishi birinchi navbatda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning yangi, istiqbolli normalarini rivojlanishiga bog'liq bir qator masalalar hal qilinishini talab qiladi. Bugungi kunda ijaraga asoslangan pudrat, ayniqsa uning jamoaviy, oilaviy, yakka tartibdagi, fermer va dehqon xo'jaliklari kabi shakllari dolzarb hisoblanadi. Qishloqda xo'jalik yuritish bo'yicha iqtisodiy metodlarning yangi shakllari o'zaro birlashib, turli ko'rinishlarni hosil qiladilar, turar-joy, ishlab chiqarish, jamoat binolari funksiyalarining integratsiyasi yanada jadalroq kechishiga ko'maklashadi. Aholisi 100-300 kishidan iborat chekka qishloqlarda (dehqon, fermer xo'jaliklarining istiqomat-ishlab chiqarish markazlarida) tarkibida boshlang'ich maktab, oilaviy bolalar bog'chasi bo'lgan turar-joy binolarini (o'qituvchi uyi), tibbiyot punkti va dorixonasi bo'lgan turar-joy binolarini (shifokor uyi), shuningdek novvoyxona, choyxona, do'kon bo'lgan turar-joy binolarini qurish maqsadga muvofiqdir.

Xo'jalik yuritishning yangi shakllarini kelgusidagi rivojlanishi qishloq hovlilarida qo'shimcha yordamchi imorat yoki qurilmalar, ustaxonalar va omborlar qurilishini taqozo qiladi. Shu bilan birga, ishchi xonalarning qulaylik darajasi asosiy parametrlari bo'yicha turar-joy xonalaridagi qulayliklarga yaqinlashishi zarur. Ana shu talablar qishloq turar-joy va jamoat binolarining yangi xo'jalik tuzilmalari va kichik qishloqlar ehtiyojlariga javob beradigan yangi loyihalarini ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi. «O'zqishloq-qurilish-

loyiha» instituti tomonidan aholi soni turlicha bo'lgan qishloq aholi punktlari uchun zarur loyihalarning ko'plab variantlari ishlab chiqildi. Bu loyihalarning ayrimlari 5.3.9-5.3.15-rasmlarda keltirilgan.

Kichik aholi punkti (dehqon, fermer xo'jaligining istiqomat-ishlab chiqarish hududi) jamoat markazining rejali-fazoviy modeli 5.3.16-rasmda ko'rsatilgan.

Madaniy-ijtimoiy binolarni loyihalashda xalq me'morchiligi an'analaridan imkon qadar ijodiy ravishda foydalanish zarur. Binolarni qubballi bog'lanishlar bilan birlashtirish o'zbek me'morlari tomonidan ko'p ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi. Bunda bosh binoning o'qi ansamblning kompozitsion o'qiga nisbatan perpendikular joylashtirilgan, shu sababdan bosh bino inshoot ichiga kirilgani sari asta-sekin yoki to'satdan namoyon bo'lgan. Bosh binoning to'satdan va kutilmaganda paydo bo'lishi badiiy taassurotni kuchaytirishga yordam bergan. Fazoviy hajmni tashkil etishda maydonlar va binolar o'rtasidagi o'zaro optimal nisbatlarni belgilash muhim ahamiyatga ega. Shaharsozlik nazariyachilari qadimgi davrlardan beri maydonlar va inshootlar mutanosibligini, qurilmalar balandligi va maydonlar o'lchamlari o'rtasidagi o'zaro nisbatlarni o'rganib kelganlar. Garchi, amaliyotda 3:5, 4:5, 6:7, 5:8 nisbatlarga ega maydonlar ham ko'p uchrasada (L.Tonev tadqiqotlari bo'yicha), Vitruviy, Palladio kabi me'morlar to'g'ri to'rt burchak shaklidagi maydonlar uchun uzunlik va kenglikning 2:3 dan 3:4 gacha bo'lgan nisbatlarini eng maqbul deb hisoblaganlar. Alberti o'zaro nisbatning 1:2 variantini taklif qilgan, cho'zilgan maydonlar uchun 1:3, 1:4, 1:5 kabi nisbatlarni qo'llash mumkin.

Rejali tuzilmasi ochiq bo'lgan maydonlar uchun 1:6, 1:7 nisbatlardan foydalanish mumkin.

Bir-ikki-uch qavatli imoratlar uchun 1:6, 1:7 va 1:8 nisbatlar eng optimal hisoblanadi.

Jamoat markazlarini shakllantirish bo'yicha yuqorida ko'rsatilgan metodlar jamiyatning yangi ijtimoiy buyurtmasini bajarish jarayonida ushbu markazlarning funksional vazifalari kelgusida yanada sifatli bajarilishiga ko'maklashadi.



5.3.1-rasm. Qishloq posyolkasi jamoat markazi hududini funksional zonalashtirilishining sxemasi (СННЭП ГРАЖДАНСЕЛСТРОЙ).

1-posyolka kengashi; 2-xo'jalik boshqaruvi; 3-aloqa; 4-avto-turargoh; 5-savdo; 6-umumiy ovqatlanish; 7-madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish; 8-kommunal xizmatlar; 9-ta'lim muassasalari; 10-sport 11-madaniyat; 12-muloqot; 13-dam olish; 14-memorial inshootlar.



5.3.2-rasm. Jamoat markazini ochiq rejali tuzilmasining rejali-fazoviy modeli



5.3.3-rasm. Perimetr bo'yicha alohida binolar qurilgan maydon shaklidagi jamoat markazi. Talaba Shomirzayev B., rahbar. assistent Urunova N. SamDAQI. 1-savdo markazi; 2-ma'muriy markaz; 3 – madaniy-ma'rifiy markaz.



5.3.4-rasm. Samarqand viloyatidagi «Sartay» posyolkasining jamoat markazi (oʻzaro kirishib ketuvchi hajmlar shaklidagi). Talaba Xudoyqulov A., Rah. dos. Kim V.YE. SamDAQI: a) panorama; b) bosh rejafragmenti.

1-klub; 2-ma'muriy markaz sentr; 3-baxt uyi; 4-maishiy xizmat ko'rsatish kombinati; 5-savdo markazi; 6-oshxona.



5.3.5-rasm. Qishloq posyolkasining jamoat markazi (chiziqli hajm shaklidagi)

Talaba Mingliyev O., rah. dotsent Ochilov Sh.D., SamDAQI: a) reja; b) umumiy ko'rinishi.




5.3.6-rasm. Posyolka jamoat markazi yopiq rejali tuzilmalisining rejali-hajmiy modeli



5.3.7-rasm. Samarqand viloyati Urgut tumanidagi agrosanoat posyolkasining jamoat markazi. Talaba Maxmadqulov Sh., rah. katta o'qituvchi. Karimov S.R. SamDAQI:


a) jamoat markazining panoramasi; b) bosh reja fragmenti.
1-klub; 2-ma'muriy blok; 3-sportzal; 4-savdo markazi;
5-mehmonxona; 6-maishiy xizmat ko'rsatish kombinati;
7-yozgi kinoteatr.



5.3.8-rasm. O'zbekistonning cho'l hududlari uchun qishloq posyolkasi jamoat markazining birlashtirilgan binosi. Talaba Xudoyqulova Fotima. Rah. katta o'qituvchi Yo'ldosheva M.K. SamDAQL.

Birlashtirilgan binoning yopiq rejali tuzilmasi kompleks markazidagi ochiq maydon (vestibul) atrofida jamoat markazi elementlari jamlanishini ko'zda tutadi. Butun tuzilma 2 yarusli qilib bajarilgan.

Uy-joy va dorixona binosi




5.3.9-rasm. Dorixona bilan birlashtirilgan turar-joy binosi.
«O'zqishloqqurilishloyiha» instituti


Ikki qavatli turar-joy va maishiy xizmat ko'rsatish binosi



1 - Qavat




2 - Qavat



5.3.10-rasm. Maishiy xizmat ko'rsatish yo'nalishlari bilan birlashtirilgan turar-joy binosi. «O'zqishloqqurilishloyiha» instituti

Qishloq qurilish uchun 50 o'rinli dehqon bozori




**5.3.11-rasm. 50 o'rinli dehqon bozori.
«O'zqishloq qurilish loyiha» instituti**

Mahalla fuqarolar markazi




Tarh



**5.3.12-rasm. Mahalla markazi.
«O'zqishloqqurilishloyiha» instituti**

**Qishloq qurilishi uchun madaniyat uyi, 200 o'rinli kutubxona
va bolalar ijodiy to'garak onalari**



**5.3.13-rasm. 200 jildli kutubxonasi va ijodiy to'garaklari
bo'lgan madaniyat uyi.**

«O'zqishloq qurilish bloyiha» instituti

**Qishloq qurilishi uchun 16 ta qishki va 40 ta yozgi
o'rinlarga mo'ljallangan choyxona**




**5.3.14-rasm. 16 ta qishki va 40 ta yozgi o'rinli choyxona
«O'zqishloqqurilishloyiba» instituti**


Ikki qavatli turar-joy binosi va aralash savdo do'koni




I-QAVAT REJASI



2-QAVAT REJASI



5.3.15.-rasm. Savdo do'koni bilan birlashtirilgan turar-joy binosi
«O'zqishloqqurilishbloyiha» instituti



5.3.16-rasm. Qishloq aholi punkti jamoat markazi - dehqon-fermer xo'jaliklarining istiqomat-ishlab chiqarish markazining rejali-fazoviy modeli. Magistrant Roziqov A. Koordinator: professor X.K.Tursunov (TAQI). Rahbar: dos. Sh.D.Ochilov, Maslahatchi: dotsent M.U.Umarov (TAQI).

Markaz tarkibida – qishloq fuqarolar yig'ini mahalla boshqaruvi; aralash mollar do'koni; choyxona; agrofirma ofisi-axborot markazi; machit.

5.4. Qishloq aholi punktlari tuzilmasidagi ishlab chiqarish obyektlari

Qishloq aholi punktlarining takribiy qismi hisoblangan ishlab chiqarish zonalar (shuningdek, ularning tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish komplekslari) o'zlarining joylashuv tizimidagi o'rinlari va rollariga bog'liq ravishda muayyan funksiyalarni bajaradilar.

Bajariladigan funksiyalariga qarab ular quyidagilarga bo'linadilar:
-fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish (ishlab chiqarish-istiqlomat) markazlari;

-fermer uyushmalari va agrofimalarning ishlab chiqarish (ishlab chiqarish-istiqlomat) markazlari;

-qishloq fuqarolar yig'ini hududidagi qishloq aholi punktlarining ishlab chiqarish zonalari;

-tuman ishlab chiqarish komplekslari.

Qishloq aholi punktlaridagi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish zonalarining o'ziga xos xususiyati sifatida ularning xomashyo zonalari bilan uzviy bog'liqliklarini e'tirof etish mumkin. Qayta ishlash korxonalarining quvvati va ularning texnologik turi qishloq xo'jalik ekinlarining turi va ular yetishtiriladigan zonaga, hosildorligi, transportda tashish masofalariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Demak, qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish xarakteristikalarini va optimal o'lchamlari ularning xomashyo zonalari bilan ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikka ega. Optimal o'lchamlarni xo'jalik tuzilmasi, ekinzor maydonlari va ekinlar turi, hududlar ixchamligi darajasi, suvdan foydalanish yagonaligi, xo'jaliklar ixtisoslashuvi, ishlab chiqarish hajmlari, joylashuvi va transport aloqalariga bog'liq ravishda qabul qilish zarur.

Xo'jalikning ixtisoslashuviga qarab optimal o'lchamlarni 32-jadvalga muvofiq tanlash tavsiya etiladi.

Qishloq xo'jalik ekinlarning tarkibi va ular egallagan maydonlar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlarga asoslanib, shuningdek tumandagi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning iqtisodiy yo'nalishi va bozor ehtiyojlariga muvofiq ushbu korxona xo'jalik faoliyatining asosiy yo'nalishi belgilanadi.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish asosiy tarmoq va texnologik jihatdan unga mos bo'lgan yordamchi tarmoqlardan tashkil topadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishdagi tovar tarmoqlarning O'zbekiston uchun eng maqbul mujassamliliklari 33-jadvalda keltirilgan.

32-jadval

Xo'jaliklar	O'lchov birligi	Foydalanishdagi yerlar maydoni	
		Jamoaviy	Fermer yoki ijara pudrati korxonasi
1. Paxtachilik (ekinlar tuzilmasi) 72-73% paxta 15-16% beda 8-9% makkajo'xori 3% ildizmevali, poliz ekinlari	Ming gektar	1,5-2,5	120-150
2. Sholichilik	Ming gektar	1,5-2,0	150-200
3. G'allachilik	Ming gektar	6,0-8,0	1000-2000
4. Bog'dorchilik- uzumzorlar (bo'z tuproqli yerlarda) Ixtisoslashgan korxonalar Bog'dorchilik Uzumchilik Bog'dorchilik-uzumchilik	Ming gektar Ming gektar	1,6-1,9 2,4-2,6	100-120 ga 160-200 ga
Ixtisoslashgan korxonalar Bog'dorchilik Uzumchilik Bog'dorchilik-uzumchilik	ga ga. ga	-	160 80 120 (70 – bog'dorchilik, 50 - uzumchilik)
5. Sabzavot-sutchilik	Ming gektar	1,0-1,5	1. ga
6. Sabzavotchilik	Ming gektar	1,0-1,5	1.
7. Qorako'lchilik	Ming bosh	40-50	16-20
8. Parrandachilik fermalari	Ming bosh	5,0	1,0-2,0-4,0

Xo'jaliklar	Asosiy tarmoqlar	Qo'shimcha tarmoqlar
1. Paxtachilik	Paxtachilik	Sut chorvachiligi, ipakchilik
2. Sholikorlik	Sholikorlik	Yirik qoramol, parrandachilik (o'rdak), baliqchilik, ko'p yillik o'tlar urug'chiligi, ipakchilik, cho'chqachilik (sholi zavodlari mavjud bo'lgan xo'jaliklarda)
3. Bog'dorchilik-uzumchilik	Bog'dorchilik, uzumchilik	Sut yo'nalishidagi chorvachilik, ipakchilik
4. Sabzavot-sut	Sabzavotchilik, polizchilik, kartoshka yetishtirish, sutl yo'nalishidagi chorvachilik	
5. G'allachilik	G'allachilik	Cho'chqachilik yoki parradachilik, ko'p yillik o'tlar urug'chiligi, qo'y yoki yirik qoramol boqish
6. Qorako'lchilik	Qorako'lchilik	Yem-xashak tayyorlash

Qishloq aholi punktlaridagi ishlab chiqarish zonalar tuzilmasi ushbu mujassamliklarni hisobga olgan holda shakllanadi.

Ishlab chiqarish zonalarining tarkibi mahalliy sharoitlar, xo'jaliklar rivojlanishining iqtisodiy bazasi, tuman tizimidagi ishlab chiqarish bo'yicha xizmat ko'rsatish, xo'jalik (tuman)ning mahsulot ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyoji, shahardagi sanoat korxonalari filialarining mavjudligi kabi omillarga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin.

Yirik aholi punktlaridagi ishlab chiqarish zonasi o'z tuzilmasiga ko'ra ko'p funksionaldir. Uning tarkibiga asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar guruhi kiradi, bu, o'z navbatida, xo'jalik ichida mahsulot ishlab chiqarishni, xo'jaliklararo aloqalarni hisobga olgan holda, kompleks tarzda ta'minlash imkoniyatini beradi. Bunday ishlab chiqarish zonalar, an'anaviy zonalardan farqli o'laroq,

agrosanoat turidagi ishlab chiqarish zonalarini deb ataladi. Ushbu ishlab chiqarish zonasi o'z hududida ishlab chiqarishning quyidagi guruhlarini birlashtiradi: qishloq xo'jalik mahsulotlarini asosiy ishlab chiqarishi, xizmat ko'rsatuvchi va yordamchi ishlab chiqarishlar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sanoat miqyosida qayta ishlash (34-jadval).

O'zbekistondagi qishloq aholi punktlaridagi ishlab chiqarish zonalarining taxminiy tuzilmalari

34-jadval

Xo'jalik	Asosiy ishlab chiqarish (yopiq turdagi)	Xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish	Yordamchi ishlab chiqarish	Mahsulotni qayta ishlash
1	2	3	4	5
Paxta-chilik	Paxta qabul qilish punkti, Sut-tovar fermasi (STF), ipak qurti boqiladigan xo'jalik	Meva-sabzavot ombori, ombor uchastkasi, q/x texnikasini ta'mirlash va saqlash uchastkasi, YOMM	Qurilish uchastkasi, qozonxona, suv chiqarish va tozalash inshootlari, ma'muriy-maishiy blok	Meva-sabzavot konserva zavodi, sutni qayta ishlash korxonasi
Sholi-chilik	Yirik qoramol fermasi, ipak qurti boqiladigan xo'jalik, cho'chqachilik fermasi	Sholi ombori, ombor uchastkasi, q/x texnikasini ta'mirlash va saqlash uchastkasi, YOMM	Qurilish uchastkasi, muhandislik inshootlari, ma'muriy-maishiy blok, seleksiya stansiyasi	Meva-sabzavot konserva zavodi

Bog'dor chilik- uzum- chilik	STF, ipak qurti boqiladigan xo'jalik	Meva-sabzavot ombori, ombor uchastkasi, q/x texnikasini ta'mirlash va saqlash uchastkasi, YOMM	Qurilish uchastkasi, muhandislik inshootlari, ma'muriy- maishiy blok, seleksiya stansiyasi	Meva- sabzavot konserva zavodi, sutni qayta ishlash korxonasi
Sabza- vot- chilik- STF Sabza- vot-sut- chilik MTF		Sabzavot ombori, qovun ombori, kartoshka ombori, urug', meva, sabzavot saralash korxonasi, q/x texnikasini ta'mirlash va saqlash uchastkasi, ombor uchastkasi	Qurilish uchastkasi, muhandislik inshootlari, ma'muriy- maishiy blok, seleksiya stansiyasi	Meva- sabzavot konserva zavodi, Sabzavot quritish korxonasi, kraxmal- shinni zavodi, sutni qayta ishlash korxonasi
Sut- chilik	Sut ishlab chiqarish kompleksi	Meva-sabzavot ombori, ombor uchastkasi, q/x texnikasini ta'mirlash va saqlash uchastkasi, YOMM	Qurilish uchastkasi, muhandislik inshootlari, ma'muriy- maishiy blok, seleksiya stansiyasi	Yem-xashak tayyorlash korxonasi, sutni qayta ishlash korxonasi
Yirik qoramol fermasi	Chorvachilik kompleksi (yirik	Meva-sabzavot ombori, ombor uchastkasi, q/x	Qurilish uchastkasi, muhandislik	Yem-xashak tayyorlash korxonasi

(bo'rdo qi- chilik)	qoramolni bo'rdoqiga boqish)	texnikasini ta'mirlash va saqlash uchastkasi, YOMM	inshootlari, ma'muriy- maishiy blok, seleksiya stansiyasi	
G'alla chilik	Cho'chqachi lik fermasi, qo'ychilik fermasi	Sabzavot ombori, don ombori, tozalash punkti, ombor uchastkasi, q/x texnikasini ta'mirlash va saqlash uchastkasi, YOMM	Qurilish uchastkasi, muhandislik inshootlari, ma'muriy- maishiy blok, seleksiya stansiyasi	Donni qayta ishlash korxonasi
Qorako' l-chilik	Qorako'lchil ik fermasi (kompleksi)	Ombor uchastkasi, q/x texnikasini ta'mirlash va saqlash uchastkasi, YOMM	Qurilish uchastkasi, muhandislik inshootlari, ma'muriy- maishiy blok, seleksiya stansiyasi	Yem-xashak tayyorlash korxonasi, qorako'l terisiga ishlov berish korxonasi

Barcha obyektlarni hududlarning funksional zonalashtirilishi bo'yicha joylashtirish qishloq xo'jalik ishlab chiqarish zonalarining rejali tuzilmalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kompleksining asosiy zonolari quyidagilardir: asosiy ishlab chiqarish (AICH), ma'muriy-boshqaruv va xizmat ko'rsatish (MBX), qo'shimcha-yordamchi ishlab chiqarish (QYOICH), chiqindi saqlash va qayta ishlash (CHSQI), (5.4.1-rasm). Bu zonalar kompleksning rejali fazoviy tashkil etishning asosini tashkil etadilar. Kompozitsion va funksional jihatdan asosiy ishlab chiqarish zonasi ustuvor hisoblanadi. Uning tuzilmasi

masshtabi bo'yicha eng yirik bino va inshootlar bilan ajralib turadi va yuklamalar markazida joylashadi.

V.V.Musatov (MarXI) ma'lumotlariga ko'ra, ishlab chiqarish zonalarining amaliyotda ishlab chiqilgan rejali tuzilmalarini shakllantirish usullari bu: lentali bir qatorli, chuqur ko'p qatorli, lentali-chuqur (ikki qatorli), ixcham-uyali. Ular shakllanishining prinsipial modellari 5.4.1-rasmda keltirilgan.

Ularning birinchisi istiqomat zonasiga parallel bo'ladi yoki uning frontini davom ettiradi yoki istiqomat zonasiga burchak ostida joylashtiriladi.

Ikkinchisi zararlilik klassi turlicha korxonalarining ko'p tarmoqli to'plami yig'ilganida va zararlilikning I va II klassiga ega obyektlardan yetarlicha sanitariya-himoya oraliqlarni (ular ikkinchi yoki uchinchi qatorda joylashadi) yaratish zarurati mavjud bo'lganida qo'llaniladi.

Lentali-chuqur usul oraliq hisoblanib, odatda, istiqomat zonasi frontiga parallel qilib qo'llaniladi; lentali bir qatorli usulga o'xshash usullar qo'llanilishi ham ko'zda tutilishi mumkin. Ikkinchi qator zararlilik darajasi yuqori yoki transport aylanmasi ko'proq bo'lgan korxonalar uchun ajratiladi.

Ixcham-uyali usul zararsiz va yuk-transport ehtiyojlari minimal korxona va obyektlar to'plami bo'lganida qo'llaniladi. Ular istiqomat zonasida, undan uzoqda, sanitariya-himoya zonasida, jamoat, ilmiy va o'quv komplekslar bilan va, nihoyat, istiqomat zonasi va xizmat ko'rsatish obyektlari bilan yagona kompozitsiyada joylashishi mumkin. Amaliyotda bu usullar aralashib ketadi, turli mujassamliklarda qo'llaniladi va aniq modifikatsiyalarning ko'plab variantlarini hosil qiladilar.

Rejali-fazoviy tuzilmasining jihatlarini bo'yicha ishlab chiqarish zonasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

-monoblok, barcha ishlab chiqarish va bevosita u bilan bog'liq yordamchi jarayonlar bitta yirik o'lchamli hajmda jamlanganida ishlab chiqarish zonasi uchun shunday variant qo'llaniladi (5.4.2-rasm);

-blokirovkalanagan bir nechta ishlab chiqarish korpuslari (5.4.3-rasm);

-pavilyon ko'rinishidagi tuzilma, bunda enining o'lchamlari kichik bo'lgan alohida ishlab chiqarish binolari ana shunday usulda joylashtiriladilar (5.4.4-rasm);

-ko'p qavatli bino (5.4.5-rasm).

Har bir ishlab chiqarish zonasi ixtisoslashuvining xarakteri funksional-rejali va kompozitsion yechimlaridagi o'ziga xos jihatlarni belgilab beradi. Chorvachilik komplekslari uchun og'ilxonalarning yoyilgan hajmlari va yem-xashak sexlarining vertikal hajmlari, ma'muriy-maishiy korpusning vertikal yoki gorizontal hajmlari xos.

Ekin mahsulotlarini qayta ishlash va saqlashga ixtisoslashgan korxonalari gorizontal bo'yicha yoyilgan yoki vertikal hajmda jamlangan bo'lishlari mumkin.

O'zaro bog'liq korxonalar kompleksi ko'rinishidagi ishlab chiqarish zonasining shakllanishi rejali-fazoviy va kompozitsion yechimlarga alohida talablar qo'yadi, chunki bu yerdagi alohida korxona uchun qabul qilingan yechim umumiy me'moriy g'oyaga mos kelishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, kompleks tarkibidagi barcha korxonalar modulini bir masshtabga keltirishni talab qiladi. Bugungi kunda shunday kompleks yaratish mumkin bo'lgan korxonalarning namunaviy loyihalari o'z arxitekturalari (proporsiyalari, modullari, bo'linishlari, kompozitsiyalari va h.k.) bo'yicha turlicha ko'rinishga egalar. Shuning uchun ham, alohida korxonalar loyihasini ishlab chiqishda ularni qishloq xo'jalik tarmoqlari bilan bog'langan korxonalar bilan birlashtirishning mumkin bo'lgan variantlarini hisobga olish zarur. Bunda har bir korxona ishlab chiqarish ansamblidagi umumiy tuzilmaning elementi sifatida ko'rilishi kerak. Shu bilan birga, sanoat komplekslari uchun maksimal moslashuvchanlikni ta'minlovchi yangi rejali-fazoviy yechimlarni topish alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish komplekslarini shakllantirishning yo'llaridan biri sifatida korxonalarning hajmiy-fazoviy va texnologik tuzilmalarini modulli shakllantirish prinsipini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu prinsipga ko'ra unifikatsiyalashtirilgan ishlab chiqarish korpus-modullar asos qilib olinadi. Har bir modul tugallangan yoki avtonom yacheyka hisoblanib, uni ko'p marta takrorlash vositasida sanoat kompleksining me'moriy organizmi yaratiladi. Bu yechimni MarXI tomonidan taklif qilingan loyiha misolida ko'rish mumkin (5.4.6-rasm).

Ushbu prinsipni SamDAQI ning ikkita o'quv loyihasida ham ko'rish mumkin. 5.4.7-rasmda qishloq xo'jalik texnikasini ta'mirlash va saqlash bazasining loyihasi keltirilgan. Binolar hajmlari 12x12 m

o'Ichamga ega va armotsement qobiqlar bilan qoplangan modulli bloklar ko'rinishida bajarilgan (t.f.d. professor S.R.Razzoqov texnologiyasi, SamDAQI). 5.4.8-rasmda keltirilgan boshqa misolda xuddi shunday o'Ichamlarga ega modulli blok molxona tuzilmasini yaratishda qo'llangan. Bu misollarda modulli bloklar turli mujassamlik va turli miqdorlarda ko'rsatilgan. Uchinchi misolda meva-sabzavot zavodining tayyor mahsulot ombori keltirilgan (5.4.9-rasm).

Dehqon-fermer xo'jaliklarining istiqomat-ishlab chiqarish markazlari sifatida ko'rilayotgan aholi punktlarining sanoat-ishlab zonalari tarkibida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha turli korxonalar bo'lishi mumkin: paxta tozalash, yog' ishlab chiqarish, sut-konserva, moy-pishloq, mevali-konserva va vinochilik sexlari, chorvachilik va parrandachilik kombinatlari va h.k. Undan tashqari ularning hududida mahalliy xomashyo bazasiga asoslangan qurilish industriyasi korxonalari, ta'mirlash ustaxonalari, avtobazalar va boshqa xo'jaliklararo ishlab chiqarish korxonalari joylashtirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish obyektlarining yaqin joylashuvi bu kichik aholi punktini yagona istiqomat-ishlab chiqarish kompleksi sifatida ko'rish imkoniyatini beradi.

Xo'jalik yuritishning yangi shakllarini kelgusida rivojlanishi turar-joy va ishlab chiqarish funksiyalarining qisman integratsiyasiga olib keladi: qishloq uylarining hovlisida qo'shimcha yordamchi xonalar yoki qurilmalar, ustaxonalar va omborlar tashkil qilinadi, bunda ishchi xonalarning qulaylik darajasi asosiy parametrlar bo'yicha turar-joy xonalarinikiga yaqin bo'lishi talab etiladi.

Xo'jalik yuritishning yangi tizimlari shakllanayotgan sharoitlarida turar-joy va ishlab chiqarish binolarining o'zaro bog'langan infratuzilmalarini yangi turlari paydo bo'lmoqda:

- turar-joy binosi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish obyektlari bilan;
- turar-joy binosi agroservis yoki boshqa turdagi xizmat ko'rsatish obyektlari, ular tomorqa uchastkasida joylashtiriladi;

- alohida qishloq qo'rg'oni, unda turar-joy va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kompleksi ixcham joylashtiriladi;

- turar-joy zonasidan uzoq masofada joylashgan qishloq xo'jalik ishlab chiqarish obyekti, bunda uning yonida moslashuvchan rejali tuzilmaga va ishchilar yashashi uchun yetarlicha qulayliklarga ega muvaqqat turar-joy tashkil qilinishi talab qilinadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish komplekslarini shakllantirishning yo'llari biri sifatida korxonalarning hajmiy-fazoviy va texnologik tuzilmalarini modulli shakllantirish prinsipini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu prinsipga ko'ra unifikatsiyalashtirilgan ishlab chiqarish korpus-modullar asos qilib olinadi. Har bir modul tugallangan yoki avtonom yacheyka hisoblanib, uni ko'p marta takrorlash vositasida sanoat kompleksining me'moriy organizmi yaratiladi. Ushbu prinsipni amalga oshirish yo'llarini izlash barobarida bir qator ishlanmalarni taklif etish mumkin.

To'g'ri to'rtburchak va doira shaklidagi unifikatsiyalashgan korpus-modullar sifatida 6x6, 12x12, 24x24 m o'lchamlarga ega, shuningdek 24 m va 9 m radiusli modullar qabul qilindi (5.4.10-rasm, 5.4.11-rasm, 5.4.12-rasm, 5.4.13-rasm, 5.4.14-rasm).

Ushbu modullar bazasida meva-konserva mini-zavodining hajmli-rejali modeli ishlab chiqildi. Bunda 6x6 m o'lchamli modullar bir va ikki qatorli kompozitsiyalar ko'rinishida terib chiqildi (5.4.10-rasm). Bunday modullar yordamida turli kattalikdagi ishlab chiqarish korpuslarini tuzish mumkin. Ta'kidlash lozimki, bunda ishlab chiqarishning texnologik mazmuni turlicha bo'lishi mumkin: paxta tozalash, yog' ishlab chiqarish, sut-konserva, moy-pishloq, mevali-konserva va vinochilik sexlari, chorvachilik va parrandachilik kombinatlari va h.k. Undan tashqari ularning hududida mahalliy xomashyo bazasiga asoslangan qurilish industriyasi korxonalari, ta'mirlash ustaxonalari, avtobazalar va boshqa xo'jaliklararo ishlab chiqarish korxonalari joylashtirilishi mumkin.

Bugungi kunda qishloq xo'jalik ishlab chiqarish binolarining yangi ilg'or texnologiyalarga asoslangan yangi tiplari ishlab chiqarishda tatbiq qilinmoqda. Misol tariqasida sutni qayta ishlash va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mini-zavodni keltirish mumkin (5.4.16-rasm). Dehqon-fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish markazlari, uyushmalari, agrofirmalari shunga o'xshash mini-zavodlar bilan jihozlanishi mumkin.

Energiya tejaydigan texnologiyalarni hayotga tatbiq etilishi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish zonalarini rivojlanishi uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Misol tariqasida quyoshli elektrstansiya modelini (5.4.17-rasm) va biogaz stansiyasini (5.4.18-rasm) keltirish mumkin.

Ushbu yo'nalish bilan birga istiqbolli sanoat komplekslarining yangi rejali-fazoviy tuzilmalari bo'yicha izlanishlarda bajarilgan eksperimental ishlar tajribasidan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Bu yo'nalishda olib borilgan loyihalarda ilg'or texnologiyalar, konstruksiyalar va uskunalar qo'llanilishi nazarda tutilgan bo'lib, ularni shakllantirishdagi asosiy tendensiyalar konveyer liniyasi, ishlab chiqarish elementlarining texnologik va funksional bo'linishi, sanoat robotlari, avtomatlashtirish usullaridan keng foydalanishga qaratilgan.

Ishlab chiqarish komplekslarini shakllantirish bo'yicha sanab o'tilgan yo'nalishlar istiqbolli ishlab chiqarish zonalarining o'ziga xos xususiyatlarini belgilash imkoniyatini beradi. Mutaxassislarning fikricha, yaqin kelajakda eng oqilona tuzilma sifatida yopiq turdagi ishlab chiqarish zonasi – monoblok yoki yiriklashtirilgan bloklar guruhidan iborat xizmat ko'rsatish bloklari vositasida birlashtirilgan korxonalar to'plami qabul qilinadi.

V.V.Bloxin bildirgan fikrga ko'ra, mutlaq o'lchamlarning gorizontal bo'ylab keskin va doimo o'sib borishi sanoat me'morchiligidagi o'ziga xos jihatlardan biridir. Undan tashqari, katta o'lchamli oraliqlar va qismlarga bo'linmagan katta hajmlarning mavjudligi bilan shartlangan katta miqyoslardagi qurilish zarurati ham aynan sanoat korxonalarini loyihalashda katta ahamiyatga ega. Sanoat me'morchiligidagi yana bir o'ziga xos jihat mavjud bo'lib, u aksariyat hollarda vertikal bo'yicha katta o'lchamlarga ega muhandislik-texnik inshootlar va elementlarning keng qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Agrosanoat arxitekturasini rivojlanishining mavjud yo'nalishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish zonasini joylashtirish bo'yicha yaqin kelajakda tatbiq qilinishi mumkin usullarini prognozlash va ularga xos bo'lgan xususiyatlarini belgilash mumkin. Bu sohada amalga oshirilayotgan izlanishlar natijasi shuni ko'rsayaptiki, yaqin kelajakda ishlab chiqarish zonasi tuzilmasini tashkil qilish pavilyon usulidagi qurilish va monoblokli tizimni takomillashtirish hisobiga amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan zararli moddalarni neytrallashtirish masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagani sababli ishlab chiqarish zonasi aholi istiqomat qiladigan zonadan tegishli uzoqlikdagi masofalarda joylashtiriladi.

Keyinroq, ishlab chiqarishdagi zararli omillar ta'sirini kamaytirish bo'yicha takomillashgan texnologiyalar ishlab chiqilganidan so'ng, zararli darajasi yuqoriroq bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini aholi istiqomat qiluvchi zona va uning chegarasida joylashtirish mumkin bo'ladi. Bir zonada «mehnat-maishiy turmush-hordiq» kabi o'zaro kirishib ketuvchi kompleks tizimni yaratish asosiy kompozitsion va rejali-fazoviy masalalardan biri bo'lib qoladi. Bu tuzilmalarning kompozitsiyasiga bo'lgan talablar ishlab chiqarish zonasini istiqomat hududi tarkibida yoki uning chegarasida joylashtirishga qo'yilgan talablar kabi bo'ladi.



Yer osti hajmlaridan foydalanish qishloqdagi sanoat me'morchilining istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yer ostidagi sharoitlar ishlab chiqarish texnologiyasining harorat va namlikning barqaror rejimlari, shovqin va vibratsiyaning minimal darajalari kabi talablariga javob beradigan holatlarda ishlab chiqarishning muayyan turlarini yer ostiga joylashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qishloq joylarda sovutgichlar, meva va sabzavot omborlari, tayyor xomashyo omborlari, muhandislik-texnik xizmat ko'rsatish uchastkalarini, avtomashinalar uchun turargohlarni, maishiy xonalarni yer ostiga joylashtirish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekiston qishloq sanoat arxitekturasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: korxonalar ixtisoslashuvi, parametrlar unifikatsiyasi, istiqomat va ishlab chiqarish zonalarini yagona kompozitsion masshtabga keltirish, korxonalarni ixcham ishlab chiqarish (ishlab chiqarish-istiqomat) tuzilmalariga birlashtirish, ularning tuzilmalarini issiq iqlim sharoitlariga moslashtirish.

Ishlab chiqarish maydoni

Yuk

Zooveterinar oraliq'i



5.4.1-rasm. Qishloq ishlab chiqarish zonasini (agrosanoat uzelinii) zonalashtirishning prinsipial modeli (V.V.Musatov materiallari bo'yicha, MarXI)


A – qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalari (chorvachilik, parrandachilik, issiqxonalar va b.); B – qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash korxonalari; D – qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar; E – kommunal va omborxona obyektlari (alohida bo'lishlari mumkin); CHS – chiqindi saqlash va qayta

ishlash zonasi; QYOICH - qo'shimcha-yordamchi ishlab chiqarish zonasi; MBX - ma'muriy-boshqaruv va xizmat ko'rsatish zonasi.

Zonalash usullari: 1 – ko'p qatorli chuqur; 2 – lentali, bir qatorli; 3 – lentali-chuqur (ikki qatorli).



5.4.2-rasm. Ishlab chiqarish zonasining monoblok ko'rinishidagi rejali-fazoviy tuzilmasi





**Samarqand viloyati Nurota tumanidagi zoosanoat qorako'lchilik kombinati. Talaba Xamidjonov M., rah.dos.Ochilov SH.D.
SamDAQL. a) panorama; b) bino.**



5.4.3-rasm. Ishlab chiqarish zonasining blokirovkalangan bir nechta ishlab chiqarish korpuslari ko'rinishidagi rejali-fazoviy tuzilmasi

1200 bosh qoramol uchun chorvachilik kompleksi. Talaba Voroshilova N., rah.katta o'qituvchi. Yo'ldosheva M.K. a) kompleks bosh rejasi; b) panorama, SamDAQI.






5.4.4-rasm. Ishlab chiqarish zonasining pavilyon shaklidagi (alohida joylashtirilgan tor gabaritli ishlab chiqarish binolaridan iborat) rejali-fazoviy tuzilmasi


Buxoro viloyatidagi qo'ychilik ishlab chiqarish markazi. Talaba Toshev S., rah. dots. Ochilov Sh.D. SamDAQI

a) bosh reja fragmenti; b) qurilgan imoratlar panoramasi



5.4.5-rasm. Ishlab chiqarish zonasining ko'p qavatli bino ko'rinishidagi rejali-fazoviy tuzilmasi

Yirik qoramolni bo'rdoqiga boqish kompleksi. Selinograd qishloq xo'jalik instituti, Qozog'iston



5.4.6-rasm. Unifikatsiyalangan modulli bloklardan iborat ishlab chiqarish korpuslarini rejalashtirish variantlari (MarXI)




5.4.7-rasm. Qishloq xo'jalik texnikasini ta'mirlash va saqlash bazasining loyihasi. a) fasadlarning fragmenti; Talaba Galiullin F.rah.dots.Ochilov Sh.D., arx. Ibragimov A.A. SamDAQI; b) bazaning bosh rejasi




5.4.8-rasm. Yirik qoramol fermasining loyihasi. Talaba Xakimov S.rah.dors.Ochilov SH.D., arx.Ibragimov A.A. SamDAQI. a) fasadlarning fragmentlari; b) fermaning bosh rejasi




5.4.9-rasm. Meva-sabzavot zavodining tayyor mahsulot ombori. Maket Talaba S.Davlatov (SamDAQI). Armotsement qobiqlar texnologiyasining muallifi t.f.d. professor S.R.Razzoqov. Arxitektor A.A.Ibragimov




5.4.10-rasm. 6x6 m o'lchamli unifikatsiyalashgan korpus-modullardan iborat ishlab chiqarish korpusining modeli. Bir qatorli va ikki qatorli kompozitsiyalar




5.4.11,12-rasm. 12x12 m o'lchamli unifikatsiyalashgan korpus-modullardan iborat ishlab chiqarish korpusining modeli. Bir qatorli va ikki qatorli kompozitsiyalar.P



5.4.13-rasm. 12x12 m o'lchamli unifikatsiyalashgan korpus-modullardan iborat ishlab chiqarish korpusining modeli. Ikki qatorli va to'rt qatorli kompozitsiyalar



5.4.14-rasm. Diametri 24 m va 9 m bo'lgan doira shaklidagi unifikatsiyalashgan korpus-modullardan iborat ishlab chiqarish korpusining modeli. Markazga intiluvchi blokirovkalangan va markazga intilgan diskret kompozitsiyalar



5.4.15-rasm. 6x6 m o'lchamli unifikatsiyalashtgan ishlab chiqarish modullaridan bir qator va ikki qatorli kompozitsiyalar shaklida yig'ilgan meva-konserva mini-zavodining rejali-fazoviy modeli



Kichik zavod qaydnomasi

- 1 Sut qabul qilish qismi**
- 2 Sutni sovutish va pastrelizatsiya qilish qismi**
- 3 Sutni qadoqlash**
- 4 Laboratoriya**




Kichik zavod qaydnomasi

- | | |
|--|-----------------------------|
| 1 Sut qabul qilish qismi | 6 Saryog' chiqazish bo'limi |
| 2 Sutni sovutish va pastrelizatsiya qilish qismi | 7 Tvorog chiqazish bo'limi |
| 3 Sutni qadoqlash | 8 Laboratoriya |
| 4 Qatq chiqazish bo'limi | 9 Sovutish xonasi |
| 5 Qaymoq qadoqlash | 10 Yordamchxona |

5.4.16-rasm. Sutni qayta ishlash va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mini-zavod



5.4.17-rasm. Quyosh elektrostansiyasining modeli.



5.4.18-rasm. Biogazstansiya.

5.5. Hududni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish

Yashil o'simliklarning shaharsozlikdagi ahamiyati katta va ko'p qirralidir. Ular sanitariya-gigiyenik vaziyati yaxshilash xususiyatlariga ega bo'lganlari sababli atrof-muhitni shakllantirishda salmoqli rolni o'ynaydilar. O'simliklar shamol kuchini kamaytiradilar, issiqlik rejimini tartibga soladilar, havoni tozalaydilar va namlaydilar – bularning barchasi sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega omillardir.

Qishloq aholi punktlarining yashil o'simliklari

Qishloq aholi punktlaridagi daraxtzor va gulzorlarni, umuman, yashil o'simliklardan iborat zonalarini tashkil etishni loyihalashtirishda hududni rejali tashkil etilishi, ularni oqilona joylashtirilishi va tabiiy-iqlimiy sharoitlarni hisobga olish zarur.

Joylashuvning guruhli tizimlarida ko'kalamzorlarni loyihalashga nisbatan shaharsozlik nuqtai nazaridan yondoshuv prinsiplari ularning aholi punktlari guruhining rejali tizimidagi joylashuviga, shuningdek daraxtzorlar o'lchamlarining posyolka turi va uning joylashuv tizimidagi rolga bog'liq ravishda belgilanishiga asoslanadi.

Umumiy foydalanishdagi ko'kalamzorlarning normalari 35-jadvalga muvofiq qabul qilinadi:

Umumiy foydalanishdagi ko'kalamzorlar normasi

35-jadval

Aholi punktining turi	Umumiy foydalanishdagi ko'kalamzor normasi, m ² /kishi, aholi soni va ushbu posyolkaga intiluvchi aholi soni quyidagicha bo'lganida				
	500 gacha	501-1000	1001-2000	2001-5000	5000 va undan ko'p
Ho'jalikning yordamchi posyolkasi	10-12	8-10	6-8	4-6	-
Xo'jalikning markaziy qo'rg'oni	-	12-15	8-10	6-6	4-6
Qishloq aholi punktlari – joylashuv tizimidagi xizmat ko'rsatish markazlari	-	-	10-12	8-10	6-8

Eslatma:

1. Xizmat ko'rsatish markazlariga intiluvchi aholi sonini har bir aniq holat uchun mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda aniqlash zarur. Loyihalashtirilayotgan qishloq aholi punktinin hisoblangan aholi sonini aniqlash uchun uning aholisiga yaqin atrofdagi qishloq aholi punktlarining 10% ni qo'shish lozim.

2. Birinchi raqam – sahro zonalaridagi vohalar uchun; ikkinchisi – tekisliklar va tog' oldi vohalari uchun.

Parklarni joylashuvning (xo'jalik ichidagi, xo'jaliklararo va b.) lokal tizimlarida xizmat ko'rsatish markazlar vazifasini bajaruvchi qishloq aholi punktlarida loyihashlash zarur. Parkning turli zonalar tarkibi va o'lchamlari loyiha topshirig'i bilan belgilanadi. Aholi soni 2000 kishigacha bo'lgan yordamchi posyolkalarda rivojlangan parklar, bulvarlarni loyihalashdan voz kechish zarur. Hiyobonlar bu kabi posyolkalardagi ko'kalamzorlarning eng maqbul varianti hisoblanadi. Funktsional jihatdan maksimal yuklangan katta bo'lmagan maydonlarda (1 gektargacha) tashkil qilinadigan xiyobonlar klub, ma'muriy

bino, choyxona, do'kon va boshqa obyektlar qoshidagi uchastkada joylashtirilishi mumkin. Qishloq aholi punktlarini loyihalashda yashil o'simliklarning elementlar bo'yicha qayta taqsimlanishiga yo'l qo'yiladi. Daraxtzorlardan yanada oqilona foydalanish maqsadida ularni posyolka markazini shakllantiruvchi jamoat binolari yonida, turar-joy guruhlar va turar-joy tuzilmalarining markazlarida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Bulvarlar, odatda, asosiy piyoda harakatalanish bo'ylab yo'naltiriladi. Cho'l va qo'riq yerlar zonalarida loyihalashtirilayotgan va kuchli shamollar va changli-qumli bo'ronlar ta'siri ostida bo'ladigan qishloq aholi punktlarida shamolning ustuvor yo'nalishi tomonida eni 50 metrdan kam bo'lmagan daraxtzorlardan iborat himoya zonasi tashkil etilishi lozim. Agar bunday himoya zonasini yaratishning imkoniyati bo'lmasa, salbiy iqlimiy omillarini neytrallovchi binolar tuzilmasi va turlarini ishlab chiqish ko'zda tutilishi lozim. Aholi punktlarining bino va inshootlaridan, shuningdek muhandislik kommunikatsiyalari obyektlaridan daraxtlar va butalargacha bo'lgan masofalar 36-jadvalga muvofiq qabul qilinadi.

Aholi punktlari va inshootlari

36-jadval

Bino, obyekt, muhandislik kommunikatsiya inshooti	Bino, obyekt, inshootdan yashil o'simlik o'qigacha bo'lgan masofa, m	
	Daraxt	Buta
Bino va inshoot tashqi devori	5	1,5
Tramvay polotnosining chekkasi	5	3
Trotuar va bog' yo'lakchasining chekkasi	0,7	0,5
Ko'chaning qatnov qismi, yo'l chetining mutahkamlangan qismini yoki ariq chekkasi	2	1
Tramvay yoritish tarmog'ining machta va tayanchi, ko'priklar asosi va estakada	4	-
Tayanch devorining etagi yoki ichki qirasi	3	1
Yer osti tarmoqlari:		
Gaz quvuri, kanalizatsiya, issiqlik	1,5	-

tarmog'i (kanal, tonnel devori yoki kanalsiz usulda yotqizilganida tonnel qobig'i)		
Suv quvurlari, drenaj	2	-
Kuch kabeli va aloqa kabeli	2	0,7

Eslatma:

1. Keltirilgan normalar shoxlarining kengligi 5 metrgacha bo'lgan daraxtlarga taalluqli va diametri kattaroq bo'lgan daraxtlar uchun ko'paytirilishi mumkin.

2. Elektr tokini uzatish havo liniyalaridan daraxtlargacha masofa elektr qurilmalarni o'rnatish qoidalariga muvofiq belgilanadi.

3. Binolar yonida ekiladigan daraxtlar SHNK 2.08.01-05 «Turar joy uylari» va SHNK 2.08.02-07 «Jamoat binolari va inshootlari» ga muvofiq turar joy va jamoat imoratlarining quyosh tushishi va yoritilishiga to'sqinlik qilmasligi kerak.

SHNQ 2.07.01-03* «Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish» normativ hujjatning XI bo'limining 304-bandida keltirilgan tavsiyalarga muvofiq cho'l va yarim cho'l zonalarida joylashgan shahar va qishloq aholi punktlari atrofida shamol-changdan himoya qiluvchi daraxtzorlar barpo etish, eroziyaga uchrayotgan tepaliklar, jar va soyliklarni ko'kalamzorlashtirish choralarini ko'zda tutish lozim.

Park hududlarini hiyobonning asosiy kompozitsion elementlari hisoblangan kanallar, yirik ariqlar va sun'iy suv havzalari qirg'oqlarida loyihalashtirish lozim. Hiyobon hududini imkon qadar ixcham belgilash zarur. Daraxtzorlardan to'liqroq foydalanish maqsadida ularni jamoat va turar-joy binolariga yaqinlashtirib, bevosita turar-joy guruh-lari va komplekslariga kiritib, hiyobon va bulvarlar o'lchamlarini qisqartirgan holda posyolka rejasida qayta taqsimlash kerak.

Posyolka hududini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va sug'orishni tashkil etishda yechimlarni tanlashga kompleks tarzda yondoshib, ham vohalarda, ham cho'l va sahrolarda qulay mikroiklimiy sharoitlar yaratilishini ta'minlash lozim.

Vohalarda yashil daraxtzorlar va suv yuzalari mujassamligining turli ko'rinishlaridan foydalanish mumkin.

Cho'l va sahro zonalarida bu kabi imkoniyatlar juda cheklangan, chunki maxsus agrotexnikadan foydalanishni talab qiluvchi suv

tanqisligi, noqulay tuproq sharoitlari hududni ko'kalamzorlashtirishni qiyinlashtiradi va serxarajat bo'lishiga, daraxt va butalar navlari assortimentini cheklaydi. 1 kishiga to'g'ri keladigan umumiy foydalanishdagi daraxt yoki butaning miqdori minimal bo'lishi va o'simlik kultivatsiyasining real imkoniyatlari bilan belgilanishi lozim.

Vohalardagi hududlarni ko'kalamzorlashtirish masalasi sun'iy sug'orish tizimlari bilan birgalikda hal qilinishi zarur va quyidagi funksional zonalarni ajratish bilan bir maromda joylashtirilishi lozim:

- tomorqa uchastkalarining dam olish va maishiy jarayonlarni ochiq havoda bajarish uchun mo'ljallangan ko'kalamzor zonalari;

- sokin dam olish shiypolari va bolalar maydonchalarini joylashtirish uchun mo'ljallangan turar-joy binolari guruhlar uchun umumiy bog'lar;

- jamoat markazi, ishlab chiqarish zonasiga yo'naltirilgan turar-joy binolari orasidan o'tkazilgan ko'kalamzorlashtirilgan piyoda yo'lakchalari;

- posyolkaning jamoat markazida suvli yuzasi bo'lgan ko'kalamzorlashtirilgan uchastkalar;

- posyolkaning ishlab chiqarish zonasida suvli yuzasi bo'lgan ko'kalamzorlashtirilgan uchastkalar;

Voha sharoitlarida posyolkaning ko'kalamzorlashtirish tizimi yashil daraxtzorlarni hudud bo'ylab bir maromda taqsimlanishini va barcha funksional zonalardagi ko'kalamzorlashtirilgan hamjmlarning yagona uzluksiz rejali tuzilmasi tashkil etilishini ta'minlashi lozim.

Ko'kalamzorlashtirilgan zonalarni uzviy ketma-ketlikda rejali rivojlantirish va ularni ko'kalamzorlashtirilgan ko'chalar tizimiga birlashtirish usulidan foydalanish tavsiya qilinadi.

Sahro sharoitlarida posyolkalarni ko'kalamzorlashtirish, asosan, quyosh radiatsiyasidan himoya qilish tizimlaridan iborat bo'ladi. Bu tizimlar tomorqa uchastkalarini umumiy foydalanishdagi ixcham ko'kalamzorlarni bog'laydi.

Kishilarni, xususan, uylarning devorlarini yozda ortiqcha quyosh radiatsiyasi va issiqlik ta'siridan himoya qilishga alohida e'tibor qaratish lozim: quyosh radiatsiyasini 50-80% ga kamaytirilishi qiyin ob-havo sharoitlarida ham insonga salbiy ta'sirlarni muvofiq tarzda kamaytirilishiga va, hattoki, butunlay istisno qilinishiga yordam beradi.

Ishlab chiqarish va turar-joy zonasidagi barcha funksional elementlarni quyosh radiatsiyasining ortiqcha salbiy ta'siridan himoya qilish daraxtzorlar, kichik me'moriy shakllar vositasida soya-salqin joylarni yaratish orqali amalga oshiriladi.

Binolar bo'ylab piyoda yo'lakchalari va kattalar dam olishi hamda bolalar o'ynashi uchun maydonchalar yozda uzoq vaqt soya tushadigan zonalarda joylashtirish tavsiya etiladi, bunda bino devorlarini aks qaytarilgan va uzun to'liqlik radiatsiyadan kunning ikkichi qismida himoya qilish uchun maxsus ekranlovchi qurilmalar o'rnatishni ko'zda tutish lozim.

Bolalar maydonchalari va kechki hordiq uchun maydonchalarni hovli markazida, aeratsiya sharoitlari eng yaxshi bo'lgan uchastkalarda joylashtirish tavsiya etiladi. Bunda shamol kam esadigan sharoitlar uchun maydon chegaralari va inshootlar o'rtasidagi masofa 1-3 metrdan yaqin bo'lmasligi, kuchli shamollar sharoitida imoratlar bilan to'silib kuchsizlangan «ikkilamchi» shamollar ta'siri zonasida esa 5 metrdan ortiq bo'lmasligi lozim.

Havo changligini kamaytirish va tuproqlarning ustki qatlami havoga uchib ketishini qisqartirish maqsadida tabiiy tuproqlarning ochiq yuzalarini imkon qadar kamaytirish, chang hosil bo'ladigan mahalliy o'choqlarni bartaraf etish, tuproqni ortiqcha qizib ketishdan va suvli eroziyadan himoya qilish lozim.

Posyolkalar hududlarini ko'kalamzorlashtirishda asfalt qoplamali maydonlarni imkon qadar kamaytirish zarur. Issiqlik sig'imi katta bo'lmagan materiallardan tayyorlangan qoplamalardan foydalanish tavsiya etiladi:

- piyoda yo'lakchalari, dam olish maydonchalari, suzish va cho'milish basseynlari yonida – sement-beton yig'ma plitalar;

- kichik me'moriy shakllar joylashgan uchastkalarni qoplash uchun – sirlanmagan keramik plitalar va rangli betondan tayyorlangan kichik o'lchamli plitkalar;

- faol o'yinlar uchun mo'ljallangan maydonchalar, turar-joy guruhlar chegaralaridagi piyoda yo'lakchali uchun – bog'lovchi materiallar bilan ishlov berilgan shag'alli va chaqiq toshli qoplamalar;

- o'tish yo'llari, kirish yo'llari va xo'jalik maydonchalari uchun – yig'ma va sement-beton plitalar;

- sport maydonchalari uchun - bosib tashlanishga nisbatan chidamli va o't-maysalar bilan mustahkamlangan qoplamalar.

Dam olish va bolalar o'ynashi uchun mo'ljallangan maydonchalarda foydalanishga tavsiya etilgan kichik me'moriy shakllar tayanch devorlar, soya beradigan shiyponlar, issiqlik sig'imi kam bo'lgan materiallardan tayyorlangan soyabonlar, shuningdek gorizontaal va vertikal yuzalarini burish orqali soyali rejimni ta'minlovchi quyoshdan himoya qilish ekranlari kabi turli statsionar qurilmalardan iborat bo'lishi mumkin. Piyodalar yo'lakchalari uchun «P» va «G» shaklidagi galereyalardan – vohalar uchun panajarasimon shakllardan, cho'l va sahro sharoitlarida esa gorizontaal sidirg'a ekranlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Odamlar gavjum bo'ladigan uchastkalarda maxsus suvli qurilmalardan foydalanish tavsiya etiladi:

- jamoat markazlari yonida – favvorali ochiq basseynlar va suv sachratuvchi moslamalar;

- faol o'yinlar va sport bilan shug'ullanishga mo'ljallangan uchastkalarda – cho'milish va suzish basseynlari;

- ko'chalarning piyoda uchastkalari va alleyalarda – ichimlik suvli favvorachalar;

- sport inshootlari hududlarida – ochiq basseynlari, suvni changlatish va yomg'irlatish qurilmalari;

- turar-joy guruhlarining bog'larida - ichimlik suvli favvorachalari va basseynlar.

Ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish ularning dunyo tomonlariga nisbatan joylashuvini hisobga olgan holda, binolarning devorlari, trotuarlar va yo'lning qatnov qismlariga soya tushishini ta'minlash bilan amalga oshirilishi lozim.

Daraxtlar va butalarni o'tqazilishi va joylashtirilishi uylar fasadlaridagi yorug'lik oraliqlari va xonalarni yozda quyoshdan himoya qilishni, devorlar va birinchi qavatdagi xonalarni issiqlik ta'siridan saqlashi, cheklangan hajmlarda havoning optimal aylanishini ta'minlashi zarur.

Sharq, janub va g'arbga yo'nalishidagi turar-joy binolarining fasadlari bo'ylab shox-shabбалari tor piramidali ko'rinishga ega tez o'sadigan daraxtlarni past bo'yli butalar bilan bir qatorda ekilishi tavsiya etiladi. Ufqning shimoliy tomoniga qaragan fasadlar bo'ylab past bo'yli va shox-shabбалari siyrakroq daraxtlar navini ekishga yo'l qo'yiladi. Daraxtlar ekiladigan joylarni yorug'lik tushadigan oraliqlarni qoplovchi soya harakatlanishini hisobga olib turib tanlash lozim.

Guruhlar ichidagi hajmlarni ko'kalamzorlashtirish daraxtlar va butalarning yetakchi navlari tanlanishini hisobga olgan holda bajariladi, bunda imoratlarning rangi va me'moriy yechimlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Daraxtzorlarning joylashuvi daraxtlar bilan soyalangan va ochiq uchastkalar ketma-ketligini ta'minlashi lozim. Bunda quyidagi tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- sokin dam olish va o'ynash maydonchalari, stol usti o'yinlari maydonchalari to'liq soyalanadi;

- o'tish yo'llari, turar-joy binolariga kirish yo'llari yuzasiining yarmidan ko'pi soyalanadi;

Hudud sun'iy sug'orilganida turar-joy maydonlari va ko'chalarni sug'orishda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

- sug'orish tarmog'ini loyihalashtirishda relyefni hisobga olgan holda taqsimlovchi kanallar yotqizilishini imkon qadar suv ajratadigan marzalar bo'ylab bajarish;

- posyolka hududining vertikal rejalashtirilishini sug'orish kanallarini yotqizilishi sharoitlariga moslashtirish;

- baland daraxtlarni sug'orish ariqlari oqib o'tadigan zonalarda guruhlashtirilgan holda ekish;

- gulzor va gazonlarni sug'orish suv bostirish, alohida marza olingan kartalar yoki yomg'ir latish qurilmalari yordamida amalga oshirish;

- daraxt va butalarning trotuarlar bo'ylab bir qator qilib o'tqazilishini eni 2 metrdan kam bo'lmagan maxsus yo'lkalarda bajarish;

- posyolka ko'chalari, shuningdek ko'chalar va yo'llardagi ko'kalamzorlashtirilgan taqsimlovchi yo'lkalarni irrigatsiya kanali yoki yer osti sug'orish qurilmalari bilan bog'liq ravishda loyihalashtirish.

Ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishni tashkil qilish bo'yicha yuqorida ko'rib chiqilgan xususiyatlar O'zbekistondagi qishloq posyolkalarida yashash uchun qulay sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi.

XULOSA

Mazkur o'quv qo'llanmada ko'rib chiqilgan O'zbekistondagi agrosanoat integratsiyasi sharoitlarida qishloq aholi punktlarini me'moriy-rejali tashkil etish masalalari ushbu muammo murakkab va ko'p qirrali xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu muammo, Respublika, uning viloyatlari va tumanlari hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sohasida kechayotgan jarayonlarni aks ettirish barobarida, doimiy ravishda rivojlanmoqda va o'zgarib bormoqda.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasining konsepsiyasida fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi sohasidagi ishlab chiqarishning asosi sifatida ko'rilmogda. Shu sababli O'zbekistonning qishloq joylarida yirik qishloq xo'jalik ishlab chiqarish birlashmalari bilan bir qatorda mayda fermer xo'jaliklari ham tuzilayapti. Garchi, bu xo'jaliklar kichik va mayda bo'lsalarda, lekin tarkiblarida chorvachilik fermalari va qishloq xo'jalik tuzilmalari, bino va inshootlar mavjuddir. Ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng miqyosda tarqalgan va yetarlicha quvvatga ega xizmat ko'rsatish infratuzilmasi shakllanmoqda. Ushbu infratuzilma tarkibiga agrofimlar, mashina-traktor parklari, ta'mirlash ustaxonalari, tayyorlov punktlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarni qayta ishlash bo'yicha kichik korxonalar va turli sohalar faoliyat yurituvchi boshqa tuzilmalar kirgan. Ana shunday tashkiliy-iqtisodiy asoslar o'z navbatida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning tashkiliy shakllarini kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Yangi fazoviy tuzilmalar o'zidan o'zi paydo bo'lmaydi, ularning vujudga kelishiga shakllanib bo'lgan joylashuv tizimi doirasidagi aniq shaharsozlik vaziyati, muayyan shart-sharoitlar sabab bo'ladi. Joylashuvning qaror topgan shakllari va tizimlari qishloqdagi iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining bugungi kundagi tendensiyalari talablariga to'liq javob beradilar.

Ana shu holatlardan kelib chiqqan holda turli ko'rinish va hajmlarga ega bo'lgan turlicha joylashuv shakllari – aholisining soni 100-500 kishi bo'lgan mayda va 3000-5000 kishi yoki undan ortiq bo'lgan yirik qishloq aholi punktlarining mavjudligini haqli ravishda qabul qilish va ularning tuzilmalarini tashkil etish masalalariga jiddiy yondoshish talab etiladi.

Hozirgi kunda izchil rivojlanib borayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida qishloqning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti bilan bog'liq masalalar ko'لامي yanada kengayib, yangi yo'nalishlar belgilanmoqda. Misol tariqasida qishloq aholi punktlarining bosh rejalarini «donalab» ishlab chiqishdan qishloq fuqarolar yig'ini hududini me'moriy-rejali tashkil etish (HMRT) loyihasini kompleks tarzda ishlab chiqishga o'tilayotganini keltirish mumkin. Bu kabi yirik, respublika miqyosida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha eng optimal yechimlarni topishda umuman yangicha yondoshuvlar talab etiladi.

Uzoq yillar davomida tarixiy qaror topgan joylashuv tizimlarini keskin o'zgartirmasdan turib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganib va tahlil qilgan holda, joylashuvning yagona tizimida samarali faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash bo'yicha eng optimal yechimlarni topish qishloq joylar uchun bugungi kunning eng asosiy va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Kichik va mayda qishloqlarni saqlab qolish masalasi faqatgina iqtisodiy va gumanitar maqsadlardan kelib chiqmaganini ta'kidlash zarur. Tarixiy qaror topgan va shakllangan qishloq aholi punktlarining aksariyati nafaqat mustaqil madaniy-tarixiy obyektlar sifatida qadrlanadi, ular landshaftning ajralmas qismi hisoblanib, joylashgan hududlarining tashqi qiyofasini belgilab beruvchi asosiy elementlari sifatida qabul qilinadi.

Bugun qishloq fuqarolari yig'inidagi ishlab chiqarish faoliyati va ijtimoiy hayotning yangi ko'rinishlari vujudga kelgan. Qishloq fuqarolar yig'ini hududida mustaqil shaklda yoki yem-xashak tayyorlash, paxta va go'sht yetishtirish, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jalik texnikasini ta'mirlash, ishlab chiqarish, turar-joy, jamoat binolarini qurish va ta'mirlash kabi ko'pgina faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarni birlashtirgan agrofimalar tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab dehqon va fermer xo'jaliklari mavjud.

Shuning uchun ham, yangi iqtisodiy munosabatlar shakllanayotgan va rivojlanayotgan, agrosanoat integratsiyasining yangi tashkiliy-iqtisodiy shakllari vujudga kelayotgan bugungi kunda qishloq aholi punktlarini me'moriy-rejali tashkil etish kun tartibidagi eng muhim masalalarning biri bo'lib kelmoqda.

Hozir qishloq fuqarolar yig'inlarining joylashuv tizimlaridagi qishloq aholi punktlari uchun bosh rejalar sxemalarini ishlab chiqish bo'yicha yangi loyihaviy takliflarni ishlab chiqishga ehtiyoj katta. Muayyan qishloq aholi punkti uchun ishlab chiqiladigan loyiha mahalliy omillar majmuasini (tabiiy-iqlimiy sharoitlar, qishloq aholi punktining joylashuvi mahalliy tizimdagi o'rni va sh.k.) hisobga olgan holda bajariladi. Shu bilan birga, ishlab chiqilayotgan loyihalarda har bir qishloq aholi punktining tashqi qiyofasi ushbu hududning tabiiy muhiti va landshaftiga uyg'un ravishda mos bo'lib, faqat o'ziga xos betakror ko'rinishga ega bo'lishiga ham alohida e'tibor qaratish talab qilinadi. Bunda qishloq aholi punkti tarkibidagi har bir turar-joy, jamoat va ishlab chiqarish binolarining joylashuvi va o'zaro bog'lanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Qishloq arxitekturasini masalasini me'moriy muhitning bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'zgarib borishi, funksional zonalash sxemalarining nafaqat ikki o'lchamli, balki uch o'lchamli fazoviy muhitda integratsiyasi sharoitlarida hal qilish zarur. Bugungi kunda, mahalliy aholi uchun muloqot qilish joyining an'anaviy ko'rinishi hisoblangan oddiy choyxona, agar u dehqon-fermer xo'jaligining istiqomat-ishlab chiqarish zonasida qurilgan bo'lsa, atrofidagi ishlab chiqarish, turar-joy va jamoat binolaridan tarkib topgan me'moriy muhit integratsiyasini talab qiladi. Demak, qishloq binolarining turar-joy, ishlab chiqarish, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish kabi funksiyalari integrallashtirilgan tuzilmasini yaratish masalasi hal qilinishi barobarida an'anaviy qishloq uyining betakror qiyofasini ham ta'minlash talab qilinadi.

Bugunning o'zidayoq qishloq aholisining shaxsiy tomorqalardagi xo'jalik yuritishi, ijara pudrati va kooperatsiya sharoitlarida ishlab chiqarish hamda ijtimoiy-madaniy sohalardagi munosabatlarning qanday shakl, qaysi ko'rinishga ega bo'lishi masalasini belgilash zarur. Bunda har biri o'zining shaxsiy tomorqasiga ega bo'lgan turar-joylardan iborat ko'chalarning an'anaviy tizimi saqlanib qolishi yoki yer maydonlari, muhandislik inshootlari birlashtirgan qo'shni oilalarning kam qavatli komplekslari (turar-joy, xizmat ko'rsatish va qisman ishlab chiqarish funksiyalari birlashtirilgan ixtisoslashtirilgan kooperativlar) tuzilishi mumkin. Shaxsiy tomorqa xo'jaligini yuritish funksiyalari bosqichma-bosqich posyolkaning ishlab chiqarish va xomashyo zonalariga ko'chirilishi mumkinligini ham nazarda tutish lozim.

Agrosanoat qurilishi amaliyotiga ijtimoiy va ishlab chiqarish maqsadlarida birlashtirilgan ko'p funksiyali turar-joy binolarini tatbiq etish bo'yicha izlanishlar ham dolzarb masalalar qatoriga kiritilgan. Bunda qishloq joylardagi turar-joy binolari loyihalarining mahalliy sharoitlarga mos va o'zgaruvchan, kelgusida shakl va tarkibiy jihatdan rivojlantirishga mo'ljallangan turli variantlari ishlab chiqilishi talab etiladi.

Qishloq aholi punktining yon-atrofdagi qishloq landshaftiga mos bo'lgan betakror milliy qiyofasini shakllantirish masalasi asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Bu masala yechimini topish uchun milliy me'morchilikning an'anaviy yo'nalishlariga murojaat qilish, qishloq landshaftiga yanada ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi. Har bir hudud, har bir mintaqa uchun eng maqbul, eng optimal yechim va variantlarni tanlash esa, o'z navbatida, O'zbekiston me'morchiligi tarixi bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning barcha ilmiy izlanishlarini diqqat bilan o'rganib chiqish, ularni hozirgi zamon sharoitlari va qishloq muammolari nuqtayi nazarida qayta ko'rib chiqish zaruratini shartlab beradi.

O'ylaymizki, qishloq joylarga arxitektor sifatida ishlashga boradigan talabalar u yerda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish, eng maqbul yechimlarni qabul qilishga bugunni o'zidayoq tayyorlanishlari kerak.

Mualliflar ushbu kitobda taqdim etilgan materiallar O'zbekiston qishloqlarini o'zgartirish, ularni qayta qurish bilan bog'liq muammolarni o'rganish va anglashda ma'lum ma'noda yordam beradi deb umid qiladilar.

GLOSSARIY

Applikatsiya – (lotincha aplico) badiiy tasvirni yelimlash, yopishtirish orqali bajarish.

Kollaj – (fransuzcha collage) rangi bilan asosida ajralib turuvchi materiallarni yelimlash.

Ritm (marom)– elementlarning ma'lum bir maromda qaytarilib turishi.

Turar-joy – aholi joylashgan, turar-joy hududi.

Landshaft – (fransuzcha paysage) biron-bir joy tasviri

Tashqi transport hududi – temir yo'l, havo, suv va avtomobil transporti.

Tumanni rejalashtirish – mamlakat biron-bir hududida ishlab-chihariş kuchlarining rivojlanish istiqbollari va joylashtirishning ilmiy asoslangan kompleks rejasi.

Shamol guli – romb shaklida shamol kuchining asosiy yo'nalishining ifodasi. Shamol guli har oyda, har mavsumda va har yarim yil uchun tuzilishi mumkin.

Kompozitsiya – (lotincha compositio) o'z mazmuniga, vazifasi, xarakteriga ko'ra yaratilgan, badiiy asar qurilishi.

Tuzilma (struktura) – obyektning yaxlitligini ta'minlovchi qat'iy aloqalar jamlanmasi.

Nisbat – tabiatdagi uzunlik o'lchamlari bilan chizma, reja va xaritada uzunlik o'lchamlarining munosabati.

Modul – arxitektura va qurilishda majmualar, inshootlar va ularning bo'linmalari o'lchamlarining avvaldan qabul qilingan va qaytarilgan o'lchov.

Funksional hududlar chizmasi – aholi yashash hududining funksional bo'laklarga bo'linishi.

Aholi joylashuvi – aholini va uning hayot faoliyati uchun zarur bino va inshootlar jamlangan aholi yashaydigan hududlar yig'indisi.

Yerdan foydalanish chizmasi – aholi mehnat qiladigan dalalar, transport aloqalari, asosiy obyektlar ko'rsatilgan hishloh xo'jalik korxonalari hududi.

Xizmat ko'rsatish radiusi – u yoki bu obyektga yetib borish yo'lining metrlarda ifodalangan ko'rsatgich.

Agromajmua – umumiy texnologik jarayon bilan birlashtirilgan ishlab-chihariş obyektlari va shu ishlab chiharişda band bo'lgan aholi yig'indisi.

Emblema – (grekcha emblema) g'oya yoki tushunchaning shartli belgisi.

Shaharsozlik guruhi – bevosita ishlab-chiharishda band bo'lgan odamlar soni.

Loyihalashning shaharsozlik vositalari – aholi punktining hayot faoliyati elementlari.

Prognozlash – aniq rivojlanish istiqbollarinig maxsus ilmiy tekshiruvchilari.

Birlamchi kompozitsion gipoteza – tahliliy g'oya tuzish.

Tumanni rejalashtirish – Viloyat, ma'muriy tumanlar guruhi va ma'muriy tuman hududi uchun tuzilgan shaharsozlik loyiha ishlari tizimidir.

Regional aholi joylashuvi tuzilmasi deganda – Iqtisodiy tumanlar, respublika miqyosida bajariladigan shaharsozlik ilmiy-loyiha'y ishlari tizimi tushuniladi.

Shahar bosh rejasi – shahar va uning shaharoldi qismi uchun tuziladigan, 20-25 yilga mo'ljallangan shaharsozlik loyiha hujjatidir.

Aglomeratsiya – urbanizatsiya jarayonlari natijasida katta va yirik shaharlarning atroflaridagi aholi joylari bilan ishlab chiqarish, madaniy-maishiy, rekreatsion va boshqa aloqalar asosida yaxlit shaharsozlik majmuasini tashkil etish.

Megapolis – aglomeratsiyalar va urbanizatsiyalashgan tumanlar orasidagi aloqalarning kuchayishi va ularning hududiy jihatdan bir-biri bilan birikib ketishi natijasida paydo bo'lgan majmua.

Hududning tarxiy tarkibi – Turli xil xalq xo'jaligi obyektlari va tabiiy landshaft eng muhim elementlarining o'zaro bog'liq va bir vaqtda xizmat qiladigan modelidir.

